

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

5/2022

Bosh muharrir:

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Shaxzoda
Adilova Saodat
Artamonova Ekaterina
Bulatov Saidaxbor
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Kadirova Feruza
Mamadaliyev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Nishanova Zamira
Safarova Roxat
Tulenova Karima
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.



PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND
METHODICAL JOURNAL

5/2022

CHIEF EDITOR

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abdusalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

EDITORIAL BOARD:

Abdullayeva Shaxzoda
Adilova Saodat
Artamonova Ekaterina
Bulatov Saidaxbor
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Kadirova Feruza
Mamadaliyev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Nishanova Zamira
Safarova Roxat
Tulenova Karima
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

The founder: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

MOTIVATSIYA VA O'QUV-ILMIY FAOLIYAT MOTIVINING PSIXOLOGIK NAZARIYALARI

Abdullaeva Barno Sayfutdinovna, TDPU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, p.f.d., professor

Annotation. Maqolada o'quv va ilmiy faoliyatini rag'batlantirish haqida gap boradi.

Tayanch so'zlar: o'quv jarayoni, motivatsiya, motivatsiya, faoliyat, psixologiya, fan, pedagogika.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ТЕОРИИ МОТИВАЦИИ И ПОБУЖДЕНИЯ УЧЕБНО-НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Абдуллаева Барно Сайфутдиновна, проректор ТГПУ по научной работе и инновациям, д.п.н., профессор

Аннотация. В статье речь идёт о мотивации и побуждения к учебно-научной деятельности обучающихся.

Ключевые слова: процесс обучения, мотивация, побуждение, деятельность, психология, наука, педагогика.

PSYCHOLOGICAL THEORIES OF MOTIVATION AND MOTIVATIONS OF EDUCATIONAL AND SCIENTIFIC ACTIVITY

Abdullaeva Barno Sayfutdinovna, vice-rector of TSPU for research and innovation, doctor of pedagogical sciences, professor

Abstract. The article deals with the motivation and motivation for educational and scientific activities of students.

Key words: learning process, motivation, motivation, activity, psychology, science, pedagogy.

Kirish. Xulq-atvorni va faoliyatni motivatsiyasi muammosi psixologiyadagi asosiy muammolardan biridir. Motivatsiyani o'rganishda nazariy va eksperimental yondashuvlarning xilma-xilligi, birinchidan, zamonaviy psixologik maktablarning turli falsafiy oriyentatsiyalar/yo'nalishlari, ikkinchidan, bu hodisaning ziddiyatlarga to'laligi va murakkabligi bilan yuzaga keladi. Natijada «motiv» (rag'bat) tushunchasining tabiati (ma'no-mazmuni) bir xil bo'lmay, ko'pincha tabiati (xossalari, xususiyatlari) turli tuman bo'lgan hodisalarni anglatadi. Motivatsiya/rag'batlantirilganlikning mohiyatini tushunishdagi ixtiloflar/kelishmovchiliklar psixologik nazariyalarning ixtiloflari/kelishmovchiliklaridan kelib chiqadi. Biz o'z ishimizda mamlakatimiz va xorijiy psixologiyasida ushbu muammoning zamonaviy holatini va uni tadqiq qilishning an'alarini ko'ra bilish imkonini beruvchi motivatsiyaning eng nufuzli konsepsiyalariga to'xtalib o'tamiz.

Asosiy qism. Birinchi marta «motivatsiya» so'zini olim A.Shopengauzer o'zining «Yetarli sababning to'rt tamoyili» maqolasida ishlatgan. Keyinchalik bu atama inson va hayvon xatti-harakatlarining sabablarini tushuntirish uchun psixologiya fani muomalasida/muloqotida mustahkam o'mashib qoldi. V.G.Leontyev motivatsiyaning xorijiy psixologlar ishlab chiqayotgan bir necha turlarini ajratadi. Birinchi turga bioenergetik asosga ega

motivatsiya kiradi: «instinkt motivatsiyasi», «qiziqish/muhabbat motivatsiyasi», «drayv (harakatlantiruvchi kuch) motivatsiyasi». Fiziologik gomeostaz ushbu turdagi motivatsiyaning yetakchi mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Freydchilar va bixevioristlarning nazariy nuqtai nazarlari/pozitsiyalari ularning motivatsiyani organizmning faolligini anglatuvchi umumiy atama sifatida tushunishlarini va organizm o'z tabiati yoki ichki strukturasi bilan amal qiladi va belgilanishi deb tushunishlarini ko'rish imkonini beradi. Ikkinchi turga psixoenergetik asosi mavjud motivatsiya kiradi: «ehtiyot motivatsiyasi», «psixik va ijtimoiy omillar motivatsiyasi». Ushbu tur motivatsiyasi mexanizmlari juda kam ishlab chiqilgan. G'arb psixologiyasida motivatsiya haqidagi ta'limotda «ijtimoiy motivatsiya» nazariyasi jiddiy o'rinni egallaydi. Unga geshtalt-psixologiyasining vakili olim K.Levin asos solgan. U assotsiatsiyalar (qarash, voqea, hodisa, tushunchalar keltirib chiqaradigan tasavvur, fikr, tushunchalarning) faolligi haqidagi qoida/fikr/qarashga qarshi chiqib, bixeviorizmning assotsialistik mohiyatiga jiddiy zarba berdi. Uning fikricha, tarkibida yaxlitning spetsifikasi (xususiyati) saqlanib qoladigan psixikaning faqat «birliklari» faollikka ega bo'ladi. Bunday «birliklarga» u ehtiyot va motivlarni kiritgan. Olim F.Xoppening fikriga ko'ra, individ erishish uchun rejalashtiradigan maqsad sifatidagi intilishlar darajasi rag'batlantiruvchi (motivatsion) element hisoblanadi. Motivatsiyaga nisbatan intilishning/da'voning darajasi bir holatda uning kuchini oshiradigan shart (sharoit, holat) bo'lsa, ikkinchi holda esa, insonni muvaffaqiyatga yoki muvaffaqiyatsizlikning oldini olishga undaydigan shaxsiy xususiyatlari orqali (yordamida) hulq-atvorni ishga tushiruvchi/boshlab beradigan omil hisoblanadi.

G'arb psixologiyasida «muvaffaqiyatga intilish» va «muvaffaqiyatsizlikdan qochish» masalalarini J.Atkinson, D.Mak Klelland va boshqa olimlar tadqiq qilishgan. Ularning fikricha, «muvaffaqiyatsizlikdan qochishning» motivi insonning o'z oldiga yoxud bajarish shubha tug'dirmadigan juda oson vazifalarni qo'yish, yoxud bajarilmasligi muvaffaqiyatsizlik deb hisoblanmaydigan va umidsizlikka olib kelmeydigan o'ta qiyin vazifalarni qo'yishga intilishi bilan bog'liq. A.Maslou ehtiyotlarda bir necha darajalarni, jumladan, dastlab ijtimoiy darajani ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, shaxsning rivojlanishini jamiyat belgilamaydi, balki (aksincha) shaxs jamiyatga nisbatan birlamchi belgilovchi ibtido hisoblanadi. Motivatsiyaning o'ziga xos jihatlari olimlar P.Fress, J.Nyutten va boshqa Yevropa psixologlari o'rganishgan. O'z ishlarida ushbu olimlar motivatsiyani birlamchi va ikkilamchiga turlarga ajratadilar. Masalan, P.Fress «ikkilamchi» motivatsiya ijtimoiy tabiatga/xususiyatga ega, fiziologik ehtiyotlardan bog'liq emas, deb hisoblaydi. U insonni insoniyat madaniyatining turli sohalarida, shu jumladan, ijod sohasida ham atayin amalga oshiriladigan hulq-atvor va xatti-harakatlarga undaydi. G.Merfi motivatsiyani ijtimoiy determinatsiya nuqtai nazaridan o'rganadi. Xususan, motivatsiyani rag'batlar/motivlar majmui, ularning tizimi sifatida o'rganib, G.Merfi u (motivatsiya) ko'plab ijtimoiy omillardan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. G.Merfi motivatsion strukturada boshqa undaydiganlarni (undovchi omillarni) o'ziga bo'ysundiradigan: moddiy ne'matlar/boyliklar, hokimiyat va nufuz/obro'-e'tiborga intilish kabi uchta eng kuchli motiv/rag'bat/sababni ajratadi. Demak, xorijiy psixologiyada ishlab chiqilayotgan/chiqilgan turli nazariyalarning tahlili motivatsiya ko'p holda organizmning amal qilishi, o'z tabiati yoki ichki strukturasi bilan determinatsiya qilinishi/belgilanganligi, barcha tirik mavjudotlarda faollikni tanlash asosida, tashkil etilgan/uyushgan holda namoyon qilishi an'anasi mavjudligini anglatadigan umumiy atama sifatida qaralishini ko'rsatdi. Biroq, motivatsiyaning bunday talqinida noaniqliklar juda ko'p, unda hatto ko'plab Freydchilik, bixevioristik va boshqa xorijiy nazariyalarda ko'rib chiqilgan funksiyalar aks etilmaydi. Rossiya psixologiyasida ham motivatsion mexanizmlarni aniq tushuncha yo'q.

Mamlakatimiz ilm-fanida motivatsiya va motivlarni o'rganish uchun muayyan tamoyillar ishlab chiqilgan. Xususan, S.L.Rubinshteyn insonning tabiat bilan, ijtimoiy muhit bilan aloqasini (aloqadorligini) tavsiflash uchun determinizm tamoyilini qo'lladi. Olim tashqi sabablar insonning ichki shart-sharoitlari orqali ta'sir qilishini ta'kidlaydi. L.S.Vigotskiy inson hulq-atvorini aniqlash va rag'batlantirish muammosini o'rganishda, rag'batlar/motivlar

kurashi masalasiga katta e'tibor beradi. U birinchilardan bo'lib rag'bat/motiv va stimulni turtkini bir-biridan ajratishni, ixtiyoriy motivatsiya haqida gapirishni boshlagan. L.I.Ansiferova, L.I.Bojovich, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn ishlarida inson uchun ijtimoiy (muhit, omil, sharoit, shart) shunchaki tashqi emas, balki u insonning ichki tomoni/jihati bilan yaqindan bog'liq va u muayyan sharoitlarda ushbu ichki (hissiyot, oiml, tushunchalarni) yaratishga qodir. Strukturalilik tamoyili insonni va uning motivatsiyasini bevosita emas, balki ijtimoiy quyi strukturalar/substrukturalar (ijtimoiy guruhlar, institutlar/ muassasalar) o'rganish (qarash) imkonini beradi. Strukturalilik soha va rag'batning/ motivning o'zini o'zaro aloqador/bog'liq komponentlarning muayyan tizimi sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beradi: A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi deb hisoblaydi. A.N.Leontyevning fikricha, motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan obyektivlik deb hisoblaydi. Motiv - ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. S.L.Rubinshteyn: «motivatsiya – bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir».

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarini va hokazolarni mujassamlashtiradi. Motivatsiya – murakkab tuzilma faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar qorishmasi bo'lib, u o'zining mayllar maqsadlar, idealar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. Chet el psixologlari orasida A.Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi bilan mashhurdir. O'z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarining quyidagi iyerarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, havfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insonning o'z yashirin imkoniyatlarini to'laroq namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. Mashhur nemis olimi K.Levin motivlar muammosi shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng qamrovli tadqiqotlar olib borib shu narsani aniqlanganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Z.Freyd hamma motivatsion qonuniyatlarni faqat dinamik-energetik tushuncha sifatida e'tirof etishadi. Z.Freydning hisoblashicha, motivatsiya – bu energetik aspekt tajriba va reaksiyasi Braun va Farber motivatsiya energetik sifatida dinamik funksiyasi ta'limdan farqli assotsiativ boshqaruv funksiya sifatida ekanligini aniqlaganlar. Iyerarxik, darajaviy tuzilish – bu tizimlilik xususiyatiga ega bo'lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivatsion sohasining iyerarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivatsion hodisalarning boshqa jihatlari bilan aloqadorlikda o'rganish zarur bo'ladi. Motivatsion hodisalar tizimlilikini tadqiq etishda asosiy e'tibor esa bu hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S.Vaysmanning shaxs motivatsion sohasining tizimlilik haqida bildirilgan fikri alohida e'tiborga loyiq. Uning yozishicha "Motivatsion sohaning tizimlilik – motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday munosabatlardan biri iyerarxik munosabatdir. Yana bir turdagi munosabatni «ro'yobga chiqarish» munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisi ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo'ladiki, har xil ehtiyojlarining qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat «o'zaro tobelik» munosabati nomini oldi». R.S.Vaysman shaxs motivatsion sohasidan tizimli munosabatlarning juda qiziq tasnifini keltiradi. Shunday qilib, biz shaxs motivatsion sohasi haqidagi turli qarashlar, ularda tizimli yondashuv g'oyalarning aks etishi masalasini ko'rib chiqdik. Mazkur

qarashlar motivatsiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning ajralmas qismiga aylandi.

Psixolog olimlar motivatsion soha tizimlilikiga oid turli jihatlarini qayd qilinishda. Ko'pchilik psixologlar fikricha, motivatsiya muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammosidir. Shaxs psixologik tuzilishining butunligi, xulq-atvor va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o'rtasidagi aloqadorlik motivatsiya muammosini o'rganishda tizimli yondashuvni qo'llash uchun keng imkoniyat yaratib beradi. Xorij psixologlaridan nofeydistlar hisoblanmish A.Adler, K.Yung kabilar tomonidan motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalariga asosiy e'tiborni qaratamiz. A.Adlering fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi ularga erishish yo'llari manbai hisoblanadi. Xorning ta'kidlashicha, inson xulqi motivatsiyasini boshqa motivlar yordamida aniqlashi mumkin. Geshtalt psixologiyasi maktabi namoyondalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga nisbatan intilish yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890-1947) motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqib ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtalt psixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi.

Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma'noviy mazmuni esa, inkor qilinadi. K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi, muayyan muvaffaqiyatli mikrointervaldan shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivatsion o'zgarish hukm surishi tan olinadi. Geshtalt psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudkim, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. V.G.Aseyevning tadqiqotlarida motivatsion tizim masalasi ancha chuqur o'rganilgan. Uning fikricha, inson motivatsion sohasining ontogenetik taraqqiyoti davomida bu soha tizimli rivojlanishga nisbatan moyillikni namoyon etadi. Motivatsion tizimning birligi sifatida V.G.Aseyev undovchi kuchlarni qayd etilmoqda. Bu tushuncha doirasiga u motiv, ehtiyoj, qiziqish, intilish, maqsad, ideal, mayl, motivatsion, ustanovka va boshqalarni kiritadi. V.G.Aseyev turli motivatsion hodisalar mayl turlari o'rtasida tizimli munosabat mavjud deb hisoblaydi. Bunday yondashuvda motivatsion tizim komponenti mayl bo'lib hisoblanadi. Motivlar tizimi tushunchasiga berilgan ancha keng ta'riflarni adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, V.S.Morozov qayd etishicha «Shaxs motivlar tizimini uning subyektiv ehtiyojlari, maqsadlari, g'oyalari, qarashlari, tasavvurlari shuningdek, intilishlari, shakllari va boshqalar tashkil etadi». Bunday ta'rifda «tizim» tushunchasi qanday ma'noda qo'llayotgani ancha noma'lum. Uni aniqlashtirish talab etiladi. Yuqorida tilga olingan muammolar bilan shaxs motivatsion sohasining darajaviy tuzilishi muammosi bevosita bog'liq. Psixik hodisalarning darajaviy tuzilishi g'oyasi psixologiyada keng tarqalgan va tadbiiq etib kelinmoqda va bu bejiz emas, zero, darajali tuzilish haqidagi tasavvurlar turli psixik hodisalarning muayyan tizimga keltirilgan modellarini hosil qilish imkoniyatini beradi. Shaxs motivatsion sohasida o'z darajasi va murakkabligiga ko'ra turlicha bo'lgan motivatsion hodisalarning mavjudligi darajaviy tuzilishi haqidagi g'oyalarning bu yo'nalishda ham samarali qo'llash uchun sharoit yaratadi. Inson motivatsion sohasining iyerarxik darajaviy tuzilishi masalasi motivatsiya bilan bog'liq eng o'tkir va keskin bahslarga sababchi bo'luvchi muammolardan biridir. Hozirgacha alohida olingan motivatsion hodisalarning iyerarxik tuzilishi ehtiyojlar iyerarxiyasi va boshqalar tadqiq etib kelingan. Ammo barcha motivatsion hodisalarning yagona iyerarxik tuzilishi haqidagi masala yetarlicha o'rganilmagan.

Rus psixologlari orasida motivlar iyerarxiyasi masalasi A.N.Leontyev, L.I.Bojovich va boshqalar tomonidan o'rganilgan. A.N.Leontyev maktabgacha yosh davrida shaxs shakllana boshlashni ta'kidlar ekan, bu jarayon bolada motivlar iyerarxiyasi tarkib topishi bilan bog'liqligini uqtirgan edi. A.N.Leontyev fikricha, subyektning tashqi olam bilan birga munosabatlari kengayib borgan sayin motivlarning o'zaro solishtirilishi yuz beradi, buning

oqibatida esa, ular o'rtasida iyerarxik munosabatlar shakllanadi. Motivlar iyerarxiyasi olimning fikriga ko'ra, motivlar funksiyalari bilan belgilanadi. Iyerarxiyada yuqori o'rinni ma'no hosil qiluvchi funktsiyani bajaradigan motivlar quyi o'rinni esa, stimullar egallaydi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'z-o'zini qanday tutishi egallagan mavqei ham sababsiz o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada "motiv", "motivatsiya" tushunchalari ishlatiladi. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tushunishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni holati harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari ya'ni bular aynan aniq holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir. Har qanday motivlarning orasida shaxsning ehtiyojlari yotadi, ya'ni maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruriyatiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Masalan, talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qizuvchanlik, ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida masalan, bog'cha yoshidan boshlab qondirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart-sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi bola uchun motiv o'rnini bosadi.

Rus olimi R.Nemov shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi. Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lishi mumkin: biologik ehtiyojlar – fiziologik jinsiy moslashuv ehtiyojlari; ijtimoiy ehtiyojlar – bu mehnat qilish bilan estetik va axloqiy, ma'naviy ehtiyojlar. Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani unutmashimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. O'qish, o'quv faoliyati motivlari haqidagi chet el olimlarining asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilar ekanmiz quyidagilarga e'tiborni qaratish joizdir. Jumladan, nemis olimi Z.Freyd va U.Makdougall motivatsion omil sifatida hayvonlardagi organik ehtiyojlarni ya'ni instinktni odamlarga nisbatan qo'llay boshlashdi va inson fe'l-atvoriga bo'lgan qarashlar ichida birinchi nazariya sifatida maydonga chiqdi.

Inson xulqi affektiv kognitiv determinatsiyasi muammosini tahlil qila turib, kognitiv psixologiyani boshqa vakili X.Xekxouzen shunday xulosaga keladiki, faoliyat determinatsiyasi kognitiv (bilish) va affektiv jihatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan, ulardan qaysi biri rag'batlantiruvchi kuch ekanligi haqidagi savol o'z ma'nosini yo'qotmadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qish motivatsiyasining o'rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o'rganilgan. O'quv samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyasining rolini chet el olimlari o'z tadqiqotlarida tadqiq qildilar. Shu nuqtai nazardan turib, qo'zg'atuvchilardan tashqarida sodir bo'ladigan xatti-harakatlarni tushuntirish bo'yicha bir talay modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni ko'rib chiqish ichki motivatsiyaning mexanizmlarini tahlil qilishda qo'l keladi. Shunday modellardan birini Olport taklif qiladi. Olport ichki motivatsiya bilan bog'liq bo'lgan uchta motivatsion tushunchalarni tahlil qiladi; funksional avtonomiya, yetarli darajadagi harakat va «Men»ning jalb kilinganligi. U funksional avtonomiya tamoyilini faoliyat dastavval boshqa sabab bo'yicha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan holda, o'zi uchun maqsadga aylanishi holatini tushuntirish uchun kiritadi. Torndayk tajribalarining alohida tomoni ularning juda tor va cheklangan xarakterga ega ekanligidadir: ular real o'quv jarayoni bilan juda oz darajada bog'langandir. Murakkab o'quv materialini o'zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg'otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati haqida Bruner shunday deb yozadi: «Shubhasiz, masalan, mavzu o'rganilishi jihatidan qanchalik davomli va materiali jihatidan keng bo'lsa, o'quvchi shunchalik ko'p intellektual «rag'batlantirish» olishi kerakki, ana shunda u keyingi mavzuni yetarli qiziqish bilan o'rganishga kirishadi. O'quvchi uchun materialni u qadar chuqur tushunmaslik, deydik, navbatdagi sinfga ko'chish singari tashqi jihatlar

rag'batlantirish bo'lib xizmat qilgan hollarda, navbatdagi bilimlarni egallash uchun bo'lgan intilish bola sinfdan-sinfga kuchishni tark etganda, ya'ni maktabni tugatganda to'xtaydi". O'quv motivlari – bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yo'naltirishdir. Agar o'quv faoliyat o'quv jarayonida turli kishilar bilan to'g'ri muloqot qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy motivlar namoyon bo'ladi. Ba'zan o'quvchilarda bilish jarayoni, qolganlarida esa, boshqalar bilan muloqot o'qish faoliyatini motivlashtirib turadi. A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlarga ajratgan: o'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari va o'quvchining boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (sotsial) motivlar. Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o'rganilgan.

Psixologlar tomonidan o'quv motivatsiyasini salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligini ta'kidlab o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi tomonidan agar u o'qimasa, ko'ngilsizlik, noqulayliklar va noaniqliklarni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilardir. Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topadi. Motivlarning yana bir xususiyati uning vujudga kelishi tezligida ifodalanishi va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari turishi kerak. Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tayziq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq, boshqa hukmron (yetakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush noqulay vaziyatdan qochish ijtimoiy, yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaffaqiyatga erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallashda qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ruyobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi.

Chunonchi bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday xossalarga ega bo'lgan irodaviy zo'r berishlar tashqi halaqit beruvchi qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar) kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda, muloqotli vaziyatgina optimal (oqilona) deyiladi. Hozirgi davrda o'qish motivatsiyasini diagnostika qilishning boshqa yo'llari tavsiya qilinayapti: laboratoriya eksperimentlarini pedagogik tajribalar bilan (tabiiy diagnostika uslublarini qo'llash), real o'quv jarayoni sharoitida o'quvchining ijtimoiy xulqini uzoq muddat o'rganish bilan to'ldirish mumkin (A.K.Markova), bu o'qish motivatsiyasini diagnostika qilish natijalarini tekshirish sifatida xizmat qilishi mumkin deb ta'kidlaydi. P.M.Yakobson ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ijobiy yoki salbiy motivlarni tashqi motivlar deb, ta'lim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa, ichki motivlar deb hisoblaydi. Ijtimoiy motivlar ichida: keng ijtimoiy (jamiyatga foyda keltirish uchun bilim olishga intilish), pozitsiyaviy (atrofdagilarning ma'qullashiga va obro' orttirishiga intilish), o'qish davomida boshqalar bilan hamkorlik motivlari farqlanadi. O'qish motivlarini ichki va tashqi motivlarga bo'lishga kelsak, bu bo'linish funksional tabiatga ega va o'qish harakatlari va ular o'rtasidagi tuzilish jihatidan tahlil qilishni talab qiladi: ular orasida bevosita aloqa bo'lsa, tashqi motiv haqida gapirish mumkin. Bular sirasiga respublikamizda psixologiya fanining rivojlanishiga amaliy va nazariy hissasini qo'shib kelayotgan Y.M.Asadov, M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov,

E.G.G'oziyev va boshqalarning ushbu muammo yuzasidan olib borgan tadqiqotlari fanda muammoning yanada jonlanishiga turtki bo'ldi. E.E.G'oziyev tadqiqotlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash jarayonlari haqida mulohaza yuritiladi. Tadqiqotchi o'quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib psixologiya fanining kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lgan o'qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy empirik tomonlarini yoritib beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotlarida o'qish va o'qitish jarayoni uchun tavsiyanoma ishlab chiqilgan, o'z-o'zini anglash bosqichlari to'g'risida ma'lumot berilgan. A.A.Fayzullayev ilmiy tadqiqotlarida shaxsning motivatsion o'z-o'zini boshqarishning turli-tuman omillari ham aniqlangan va ko'rib chiqilgan. Bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga motivatsion boshqarishning amalga oshirish usullari va natijalariga tegishlidir. Bundan tashqari, motivatsion tuzilmalarning shaxs tomonidan obyektivlashtirish va o'z motivatsiyasini boshqarishdagi turli psixologik strategiya va usullari masalalari ham aniqlab berilgan. Sharq mutafakkirlari o'quv motivlarini ehtiyojlar nuqtai nazaridan tahlil etishga harakat qilib mazkur ehtiyojlarni hosil qilish, kuchaytirishga, asosan, o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonida bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularga imkon qadar individual yondashish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishgan.

Adabiyotlar:

1. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. - СПб.: Питер, 2000.
2. Маркова А.К., Матис Т.А. Формирование мотивации учения. - М.: Педагогика, 1990.
3. Маслоу А. Мотивация и личность. - М.: Смысл, 1998.

YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI: MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Ibraimov Xolboy Ibragimovich, O'zPFITI direktori, p.f.d., professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada keyingi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan huquqiy-meyoriy xujjatlar va ularning ahamiyati, xalq ta'limi tizimida mavjud muammolar va ularning yechimi tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: ta'lim tizimi, islohot, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, xalq ta'limi tizimi.

РЕФОРМЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ТЕКУЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ

Ибраимов Холбой Ибрагимович, директор УзНИИПН, д.п.н., профессор

Аннотация. В данной статье анализируются реформы, осуществленные в системе образования нашей страны за последние годы, принятые нормативно-правовые документы и их значение, рассматриваются существующие проблемы в системе народного образования и пути их решения.

Ключевые слова: система образования, реформа, Закон «Об образовании», Стратегия развития Нового Узбекистана, система народного образования.

REFORMS OF THE EDUCATION SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN: CURRENT PROBLEMS AND THEIR SOLUTION

Ibraimov Holboy Ibragimovich, director of Uz SRIPS, p.f.d., professor

Abstract. This article analyzes the reforms carried out in the education system of our country in recent years, the adopted legal documents and their significance, considers the existing problems in the public education system and ways to solve them.

Key words: education system, reform, Law «On education», New Uzbekistan development strategy, public education system.

Kirish. Bugun zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejizga emas. Zero, ta'limsiz, ilmsiz taraqqiyot yo'q, rivojlanish yo'q. Yangi O'zbekiston uchun yangi pedagogikaga ehtiyoj har qachongidan yuqori.

Asosiy qism. Pedagogika fani va amaliyoti o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning bir-biriga bog'liqligi pedagogikaning eng umumiy muammolaridan biridir. Bu muammolarning qay tarzda hal etilishi pedagogika fanining rivojlanishi, pedagogik innovatsiyalarning sifati va ma'rifiy sohani modernizatsiyalash borasidagi yutuqlarga, umuman olganda, yaxlit ma'rifiy tizimning samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi nutqidan iqtibos keltirish o'rinni bo'ladi: «Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Ilm-ma'rifat va yuksak ma'rifat kerak. Sharq donishmandlari aytganidek, «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!» [1], O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017 yil

7 fevral kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni [5], 2022 yil 28 yanvar kuni qabul qilingan «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni [6], «Yoshlarga oid Davlat dasturi», yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'RBQ-576-sonli qonuni [7], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6097-son Farmonlari [4] mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga, asosan, ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi [3]. Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim masalasiga alohida e'tibor berilgan. Mazkur strategiyada yettita yo'nalishdan biri sifatida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasining kiritilishini yuqoridagi fikrimizning isboti desak, mubolag'a bo'lmaydi. Taraqqiyot strategiyasidagi 37-50 maqsadlar mazmuni bevosita ta'lim tizimi bilan bog'liqdir. Bular [6]: har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish; maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish; maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish; 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish; malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish; maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish; Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash; oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish; 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash; qariyb 100 ming o'rinni talabalar turar joylarini barpo etish shular jumlasidandir. Mamlakatimizda maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning hammasini ham ilm-fanning bugungi yuqori rivojlanish darajasiga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi.

Maktabda ta'lim sifati, eng avvalo, shu maktabda ishlayotgan o'qituvchilar sifati va saviyasiga bog'liq. Zero, ta'lim sifati – o'qituvchi sifatidan yuqori bo'la olmaydi. Xalq ta'limi vazirligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublika maktablarida 504 ming nafar o'qituvchilar faoliyat yuritadi. Ularning 280 ming nafardan ortig'i, ya'ni 56 foiz o'qituvchilar salohiyati talab darajasida emas. 1 ming 695 ta maktab mukammal ta'mirga muhtoj. Afsuski, hanuzgacha 179 ta paxsadan qurilgan maktab bor. 3 mingdan ziyod maktab uchun qo'shimcha o'quv binolari zarur. 2 mingdan ortiq maktabda sport zal yo'q. Bundan tashqari, yangi massivlar barpo etilishi, qishloq infratuzilmasi kengayishi va aholi o'sishi hisobiga yana 270 ta maktab qurishga ehtiyoj bor. Tizimda hanuzgacha 200 dan ortiq hisobotlar mavjud, o'qitish, tadbirlar o'tkazish kabi jarayonlar haddan tashqari qolipga solingan. Maktab kutubxonalaridagi kitob fondi yillar davomida yangilanmagan. Atigi 615 ta maktabda milliy musiqa anjomlari mavjud. Maktablarni baholash, ularni attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish nomiga bo'lib, ta'lim-tarbiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun esa maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodikalarni yaratish zarur. Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri. Fin maktablariga kiraverishda bir shior yozib qo'yilgan «Biz bolani yoki hayotga tayyorlaymiz, yoki imtihonga. Biz birinchi yo'lni tanladik». Shuningdek, o'quv adabiyotlaridagi matn tushunish uchun «murakkabligi» va o'qitishning asosan nazariy jihatdan yo'naltirilganligi o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon bermaydi, o'qituvchilarning ijodiy yondashuvini cheklaydi. Ba'zi hollarda, tizimlilik yetishmaydi va shuning uchun boshlang'ich sinflarda olingan bilimlar yuqori sinflarda to'ldirilmaydi. Shu o'rinda Prezident ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari tajribasini qo'llash maqsadga muvofiq. Bugungi kunda 790 ta ixtisoslashtirilgan maktablarda aniq fanlar va xorijiy tillar ilg'or xorijiy tajriba asosida chuqur o'rganilmoqda. Prezident va ijodiy maktablarda ta'limga yondashuv iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va tarbiyalashga, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Mazkur maktablar o'quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o'rganish darajasini tanlab olish orqali o'quv jarayonini individuallashtirish usullaridan foydalanadilar.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktab ta'limi sifatini oshirish quyidagi choralar amalga oshirilishi lozim: ta'lim sifatini oshirish va ijodiy yondashuvni qo'llashga qaratilgan Milliy o'quv dasturiga o'tish; jamiyatda o'qituvchilarga nisbatan hurmatda bo'lish munosabatini shakllantirish, o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuzlarning oldini olish; respublikadagi barcha maktablarda Prezident, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablardagi o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llanilayotgan ilg'or tajribadan foydalanish; ta'lim muassasalarini yaxshilash faqat Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining emas, balki barcha vazirlik va idoralar, hokimliklar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi lozim; munosib ish haqi, ijtimoiy imtiyozlar va preferensiyalar bilan ta'minlash orqali o'qituvchining imidjini bosqichma-bosqich oshirish, yuqori malakali, izlanuvchan, o'zining «mahorat maktabi»ga ega muallimlarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar belgilanishi darkor; barcha umumta'lim maktablarini, ayniqsa, mamlakatimizning chekka hududlaridagi maktablarni raqamlashtirish va lozim darajada

moddiy-texnik jihozlanishini ta'minlash lozim. Fikrimizni Amerikalik kommertsant, bankir, yirik metsenat, o'z davrining eng badavlat kishilaridan biri bo'lgan Dj.Pibodining «Ta'lim – hozirgi avlod vakillarining kelasi avlod vakillari oldidagi buyuk qarzidir» degan so'zlari bilan tugatmoqchimiz. Zero, bugungi ta'limiy islohotlar naqadar oqilona va samarali bo'lsa uning natijasidan keyingi avlod vakillari albatta baxramand bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://xs.uz/uzkr/post/eng-katta-bojlik-bu-ilm-yakhshi-tarbiya-ota-qashshoqlik-bu-bilimsizlikdir> Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси нутқидан.

2. <https://lex.uz/acts/20596> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - Т., 06.03.2019 й., 03/19/527/2706-сон.

3. <https://lex.uz/docs/5013007> Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - Т., 24.09.2020 й.

4. <https://lex.uz/docs/4545884> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сонли «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - Т., 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.

5. <https://lex.uz/docs/3107036> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон.

6. <https://lex.uz/docs/5841063> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й.

7. <https://lex.uz/docs/4571490> Ўзбекистон Республикасининг "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"ги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - Т., 30.10.2019 й.

MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZ MEROSI TA'LIM OLUVCHILARNI INTELLEKTUAL MA'NAVIY VA MADANIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISH MANBAI

Safarova Rokhat Gaybillaevna,

UzPFITI «Uzluksiz ta'lim pedagogika va psixologiya», bo'limi mudiri, p.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada ajdodlarimizning shaxsni intellektual rivojlantirish, uning bilish imkoniyatlarini kengaytirish haqidagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, mazkur ta'limotning o'quvchilarni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Ulkan madaniy-pedagogik merosning bugungi kunda yoshlarga ta'lim berish va ularni tarbiyalash sohasidagi didaktik qarashlarni boyitish bilan bog'liq yo'nalishlari asoslangan. Shunga ko'ra, ushbu maqola ilmiy-pedagogik jamoatchilik, o'qituvchilar, talabalar va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: *mutafakkir ajdodlar, shaxs kamoloti, intellektual rivojlanish, bilish, ratsional bilish, aqliy bilish, emperik bilish, pedagogik ta'limot, "Axloqi nosiriy", "Axloqi muhsiniy", integrativ yondashuv, evristik suhbatlar, ustoz-shogird munosabatlari.*

НАСЛЕДИЕ ПРЕДКОВ – ИСТОЧНИК ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ДУХОВНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Сафарова Рохат Гайбиллаевна, *заведующая кафедрой «Педагогика и психология непрерывного образования» УзПФИТИ, д.п.н., профессор*

Аннотация. В этой статье анализируются педагогические возможности наших предков по интеллектуальному развитию личности, расширению ее познавательных возможностей, раскрывается значение данного учения в развитии учащихся. В основе огромного культурно-педагогического наследия лежат направления, связанные сегодня с обогащением дидактических воззрений в сфере образования и воспитания молодежи. Соответственно, данная статья служит важным ресурсом для научно-педагогического сообщества, преподавателей, студентов и исследователей.

Ключевые слова: *мыслящие предки, развитие личности, интеллектуальное развитие, знание, рациональное знание, интеллектуальное знание, эмпирическое знание, педагогическое учение, «Ахлоки носирий», «Ахлоки мухсиний», интегративный подход, эвристические беседы, отношения учитель-ученик.*

HERITAGE OF ANCESTORS – A SOURCE OF INTELLECTUAL SPIRITUAL AND CULTURAL DEVELOPMENT OF TEACHERS

Safarova Rokhat Gaybillaevna, *Head of the Department of Pedagogy and psychology of lifelong education UzSIPS, DSc, professor*

Abstract. This article analyzes the pedagogical capabilities of our ancestors for the intellectual development of the individual, the expansion of its cognitive capabilities, reveals the significance of this teaching in the development of students. At the heart of a huge cultural and pedagogical heritage are the directions associated today with the enrichment of didactic views in the field of education and upbringing of youth. Accordingly, this article serves as an important resource for the scientific and pedagogical community, teachers, students and researchers.

Key words: *thinking ancestors, personality development, intellectual development, knowledge, rational knowledge, intellectual knowledge, empirical knowledge, pedagogical teaching, «Nasirian ethics», «Muhsin ethics», integrative approach, heuristic conversations, teacher-student relationship.*

Kirish. Mutafakkir ajdodlarimiz shaxsning eng asosiy boyligi manbai bo'lgan. Tafakkumi rivojlantirishning fundamental asoslarini yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Zero, insonning

aqliy kamoloti darajasi uning fikrlash faoliyatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlilik tarixiy madaniy tajribasini tarkibiy qismi sifatida yoshlarning fikrlash ko'lamini kengaytirish asosida intellektini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar.

Asosiy qism. Bugungi kunga kelib dunyoning ta'lim rivojlangan, yangi pedagogik paradigmalariga amal qilayotgan davlatlarida o'quvchi va talabalarining ma'naviy-intellektual rivojlanishi uchun qulay madaniy muhit yaratish konsepsiyasi ilgari surilmoqda. Mutafakkir ajdodlarimiz hisoblangan Sharq allomalari esa, ushbu konsepsiyani dastlab «Avesto»da yaratganlar va ilgari surganlar [3]. Birinchi Renesans davrida nazariy, ikkinchi Renesans bosqichida esa, nazariy-amaliy jihatdan ushbu konsepsiya rivojlantirilgan va amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilgan. Boy ma'naviy merosimiz inson taraqqiyotini ta'minlovchi muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qila olishi nazariy-metodologik jihatdan asoslanganligi uchun ham bugungi kunda mazkur merosga qayta-qayta turli rakurs va kontekstlarda murojaat qilinmoqda. Insonning aqliy taraqqiyoti, bilish harakatlarining vujudga kelishi va dinamik tarzda rivojlanib faoliyat darajasiga yetishishi bilan bog'liq. Mazkur faoliyatning tizimli tarzda rivojlanishiga muayyan omillar va pedagogik shart-sharoitlar, vositalar ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning intellektual faoliyat maqsadi va manbalari yordamida takomillashuv jarayonini o'taydi. Bunga, uning bilish harakatlari usullarini o'zlashtirilganligi ko'maklashadi. Shaxsning bilish faoliyati o'zining rivojlanish darajalariga ega bo'lganligi uchun ham o'zining qiziqtirgan bilimlarini izlab topadi va kognitiv o'zlashtirishga ehtiyoj sezadi. Faqatgina bilish qiziqishlari, motivlariga ega bo'lmagan o'quvchi yoki talabalarni bilimlarni kognitiv o'zlashtirishga intilmaydilar. Ular bilimlarni o'rgangan taqdirda ham amaliy faoliyatida qo'llamasdan tezgina unutadilar. Insonda intellektning rivojlanishiga hissiy bilish, sezgilar ham samarali ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar moddiy borliqdagi voqea, hodisalarning mazmun, mohiyatini to'liq anglab yetishishlari uchun ularga hissiy bilish, idrok va tasavvur ko'maklashadi. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan tushunchalar, axborotlar, mulohazalar, xulosalar, nazariy bilimlar ratsional bilish manbai bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ratsional bilish faoliyati o'zlashtirilgan ilmiy nazariyalarga, haqiqatlarga tayanadi. O'quvchilar intellektual faollik ko'rsatish natijasida insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy va moddiy boyliklarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. O'qituvchi, birinchi navbatda, o'quvchilarning bilish faoliyatini tizimli rivojlantirishning maqsad va vazifalarini belgilab olishi lozim. Sharq allomalari, ayniqsa, naqshbandiya tariqati namoyondalari insonning amaliy kasbiy bilish faoliyatini muntazam rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu sohada ularning o'zlari na'muna ko'satganlar. Naqshbandiya tariqatining yirik namoyondalari bo'lgan yetti pirlar silsilasining har biri diniy bilimlar bilan shug'ullanish barobarida muayyan kasb-hunar bilan ham mashhur bo'lganlar. Ular hunarmandchilik, ziroatchilik va sport bilan faol shug'ullanganlar. Insonning intellektual faoliyati jamiyatdagi voqelikni chuqur tahlil qilish asosida unga o'z bahosini berishga qaratilgan. Aqliy va hissiy bilish shakllari ta'lim jarayonida birday amal qiladi. Sharq mutafakkirlari ta'lim oluvchilarning aqliy rivojlanishi dinamikasini bilish faoliyati bosqichlari bilan bog'lagan holda tavsiflashga muvaffaq bo'lganlar. O'quvchilarning anglash darajasi ularda tarkib topgan bilish faoliyatining shakl va metodlariga bevosita bog'liq. O'quvchilarning bilish faoliyati o'z xarakteriga ko'ra, aqliy hamda hissiy bilish shakllaridan iborat. O'quvchilar hissiy bilish yordamida jonli mushohadaga o'rganadilar. Ularning aqliy bilish faoliyati o'quv faniga oid tushuncha va axborotlarni o'zlashtirish, muayyan mavzu yuzasidan o'rganilgan materiallar asosida xulosalar chiqarish natijasida shakllanadi va rivojlanadi. Emperik bilish ham aqliy bilish kabi shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilish mahsuli o'quvchilarning aniq fikrlash, modellashtirish, abstraksiyalash,

farazlarni ilgari surish kabi aqliy faoliyat operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Ajdodlarimiz ta'limotiga ko'ra, nazariy bilish bilan amaliy bilish uyg'un tarzda rivojlantirilganda samaradorlikka erishish imkoniyati vujudga keladi. Integrativ bilish esa, o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni birday rivojlantirib, ularda muayyan kasbiy faoliyatga rivojlantirilgan motivatsiyani shakllantiradi. O'quvchi aqliy faoliyatini amalga oshirish jarayonida mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Naqshbandiylik ta'limoti namoyondalari ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish orqali intellektual imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratganlar. Madrasalarda tashkil etiladigan ta'lim jarayoni piru-komil va tolibi ilm bo'lgan muridlar orasidagi ta'limiy suhbatlar, munozaralar, savol-javoblarning mazmun mohiyati huddi shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan. Movlono Jaloliddin Rumiy, Muhiddin A'rabi, Ibn Moturidiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy va ularning maslakdoshlari salaf va xalafarlari hisoblangan [2]. Mutafakkirlarning pedagogik ta'limotlari, murabbiylik faoliyatlari ustoz-shogird munosabatlarining asosiy yo'nalishlari barkamollikka erishishga yo'naltirilgan.

Mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan merojnomalarda ham yoshlarni yuksalishga undash, aqliy rivojlanishlari uchun motivatsiya hosil qilish g'oyasi ilgari surilgan. Mavlono Jaloliddin Rumiy o'z hikmatlarida inson, avvalombor, qalbi va ruhini poklashi shu asosda o'zligini anglashga undagan bo'lsa, Imom Moturidiy aqida pokligini targ'ib qilishga e'tibor qaratgan [7]. Muhiddin A'rabi, Najmiddin Kubrolar inson ma'naviyatini yuksaltirish, Vatan muqaddasligini anglashni targ'ib etishgan. Naqshbandiya ta'limoti namoyondalari aql va nafs tarbiyasiga ustuvor e'tibor qaratganlar. Masalan, Boyazid Bistoniy o'z asarlarida yosh avlod kamolotida intuitsiyani o'rini asoslashga harakat qilgan. Junayd al-Bag'dodiy esa, ratsional bilish nazariyasiga tayangan holda tolibi ilmlarni aqliy hamda mantiqiy, ahloqiy jihatdan kamol toptirish yo'llarini asoslashga muvaffaq bo'lgan [1]. Ma'lumki, birinchi Renessans davrida (IX-XI asrlar) tasavvuf namoyondalari bo'lgan mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan komil inson konsepsiyasi ilgari surilib, nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa, ikkinchi Renessansda (XII-XIV asrlar) barkamol shaxsni shakllantirishning nazariy asoslari rivojlantirilib, ushbu maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaning shakllari, vositalari, yo'llari va usullari ko'rsatilgan. Bunda Shayx Xovand Tohur, Xoja Ahror Valiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Yusuf Xamadoniy, Ali Romitoni, Boboyi Samosiy, Bahouddin Naqshbandiyning xizmatlari ulkan edi. Barkamol insonni shakllantirishning amaliy asoslarini yaratishda mutafakkir shoir va yozuvchilar ham alohida jonbozlik ko'rsatganlar. Fozid Xorazmiy, Lutfiy, Jomiy, Rabg'uziy, Sakkokiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Sulaymon Boqirg'oni, Ogahiy, Munis Xorazmiy kabilar shular jumlasidandir. Mutafakkir ajdodlarimiz ta'limotida ilgari surilgan aql, nafs va fikr tarbiyasi bugungi kun uchun ham alohida dolzarflik kasb etmoqda. Sayyid Abdulkarim Geloniy, Aziziddin Nasafiylar barkamol inson konsepsiyasini ilgari surganlar [5]. Ushbu konsepsiya ularning bir qator asarlarida o'z ifodasini topgan. Mazkur allomalar tomonidan insonni barkamollikka undovchi bir qator talablar ilgari surilgan. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularda nafs-ammoraning ildiz otmasligi uchun keng ko'lamlil, ta'lim-tarbiyaviy chora-tadbirlarni qo'llash usullarini taklif qilganlar. Bu jihatdan «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi muhsiniy» pand-nasihati janrida yozilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. Fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, OTTdagi professor o'qituvchilar o'quvchi va talabalar bilan tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarda, ota-onalar esa, oila tarbiyasida ushbu asarlardan samarali foydalanishlari lozim. O'quvchilarda eng zarur hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda ulardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. O'quvchi va talaba yoshlarda bilim, ko'nikma va malaka, ijtimoiy tajribasini shakllantirish hamda uzluksiz rivojlantirishda hissiy bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki hissiy bilish

insonda idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligini ta'minlashga xizmat qiladi. Inson faoliyatining turli bosqichlariga xos bo'lgan bilish faoliyatining turlari mavjud bo'lganligi uchun ham o'qituvchilar har bir bosqichning o'ziga xos jihatlarini yaxshi bilgan holda o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini tashkil etishlari va mazkur jarayonning samarali ketishini ta'minlovchi pedagogik vositalar, usul va metodlarini qo'llay olishlari maqsadga muvofiq. Ma'lumki, o'tmishda maktab va madrasalarda muammoli o'qitish vaziyatlarni yaratish, o'yin, munozara kabi metodlardan unumli foydalanganlar. Mutafakkirlar maktab va madrasalarda tadqiqotchilik, tahlil va mutolaa, qiroatxonlik, notiqlik, qiyoslash, o'z-o'zini baholash, voqelikka tanqidiy munosabatda bo'lish, mushoira, qissaxonlik kabi o'quv-biluv harakatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishda pragmatik xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mutafakkir ajdodlarimiz ta'lim natijalarining inson hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'minlash maqsadida pragmatik topshiriqlardan unumli foydalanganlar. Chunki bunday topshiriqlar, birinchi navbatda, o'quvchilarda hayotiy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarda o'quv-biluv faolligini ta'minlashda pragmatik topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Mutafakkir ajdodlarimiz ta'lim oluvchilarda mustaqil faoliyat ko'rsatishga intilish topshiriqlarni bajarishga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga ta'lim oluvchilarni yo'naltirishga alohida e'tibor qaratganlar. Madrasalarda mudarrislar o'qish va o'rganishning tizimli xarakter kasb etishini ta'minlaganlar. Har bir ta'lim oluvchining o'z shaxsiy darajasini aniq ko'ra olishi va munosib baholashi uchun sharoit yaratilgan. Ma'lumki, o'quv motivatsiyasi bilan faollik o'zaro aloqadorlikka ega. Ajdodlarimiz pedagogik merosida qat'iatlilik, maqsad sari yo'naltirish kabi sifatlarni yoshlarda shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik ta'limot mazmunida ishontirish, tushuntirish, zarur ma'lumotlar bilan qurollantirish, o'quv motivlarining shakllanishi uchun qulay didaktik vaziyatlar yaratish, diqqatni faollashtirishga xizmat qiladigan metodlarni qo'llashga tizimli tarzda yondashilgan. O'quvchilarga ta'lim berishda mutafakkir ajdodlarimiz quyidagi o'qitish metodlaridan faol tarzda foydalanganlar: evristik suhbatlar tashkil etish, didaktik vositalardan, qulay sharoitlardan foydalanish topshiriqlarni mustaqil bajarish, o'z harakatlarni boshqalamiki bilan qiyoslashga o'rgatish, o'z harakatlarini baholash, o'z faoliyati natijalarini nazorat qilish, o'z g'oyalarni dalillagan holda himoya qilish, sinfdoshlarining mustaqil ishlarini taqrizlash, o'zi va sinfdoshlarining o'quv faoliyati natijalarini tekshirishga o'rgatish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Mutafakkir ajdodlarimizning pedagogik meroslarida o'quvchilarni intellektual jarayonini tashkil etish prinsiplariga alohida yondashilgan. Naqshbandiya ta'limoti namoyondalari ikkinchi Renessans davridayoq barkamol shaxsni shakllantirishni nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlarini tadqiq etishga harakat qilganlar. Uning asosini oriflik, ya'ni egallashga intilish tashkil etilgan. Chunki ilm ahli bo'lgan oriflar, birinchi navbatda, o'z nafsinu tarbiyalashga muvaffaq bo'lgan. Nafs tarbiyasi insonni barkamollikka undovchi asosiy omil bo'la oladi. Ko'plab yozma yodgorliklarda shaxsni kamolot sari undovchi o'gitlar tavsiyalar berilgan. «Avesto», «Urxun Enasoy», «Devonu lug'atut-turk» manbalarida bayon qilingan pedagogik ta'limotlari asosini insonni ilmu-urfon o'rgatish orqali poklash, ma'naviyatini yuksaltirish, faol hayotiy ko'nikmalarini o'rgatish orqali va uni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tashkil etadi. Ajdodlarimiz ta'lim oluvchilarning aqliy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladigan shakllar va ish turlari qo'llangan. Bugungi kunga kelib umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarixiy madaniy modellar bilan madaniy innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurati kuchaydi. Madaniy modellar o'quvchilarni

faollashtirish, ularda motivatsiya hosil qilish imkoniyatiga ega. Ajdodlarimiz o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatiga nisbatan motivatsiya hosil qilishni badiiy estetik mazmundagi o'quv materiallari hamda madaniy modellarni taqdim etishga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlarga alohida e'tibor qaratganlar. Buning natijasida ta'lim oluvchilarda o'quv jarayoniga nisbatan ijodiy emotsional munosabat tajribasi tarkib topgan. O'sha davrdagi madaniy muhitni tahlil qiladigan bo'lsak, aksariyat, yoshlarda she'riy-musiqiy hamda badiiy-tasviriy faoliyatga nisbatan qobiliyat mavjudligini ko'rish mumkin. Temuriylar davridagi, Xorazmshoxlar davlatidagi ijodiy madaniy muhit bundan dalolat beradi. Chunki, maktab va madrasalardagi ta'lim jarayonida mahsuldor-izlanuvchan muhit vujudga keltirilgan. O'quvchilarga turli o'quv operatsiyalari: tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalash, modellashtirish, konstruksiyalash, faoliyati boshlang'ich sinflardan boshlab tizimli tarzda bajartirilgan natijada ularni intellektual jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat amalga oshirilgan. O'quvchilarning intellektual-madaniy, axlohiy jihatdan rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan motivlar aniqlangan. Ta'lim oluvchilarning o'z amaliy faoliyatlari mohiyatini anglashlari va muntazam refleksiya-lashlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mutafakkir pedagoglar yosh avlodga ta'lim berish jarayonida ularning mustaqil ishlari va mustaqil bilim olishlari uchun qulay sharoitlar yaratganlar. Allomalar ta'lim oluvchilarning analitik tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar. Maktab, madrasalarda tahlil-mutolaa metodidan keng foydalanilgan, aksariyat, hollarda she'riy va nasriy asarlar darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda chuqur mutolaa qilinib, tahlil asosida har tomonlama chuqur o'zlashtirilgan. Shundan keyin mutolaa qilingan har bir asar asosida munozaralar, savol va javoblar, suhbatlar tashkil etilgan. Maktab va madrasalardagi o'quv jarayonining o'ziga xos jihatlaridan biri mavzuni ta'lim oluvchilar to'liq o'zlashtirib, zarur ko'nikma va malaka hosil qilganlaridan keyin yangi mavzu o'tilishi bilan xarakterlanishida namoyon bo'ladi. Umuman maktab va madrasalarda munozara muhokama vaziyatlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu usullar ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlash jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilgan.

Xulosa. Ajdodlarimiz ta'lim oluvchilarning produktiv, evrestik, kreativ bilishga asoslangan mahsuldor faoliyat usullarini egallashlari uchun ham qulay pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishga alohida e'tibor qaratganlar. Umuman, mutafakkir ajdodlarimiz ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning emotsional-kognitiv, irodaviy, motivatsion, mazmunli, operatsion hamda ijtimoiy operatsional komponentlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar. Mazkur qarashlarni tizimlashtirish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning aqliy, ma'naviy, axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Uvatov U. Donolardan saboqlar. - T.: Meros, 1991. - 98 b.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. - 1-kitob. - T.: Fan, 1996. - 276 b.
3. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvatnomai Sultoni; Ahloqi muhsiniy. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. - 376 b.
4. Navro'zova G. Nazar bor qadam – hayotbaxsh g'oya // Muloqot, 2003. - 39 b.
5. Nasafiy Aziziddin. Komil inson kitobi / Fors tilidan N.Komilov, O.Davlatov tarjimasini. - T, 2019. - 556 b.
6. Pedagogika ensiklopediyasi. III jild / Tuzuvchilar: jamoa. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 421 b.
7. Rumiyy J. Ichingdagi ichingdadur. - T.: Sharq yulduzi, 1995. - 3-son.

YANGI O‘ZBEKISTON POYDEVORIDAGI INNOVATSIYALAR

Bulatov Saidaxbor Sobitovich, p.f.d., TDPU professori

Annotatsiya. Maqolada yangi O‘zbekiston qurilishida tarixiy obidalarning ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *xalq, mo‘ljal, tarixiy meros, o‘rganish, talaba, o‘qituvchi, sivilizatsiya, san‘at, g‘oya, timsol.*

ИННОВАЦИИ В ОСНОВАНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Булатов Сайдахбор Сабитович, д.п.н., профессор ТГПУ

Аннотация. В статье раскрывается значимость исторических памятников в построении Нового Узбекистана.

Ключевые слова: *народ, достопримечательность, историческое наследие, изучение, студент, преподаватель, цивилизация, искусство, идея, воплощение.*

INNOVATIONS IN THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN

Bulatov Saidakhbor Sabitovich, DSc, professor of TSPU

Abstract. The article reveals the importance of historical monuments in the construction of a New Uzbekistan.

Key words: *people, landmark, historical heritage, study, student, teacher, civilization, art, idea, embodiment.*

Kirish. O‘zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o‘rganish va tahlil etish g‘oyat muhim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” ma‘ruzasida «Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma‘rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma‘naviy mulki bo‘lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir» [1].

Asosiy qism. Islom sivilizatsiya markazini qanaqa bezak qilsak bo‘ladi va uning mantiqiy yechimi to‘g‘risida me‘mor, olimlar san‘atshunoslar o‘rtasida muhokamalar paytida Prezidentimiz Samarqandda Registon maydonida Ulug‘bek madrasasiga nazar tashlab, me‘morlarga bir necha savollar berib turib, Islom sivilizatsiyasi markazini asosiy darvozasi va uning bezaklari asosida bezash kerakligi g‘oyasini ilgari suradilar hamda Ulug‘bek madrasasi peshtoqidagi bezagida nimadir mahfiy ramzlar bilan biror narsa bo‘lishi kerak? degan g‘oya berdilar, uni chuqur o‘rganish uchun O‘zbekiston Respublikasi qurilish vaziri B.E.Zokirovga topshiriq berdilar. O‘sha kuni vazir B.E.Zokirov bir qancha olimlarni va me‘morlarni yig‘ib majlis o‘tkazdilar va menga shogirdlariz bilan Ulug‘bek madrasasi peshtoqidagi bezaklarini o‘rganish uchun topshiriq berdilar hamda Botir Erkinovich bizni Samarqandga yubordilar. Prezidentimizni topshirig‘iga asosan, 2018 yil Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasini peshtoqidagi bezaklarni olti oydan ortiq vaqt davomida ilmiy o‘rganib, Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi peshtoqisida ishlangan astronomik bezakda butun

olam «kosmogonik» xaritasi tasviri, ya'ni 18 ming olam xaritasi asosida bezalganligi aniqlandi. Prezidentimizning ilmiy farazi to'g'ri ekanligi o'z isbotini topdi. Bu qashfiyotni olimlarimiz akademik A.Asqarov, arxitektura fanlari doktori professor D.Nozilov, arxitektura fanlari doktori A.Ziyayev, akademik S.Abdullayevlar o'z ijobiy fikrlarini bildirdilar va «Koinot va arxitektura» deb nomlangan monografiya nashr qilindi. «Ushbu asar, – deydi A.Asqarov [2, 4-b.], – tom ma'nodagi ezgulikni targ'ib qiluvchi ilmiy tadqiqot, chuqur mazmunli falsafiy aql hosilasi va sirli olam sirlarini ilmiy asosda ochib berishga qaratilgan noyob kashfiyotlar majmuasidir» deb baho bergan edi. Hozirda Islom sivilizatsiya markazining asosiy portali bo'lmish Ulug'bek darvozasi portaliga Prezidentning g'oyasi asosida amaliyotga qo'llanilmoqda. SH.Munavvarov rahbarligida Islom sivilizatsiya markazini binosining har bir darvozalari o'z nomlari va ramziy mantiqqa ega bo'lgan hamda surat va siyrat uyg'unligida badiiy uyg'unlikda bezalmoqda. Shundan so'ng, davlat rahbarimiz g'oyalari asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun tajribali yirik olimlar va o'nlab yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish uchun global va lokal masalalar vazifalar tizimi topshirildi. Shu olimlardan biri – yosh olim, arxitektura falsafa fanlari doktori M.Saipova bilan birgalikda Mirzo Ulug'bek qurdirgan me'moriy obidalarida, ya'ni «Zangi ota» maqbarasida, Shoxizinda kiraverish darvozasi peshtoqida, xorijda Tojimahal majmuasida va boshqa me'moriy yodgorliklarida ham olam «kosmogonik» xaritasining ramziy tasviri aks ettirilganligi isbotlandi hamda shu materiallar asosida monografiyalar, darslik va ensiklopediyalar nashr qilindi. Islom sivilizatsiya markazi bilan hamkorlikda nazariya bilan amaliyotni uyg'unlikda ish olib borilgani uchun o'nlab kashfiyotlar qilindi. Bu, albatta, Islom sivilizatsiya markazini rahbari SH.Munavvarov ko'magi va maslahati asosida moddiy va ma'naviy qo'llanilishi sabab bo'ldi. Shuning uchun me'moriy bezaklar shunchaki bezak emas, balki ma'lum mantiqqa, hikmatlar olamiga ega bo'lmoqda. Bu bezaklar va me'moriy qismlari ramziy ma'noda kitob singari o'qisa bo'ladi. Islom sivilizatsiya markazini darvozalarini nomlanishi va ularni bezaklarida mantiqiy asos borligi dunyo olimlarini lol qoldirishi tabiiy. Prezidentimiz markazga avvalgi tashrif chog'ida: «Ushbu markaz milliy tariximiz va madaniyatimizni tiklash va yanada ravnoq toptirish yo'lida yangi davrni boshlab beradi. Bu markaz Uchunchi Renessansning ilmiy poydevori bo'lishi kerak», – degan edilar. Biz, olimlarga, shunday vazifalar qo'yildiki, Islom sivilizatsiya markazi shunday san'at asari bo'lishi kerakki, dunyo olimlari ko'zi bilan qaraganda, har bir majmuani har bir qismi, bezagi, kam elementdan foydalanib, ko'p fikr bera olishi, ular o'ziga hos ramziy mantiqqa ega bo'lishi va eng zamonaviy dizaynda bezalishi, bu buyuk asar asrlar davomida o'z qiymatini va asl mohiyatini yo'qotmasligi kerak. Ushbu an'ana ajdodlarimiz tarixida iz qoldirishi kerak deb vazifa qo'yildi. Butun jahon astronomiya dunyosini larzaga solgan, olti yuz yildan ortik vakt ichida jahon olimlari tilida va dilida doston bo'lgan buyuk Sulton, benazir alloma olim Mirzo Ulug'bek hayoti, ilmiy faoliyatini o'rganish va tadbiq etish natijasida ma'lum bo'layotgan ilmiy kashfiyotlar hanuzgacha bashariyatni lol koldirmokda. Ko'plab ilmiy monografiyalar, uning siyosatchilik va iqtisodiyot sohasidagi faoliyati, ilmiy va ma'rifiy merosini o'rganish bo'yicha ochilgan jabhalar Mirzo Ulug'bekning ko'p qirrali faoliyatini ochib berish bilan birga, uning nomini mangulikka muhladi. Shunday bo'lsada, keyingi davrda Mirzo Ulug'bekning hayoti, hukmdorlik siyosati va iqtisodiy islohotlari, me'morchilik, islom dini va ma'naviyatini keng tadbiq etish yo'lidagi yangi qirralari ochilayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Keyingi yillardagi olimlarimiz tomonidan buyuk munajjimning yuqoridagi fan va ijtimoiy hayot jabhalarini yoritish ishlari obektiv – xolisona ravishda ochilmoqda. Mirzo Ulug'bek yaratgan me'moriy

yo'dgorliklariga boqsak, o'sha davrda tasviriy va amaliy san'at turlarini naqadar darajada rivojlanganligiga iqror bo'lamiz. Mirzo Ulug'bek qurdirgan rasadxonasining ichki devorlarida va shiftlarida falakiyot, yer shari, yetti iqlim bilan bog'liq bo'lgan kashfiyotlar, muhim belgi, ramz, timsol va raqamlar tasvirlari ishlangan. Bu tasvirlarni Abdurazzoq Samarqandiy quydagicha ta'riflagan: «... u oliy bunyod va ulug' sifat imoratning xonalari ichiga to'qqiz falakning hay'ati-yu to'qqiz (osmon) doiralari shakllarini darajalar, daqiqalar, soniyalardan tartib to'oshiralargacha (chizildi) hamda aylanuvchi falaklar, yetti sayyora, sobita yulduzlar ko'rinishi va yer kurrasi hay'ati-yu iqlimlar suvratlarini tog'lar, biyobonlar, ... diinazar naqshlaru, benazr raqamlar bilan» chizildi [3, 278-b.]. Mirzo Ulug'bekning do'stlari va yaqinlari orasida Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi mashhur matematik-astronomlar Ulug'bek madrasa devoriga (rasadxonada ham chizilgan bo'lgan) yetti iqlim xaritasi chizganlar. Hozirda qog'ozga yetti iqlim xaritasi ko'chirib olingan nusxasi saqlanadi. Ulug'bek madrasasi peshtoqidangi qanosidagi kompozitsiya gulli girixdan tashkil topgan. Go'yoki yulduzli osmoni inson ko'z oynasida namoyon bo'ladi. Bu yulduzlar o'ymakor koshin bo'laklaridan hosil qilingan. Giriqlar orasida mayda islimiy naqshli o'yma marmar bezaklar ishlangan. Sangtarosh ustalar qanos bezaklarida juda mahorat bilan islimiy naqshlar bilan bezatganlarki, uzoqdan ham, yaqindan ham jozibaga ega. Sakkiz qirrali yulduz – quyosh, oy, yulduz, ikki olam va uning uyg'unligi, birlik, juftlik, abadiylik, davriy harakat, koinot muvozanati, muntazam tartib, charxpalak va boshqalar ramzi. Yana jannatning ko'rinish shakli Xitoyda baxt ramzi. Bu dunyo o'tkinchiligini bildiradi. Sakkiz burchakli naqsh fransiyalik olim R.Lavat fikricha, qadimiy Shumerda osmondagi xudo ramzini ifodalagan. Bunday naqsh Markaziy Osiyoda juda keng qo'llanilib kelgan. Mazkur naqsh qadimda butun Sharqda yuqoridagi ramziy ifodaga ega. Islom dini o'rnatilgandan so'ng bunday naqsh samodagi quyosh, oy, yulduzlar ramzini ifodalay boshlagan. Sakkiz qirrali yulduz musulmon arxitektura obidalari va boshqa san'at na'munalarida sakkiz qirrali yulduz ham aks etadi. Mutaxassilar fikriga ko'ra, mazkur oktogramma arshni tutib turuvchi sakkiz farishtani anglatadi. Rasmda sakkiz raxli yulduz va uning ichida nur taralib turganligi tasvirlangan. Bu shakl sakkiz jannatning biri va undagi sakkiz darvozasiga ishora qilgan bo'lishi mumkin. Sharqda Islomda samodagi quyosh, oy, yulduzlar ramzida ifodalangan [4, 194-b.]. SH.Asqarov "San'at" jurnalidagi «O'rda» deb nomlangan maqolasida «Sakkiz qirrali minora (musamman) ma'naviy yuksalish ramzi xisoblanadi» [5]. Amir Temur va temuriylar davri arxitekturasida, asosan, ko'k, moviy va oq sirlig'ishtlar tekis yuzalarni bezatishda ko'proq ishlatilgan. Shuningdek, och ko'k, moviy, oq, sariq, qora kabi ranglardan devor naqshlarini ishlashda keng foydalanilgan. O'ymakor koshinlarni yaratishda esa ko'k, moviy, oq, kamroq yashil, sariq, qora, ba'zi joylarda qizil va tillo hal ranglardan keng foydalanilgan. Imoratlarni bezatishda ba'zida marmar plitkalaridan ham foydalanilgan. Koshinkor mozaika bezaklari temuriylar davlatiga Erondan kirib kelgan va keng yoyilgan. Ular bu yerda oldingi davrlarga o'xshab geometrik, epigrafik va o'simliksimon motivlarning sintezlashgan ko'rinishida namoyon bo'lsada, o'zining yangi badiiy sifatiga ham egadir. Ulug'bek madrasasi kompozitsiyada asosiy rang yer rangi va havo rang va oq ranglardan tashkil topgan. Yer rangi ona zaminni bildiradi. Kompozitsiyada havo rang yetakchi rang bo'lib, u koinotni bildiradi. Oq rang – nur va ruhiy poklik ramzini bildiradi. Yashil ranglarni berilishi bu tabiatni, tiriklikni, hayotni o'sish va rivojlanishini bildiradi. Oltin rang – Ziyo, ya'ni ilm rangi. Naqsh kompozitsiyalaridagi harakatlar tizimini geometrik naqsh, ya'ni girih orqali har bir sayyorani o'z o'qi atrofida harakati va sayyoralarni quyosh atrofida aylanma harakatini aks ettirilgan. Ushbu harakatlar

butun olam harakatlar tizimini tashkil etadi. Harakatlar ma'lum qonuniyatlar tartibida aylanishi hayotni bildiradi. Uning harakatlarni o'zgina o'zgarishi faqat bu sayyoraga emas, boshqa sayyoralar harakatiga ham ta'sir etadi. Rasmda sayyoralar harakati tizimi. Butun olam murakkab tuzilishga ega bo'lgan spiralsimon harakatlar tizimidan iborat. Ularning har biri o'z o'qi atrofida aylanishi nuqtalar bilan ifodalangan.

Muqaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni Karimda butun olam va uni mukammal yaratilganligi haqida shunday deyilgan: «U (yana) osmonlar va Yerning xukumronligiga ega, farzand tug'magan, podshohlikda sherigi bo'lmagan va barcha narsani yaratib, (aniq) o'lchovi bilan o'lchab qo'gan zotdir» [6]. «Rabbingiz osmonlaru Yerni olti kunda yaratgan ... – quyosh, oy yulduzlarni o'z amriga musaxxar (mute) qilib qo'ygan Allohdir» [7]. Yana «Osmonda burjlamni barpo qilgan va unda chiroq (quyosh) va nurafshon oyni paydo qilgan zod barakotli (buyuk)dir» [8]. XV asrda Registonda kurilgan barcha inshootlardan bizgacha yetib kelgani Ulug'bek madrasasidir. Uning tarixi shu yo'sindagi o'kuv yurtlarining kompozitsiyasiga xosdir. Hovli aylanasida ikki oshyonli qilib talabalar uchun hujralar kurilgan, g'arb tomonida – masjid, binoning to'rt tomoni talabalar yoz kunlari shug'ullanadigan ayvonlar joylashgan, sharq tomonida – ikki yonini yuksak minoralar egallagan, ancha ichkarilab kirgan daromad ravokning burchaklarida yulduz naqshli girih – yulduzli osmon tasvirlangan. Ulug'bek uchun bu mavzu tasodifiy emas: u hayotini falakiyot ilmiga bag'ishlagan, madrasa o'kuvchilari fanni egallashlari, ta'lim berish tartibini diniy qoyidalar doirasi bilan cheklab ko'ymaslik kerakligiga ishora kilar edi. «Intilish – har bir er va ayol musulmonning burchidir», – degan so'zlar ma'rifatparvar podshohning o'ziga xos aqidasi edi. Handasiy naqshlardan iborat girix ravoq toqning asosiy naqsh qit'alariga ajratilishi belgilaydi. Yon peshtoqlarning yirik miqyosidagi naqshlari uzoqdan kuzatishga mo'ljallangan. Ularning osuda ustida handasiy naqshli gilam to'shab qo'yilgandek. Ulug'bek madrasasi bezaklarida geometrik naqshlar, yozuvli naqshlar va o'simliksimon naqshlar egallagan. Eng ko'p ishlatilgan naqsh geometrik girix, ya'ni xandasiy naqshlardir. Xandasiy naqshlar juda katta matematik aniqlikni talab qiladi. Geometrik naqshlar borliqni hammasi aniq o'lchamga va shaklga egalliligiga ishora qilingan. Yulduzsimon naqshlarni ko'p ishlatilishini Ulug'bek bor umrini falakiyot ilmiga baxshida etganligini bildiradi [9, 100-b.]. Ulug'bek madrasasi qanosidagi bezaklarda gallaktikalarning to'rsimon bir-biri bilan zanjirsimon umumiy o'zaro tortishish kuchi bilan bog'langan cheksiz gravitatsion sistemalar tizimini, ya'ni dunyo (metagalaktika) xaritasi o'z aksini topgan. Muqaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni Karimga murojat qilamiz, «Rabbingiz osmonlaru Yerni olti kunda yaratgan... - quyosh, oy yulduzlarni o'z amriga musaxxar (mute) qilib qo'ygan Allohdir» (Qur'oni Karim, A'rof surasi. 54-oyat). Bu bilan bizning fikrimizcha, butun olamni Alloh mukammal va bir-biri bilan uzviy va zanjirsimon umumiy o'zaro tortishish kuchi bilan bog'langan. R.Dekart aytadiki, «Dunyo a'lo darajada moylab qo'yilgan mexanizm va uni kimdir harakatga keltirib turishi aniq». Metagalaktika – yulduz sistema (galaktika)lari majmui [10, 601-b.], Islomda 18 ming olam deyiladi. Mirzo Ulug'bek davrida hozirdagi teleskoplar bo'lmagan bo'lsada, o'z tasavvurida oltinchi sezgisi, ya'ni qalbdan g'oyobona butun olamni tasavvur qila olgan. Chunki inson koinot bilan doim bog'lanishda bo'ladi. Inson g'oyobona oltita yo'l bilan bog'lanadi, birinchisi – tush orqali, ikkinchisi – ilhomlanish, uchunchisi – hayol, to'rtinchisi – ibodat, beshinchisi – samo tadbiri, oltinchi – vahi orqali. Mirzo Ulug'bek madrasani me'mori – Qavomiddin Sheroziy, olimlar, ulomolar, xattotlar va naqqoshlar bilan maslahatlashib butun olam xaritasini geometrik shakllar va o'simliksimon naqshlar vositasida astrologik tasvirlashga muvofiq bo'lganlar. Mirzo Ulug'bek

fan olamida ancha ilgari ketganligi uchun ushbu naqshlardagi koinot falsafasini anglashga xalq tayyor emas edi. Shuning uchun Mirzo Ulug'bek o'z ilmiy farazini astrologik bezaklarida aks ettirgan. Ulug'bekning falsafiy g'oyasi biror bir arxitektura yodgorliklari bezaklarida uchramaydi. Ba'zi – bir arxitektura yodgorliklarida umumiy o'xshashlik bo'lsada, uning detallari mantiqan to'g'ri kelmaydi. Mirzo Ulug'bek fikr-mulohazalari va ilmiy farazlarni astrologik naqshlar orqali aks ettirishga muvofiq bo'ladi. Galaktika terminini o'rniga Al-Farobiy «Yulduzlar tumani» deb ishlatib kelingan. Bu termin Al-Farobiyning kitoblarida o'z ifodasini topgan.

Xulosa. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi peshtoqida tasvirlangan yulduzsimon shakllardagi gulli girix bezak kompozitsiyada, Mirzo Ulug'bek galaktikalarning to'rsimon bir-biri bilan zanjirsimon umumiy o'zaro tortishish kuchi bilan bog'langan, cheksiz gravitatsion sistemalar tizimini, ya'ni metagalaktika «kosmogoniya» modelini tasviri o'z aksini topganligi aniqlandi. Metagalaktikani tugallanmagan modelini berilishi esa, olam cheksizligiga ishora qilingan. Shunday ekan, islom sivilizatsiyasi markazi milliy tariximiz va madaniyatimizni, milliy o'zligimizni tiklash va yanada ravnoq toptirish yo'lida yangi davrni boshlab beradi. O'zbek millatini yuksak ma'rifati va ma'naviyatini ko'rsatish, muqaddas tariximizni o'rganish, ajdodlarimiz ilmiy merosini tadqiq etib, xalqimiz hamda dunyo ahliga taqdim etishda Islom sivilizatsiyasi markazi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bu markaz xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy qudrati timsoli bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида" қарори. 2017 йил 23 июн // Маърифат. - Т., 2017. - 24 июнь. - 50 (9011)-сон.
2. Булатов С.С., Пўлатов А.С. Кoinот ва архитектура: Монография. - Т.: Фан ва технология, 2018.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдийи ва мажмаи баҳрайн. - Т., 1969.
4. Булатов С.С., Саипова М., Халилова Ф. Миллий тимсоллар ва рамзлар энциклопедияси. - Т.: Таълим, 2018.
5. Асқаров Ш. Ўрда // Санъат. - Т., 2020. - 2-сон.
6. Қуръони Карим, Фурқон сураси. 2-оят.
7. Қуръони Карим, Аъроф сураси. 54-оят.
8. Қуръони Карим, Фурқон сураси. 61-оят.
9. Мамадазимов Т. Мирзо Улугбек даври архитектураси: Монография. - Т.: ТАҚИ, 2014.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2003.

KELAJAKNI ILMIY BILISHDA IJODNING IMKONIYATLARI

Tulenova Karima Jandarovna, TDPU professori, f.f.d.

Annotatsiya. Maqolada ijod ilmiy prognozlarni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi asosiy omil ekanligi, kelajakni ilmiy bilishda ijodning imkoniyatlari falsafiy tahlil qilingan. Ilmiy izlanishlarda ijodning imkoniyatlaridan keng foydalanish tavsiyalari yoritilgan.

Tayanch soʻzlar: *ijod, bashorat, strategiya, futurologiya, ilmiy bilish, ilmiy ijod, tadqiqot, ilmiy tadqiqot, ilmiy metodlar, taʼlim, fikrlash, dunyoqarash, shaxsiyat, ijodkorlik, jamiyat, texnika, nanotexnika, qadriyat.*

ВОЗМОЖНОСТИ ТВОРЧЕСТВА В НАУЧНОМ ПОЗНАНИИ БУДУЩЕГО

Туленова Карима Жандаровна, профессор ТГПУ, д.ф.н.

Аннотация. В статье приводится философский анализ возможностей творчества в научном познании будущего и подчеркивается значение творчества, которое является ключевым фактором в формировании и развитии научных прогнозов. Автор освещает предложения для широкого использования творческих возможностей в научных исследованиях.

Ключевые слова: *предвидение, прогнозирование, стратегия, футурология, научное познание, научное творчество, деятельность, научное исследование, научные методы, образование, мышление, мировоззрение, личность, общество, техника, нанотехника, ценности.*

POSSIBILITIES OF CREATIVITY IN SCIENTIFIC KNOWLEDGE OF THE FUTURE

Tulenova Karima Zhandarovna, professor of TSPU, DSc

Abstract. The article provides a philosophical analysis of the possibilities of creativity in the scientific knowledge of the future and emphasizes the importance of creativity, which is a key factor in the formation and development of scientific forecasts. The author highlights proposals for the wide use of creative possibilities in scientific research.

Key words: *foresight, forecasting, strategy, futurology, scientific knowledge, scientific creativity, activity, scientific research, scientific methods, education, thinking, worldview, personality, society, technology, nanotechnology, values.*

Kirish. Maʼlumki, inson oʻz ijodiy izlanishlari va bashorati asosida ham dunyoni oʻzgartiradi, ham oʻzini ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi. Yaʼni, inson oldida xilma-xil muammolar paydo boʻladi, ularni hal qilish jarayonida yechimlarini topishga intiladi va bunga erishadi. Baʼzan bunday yechimlarga nisbatan oʻziga xos betakror yondashuvlar, bashoratgʻoylik usullarini qoʻllashga toʻgʻri keladi. Chunki har bir avlod oʻzi yashagan davr musmmolarini yechishga harakat qiladi. Ijod qiladi, yangiliklar yaratadi. Davlatimiz rahbari taʼkidlaganlaridek: "Uzoq oʻtmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli gʻoya va amaliy harakatlarda oʻz ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi Oʻzbekiston tushunchasida jamuljam boldi. Irodasi, shaxdu shiddati buyuk xalqimizning bunday yorugʻ va teran orzusi jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish uchun yuksak marralarga intilayotgan xalqimizni Uchinchi Renessans gʻoyasi atrofida yanada jiplashtirmoqda. Bunga butun dunyo guvoh boʻlmoqda" [1, 19-b.]. Hozirgi zamon futurologiyasidagi bilimlar, agar nanotexnika

yutuqlarini hisobga olmasa, bundan bir necha o'n yillar ilgari ma'lum bo'lgan va o'sha paytdan beri foydalanib kelinayotgan kelajakni bilish usullari ma'lumotlardan deyarli farq qilmaydi. Futurologiya – barcha hodisalarning, eng avvalo, ijtimoiy jarayonlarning istiqbolini bashorat qilishga yo'naltirilgan fan [2, 437-b.]. Insonning kelajakni bilish imkoniyatiga shubha bilan qarar ekanmiz, bizning shubhalarimizga chek qo'yuvchi, inson kelajagini bilishga komil ishonchni vujudga keltiruvchi asosiy omil nima degan savol bizni bu borada mulohaza yuritishga chorlaydi.

Asosiy qism. Ijod - bu oldindan ko'ra bilish, olamdagi narsa va hodisalarni o'ziga xos tarzda tushunish va tushuntirishdan iborat bo'lgan murakkab hodisadir. Ijod bu shaxsiy nuqtai nazar yoki ongimizda har soniya o'tadigan mulohazalardan iborat hodisagina emas, balki u kamdan-kam hollarda inson miyasiga keladigan, ehtimol hayotda bir necha marta takrorlangan yangicha hodisadir. Ijod insonning ob'ektiv va subyektiv ro'yolikni o'zgartiruvchi faoliyatidir. "Ijod – bu, sub'ektning obyektga yo'naltirilgan faol harakatidir, bu jarayonda sub'ekt maqsadga yo'naltirilgan holda atrof-olamni o'zgartiradi, obyektiv qonunlarga muvofiq yangi, ijtimoiy ahamiyatga molik olamni yaratadi, atrof-olamga ta'sir qilib, subyekt o'z-o'zini ham o'zgartiradi". Ijod – inson tafakkuri mahsuli bo'lib, o'tmishdan rivojlanib keluvchi, bugun va kelajakni bog'lab turuvchi o'ziga xos futurologik hodisa, ruhiy faoliyat deb tasavvur qilinadi. Sababki insoniyat, ijod qilish orqali o'zligini angladi, to'la erkinlik holatida ijodiy oldindan ko'ra bilish qobiliyatini yanada rivojlantirdi. Ilmiy bashorat – fan uchun hozircha noma'lum hisoblangan, inson hayotida hali ro'y bermagan, imkoniyat darajasidagina mavjud bo'lgan biron-bir hodisaning kelajaqda qanday ro'y berishini, uning holati, rivojlanish qonunlari va oqibatlarini muayyan ilmiy dalillar, xulosalar va ma'lumotlarga asoslangan holda yuzaga keladigan ijodiy faoliyat hosilasi, ilmiy bilimning o'ziga xos shaklidir. Odatda ilmiy bashorat ikki shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Bulardan birinchisi nisbatan noma'lum, tajribadan o'tmagan, ammo real mavjud bo'lgan hodisalarni ilmiy bashorat qilish bo'lsa, ikkinchisi – kelajakda muayyan sharoitlar paydo bo'lganda vujudga kelishi mumkin bo'lgan hodisalarni ilmiy bashorat qilishdir. O'z navbatida, ilmiy bashorat ijodiy faoliyat bo'lib, tabiat va jamiyat qonunlarini noma'lum yoki hali zohir bo'lmagan hodisalarga tatbiq qilishga asoslanadi. Shuningdek, ilmiy bashoratda ehtimollik unsurlari ham mavjud bo'ladi. Bu, ayniqsa, kelajakda kerak bo'ladigan aniq-ravshan hodisalarga va ularni yuzaga kelish muddatlariga taalluqli bo'ladi. Bu, o'z navbatida, rivojlanish jarayonida ilgari mavjud bo'lmagan va sifat jihatidan butunlay yangi sababiy bog'lanishlar imkoniyatlarining paydo bo'lishi bilan bog'langandir.

Ilmiy bashorat nuqtai-nazaridan qaraganda, inson ijodiy tasavvur orqali yangi g'oyalar, real hayotda yo'q, ammo borliqda mavjud unsurlarga tayanuvchi yangi obrazlarni yaratadi. Shu ma'noda ijod jamiyat taraqqiyotini bashorat qilishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bashorat qilish jarayonida ijod inson ongida, ya'ni hayolidagi hodisalar zanjirini modellashtiradi. Bunda olim o'z tajribasiga, borliq qonuniyatlarga suyanadi. Shu yo'l bilan olamdagi modellashtirilgan voqealar zanjirining yakuniy qismi oldindan bilib olinadi. Ayni shu ma'noda ijodkor shaxs deganda yuksak qobiliyat, hayotiy tajribaga tayanadigan, istiqboldagi o'zgarishlarni oldindan teran xis eta oladigan, haqiqat va ezigulik birligini, oliy haqiqatni, adolat va rostgo'ylik mushtarakligini, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holatini, qadriyatlarni qadrlash xislatiga ega, har qanday narsaga va hodisaga yangicha nuqtai nazar, aql ko'zi bilan qaraydigan odam tushuniladi. "Ijod insonni yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarini yaratishga qaratilgan murakkab ma'naviy-ruhiy faoliyatdir, inson tomonidan tabiiy borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish faoliyati faqat ijodiy yondashuv natijasida sodir bo'ladi. Aynan, ijodkorlik faoliyati orqali inson tabiatdan ajralib chiqdi va uni o'ziga bo'ysundirdi" [3, 146-b.], – deb yozadi A.Azizqulov. Ushbu rang-barang ta'riflar ijodning murakkab hodisa ekanini, uning ilmiy bashorat bilan bog'liq jihatlari hali to'la va mukammal o'rganib chiqilmaganini ko'rsatadi. Ijodkorlarning fikricha, olamdagi narsa va hodisalar

tabiatidagi muqobilliklarni ko'ra bilish va shakllantirish, fantaziyani ifodalay olish, savol bera olish va yuzaki izohlardan qochish, qunt, mustaqil pozitsiya, tavakkal qilish, o'rganilayotgan muammoga katta qiziqish ham daholarga xos tabiiy xususiyatdir. Falsafiy adabiyotlarda ijodga, umuman, ijodning kelajakni bilish bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilishda turlicha talqinlar beriladi va bu mazkur muammoga yondashishda farqlar borligini ko'rsatadi. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, aksariyat manbalarda ijod – insonning yangi moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarini yaratishga qaratilgan murakkab faoliyat turi ekanligi e'tirof etiladi. Uning hususiyati, inson faoliyati natijasi bo'lib, hali mavjud bo'lmagan narsalar haqida fikr yuritish, boshqalardan farqli o'zgacha ko'rish, boshqalar ko'rmagan bilmagan narsani bilish ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ilmiy ijod muammosini bir qator fanlar o'z nuqtai nazaridan hamda o'z uslub vositalari va talablaridan kelib chiqib tahlil qiladilar. Texnika ijodiyoti, ishlab chiqarish sohasidagi ijodiyot, ijodning san'atga, siyosatga xos ko'rinishlari va ilmiy ijodiyot shular jumlasidandir. Ularning barchasi umumiy ma'noda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lib ijodning u yoki bu turi orqali ma'lum tafakkur jarayonini ifoda etadi. Bashoratgo'ylik o'tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi boshqa odam yoki odamlarga taalluqli bo'lgan yashirin hodisalarni aytib berish kabi g'oyibona idrokka va ijodga asoslanadi. Shuningdek, bashoratgo'y zamon va makondan tashqaridagi sirli hodisalarni ijodiy tarzda ifodalashga harakat qiladigan ezoterik shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bashoratgo'ylik – insonning zamon va makondan uzoqlashgan odamlar, predmet va hodisalarni idrok qila olish qobiliyati hamdir. Kelajakni ko'rish fanda – prekognitsiya, o'tmishni ko'rish esa, retrokognitsiya deb ataladi [4]. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan odamlar zarur ma'lumotni olish uchun o'ziga xos hissiyot va ongini o'sha tomonga yo'naltirishadi. Shuning uchun ham bashoratgo'ylarning asosiy qismi hodisalarni turli vaqt o'chamlarida ko'ra oladilar. Ular kelajakda nimalar sodir bo'lishi mumkinligini bashorat qiladilar. Ayni vaqtda bashorat insonga xos uzoq yoki yaqin o'tmishni ko'ra olish xususiyatidir. Fikrni masofadan uzatish, masofadan turib fikr bilan boshqalarga ta'sir o'tkazish, hujjatlarni o'qish, kompyuterni boshqara olish qobiliyatlari bunday insonlarda katta qiziqish uyg'otadi. Buyuklik o'z-o'zini yaratadi va hatto oldindan bashorat qiladi. Buyuklar hayotdan qoniqmaslik ruhi bilan yashaydi. Jamiyatdagi nazariyalar, tashabbuslar, fikrlar va hatto istiqboldagi rejalar, loyihalar ularga doim ma'qul kelavermaydi. Natijada har qanday tushkin vaziyatda ham ruhan tushkunlikka tushmaydilar. Chunki ularda oldindan ko'rish qobiliyati yuksak darajada rivojlangan bo'ladi. Ayni shu ma'noda Erkin A'zam "Ijod – bu o'zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma'noda fidoyilik demakdir" [5] deb yozadi. Chunki aynan izlanish, ijod, xayol, aqlni charxlash ularga huzur-halovat baxsh etadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, olamdagi predmet va hodisalarning o'tmishda va hozirgi davrdagi holati, o'zgarish va rivojlanish obyektiv qonunlarini o'rganish asosida ularning kelgusi holati istiqboli to'g'risida biron-bir fikrni ilgari surishda ijodning o'rni muhim. Ijod – ilmiy bashoratni rivojlantiruvchi omil, u sivilizatsiya taqdiri insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, dunyoqarashning markaziy muammolaridan biridir. Shu ma'noda, unga umuminsoniy ma'naviy madaniyat rivoji nuqtai nazaridan qaralmog'i maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021.
2. Falsafa. Qomusiy lug'at. - T.:Sharq, 2004.
3. Azizqulov A.A. Ilmiy ijodiyotda ratsionallik va noratsionallik: konseptual tahliliy yondashuvlar: Dis. ... fals. fanl. nomz. - Samarqand, 2007.
4. https://iPhras.ru/uplfile/root/biblio/pj/pj_4.pdf
5. Erkin A'zam. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor // Tafakkur. - T., 2009. - 3-son.

KORRUPSIYA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI YARATILISHINING EVOLUTSIYASI

Qobilov Sharif Raximovich, *O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professori, polkovnik*

Annotatsiya. Ush maqolada O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning hukuqiy va institutsional asoslari yaratilishining evolution haqida suz boradi.

Tayanch suzlar: *huquq, adolat, konun barqarorligiga, manaviyat, ahloq, yimon, etiqod, korrupsiya, korrupsiya qarshi hulq-atvor.*

ЭВОЛЮЦИЯ СОЗДАНИЯ ПРАВОВЫХ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ

Кобилев Шариф Рахимович, *профессор Академии МВД Республики Узбекистан, полковник*

Аннотация. В статье исследуется эволюция создания правовых и институциональных основ противодействия коррупции.

Ключевые слова: *право, справедливость, приоритетность закона, духовность, честность, добропорядочность, нравственность, вера, убеждение, коррупция, антикоррупционное поведение.*

THE EVOLUTION OF THE CREATION OF THE LEGAL AND INSTITUTIONAL BASIS OF THE FIGHT AGAINST CORRUPTION

Qobilov Sharif Rakhimovich, *academy of the Ministry of Internal affairs of the Republic of Uzbekistan professor, colonel*

Abstract. The article examines the evolution of the creation of legal and institutional foundations for combating against corruption.

Key words: *law, justice, priority of law, spirituality, honesty, integrity, morality, faith, conviction, corruption, anti-corruption behavior.*

Kirish. O'tgan davrlarda «korrupsiya» buzuqlik va ma'naviy tubanlik kabi ma'nolarni anglatgan. Hozirgi kunda unga shaxsiy foyda ko'rish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish deb, qisqa ta'rif beriladi. Korrupsiyaning asosiy sababi – inson fe'liga xos xudbinlik bo'lgani bois, biz korrupsiyani boshqalardan farqli o'laroq xulq-atvorning patologik shakli sifatida qabul qila olmaymiz, zero, o'zi haqida qayg'urish barcha insonga xosdir. Biroq, «korrupsion xulq-atvor vasvasasi» jamiyatda iste'molchilik kayfiyatining tarqalishi bilan kuchayib, bu insonda o'z shaxsiy moddiy manfaatlarini, davlat va xalq manfaatlaridan ancha yuqoriroq qo'yishda namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. BMT tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy xavfsizlikka doir tadqiqotlarda xavfsizlikni ta'minlash masalasida insonga alohida o'rin ajratiladi. BMT ekspertlarining 1994 yildagi «Inson taraqqiyoti bo'yicha hisoboti» to'laligicha iqtisodiy xavfsizlik muammosiga, ya'ni inson xavfsizligi – qadr-qimmat mavzusiga bag'ishlanganligi [1, 35-b.] ham bejiz emas. Korrupsiya insonning qadrsizlanishiga olib keladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun so'nggi yillarda davlatimiz korrupsiyaga qarshi kurash masalalariga izchil va tizimli e'tibor qaratmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2021 yilning avgustida chop etilgan «Yangi O'zbekiston strategiyasi» kitobining «O'zbekiston va umumbashariy muammolar» bo'limida "Korrupsiyadan holi dunyo – umumbashariy orzu»

mavzusida korrupsiya muammosi har tomonlama tahlil etilgan [2]. Bugun Yangi O'zbekistonni suveren respublika, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat sifatida barpo etish mamlakatimizdagi barcha kuch va imkoniyatlarni birlashtirishni taqozo etadi. Yangi O'zbekiston orzusi amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini ertaga emas, aynan bugun ko'rishga intilayotgan, jonajon Vatanimizning, albatta, dunyoning rivojlangan 50 ta davlatlari qatoriga kirishiga astoydil ishongan, xalqimiz hayotini, buguni va ertasini erkin va farovon qilishni o'zining eng ulug'vor vazifasiga aylantirgan jahonning teng huquqli subyekti sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonning shiddati, jahonda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarning rivojlanish evolyusiyasi Yangi O'zbekistonni marrani baland olishini taqozo etmoqda. Boshqa yo'l bo'lishi ham mumkin emas edi. Inson orqaga tisarilsa, uni yo'lda chetga chiqarib tashlash oson kechadi. Buyuk maqsadlarga erishishga korrupsiya to'sqinlik qiladi. Korrupsiya – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadigani, inson huquqlari buzilishiga olib keladigan, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladigan, hayot sifatini yomonlashtiradigan va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hodisadir.

Kirish. So'nggi yillarda ta'lim sohasining raqamlashtirilishi, o'quv jarayonini avtomatlashtirish, elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanilishi masofaviy va aralash malaka oshirish tizimini yangi yondashuvlar asosida takomillashtirishga undamoqda. Jahon miqyosida 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida «... butun hayot davomida sifati ta'lim olishga imkoniyat yaratish» vazifasi belgilangani qo'yilgan masalalarning dolzarbligini oshiradi. Bu borada malaka oshirish tizimini tinglovchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishga qaratish maqsadida har bir tinglovchining individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishi orqali butun kasbiy faoliyati davomida uzluksiz malakasini oshirishiga sharoit yaratish uchun pedagogik diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Diversifikatsiya zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan mexanizmlardan biri sifatida, amaldagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida yangi

texnologiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. «Diversifikatsiya» atamasi (lat. diversificatio – o'zgarish, xilma-xillik, taraqqiyot) birinchi marta 1950 yillarida iqtisodiyot sohasida paydo bo'lgan bo'lib, yuqori samaradorlikka erishish maqsadida qo'llanilgan. Ta'lim sohasida esa, 1960 yillar oxirlari 1970 yillarning boshlarida G'arbiy Yevropada qo'llanila boshlangan [6].

Diversifikatsiya ta'lim tizimida qo'llanila boshlangandan boshlab, bir qator olimlar tomonidan uning maqsadini aniqlashtirish, mazmun-mohiyatini ochib berish, ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.V.Bagin diversifikatsiyani jahon ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy davrini tavsiflovchi ijtimoiy-pedagogik hodisalardan biri sifatida ifodalaydi va bu ta'lim tizimidagi inqirozdan chiqish yo'llarini izlash, shaxsga yo'naltirilgan yangi ta'lim paradigmasini shakllantirish, moslashuvchanlikni oshirish, jamiyatning o'zgaruvchan talablarini o'z vaqtida inobatga olishga imkon yaratadi deb hisoblaydi [2], N.V.Lebedeva diversifikatsiya yangi qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim xizmatlarining yangi turlari, o'qitish shakllari variativligiga erishishga xizmat qilib, natijada o'qitish shakllarini mustaqil tanlash orqali individual ta'lim trayektoriyalar asosida ta'lim olishga sharoit yaratadi deb hisoblaydi [4; 15-b.], Ye.Ya.Serdyukova, T.V.Yakovenko tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa, diversifikatsiyalashning asosiy omillari sifatida quyidagilar qayd etiladi: kasbiy-pedagogik ta'lim mazmunini fundamentalashtirish va metodik darajada fanlararo aloqalami chuqurlashtirish; innovatsion pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan pedagogik va texnologik bilimlarni integratsiyalash; uzluksizlikni ta'minlash; ta'limni raqamlashtirish; ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari manfaatlarini uyg'unlashtirish vositasi sifatida keng ijtimoiy sheriklik asosida kadrlar tayyorlash profillarini kengaytirish [5].

Ilmiy-nazariy manbalarning tahlillari va konseptual yondashuvlardan ko'rish mumkinki, tadqiqot predmeti doirasida masofaviy va aralash malaka oshirishni diversifikatsiyalash ta'limning institutsionallashtirilgan va institutsionallashtirilmagan turlarini o'zaro integratsiyalash orqali amalda qo'llanilishi tinglovchilarning salohiyati, ish tajribasi, kasbiy ehtiyojlari asosida kurslarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi va, o'z navbatida, tyutorlik faoliyatining ahamiyatini oshiradi.

Darhaqiqat, tadqiqot davomida prokuratura organlari xodimlarining malakasini oshirish tizimini masofaviy va aralash ta'lim asosida samarali diversifikatsiyalashda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati muhim ekanligi aniqlandi [6]. Sababi, tyutorlar masofaviy va aralash malaka oshirish jarayonida tegishli o'quv modullar bo'yicha tinglovchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, yo'naltirish, baholash va nazorat qilish, metodik yordam ko'rsatish va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishga mas'ul sifatida quyidagi vazifalarni bajarish zaruriyati to'g'ri. Jumladan, masofaviy va aralash malaka oshirishda o'quv dasturlarni majburiylik va elektivlik yondashuvlari asosida tabaqalashtirish hamda tinglovchilarga malaka oshirish shakllari va o'quv modullarini mustaqil tanlash orqali individual ta'lim trayektoriyasi bo'yicha uzluksiz malaka oshirish imkoniyatini yaratish, shuningdek, malaka oshirish sifatini oshirish va tyutorlar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida tinglovchilarga modullar doirasida tyutorlarni tanlash imkoniyatini yaratish talab etiladi.

Shuning uchun masofaviy va aralash malaka oshirish tizimini samarali diversifikatsiyalash tyutorlik faoliyati bir qator konseptual tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Jumladan, ochiqlik tamoyili asosida masofaviy va aralash malaka oshirish jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda ta'lim jarayoni kirishning erkinligini ta'minlash, variativlik tamoyili asosida tinglovchilarning salohiyati, ish tajribasi, kasbiy ehtiyojlari, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos bo'lgan tabaqalashtirilgan modullar asosida ta'lim olish imkonini yaratish, moslashuvchanlik tamoyili asosida tinglovchilarga malaka oshirish kurslari va muddatlarini mustaqil tanlash, uzluksizlik tamoyili asosida mustaqil ravishda tinglovchilarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda malaka oshirishning kasbiy faoliyati uzluksizligini ta'minlashga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diversifikatsiyalashgan masofaviy va aralash malaka oshirish sharoitida faoliyat

yuritish uchun tyutorlar ko'nikmasiga ham alohida quyidagicha talablar qo'yiladi:

raqamlashtirilgan ta'lim muhit talablari asosida tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini, shu jumladan, tizimli tahlil va tanqidiy fikrlash, shaxsiy va ishchanlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish;

prokuratura organlarida faoliyat yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda masofaviy va mustaqil ta'lim olish uchun elektron ta'lim resurslarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllantirish va muntazam takomillashtirish;

majburiy va elektiv modullarni ishlab chiqish va tinglovchilarga ularni mustaqil tanlash orqali individual ta'lim trayektoriyasi asosida uzluksiz malaka oshirishiga imkoniyat yaratish;

videokonferensaloqa va boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali mashg'ulotlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida olib borish hamda nazariya bilan amaliyotning mustahkam uyg'unlashuvini ta'minlash;

nazorat ishlari mezonlarini ishlab chiqish va topshiriqlarni xolislik bilan baholash, tegishli izohlar yozish, tavsiya va ko'rsatmalarni berish;

andragogika talablari asosida katta yoshdagilarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Mazkur talablar diversifikatsiyalashgan masofaviy va aralash malaka oshirish sharoitida tyutorlarning tegishli modullar doirasida tinglovchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, maqsadga yo'naltirish va ularga metodik yordam ko'rsatish, nazorat qilish ishlarini samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Masofaviy va aralash malaka oshirish tizimini samarali diversifikatsiyalashda tyutorlik faoliyati muhim omilligi malaka oshirish o'quv modullarini majburiylik va elektivlik yondashuvlari asosida tabaqalashtirish, tinglovchilarga malaka oshirish shakllari va modullarini mustaqil tanlash orqali individual malaka oshirish trayektoriyasini shakllantirish va uni amalga oshirish jarayonini qo'llab-quvvatlash hamda malaka oshirish sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida tinglovchilarga modullar doirasida tyutorlarni tanlash imkoniyatining yaratilishi bilan izohlanadi.

Адабиётлар:

1. Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

2. Багин В.В. Диверсификация как механизм реализации стратегий развития системы дополнительного профессионального образования. Интеграция образования. - М., 2006. - № 2. - С. 66-72.

3. Ибраймов А.Е. Масофавий ўқитишда тьюторлик фаолиятини ташкил этишнинг асослари: Услубий қўлланма. - Т.: Lesson press, 2020. - 181 б.

4. Лебедева Н.В. Диверсификация дополнительного профессионального образования специалистов социальной сферы // Высшее образование сегодня. - М., 2017. - № 2. - С. 15-18.

5. Сердюкова Е.Я., Яковенко Т.В. Диверсификация как тенденция обновления профессионально-педагогического образования // Профессиональное образование в России и за рубежом. - 2021. - С. 67-71.

6. Ситдикова Г.Р. Диверсификация системы повышения квалификации преподавателей иностранных языков в контексте международной интеграции: Дис. ... канд. пед. наук. - Казань, 2016. - 450 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH

Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich, p.f.n., TDPU dotsenti

Annotatsiya. Maqolada raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini taqomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy mohiyati, turlari, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, natijalarini tahlil qilish bosqichlari va tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash shartlari haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

Tayanch so'zlar: *tajriba-sinov, pedagogik tajriba, laboratoriya tajribasi, aniqlash tajribasi, formativ tajriba, statistik tahlil, tajriba samaradorligi.*

**ОРГАНИЗАЦИЯ ОПЫТНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ
ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Мамаражабов Мирсалим Элмирзаевич, к.п.н., доцент ТГПУ

Аннотация. В статье рассматривается информация о проведении научных исследований, направленных на совершенствование профессионально-педагогической подготовки будущих учителей в условиях цифровизированного образования, показан основной характер и виды опытно-экспериментальной работы, этапы организации опытно-экспериментальной работы, этапы анализа результатов и условия определения эффективности опытно-экспериментальной работы.

Ключевые слова: *экспериментальный тест, педагогический эксперимент, лабораторный эксперимент, идентификационный эксперимент, формирующий эксперимент, статистический анализ, экспериментальная эффективность*

**ORGANIZING EXPERIMENTAL TESTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE
PROFESSIONAL PEDAGOGICAL PREPARATION OF FUTURE TEACHERS**

Mamarazhabov Mirsalim Elmirzaevich, Ph.D., Associate Professor, TSPU

Abstract. The article discusses information on conducting scientific research aimed at improving the professional and pedagogical training of future teachers in the context of digitalized education, the main nature and types of pedagogical experiments, the stages of organizing experiments, the stages of analyzing the results and the conditions for determining the effectiveness of experimental tests.

Key words: *experimental test, pedagogical experiment, laboratory experiment, identification experiment, formative experiment, statistical analysis, experimental effectiveness*

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini taqomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va ularning natijalarini tahlil qilish, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy sohasiga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Asosiy qism. Pedagogik tajriba-sinov ishlari bu tadqiqot obyekti to'g'risida keng

qamrovli bilimlarni qamrab oladigan usullar majmui hisoblanadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning asosiy vazifasi tadqiqot davomida ilgari surilgan g'oyani, olingan ilmiy yangiliklar va amaliy tavsiyalarni amaliyotdagi tatbiqini tajribada sinab ko'rish va tadqiqot obyektida ko'rsatilgan rivojlanish nazariyasini tahminiyl isbotlashdir. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadiga asoslanib, uning asosiy vazifasi ilgari surilgan ilmiy bilimlarning haqiqatga mosligini aniqlashdir. Ko'pchilik tatqiqotlarda bu pedagogik tajriba-sinov usuli deb yuritiladi.

Ya'ni pedagogik tajriba-sinov usuli – tadqiqot obyektidagi keltirilgan imkoniyatlarning namoyon bo'lishini maqsadli o'rganishdir. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni amaliyotda qo'llashning turli tashkiliy jarayonlarini aniqlash, o'rganish va tahlil qilishni amalga oshiriladi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy mohiyati ilgari surilgan g'oyaviy jarayonlar, nazariyalar va mexanizmlarni aniq bir o'quv jarayoniga faol tatbiq qilishdan iborat.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining bir necha turlari mavjud: [2]

Tabiiy pedagogik tajriba. Bu oldindan rejalashtirilgan, ya'ni raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini taqomillashtirishga qaratilgan model, g'oya va ta'lim texnologiyalari bo'yicha tajriba tabiiy sharoitda amalga oshiriladi. Tajriba-sinov ishlarida natijalar tavsif shaklida ifodalanadi.


Laboratoriya tajribasi. Bu maxsus tanlangan, bo'lajak o'qituvchilarning fanlar bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlariga mos tarzda jihozlangan kompyuter xonalarida o'tkaziladi. Unda bo'lajak o'qituvchilarning raqamli texnik va dasturiy vositalari asosida raqamli kontentlar yaratish kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Aniqlash tajribasi. Bu tajribaning asosiy maqsadi: raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini dastlabki holatini o'rganish, mavjud haqiqiy holatini aniqlash va xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Bunda kasbiy pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik mehanizmlarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar, kamchiliklar va mavjud holatlarni tasdiqlash ishlari bajariladi. Tajriba-sinov ishlari davomida olingan ma'lumotlardan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning ichki mexanizmi va xususiyatlarini o'rganish uchun asos sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

Formativ tajriba. Tadqiqot obyektida ko'rsatilgan muhim sifatlar, jarayonlarni bevosita ularning shakllanishi va rivojlanishidagi o'zgarishlarni tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, unda raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning turli xususiyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Ya'ni, bu tajriba turining asosiy vazifasi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari rivojlanish dinamikasini o'rganishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularning natijalarini taxlil qilish bosqichlari quyida (1-rasmda) keltirilgan:



1-rasm. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalarni taxlil qilish bosqichlari

1-bosqich. Ushbu bosqichda muammo aniqlanadi, tadqiqot obyekti va mavzusining dolzarbligi, uning asosida ilmiy ishning maqsadi va vazifalari belgilanadi. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan nazariy g'oyalar (model)ni tajriba-sinovdan o'tkazish asosida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Tajriba-sinov ishining dolzarbligi. Respublikamizda raqamlashtirish sohasida qabul qilinayotgan qaror va farmonlarni ijrosini ta'minlash maqsadida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli savodxonligini va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z kasbiy pedagogik faoliyatida qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'zda tutilgan tadqiqotda ilgari surilgan g'oya va mexanizmlarni pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish va ularning natijalarini tahlil qilishga qaratilgan quyidagi vazifalar belgilab oldi: tadqiqot ishida ilgari surilgan g'oyani tajriba-sinovdan o'tkazish uchun ta'lim muassasalari va (tajriba va nazorat) guruhlarini tanlab olish; tanlab olingan ta'lim muassasalarining guruhlarda raqamlashtirilgan ta'lim sharoitidagi kasbiy pedagogik tayyorgarligidagi muammolarni aniqlash, raqamlashtirishga qaratilgan integrativ texnologiyalardan foydalanishda tadqiqot g'oyasiga mos muhitini yaratish, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligida o'rni, imkoniyatlari, psixologik-pedagogik aspektlari tahlil etish; raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishda innovatsion,

tizimli, axborotli-integrativ yondashuvlardan unumli foydalanishning ilmiy-nazariy aspektlarini o'rganish va asoslash; raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan model asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar va mexanizmlarni amaliyotda joriy etilishini asoslab berish; raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan integrativ texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni innovatorlik, mutaxassislik, innovatsion va pedagogik faoliyatga yo'naltirish orqali kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga erishish; olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi davomida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga, kelajakdagi faoliyatini samarali tashkil etishga hissa qo'shadigan ta'lim resurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha kuzatishlar olib borish, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, olingan natijalar statistik tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi [1].

V.P.Simonovning «Pedagogika i psixologiya visshey shkoli» nomli o'quv qo'llanmasida [3] pedagogik tajriba-sinov ishlari bir nechta bosqichlarda tashkil etilganligi asosida qo'yidagi uchta bosqichga ajratildi:

1-bosqich. Ushbu bosqichda muammo aniqlanadi, tadqiqot obyekti va mavzusining dolzarbligi, uning asosida maqsad va vazifalar belgilanadi.

2-bosqich. Pedagogik eksperimentni bevosita o'tkazish. Ushbu bosqichda tadqiqotchi pedagogik amaliyotga u kiritgan yangi vosita va usullar to'g'risidagi savollarga javob olishi kerak. Buning uchun tadqiqotchi turli xil eksperimental vaziyatlarni yaratadi, ularning mohiyati o'rganish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni shakllantirishdan iborat. Pedagogik tadqiqotning ikkinchi bosqichida tadqiqot samaradorligi va olingan ma'lumotlarning ishonchlilikiga bevosita ta'sir qiladigan bir qator muammolarni hal qilish kerak: eksperimentning dastlabki shartlarini aniqlash va o'rganish; fanlar guruhlariga tavsif berish; taklif etilayotgan eksperimental tizimning samaradorligi mezonlarini shakllantirishni amalga oshirish; eksperiment ishtirokchilariga ko'rsatmalar berish (shartlari, qoidalari, tartiblari va boshqalar bilan tanishish); ma'lum bilim, ko'nikma, fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan, ishlab chiqilgan dasturni (loyihani) amalga oshirish va h.k.; eksperiment o'tkazish orqali oraliq natijalarni aniqlashni amalga oshirish; shakllantirish tajribasini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish.

3-bosqich. Yakuniy bosqichda eksperimentni qayta ishlash va baholash amalga oshiriladi: tadqiqotning birinchi bosqichida qayd etilgan boshlang'ich darajani va shakllantirish tajribasini amalga oshirgandan so'ng, yakuniy darajani taqqoslash; eksperiment o'tkazilgan sharoitlarning xususiyatlari, ayniqsa, tadqiqot natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan daqiqalar qayd etilgan; ko'rsatkichlar o'zgarishi dinamikasi tahlil qilindi; umumlashtiruvchi xulosalar shakllantiriladi, amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tajribaning samaradorligi uchun bajarilishi lozim bo'lgan shartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: tadqiqot obyekti dastlabki nazariy tahlilini amalga oshirish; tadqiqot gipotezasini konkretlashtirish, uning yangiligini, qarama-qarshiliklarni an'anaviy qarashlar bilan taqqoslash; eksperimental vazifalarni aniq shakllantirish, natijalar,

hodisalar, vositalar va boshqalar baholanadigan belgilar va mezonlarni ishlab chiqish; minimal zarur, ammo yetarli miqdordagi tajriba obyektlarini to'g'ri aniqlash; tajriba materiallaridan olingan xulosalar va tavsiyalar mavjudligi, ularning an'anaviy, odatiy yechimlardan ustunligini aniqlash.

Xulosa. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish pedagogik faoliyatni modellashtirishni nazarda tutadi. Pedagogik tadqiqotlarni o'tkazar ekanmiz, asosiy maqsadimiz ta'lim samaradorligi oshirish. Bu ilmiy ish qilayotgan tadqiqotchilarning yillar davomida olib borgan, o'rgangan, tahlil qilgan va tadqiqotlarini amaliyotga joriy qilgan ishlarining natijasini yoritib beradi. Bu natijalar orqali tadqiqotchining ilmiy ishining dolzarbligi qanchalik ochib berilganligini ko'rish mumkin. Har bir tadqiqotchi o'z ilmiy ishining necha foizga oshganini aniq matematik-statistika orqali ko'rsatib berishi lozim. Bu natijalar orqali tadqiqotchilarning ta'lim samaradorligi oshirishga qo'shgan o'z xissalarini natijalardan olingan foizlar farqida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Президентнинг «Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида» 2019 йил 27 августдаги ПФ-5789-сон Фармони: lex.uz
2. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований: дидактический аспект. - М.: Просвещение, 2012.
3. Симонов В.П. Педагогика и психология высшей школы. Инновационный курс для подготовки магистров: Учебное пособие. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2015. - 320 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARBIVAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, *TDPU professor v.b., pedagogika fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Maqolada innovatsion texnologiyalaridan foydalanish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni tashkil etish, talabalar fikrini erkin taqdim etish hamda samarali natijalarga erishish imkoniyatlari bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: *innovatsiya, ART texnologiya, ta’lim, standart, samara, maxsus, uslubiy, natija, imkoniyat, tarbiyaviy faoliyat.*

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Вохидова Норпошшахон Хабибуллаевна, *и.о.профессора ТГПУ, кандидат педагогических наук*

Аннотация. В статье изложены возможности организации подготовки будущих учителей к образовательной деятельности на основе использования инновационных технологий, свободного представления мнения студентов и достижения эффективных результатов.

Ключевые слова: *инновация, арт технология, образование, стандарт, продукт, специальный, методический, результат, возможность, воспитательная деятельность.*

FUTURE TEACHERS PREPARATION FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES INNOVATIVE TECHNOLOGIES OF IMPROVEMENT

Vohidova Norposhshaxon Xabibullayevna, *professor of TSPU, candidate of pedagogical sciences*

Abstract. The innovationist technology based on the introduction of foidalanish suggests that educational activity is a preparation for the formation of ethish, requiring erkin’s opinion in order to give itosh, together with the fruit of natijalarga erishish, the opportunity to express ethylgan.

Key words: *innovation, art technology, education, standard, product, special, methodical, result, opportunity, educational activity.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli, 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli «Yoshlarni ma’naviy, axloqiy va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni o‘qitish va tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda yangi O‘zbeksiton yoshlarini tarbiyalash masalalariga alohida ahamiyat berish zarurligi ta’kidlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-

sonli farmonida «Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash» [1, 70 modda] kerakligi uqtililadi. Bu vazifa bo'lajak o'qituvchilar zimmasiga yuklatilishi, oliy ta'lim tashkilotlari mutaxassislarni ana shu faoliyatga maqsadli, tizimli tayyorlashini taqozo etadi. Bu tayyorgarlik ko'p tarmoqli bo'lib, ulardan biri bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat bo'lib, texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ularning mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, kreativ fikrlash, fikrini erkin taqdim etish hamda tarbiyaviy faoliyat sir asrorlarini o'rganishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda uning jarayonni tashkil etishdagi imkoniyatlari xususidagi fikrlarga e'tibor qaratdik. «Pedagogik texnologiyalar – aniq maqsad asosida ushbu maqsadning natijasini ta'minlovchi pedagogik faoliyat» [2], «Pedagogik jarayon bu o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan jarayon bo'lib, u shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish, unga ta'lim-tarbiya berish vazifasini» [3] bajaradi deyilgan muallif ta'riflari hamda YuNESKO tashkilotining: «Pedagogik texnologiya – ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanib, bilimlar o'zlashtirilishining eng maqbul jarayoni» deb ta'riflashi, bizning texnologiyalardan bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda foydalanish sifatli natijani kafolatlaydi degan fikrimizni tasdiqladi.

Bizning fikrimizcha, tarbiyaviy faoliyatda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar – tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish algoritmi bo'lib, mazkur algoritim tarbiyaviy faoliyatdan ko'zlangan aniq maqsadni bajarishga va amalga oshirishga qaratilgan yo'l, usul va vositalar majmuasidan tashkil topadi.

Tarbiyaviy faoliyat jarayonida zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish shaxsda xulq atvoriga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, tartibli xatti-harakatlarni amalga oshirish odatlarini hosil qilish; axloq odobga oid tushunchalarni o'zlashtirish; jamiyatda o'rnatilgan tartib va qoidalarga rioya qilish haqida tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tarbiya texnologiyalaridan foydalanishda I.Xarlamovning fikriga ko'ra: «Tarbiya texnologiyalarining mazmuni tarbiya jarayonidagi ziddiyatlar va kamchiliklarni aniqlashi, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishi; tarbiyalanuvchilarda shakllanadigan sifat mohiyatini anglashga qaratilgan bilish faoliyatiga jalb qilishi; roli va xulqiy tarkibiy qismlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi; to'g'ri xatti-harakatni mashq qildirish, uni mustahkamlash» – kabi jihatlarni e'tiborga olish zarur. Bizningcha, tarbiyaviy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida talabalarni maqsadga qaratilgan jarayonda faol ishtirokchi bo'lishini, ya'ni faoliyat mazmuni subyekt-subyekt munosabatlariga qurilishi hamda ular tomonidan tashkil etiladigan tarbiyaviy faoliyatda natijaga erishishni ta'minlovchi instrumentdir.

Biz tadqiqot mobaynida «Pedagogika nazariyasi va tarixi» fanini o'qitish jarayoniga quyidagi mavzulardagi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etdik: «Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari», «A.Navoiyning pedagogik qarashlari», «Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya», «A.Navoiy merosida axloq tarbiyasi masalalari». Ma'ruza mashg'ulotida «Insert jadvali»dan foydalanish talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida olgan ma'lumotlarini, eshitgan ma'ruzalarini tizimlashtirishni ta'minlab, olgan ma'lumotlarini tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish, avval o'zlashtirgan ma'lumotlar bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berdi. Buning uchun ma'ruza talabalarga matnni o'qib chiqib, matndagi fikrlarga «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z munosabatlarini bildirish so'raldi. «V» – men bilgan narsani tasdiqlaydi; «+» –

yangi ma'lumot; «-» - men bilgan narsaga zid; «?» - meni o'ylantirdi, menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

1-jadval

"Insert jadvali"dan foydalanish					
№	Tushunchalar	V	+	-	?
1	Al-Xorazmiy axloqga oid asar yaratgan				
2	A. Avloniy sharqning yetuk allomasi				
3	Tarbiyaviy faoliyat ta'limiy faoliyat bilan uyg'un				
4	O'zbekistonda milliy tarbiya asoslari yaratilgan				
5	Tarbiyada oila va maktab hamkorligi bo'lishi shart				
6	Axloq tarbiyasi nafosat tarbiyasidan farq qilmaydi				
7	Maktab tarbiyaning asosi hisoblanadi				
8	Afinada eng ko'rkam va barkamol inson deb ham jismon, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishilarni hisoblaganlar				
9	Tarbiya jarayoning muhim bo'g'ini oiladir				
10	Al-Xorazmiy axloqga oid asar yaratgan				

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda tahlil malakalarini rivojlantirish, o'zlashtirilayotgan materialning ayrim qismlaridagi mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilish maqsadida «Venn diagrammasi» sidan foydalanildi. «Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya» mavzusini o'rganilib, temuriylar davri namoyondalarining asarlari tahlil qilindi. Mazkur tahlil natijasida, talabalar o'zlashtirilgan nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillar qiyosiy tahlil etildi, xulosalar ishlab chiqildi.

Seminar mashg'ulotida munozarani tashkil etishda «T-chizma» grafik organayzeridan foydalanildi. «T-chizma» munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash – zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer sifatida talabalar tomonidan «Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda an'anaviy metodlar» hamda «Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda noan'anaviy metodlar» qiyosiy tahlil qilindi.

2-jadval

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda an'anaviy yondashuvlar	Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar

Mazkur tahlil asosida bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish haqidagi bilimlari mustahkamlanishi bilan bir qatorda, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda texnologiyalardan foydalanishning avzallik jihatlari yaqqol ko'rsatadi hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda ulardan foydalanish haqidagi fikrlarimizni tasdiqladi. Shuningdek, tadqiqotda ART texnologiya imkoniyatlaridan ham foydalanildi. Art texnologiyasi (ingliz tilidan – 'san'at, mahorat') yangi istiqbolli zamonaviy ta'lim yo'nalishi bo'lib, uni turlicha tasniflarini ko'rishimiz mumkin. T.V.Jukova art texnologiyasini turli xil san'at turlari shakllari, usullari va vositalari to'plami bo'lib, ta'lim oluvchilarda shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan jarayon deb tasnifladi, I.M.Kungurova faoliyatda ko'zlangan pedagogik maqsadga erishish uchun san'at vositalaridan foydalanish deb tasniflaydi. M.Libman inson ruhiyatini, uning dunyoqarashi tuzilishini o'zgartirish uchun ijodkorlik va tuzatish amaliyotini birlashtirishga qaratilgan usul deb ta'riflaganlar.

Biz art texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bir turi sifatida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda san'at va folklor namunalariidan maqsadli

foydalanish deb qaradik. Tadqiqotda art texnologiyasining metodlari bo'lgan musiqiy, teatr va tasviriy san'at pedagogikasi, ertak terapiyasi, foto kollaj va boshqalardan foydalanishga harakat qildik. Bunda muloqotga erkin kirisha olmaydigan talabalar uchun nutqni rivojlantirishga qulay sharoitning yaratilishi; zo'riqish holatida bo'ladigan talabalarda samarali ijobiy munosabatni ta'minlanishi; undagi ijobiy «men-kontseptsiya»ni shakllantirish hamda talaba tomonidan yaratgan mahsulotni tan olish kabi imkoniyatlar yaratildi.

«Pedagogika nazariyasi va tarixi» fanida «Mehnat va iqtisodiy tarbiya» mavzusini o'rganish jarayonida bolalarga mehnat va iqtisodiy tarbiya berishda folklor san'atining ertak va maqol janrlaridan foydalandik. O'zbek xalq ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidagi cholning o'g'illariga qarata «Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi» – degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa, qimmatbaho kamarini ko'rsishi, kenja o'g'ilning: «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor», – deb bergan javobi natijasida otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldirganligi haqidagi fikri vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surilganligi, shuningdek, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi haqidagi g'oyalardan foydalanildi. Masalan: daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar. Oltin o'tda bilinar, odam mehnatda.

Mehnatda do'st ortar, g'iybatdan dushman kabi maqollaridan foydalanildi. Mazkur ertak matni, maqollarda ilgari surilgan g'oyalardan foydalanish ma'ruza matnini milliy madaniy meros bilan boyitishi bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarga o'quvchilarni mehnat va iqtisodiy tarbiyasini amalga oshirishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Art texnologiyasidan foydalanish: bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyati va shaxsiy salohiyatini kengaytirish; bo'lajak o'qituvchilarning reflektor qobiliyatlarini rivojlantirish; tarbiyaviy faoliyat jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan pedagogik muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini berdi.

Xulosa. Mazkur texnologiyalardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda alohida o'rin tutishini qayd etgan holda ulardan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi: bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik texnologiya asoslari haqidagi nazariy bilimlarni berish asosida ularda texnologiyalardan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish; bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan ijodiy va texnologik yondashuvning qaror toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; pedagogika fanidan ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda va maxsus loyiha asosida tashkil etish borasidagi tajribalarni targ'ib etish; pedagogika fanidan ma'ruza, seminar mashg'ulotlarini texnologik yondashuv asosida doimiy tashkil etilishiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli qarori.
2. Гуслова М.Н. Инновационные педагогические технологии. - М.: Академия, 2010. - 288 с.
3. Толіпов О'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbqiqiy asoslari: O'quv qo'llanma. - T.: Fan, 2006. - 264 b.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INTELLEKTUAL-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Abduvaliyeva Dilsora Nodirjon qizi, TDPU dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda maxsus seminarlarning ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: *oliy ta'lim tashkilotlari, bo'lajak o'qituvchi, evristika, ijod, hamkorlik.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Абдувалиева Дилсора Нодиржон кизи, PhD, доцент ТГПУ

Аннотация. В данной статье представлена информация о развитии интеллектуальной творческой компетентности будущих педагогов в высших учебных организациях. Также раскрывается значение специальных семинаров в развитии интеллектуально-творческой компетентности учителей.

Ключевые слова: *высшее образование, будущий учитель, эвристика, творчество, сотрудничество.*

**PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL
AND CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

Abduvalieva Dilsora Nodirjon kizi, PhD, associate professor of TSPU

Abstract. This article provides information on the development of intellectual creative competence of future teachers in higher educational institutions. The significance of special seminars in the development of the intellectual and creative competence of teachers is also revealed.

Key words: *higher education, future teacher, heuristics, creativity, collaboration.*

Kirish. Mamlakatimizda 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorning 1-bandida yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash vazifasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shuning uchun ham yoshlarning, oliy ta'lim tashkilotlaridagi bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ham davr talabidir.

Asosiy qism. Oliy pedagogik ta'lim mazmuni tarkibida nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlashning maqsadi: pedagogik faoliyatga kirish, ta'lim va pedagogik tafakkur tarixi, pedagogika nazariyasi, tarbiya nazariyasi va metodikasi, maxsus psixologiya asoslari bilan ijtimoiy va korreksion pedagogika, pedagogik texnologiya, ta'lim tizimlarini boshqarish kabi bir qator pedagogik fanlar orqali amalga oshiriladi.

Pedagogika fanlarining mazmuni shu qadar bir-biri bilan bog'langanki, ularning integratsiyasi, ya'ni alohida qismlarning bir-biriga bog'langanlik holatiga, ularning bir

butunlikka yaqinlashishiga olib keluvchi jarayon yagona to'g'ri va zaruriy yo'ldir. Olima T.A. Stefanovskaya bunday yaqinlashishning optimal variantini quyidagi formulada ko'radi: muammoning tarixi – uning nazariyasi – nazariyani amalga oshirish metodikasi. Pedagogika fanlarini o'rganishning bu mantig'i takrorlanishga yo'l qo'ymaslik nazariyaning samaradorligini ko'rish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik tamoyilini amalda amalga oshirish imkonini beradi, pedagogik mehnatning o'nlab yillar davomida tajriba to'plashni kutmasdan, faoliyatda kasbiy bilimlarni yangilash imkonini beradi [2, 6-b.].

Oliy ta'lim tashkilotlarida maxsus seminarlar va amaliy topshiriqlar talabalarning kasbiy o'sishiga qiziqishlari va ularning intellektual-ijodiy tayyorligiga xizmat qiladi. Masalan, fakultetlarda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy mustaqil rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi «O'qituvchi ijodining pedagogikasi va psixologiyasi» maxsus seminarini o'tkazish mumkin. Maxsus seminarining mavzulariga quyidagi bo'limlar kiritilishi mumkin: «Shaxsning madaniyat ko'zguqidagi ijodi», «Pedagogik ijodning mohiyati va o'ziga xosligi», «Pedagogika ilmi va ijod», «Tarbiyachining pedagogik ijodi», «O'quv jarayonini optimallashtirish va pedagogik ijod». Amaliy topshiriqlar va pedagogik mehnatga ijodiy tayyorlikning psixologik-pedagogik treningi maxsus seminar ishining amaliyotga qaratilgan yo'nalganligini ta'minlaydi.

Umuman, maxsus seminar bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish muammosi haqida keng tushuncha beradi va bu pedagogik mehnatga kasbiy-ijodiy tayyorlikni shakllantirishga yordam beradi. Fakultetlarda o'quv va ilmiy ishlar birligini amalga oshirish bilan, har bir kafedra talabalarni tadqiqot izlanishlari bilan tanishtiradi. Masalan, «Pedagogik faoliyatga kirish», «Pedagogikaning umumiy asoslari» kabi seminarlarni o'rganishda talabalar izlanish xarakteridagi vazifalarni bajaradilar. Shuningdek, «Psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari praktikum bilan» maxsus seminar o'qitiladi. O'rganish jarayonida talabalarga mustaqil kuzatishlar uchun muayyan vazifalar beriladi: maktab guruhida qabul qilingan elementar axloqiy-estetik meyorlarni va ularni tarbiyachi uchun maqbul yo'nalishda o'zgartirish mumkin bo'lgan yo'llarini tasvirlash; sotsiometrik matritsa va sotsiogramma tuzish, sinfda bolalar o'rtasidagi munosabatlarni batafsil tasvirlab berish; sinfdagi nizoli vaziyatlar, ularning sabablari va ularni bartaraf qilishning mumkin bo'lgan yo'llarini tasvirlash; sinfda bolalarning yaxshi va yomon moslashuvi sabablarini ko'rsatib berish; yaxshi va yomon o'qituvchining tasvirini berish.

Talabalarning tadqiqotga tayanishi o'quvchilar bilan olib boriladigan barcha ishlarida chuqur iz qoldiradi, pedagogik hodisalarga tahliliy yondashuvni, kasbiy qiziqishni, tanqidiy fikrlashni, pedagogik nazariya va ilmiy pedagogik ijod uchun didni shakllantiradi. O'quvchilarning intellektual-ijodiy tayyorlashni optimallashtirish yo'llaridan biri bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlanganlik darajasini chuqurlashtirishdir. Shuning uchun, «Pedagogik faoliyatga kirish» seminari bo'yicha birinchi ma'ruzadayoq tadqiqotchi-pedagog pedagogika oliy ta'lim tashkilotlariga kirish sabablarini, hozirgi vaqtda o'qitishni motivlarini, xususan, kognitiv, ijtimoiy, muloqot yoki mustaqil ta'lim olish, axloqiy yoki egoistik va hokazo motivlarning qaysisi yetakchi ekanligini ko'rsatish orqali aniqlashtirib olishi lozim.

O'quvchilarning bilish faoliyati motivlariga tayangan holda propedevtik pedagogik mashg'ulotlarida tadqiqotchi-pedagog bo'lajak pedagogik ishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga, bo'lajak kasb uchun uning ahamiyatini ko'rsatishga, qo'yilgan o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish va hal etish uchun mas'uliyatni tarbiyalashga

harakat qiladi. Maxsus ma'ruzalar yakunida o'tkaziladigan so'nggi ma'ruzada tadqiqotchi-pedagog o'qilgan ma'ruzalarning mazmuni va metodikasiga doir ijobiy va salbiy jihatlarni, shuningdek, talabalarning ma'ruza va seminarlarni o'tkazish bo'yicha istaklarini o'rganish maqsadida anketa so'rovnomasi o'tkazadi. Talabalarning taklif va tavsiyalaridan kelib chiqib, ularning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tadqiqotchi-pedagog keyingi mashg'ulotlarni tashkil etish shakllarini talabalar bilan birgalikda tanlaydi. Talabalarga pedagogika bo'yicha «Ishchi daftarning» metodik tavsiya va ko'rsatmalari yordamida o'zlari ishlab chiqsa bo'ladigan dars mavzusini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi. Har bir mashg'ulot uchun muayyan bir talabalar «ishchi» guruhi mas'ul bo'lib, talabalar dars shaklini tanlaydilar. Masalan, musobaqa, ishbilarmonlik o'yini, matbuot anjumani, loyihalar ustida ishlash, pedagogik vazifalar, vaziyatlar va boshqalarni tanlaydilar. Natijada, bularning barchasi ularning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, har bir talabaning tashabbuskorligi va mustaqil faoliyatini rivojlantiradi.

Talabalarni o'quv-ijodiy tayyorlashni optimallashtirishning yana bir xususiyati oraliq va yakuniy nazoratning turli shakllaridan tajriba tarzda foydalanishdir. Masalan, talabalarga imtihon topshirishning bir necha variantlari taklif qilinadi: a) bilet bo'yicha og'zaki (oldindan tayyorlanib olish bilan); b) bilet bo'yicha yozma ravishda; v) bir vaqtning o'zida uch nafar talaba bilan savollar bo'yicha suhbat. Aksariyat talabalar uchinchi variantni tanlaydilar. Tadqiqotchi-pedagog muhokama uchun muammo taklif qiladi, uch talabaning har biriga savol beradi va bunda talabalar bir-birlariga javob berish, to'ldirish, aniqlashtirish, isloh qilish va berilgan savol yuzasidan o'z nuqtai nazarlarini bildirishlari mumkin. So'ngra har bir talabaning javobini qanday baholash, taklif etilgan bahoni asoslash sharti bilan birgalikda qaror qilinadi. Bundan tashqari, imtihon paytida talabalarga tajriba o'tkazuvchi o'qituvchisi imtihon oldidan ko'rib chiqadigan va o'zlari tuzgan javob rejalari va qo'llab-quvvatlash sxemalaridan foydalanishga ruxsat beriladi. Bunday yondashuv talabalarni fikrlashga undaydi: o'quv materiali mazmunida asosiy, muhim tomonni ajratish, olingan bilimlarni tasniflash va tizimlashtirish, talabalardan moslashuvchan, nostandart fikrlashni talab qiladigan eng yaxshi yechimni tanlash, ularni pedagogik harakatlarda andoza olishdan xalos qilish imkonini beradi, bilim jarayoniga ijodiy yondashuvni, qabul qilingan pedagogik qaror uchun mas'uliyatni ishlab chiqadi. Shuningdek, pedagogik to'garaklar, pedagogik mahorat musobaqalari, pedagogik olimpiadalar, uzluksiz pedagogik amaliyot, pedagogika nazariy kursini o'rganish talabalarning ijodiy mustaqilligini, bo'lajak pedagogik faoliyati uchun qiziqishini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Talabalarning seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga mustaqil tayyorlanishlari uchun o'qituvchilar o'quv materialni unda asosiy qismi va qo'shimcha ma'lumotlarni aniq ajratgan holda sinchiklab tanlab oladilar, mavzuga oid asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ko'rsatiladi, darslar uchun tarqatma materiallar tayyorlanadi. O'qituvchilar talabalar mustaqil o'rganishlari uchun taqdim qilingan mavzular bo'yicha ma'ruzalar ishlab chiqdilar, ular kompyuterda teriladi va har bir talaba mahalliy kompyuter tarmog'iga: psixologik-pedagogik ma'lumotlar bankiga kirish orqali kerakli o'quv materiali bilan ishlashi mumkin bo'ladi.

Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy qilish va yuqori natijalarga erishish talabalarning kasbiy ta'limiga ijodiy yondashishdan dalolat beradi. Talabalarning berilgan mavzudagi ilmiy-tadqiqot ishlari tadqiqotchi-pedagogning har qanday tematik ekskursiyasining majburiy elementi bo'lgan va bo'lib qoladi. Mashg'ulotlarni bunday tashkil qilish kichik guruhlarda ishlashda va talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishni individuallashtirishga yordam beradi. O'quv jarayonini optimallashtirishda

tadqiqotchi-pedagoglar talabalarning mashg'ulotlarda kompyuter laboratoriyasidagi ishlaridan keng foydalanadilar. Bu mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish, turli darajadagi ijodiy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar faqat o'quv mashg'ulotlari vaqti doirasida cheklanmaganliklari tufayli qoniqarli natijalarga erishishlarining imkonini beradi. Gumanitar va aniq fanlar o'quv fanlar orasidagi aloqani amalga oshirishda, o'qituvchilar rus tili darslarida ham, matematika darslarida ham nutqni rivojlantirish muammolariga alohida e'tibor qaratishlari lozim. O'qituvchilar talabalar bilan birgalikda dars qismlarini ishlab chiqadilar, ko'rgazmali va didaktik materiallarni tayyorlaydilar, tayanch sxemalarini, mashg'ulotlarni o'tkazish algoritmini tuzadilar va ijodiy albomlar tuzadilar. Masalan: «O'zini va o'zaro nazorat qilish», «Son va raqamlar», «To'g'arak ishi», «Matematika darsligi sahifalari ortida».

Intellectual-ijodiy tafakkurni va ta'lim faniga nisbatan kasbiy qiziqishni faollashtirish uchun o'qituvchilar jamoaviy ishning turli metodlari va shakllaridan foydalanadilar: «Grammatika bo'yicha breyn-ring», viktorinalar, QVZ, mini-nazorat ishlari, mantiqiy-grammatik vazifalar, test topshiriqlari va boshqalar. Bu esa, tadqiqotchi-pedagoglardan fanlar bo'yicha sinfdan va darsdan tashqari ishlarni ko'p bajarishni talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish maqsadida quyidagi maxsus seminarlarni o'tkazish mumkin: «Pedagogik evristika» seminarida mahsuldor tafakkur asoslari, individning ijodiy o'zini rivojlantirish kabi o'ziga xos hayot faoliyati turining maqsadlari, qonuniyatlari, tamoyillari va qoidalari o'rganiladi. Arximed evristikasi, Sokrat o'qitish metodikasi, G.S.Altshuller tomonidan Arximedning evristikasi, Suqrot o'qitish usuli, G.Y.Bush, I.Myuller evristikalari bilan tanishtiriladi.

«O'qituvchining intellektual-ijodiy tafakkurining rivojlanishining pedagogikasi va psixologiyasi» seminarining o'quv dasturi, uning mazmuni va tuzilishi talabalarning pedagogik ijodning psixologik-pedagogik asoslarini chuqur o'rganishiga qaratilgan. Kursning o'zagi o'quv-ijodiy faoliyat jarayonida talaba shaxsini ijodiy o'zini anglash tamoyili hisoblanadi.

«Innovatsion faoliyat pedagogikasi» seminar talabalarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Tayyorlash ishlab chiqilgan model asosida olib boriladi va strategiyalar, didaktik tamoyillar, innovatsion muhitni yaratish va boshqalar uning elementlari hisoblanadi. Pedagogik yangiliklarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish keyinchalik o'z innovatsiyalarini yetarli darajada tahlil qilish, uning ahamiyati, tuzatishlarini amalga oshirish imkonini beradi. Yangiliklarni innovatsiyalarni yaratish va o'zlashtirishda harakat qilish malakasi talabalarda innovatsion ta'lim muassasalarida, innovatsion eksperimentda istiqbolli rejalashtirish kabi tashkiliy-faoliyatga asoslangan va tijorat/ishbilarmonlik o'yinlarida shakllanadi.

«Pedagogik refleksiya» seminarida talabalar kasbiy o'zini/mustaqil tahlil qilish, ratsional ruhiy-mantiqiy o'zini takomillashtirish ko'nikmalarini egallaydilar. Talabalar pedagogik refleksiyada insonni shakllantirish tarbiyalashning mohiyatini, insoniy ma'naviy, gumanistik jihatlar va kasbiy, aniq tartibga solingan, ratsional jihatlar o'rtasidagi munosabatlar sirlariga yetadilar. Natijada, o'quvchilar kasbiy farosat, maktab hayotining turli vaziyatlarini pedagogik jihatdan talqin qilish malakasiga ega bo'ladilar.

«Pedagogik improvizatsiya» seminarini o'rganish davomida talabalar o'qituvchi mehnatida ijodning faoliyat komponentini rivojlantirish to'g'risidagi nazariya va amaliy yo'l-yo'riqlar bilan tanishadilar. Talabalarga pedagogik improvizatsiya tushunchasi tarbiyaviy hodisa sifatida taqdim etiladi, pedagogik improvizatsiyaning tuzilishi ochib beriladi.

Pedagogik improvizatsiya bo'yicha seminar mashg'ulotlari talabalarni unga tayyorligini tashxis qilishga, darslarni pedagogik improvizatsiyaning real va ehtimoliy tatbiqi nuqtai nazaridan tahlil qilishga o'rgatadi. Kasbiy diqqat, ijodiy tasavvurlar rivojlantiriladi, talabalar bilan real muloqot jarayonida fikrlash va pedagogik harakatlar tezligi mashq qildiriladi. Umuman, butun dastur maktab hayotida kutilmagan har bir voqea, hodisa, holat bo'lajak o'qituvchini pedagogik ijodga undashini ta'minlashga, dars yoki tarbiyaviy ishning mazmunini real hayot bilan organik bog'lashga imkon berishga, butun ta'lim jarayoniga yangi, jozibali rang va, eng muhimi, pedagogik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari - uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik jarayonini tashkil qilish, boshqarish va rahbarlik qilish, pedagogik ta'limning barcha pog'onalarida har bir mashg'ulotda ijodiy muhitni rivojlantiruvchi yagona ijodiy rivojlantiruvchi, bo'lajak o'qituvchilarning kasbga moslashishiga va ijodiy o'zini rivojlantirishga kompetentlikka asoslangan yondashuvni ta'minlashga asoslangan ta'lim makonini yaratish, pedagogik kasbga moslashish jarayonini tashkil qilishda uzluksizlik, uzviylik va tizimli yaxlitlik tamoyillarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 14 августдаги «Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3907-сон қарори.

2. Стефановская Т.А. Педагогика: наука и искусство: Курс лекций: <http://psychlib.ru>.

3. Маханькова Н.В. Педагогические условия формирования у студентов умений учебно-творческой деятельности: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Ижевск, 2001. - 16 с.

4. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия. - Псков: ПГПИ, 2004. - 216 с.

**TA'LIMDA EKOPEDAGOGIKANI VA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING
EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

Murtozayeva Maxfuza Murtozayevna, *TDPU dotsenti, p.f.n.*

Annotatsiya. Maqolada ta'limdagi islohotlar va uning modernizatsiyalashuvi professor-o'qituvchilardan oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda talabalarni ekopedagogik fikrlashga o'rgatishga innovatsion, tizimli, tashabbuskor, ijodiy yondashuvlarni talab etishi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyalarni izchil rivojlantirib borishini ta'minlash, ularda ekologik kompetentlikni rivojlantirishga tizimli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: talabalar, ta'lim, ekologiya, kompetentsiya, rivojlantirish, tizimli yondashuv.

**ЭКОПЕДАГОГИКА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ
ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Муртозаева Махфуза Муртозаевна, *доцент ТГПУ, к.п.н.*

Аннотация. В статье отмечается, что реформирование и модернизация образования требует новаторских, системных, инициативных, творческих подходов к обучению студентов эколого-педагогическому мышлению в организации процесса высшего педагогического образования. Также обеспечивается последовательное развитие экологических компетенций будущих учителей, что отражает специфику системного подхода к развитию экологической компетентности.

Ключевые слова: студенты, образование, экология, компетентность, развитие, системный подход.

**ECOPEDAGOGICS IN EDUCATION and OPPORTUNITIES
TO DEVELOP ECOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

Murtozaeva Makhfuza Murtozaevna, *associate professor TSPU,
candidate of pedagogical sciences*

Annotation. The article emphasizes that the reform and modernization of education requires innovative, systematic, proactive, creative approaches in teaching students environmental and pedagogical thinking in organizing the process of higher pedagogical education. It also ensures the consistent development of environmental competencies of future teachers, which reflects the specifics of a systematic approach to the development of environmental competencies.

Key words: students, education, ecology, competence, development, systematic approach.

Kirish. Mamlakatimizda oliy pedagogik ta'limning modernizatsiyalashuvi, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarga bo'lgan talabning muttasil oshib borayotganligi bilan bog'liqdir. Islohotlar natijalari joriy qilinayotgan oliy ta'lim tizimida pedagogik kadrlar tayyorlash bo'g'ini muhim o'rin egallaydi. Oliy ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bo'lajak pedagogik kadrlarni talabalarlar ongiga yanada ko'proq ta'sir qilayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarni o'quv jarayonidagi ifodasidir. Globallashuvning oliy ta'lim tizimiga ta'sirini ma'naviy, iqtisodiy, axloqiy jihatlarni bo'lajak bakalavrlarga tushuntirish, innovatsion materiallar asosida o'tkaziladigan ma'ruzalar va

amaliy mashg'ulotlar natijasida amalga oshirish mumkin. Bo'lajak pedagoglarga internet ma'lumotlaridan ta'lim jarayonida foydalanishning yangi usullarini tushuntirish lozim. «Mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat'iy va izchil tus olgani, odamlarimiz o'zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongu tafakkuri yuksalib, yon atrofda bo'layotgan barcha voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi oshib borayotgani misolida ko'rish, anglash qiyin emas» [2]. Hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalarida malakali va mohir pedagoglar tomonidan darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalarining innovatsion ta'lim texnologiyalar asosida, yangi fikrlar kiritilgan holda tayyorlanganligiga e'tibor berish lozim. Mutaxassis pedagog oliy ta'limning pedagogika sohasidagi har bir ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlariga puxta tayyorlanishi, metodik jihatdan aprotatsiyadan o'tgan materiallarni darslarda keng qo'llagan holda o'tkazilishni talab qiladi. Masalaga bunday yondashuv hozirgi davrda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarning ta'lim olishlari jarayonida fanlardan atroflicha bilim olganliklarini, oila, maktab, mahalla institutlarining sa'y-harakatlari tufayli orttirgan bilim saviyasi yuqoriligini qayd etish darkor.


Asosiy qism. Ekologik ta'limga tizimli yondashuv asosida bo'lajak pedagoglar ekologik kompetentligini rivojlantirishda pedagogik faoliyat va nazorat muhitining o'zaro ta'sirlashuvi mexanizmlari quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

Bo'lajak pedagoglarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi davlat buyurtmasi va jamiyat talablariga muvofiq oliy pedagogik ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlash; Davlat ta'lim standartlarida bitiruvchining pedagogik faoliyatida o'qituvchilik, tarbiyachilik, o'quv-metodik, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot vazifalarini amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Bo'lajak pedagoglar ekologik kompetentligini rivojlantirishda ta'lim mazmuni, o'quv reja, dasturlar, ta'lim shakli, metod, vositalari va darsliklar, elektron axborot ta'lim resurslari hamda boshqa didaktik materiallar, o'quv-metodik qo'llanmalar, laboratoriya jihozlari, ta'lim texnologiyalari va boshqalardan foydalanish asosida aniqlanadi. Talabalar kelgusida pedagogik faoliyatni amalga oshirish, nazariy bilimlar va psixomotorik harakatlar asosida amaliy ko'nikmalarni real sharoitda qo'llash maqsadida malakaviy pedagogik amaliyot tashkil etiladi. Bunda talabalar ta'lim jarayonida egallangan ekologiyaga oid kompetensiyalarni namoyon etish; pedagogik faoliyati jarayonida – ekologik kompetentlikka ega, malakali kadrlarning tayyorlanganligini aniqlash va tahlil qilib borish uchun faoliyat monitoringi amalga oshirildi. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ob'ektiv va subyektiv omillarining ahamiyati muhim hisoblanadi. Jumladan, globallashuv tufayli ekologik muammolar mamlakatimizning qator hududlarida chigallashganligi kuzatilmoqda. Bunday holat pedagogika fanlari vakillarining zimmasiga ekologik masalalarni hal qilish va uning ilmiy echimini topish muammosi bilan shug'ullanish mas'uliyatini oshirmoqda. «Shu borada ham jismoniy, ham ma'naviy etuk, o'z mustaqil fikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularning sog'ligini asrash, hayotga yo'llashda oilaning o'rmini hech narsa bilan baholab bo'lmasligini biz yuksak qadraymiz» [1]. Ekologik muammolarning ijtimoiy masalalari inson va uning faoliyati natijasida vujudga kelayotgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni bo'lajak pedagoglar ham chuqur tahlil qilishmoqda. Muammoning dolzarbligi uning bevosita shaxs barkamolligiga erishish, jamiyat a'zolarining ekologiyaga tolerant munosabatda bo'lishlari, milliy iqtisodiyotimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash va mamlakatimizni jahondagi rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlash strategiyasi bilan bog'liqdir.

Talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Obyektiv omillarga quyidagilarni: a) megaomillar: kosmos, er shari va planetar jarayonlar; b) makroomillar: mamlakat, davlat, xalq, jamiyat, madaniyat; v) mezoomillar: etnos (millat), hududiy shart-sharoitlar, shahar va qishloqlar, yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari; g) mikroomillar: oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi.

Sub'yektiv omillarga talabaning ichiki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashi kiradi. Bo'lajak pedagoglar tayyorlashda zarur bo'lgan ekologik ta'lim-tarbiya vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan tizimli yondashuvni taqozo etadi (1-rasm).



1-rasm. Talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirish tamoyillari va omillari

Professor-o'qituvchilarning faoliyatini va talabalarning ekologik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bilish faoliyatining xususiyatlarini tamoyillar belgilaydi. Ta'lim tamoyillari fan o'qituvchilari va talabalar faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi [5].

Ta'kidlash joizki, olimlarning ta'lim tamoyillarining soni va nomi to'g'risidagi fikrlari bir-biridan farq qilsa ham, ularning mazmuni va o'qitish qonuniyatlarini tushunish an'anasi asosan bir xildir. Shu bois, bo'lajak pedagoglarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim tamoyillari sifatida quyidagilar: ilmiylik, natijani oldindan ko'ra olish; tizimlilik; izchillik; integratsiya; insonparvarlik; maqsadga yo'naltirilganlik, talabalarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; faoliyatda tarbiyalash; nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi; fanlararo, mavzulararo aloqadorlikni ta'minlash, maqsadi, mazmun va uni shakllantirish metodlarining birligi va yaxlitligi, ijodiy hamkorlikdagi faoliyat tamoyillaridan iborat. Ta'lim tamoyillari talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan va integratsiyalashgan har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ekologik ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishda alohida ahamiyatga ega.

Xulosa: Ta'limdagi islohotlar va uning modernizatsiyalashuvi professor-o'qituvchilardan dars jarayonida tashabbuskorlikni, ijodiy yondashuvni, talabalardan mustaqil fikrlashni talab qiladi. Oliy pedagogik ta'limdagi dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydonidir. Pedagogning asosiy pedagogik ehtiyoji – o'rgatish, etkazib berish – aynan dars jarayonida amalga oshiriladi. Shunday ekan, dars oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil qilishga innovatsion va tizimli yondashuvni talab etadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda talabalarlarga ekopedagogikaga oid bilimlarni berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan kadrlar qilib tarbiyalashda, ta'limning imkoniyatlari va mohiyatini chuqur anglash hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Аҳмеджонов А. ва бошқ. Комил инсон давр талаби. - Т.: Янги аср авлоди, 2004. - 150 б.
2. Аликулова М.М. Бўлажак педагогларнинг экологик маданиятини ривожлантириш асослари: Монография. - Т.: Fan va texnologiya, 2015. - 188 б.
3. Аликулова М.М. Бўлажак мутахассисда экологик маданиятни ривожлантиришнинг педагогик омиллари // Глобал олий таълим тизимида илмий тадқиқотларнинг замонавий услублари: Халқаро илмий конференция. - Навоий, 2015. - Б. 108-110.
4. Murtozayeva M.M. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takmorlashtirish // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan, 2022. - 4-son. - B. 710-714.
5. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х.А., Алқаров И., Усманов Н.Ў. Педагогика. - Т.: Фан ва технология, 2011. - 482 б.

SHAXSDA HAVAS VA HASAD HISSINI EKSPERIMENTAL TADQIQ ETISH USULLARI

Baykunosova Gulmira Yuldibaevna, *TDPU doktoranti, psixologiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent*

Annotatsiya. Maqolada havas va hasad xissining ijtimoiy-psixologik tasnifi yoritilgan. Bundan tashqari havas va hasad hissini turli yosh bosqichlarida turlicha namoyon bo'lishi eksperimental tadqiqi keltirilgan.

Tayanch so'zlar: *Hasad, havas, himoya mexanizmi, nomukammalilik kompleksi, ijtimoiy solishtirish.*

МЕТОДЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ БЕЛОЙ И ЧЕРНОЙ ЗАВИСТИ У ЛИЧНОСТИ

Байкунусова Гульмира Юлдибаевна, *докторант ТДПУ, PhD по психологическим наукам, доцент*

Аннотация. В статье описана социально-психологическая классификация черной и белой зависти. Кроме того, представлено экспериментальное исследование различных проявлений черной и белой зависти на разных возрастных этапах.

Ключевые слова: *Черная зависть, белая зависть, психологическая защита, комплекс неполноценности, социальное сравнение.*

METHODOLOGY OF EXPERIMENTAL STUDY OF ENVY IN PERSONALITY

Baykunosova Gulmira Yuldibaevna, *doctoral student of TDPU, PhD in psychological sciences, associate professor*

Abstract. The article describes the socio-psychological classification of black and white envy. In addition, an experimental study of various manifestations of black and white envy at different age stages is presented.

Key words: *Black envy, white envy, psychological defense, inferiority complex, social comparison.*

Kirish. Havas va hasad fenomenining mohiyatini aniqlashtirish uchun, avvalo, ushbu tushunchalar semantikasini ochib berish talab etiladi.

Asosiy qism. O'zbek tilining izohli lug'atida «havas – aqlni yo'qotish, ehtiros, mayl, ishtiyoq, biror narsaga g'oyat berilganlik, kuchli istak» sifatida ta'riflangan. Shuningdek, bu so'zni ikki xil ma'noda ishlatish mumkinligi ta'kidlangan:

- 1) qiziqish, zavq hissi; shunday his-tuyg'uli munosabat;
- 2) biror ish-faoliyat, kasb-korga bo'lgan rag'bat, intilish, istak, mayl.

Havas qilmoq – havas his-tuyg'usi uyg'onmoq, havas bilan qaramoq, munosabatda bo'lmoq. Havasi kelmoq – havasi qo'zg'amoq, uyg'onmoq, havas bilan munosabatda bo'lmoq. Lug'atda ta'kidlanishicha, havas insonning o'zida yo'q narsaga chin dildan intilishi, shu narsani o'zida bo'lishini xohlashidir.

Hasadga esa, lug'atda quyidagicha ta'rif berilgan: «Hasad – rashk, ko'rolmaslik, qizg'anish, suq. Kimsaga xos unga tegishli narsa, fazilat va shu kabilarni ko'rolmaslik, xush ko'rmaslik his-tuyg'usi. Hasad qilmoq – hasad bilan qaramoq, hasadli munosabatda bo'lmoq. Lug'atda ta'kidlanishicha, hasad o'zgalarning muvaffaqiyatini ko'ra olmaslikda

ifodalanadigan salbiy his sifatida namoyon bo'ladi.

Bizning tadqiqot ishimiz havas va hasad hissini tadqiq etishga bag'ishlangan. Shuning uchun, eng avvalo, bu ikki hisning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari yoritish talab qilinadi.

Hasad hissining o'ziga xos tomoni shundaki, u shaxs qalbini butunlay egallab olib, vaziyatni xolisona baholashga imkon tug'dirmaydi. Hasad o'zgalarni yuqori ko'rib, o'z imkoniyatlarini pasaytirishga o'ziga bo'lgan bahosini susaytirishga olib keladi. Hasad shaxsni yuksaltirmaydi, sababi, shaxsni boshqalar omadi bilan yashashga majbur qiladi.

Havas va hasad muammosi bo'yicha zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni tahlil qilishdan ma'lum bo'lishicha, hozirgi vaqtgacha ilmiy adabiyotlarda ushbu fenomenning tabiati inson psixikasidagi o'rni haqida qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Birinchidan, tadqiqotchilarning yondoshuviga bog'liq ravishda havas va hasad «hissiyot», «ehtiros», «destruktiv munosabat», «muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining namoyon bo'lishi», «shaxs xislati» sifatida talqin etilgan.

Ikkinchidan, hasadning ijtimoiy-psixologik fenomenini tushunishda yagona yondoshuvning mavjud emasligi, tadqiqotchilarning havas va hasad mohiyatini tushunishda «qarama-qarshi qutbli» munosabatlari bilan bog'liqdir.

Psixologiyada uchraydigan havas va hasadning asosiy ta'riflari quyidagicha:

1. «Havas – odamda boshqa birov ega bo'lgan narsaning o'zida ham bo'lishiga intilishi natijasida vujudga keladigan hisdir. Ba'zan hasad o'zga insonni ko'ra olmaslikda namoyon bo'ladi».

2. «Hasad – inson uchun ahamiyatli bo'lgan sohalarda boshqalarning ustunligiga nisbatan subyektiv munosabat bo'lib, salbiy hissiyotlar kompleksida, o'z-o'ziga bahoning pasayishi va o'zganing ustunligini yo'qotish istagida namoyon bo'ladi».

3. «Hasad – bu boshqa insonda mavjud predmetga ega bo'lishni kuchli istash vaqtida vujudga keladigan dushmanlarcha ko'ra olmaslik hissidir. Ushbu predmet (xislat, muvaffaqiyat, omad)ga nisbatan kuchli istak hasad predmetini yo'qotishga intilishda namoyon bo'ladi» [1].

4. «Hasad - o'zga insonning ma'lum sohada o'zib ketishi bilan bog'liq dushmanlarcha munosabat bo'lib, ikki yo'nalishli (o'zgaga va o'ziga) salbiy hissiyot bilan birga namoyon bo'luvchi va uni ana shu ustunlikdan bevosita yoki bilvosita mahrum qilish istagidir».

5. Hasad (ing.envy) – «o'zganing baxt-saodati, muvaffaqiyatini alamli qabul qilish bilan bog'liq hisdir» [3].

6. Hasad-subyekt o'zganing real yoki xayoliy ustunligini «Men» qadriyatiga xavf sifatida idrok etishi, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va affektiv kechinmaning namoyon bo'lishidir [2].

7. Shaxsda mavjud bo'lmagan, lekin o'zga insonlar ega bo'lgan shaxsiy xususiyat, ijtimoiy mavqe, moddiy va ma'naviy mahsulotlarga ega bo'lish istagi tufayli sodir bo'lgan norozilik hissidir [4].

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, havas va hasad bir-biriga yaqin, shu bilan birga bir-biridan tubdan farq qiluvchi fenomenlardir.

F. Xayder va Dj.Fosterlarning fikricha, hasad ijtimoiy yoqimsiz va uyatli emotsiya hisoblanadi. Shaxs bu hisni ham dushmanlik va nomukamallik kompleksi natijasida paydo bo'lganligi sababli odamlar uni tan olishdan qochishadi. Shu sababli, olimlarning fikricha, hasad shunday emotsiya turiki, u tranmutatsiyaga moyil [5]. Dj. Elsterning fikricha, hasadning shunday o'zgaruvchan xususiyati ega bo'lganligidan, uni aniqlash judayam qiyin. Sababi, hasadgo'y ommani aldaydi. Shaxs qarshisida, o'zidan ustun bo'lgan boshqa shaxsni ko'rib solishtirish boshlanganda, unda hafagarchilik, dushmanlik, nomukamallik kompleksi kabi bir nechta emotsional jarayonlar ishga tushishni boshlaydi. Bu jarayonlar hasad hissining dastlabki bosqichi hisoblanadi, lekin keyingi bosqich qanday

kechishi shaxsning o'ziga bog'liq. Sababi, hasadni konstruktiv yoki destruktiv yo'nalish tomon borishi hamma shaxsda turlicha kechadi. O'zini qo'lga olib, o'zini rivojlantirish yo'lida ketadigan insonlar xam mavjud. Ya'ni, shaxs bu bosqichda, yoki himoya yoki buzg'unchi reaksiyalari ishga tushiradi [6].

P.Slovey, Dj.Rodin hasadni uch turga bo'lgan: 1) anglangan hasad, bunda subyekt atrofda tilarga nisbatan o'zining quyi holatini baholaydi va anglaydi; 2) anglanmagan hasad – bunda ongsiz himoya mexanizmlari, komplekslar va arxetiplar sifatida namoyon bo'ladi; 3) yashirin hasad – bunda inson o'zгалarining unga nisbatan hasadi bor deb o'ylaydi; [7].

Asosiy qism. Biz tadqiqotimizda «Havas va hasad darajalari» so'rovnomasi orqali shaxsda havasgo'ylik va hasadgo'ylik namoyon bo'lishining yosh farqlari bo'yicha eksperimental tadqiqot natijalarini aniqlashni o'z oldimizga vazifa etib belgiladik. Tadqiqotni Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari, magistratura bosqich talabalari va professor-o'qituvchilarda olib bordik. Lekin guruhlariga ajratishda yosh nuqtai nazari bilan emas, aksincha ijtimoiy mavqe yuzasidan belgiladik. Tadqiqot davomida respondentlarni jamiyatda egallagan mavqesi va tajribasi yuzasidan talabalar, magistrlar, 10 yilgacha ishlagan, 10 yildan ortiq ishlagan shaxslar guruhiga ajratdik.

Ijtimoiy mavqe shaxsda individual farqlar yuzaga keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy mavqeni ortishi, shaxsda nafaqat o'z-o'ziga bahosini ortishiga olib keladi, bundan tashqari yangi ehtiyojlar va yangi orzu-umidlarni ham ortiradi.

Respondentlarning umumiy o'rta arifmetik qiymat natijalari orqali yosh farqlarini jadvalda keltirdik. Quyidagi jadvalda tadqiqot natijalari berilgan.

1-jadval

Turli yosh bosqichlarida hasadning namoyon bo'lishidagi tafovut ko'rsatkichlari (styudent t-mezoni bo'yicha)

Statistik ko'rsatkichlar	Sinaluvchilar guruhlari					
	Talaba	Magistr	Magistr	10 yilgacha ishlagan professor-o'qituvchilar	10 yilgacha ishlagan professor-o'qituvchilar	10 yildan ortiq ishlagan professor-o'qituvchilar
M	12,2	14,5	14,5	15,8	15,8	12,8
T	-2,61			-1,06		-2,12
P	0,01			-		0,05

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turganidek, «Havas va hasad darajalari» so'rovnomasida respondentlarning o'rta arifmetik qiymatida dinamik o'sish tendentsiyasini aniqladik. Yuqoridagi «Havas va hasad darajalari» so'rovnomasi bo'yicha talabalarning o'rta arifmetik qiymati 12,2 ga teng ekanligi ko'rinib turibdi. Magistrlarda bu ko'rsatkich 14,5 ga teng ($t = -2,61$; $p < 0,01$). 10 yilgacha ishlagan professor-o'qituvchilarda esa, 15,8 ga teng ($t = -1,06$. 10 yildan ortiq ishlagan professor-o'qituvchilarda esa, 12,8 ga teng ($t = -2,12$ ($p < 0,05$).

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turganidek, hasad dinamik xususiyatga ega. Tadqiqot davomida biz metodikani to'rtta davr respondentlarida olib bordik. Ularning yosh xususiyatlaridagi farqlari, bu davrda o'ziga xos qadriyatlar tizmi, orzu va armon tushunchasiga yondoshuvning turilligi buning sababi bo'ladi. Yoshning kattalishi va quvvatning kamayishi shaxsni atrofda orzu qilgan narsalarga yetishish istagi va imkoniyatni ham chegaralanishiga olib keladi.

Bundar tashqari, respondentlarni guruhlariga ajratishda ularning ijtimoiy mavqe yuzasidan belgilab oldik. Bu bejizga emas, sababi, ijtimoiy mavqening ortishi hasadgo'y shaxsni ijtimoiy solishtirish ob'ekti va predmetini ortishiga olib keladi.

Yuqorida biz «Havas va hasad darajalari» so'rovnoma bo'yicha respondentlarning yosh bosqichlari bo'yicha havas va hasadning namoyon bo'lishining tafovut ko'rsatkichlarini aniqladik. «Havas va hasad darajalari» so'rovnoma natijalarini hisoblab, ularni havas va hasad shkalalriga ajratdik. Quyidagi jadvalda har bir yosh bosqichlarida hasadning qaysi darajalari ustun ekanligini ko'rsatamiz.

Respondentlarda «Havas va hasad darajalari» so'rovnoma bo'yicha ko'rsatkichlari

2-jadval

Respondentlar	Havas	Hasad
Talabalar	64 %	36 %
Magistrlar	49 %	51 %
10 yilgacha ishlagan professor-o'qituvchilar	61 %	39 %
10 yildan ortiq ishlagan professor-o'qituvchilar	50 %	50 %

Xulosa. Bizning fikrimizcha, havas - bu umum qabul qilingan me'yorlardan yuqorilab boruvchi shaxslarning xatti-harakatini ma'qullash bilan bog'liq ijtimoiy hissiyotdir. Hasaddan farqi ravishda havas shaxsni ilhomlantiradi. Buni hozirgi kun psixologiya tilida aytadigan bo'lsak, havas – bu harakatga yetaklovchi kuch, motivdir. Yer yuzidagi jamiki shaxs har kuni mana shu his bilan to'qnash keladi. Hozirgi kundagi yangilanish, texnika asri jamiyatdagi shaxslarni turli qatlamlarga olib kelmoqda. Biror tanishimiz yoki qo'shnimiz biror maishiy buyumga ega bo'lsa, unga havas kilganimizda bizda ham shu narsani egallash xohishi paydo bo'ladi. Bu xohish bizni harakat qilishga olib keladi. Havas hissi ijobiy emotsiyalarni tuyishimizga yordam beradi. Havas qiluvchi obyektga karaganimizda uning yutuqlaridan xursand bo'lamiz. Asosiysi, u bu yutuqlarga loyiq deya hisoblaymiz. Bu ijobiy emotsiyalar bizda harakat qilish motivini yuzaga keltiradi, ya'ni «Men ham bir kuni mana shu yutuqqa o'z kuchim bilan erisha olaman», degan fikrni ko'nglimizdan o'tkazamiz.

Adabiyotlar:

1. Бескова Т. В. Методика исследования завистливости личности // Вопросы психологии. -Москва. 2012. №2. С. 127-139.
2. Практикум по экспериментальной и практической психологии: Учеб. пособие / Л. И. Вансовская, В. К. Гайда, В. К. Гербачевский и др.; Под ред. А. А. Крылова. - СПб: Издательство С.-Петербургского университета. 1997.
3. Гозман Л. Я. Теоретические предпосылки и методы исследования межличностной аттракции: Автореф. дис. ... канд. психол. наук /МГУ им. М. В. Ломоносова. Психол. фак-т. - М., 1983.
4. Ребер А. Большой толковый психологический словарь / Под ред. А.Ребера.- М.: Издательство "ВЕЧЕ. 2002.- С. 116-167.
5. Heider, F. (1958). The psychology of interpersonal relations. New York: Wiley.
6. Elster, J. (1998). Alchemies of the mind: Rationality and the emotions (pp. 165, 169). Cambridge: Cambridge University Press.
7. Salovey P., Rodin J. Envy and jealousy in close relationships // Review of Personality and Social Psychology. 1989. v. 10. -P. 228-246.

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ ДОПРИЗЫВНОЙ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ

Узоков Акром Авазович, декан факультета допризывной подготовки ТГПУ, полковник

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и практические основы развития социальной активности у студентов, обучающихся по направлению обучения «допризывная военная подготовка».

Ключевые слова: студент, преподаватель, социальная активность, развитие, совершенствование, процесс, военная подготовка.

TALABALAR O'RTASIDA IJTIMOYI FAOLLIKNINGCHAQIRUVGA QADAR HARBIY TAYYORGARLIK TARAQQIYOTNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Uzokov Akrom Avazovich, TDPU chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti dekani, polkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada «chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik» ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: talaba, o'qituvchi, ijtimoiy faoliyat, rivojlanish, takomillashtirish, jarayon, harbiy tayyorgarlik.

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY AMONG STUDENTS PRE-CONSCRIPTION MILITARY TRAINING

Uzokov Akrom Avazovich, dean of the faculty of pre-conscription training of TSPU, colonel

Abstract. This article reveals the theoretical and practical foundations of the development of social activity among students studying in the direction of training "pre-conscription military training".

Key words: student, teacher, social activity, development, improvement, process, military training.

Введение. Процессы, происходящие в современном обществе, направлены на формирование гармонично развитого поколения, которое является самым важным интеллектуальным ресурсом для будущего нашей республики.

Основная часть. Современные направления в развитии учебно-воспитательного процесса определяются задачами подготовки специалиста соответствующего уровня и профиля, конкурентно способного, компетентного, ответственного и ориентированного в смежных областях деятельности, готового к постоянному личностному росту, социальной и профессиональной мобильности; специалиста высокой квалификации, способного не только воспроизвести полученные знания, применить в знакомых ситуациях имеющиеся профессиональные умения и навыки, использовать уже накопленный обществом опыт, но и умеющие нестандартно, творчески подойти к своему делу, неравнодушные к проблемам и заботам общества, обладающие высокими профессиональными и нравственными качествами. Поскольку

ку быстрые темпы научно-технического развития, изменения содержания, характера труда специалистов в значительной степени осложняют процесс профессиональной адаптации молодых специалистов к стремительно меняющимся требованиям производства и рыночных отношений, важнейшая социальная функция образовательного учреждения заключается в создании условий для развития социальной активности студента, реализации его возможностей, профессионального становления и развития личности, позволяющих индивиду адекватно содействовать научно-техническому и социальному прогрессу общества. В связи с этим приоритетной должно стать образование, ориентированное на развитие самостоятельности, проблемного мышления, творческой активности в согласовании с потребностью общества и личности в развитии его интеллекта, поэтому правомерно обращение к воспитательной системе как фактору развития и обязательному компоненту социальной активности студента.

В качестве приоритетных стратегий развития Узбекистана на современном этапе образования обозначены: поддержка интеллектуальных технологий, разработка инноваций и их тиражирование в различные виды практик, развитие интеллектуального и социального потенциала личности, повышение качества жизни населения, модернизация социальной сферы, стимулирование социально-ориентированной экономики. Реализация этих стратегий тесно связана с молодёжью, от социального положения, выполняемых ролей, интеллектуального потенциала которой во многом будет зависеть будущее развитие республики. Социальная активность студенческой молодёжи, степень её развитости, формы реализации, направленность оказывают влияние на сохранение баланса между потребностью общества в поддержании состояния устойчивости и его инновационным развитием. Сегодня молодёжь республики составляет 64% граждан страны. Согласно Государственной молодёжной политики, Закону «Об образовании» Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года, «Концепции развития высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» формирование социальной активности студенческой молодёжи является одной из приоритетных задач социальной политики общества. Среди представителей молодёжи наиболее активной, образованной и потенциально ориентированной на решение инновационных задач, стоящих перед обществом, её частью выступает студенчество вуза как особая социально-демографическая и социокультурная группа, профессиональный, стратегический ресурс будущего. Поэтому особое значение в современных условиях приобретает деятельность, целью которой должно стать формирование социальной активности у студенческой молодёжи высших образовательных организаций. Кроме того, студенческая молодёжь, обладая образовательными, культурными, инновационными ресурсами, не имеет опыта их реализации, нуждается в социальной поддержке своего профессионального становления, гарантии трудоустройства со стороны государства. В связи с этим возрастает значимость научного анализа управления социальной активностью студенческой молодёжи, её форм, видов, уровней, технологий, оценки их эффективности.

Существует большое количество определений понятия социальной активности, но все авторы подчеркивают в ней осознаваемое, целенаправленное взаимодействие личности и социума, то есть то, что социальная активность специфическим образом мотивирована.

Исследованию социальной активности личности, форм её проявления, условий реализации, технологий управления посвящены работы ряда ученых. В них, в частности, затрагиваются следующие аспекты: формирование активной жизненной позиции индивида в обществе (В.И.Андриянова, С.К.Аннамуратова, М.А.Батырова, О.Мусурманова, А.В.Петровский и др.); анализ влияния социальных факторов на уровень активности человека (Ш.А.Абдуллаева, Т.Адорно, П.Бурдье, М.Вебер, Э.Гидденс, Х.И.Ибраимов, К.Манхейм, Г.Маркузе, Т.Парсонс, А.И.Суббето, Ю.Хабермас, М.Хоркхаймер, Н.М.Эгамбердиева и др.); рассмотрение психических процессов как основы активности личности (Ф.Акрамова, Р.Вудвортс, Л.С.Выготский, Э.Гозиев, М.Давлетшин, УДжемс, П.Жане, Н.Г.Камилова, Г.Кэрр, З.Т.Нишанова, Т.Рибо, Д.Б.Роттер, С.Л.Рубенштейн, Б.Скиннер, Г.Б.Шоумаров и др.); исследование экономических условий, детерминирующих различные формы активности личности (Т.Веблен, А.Б.Маманазаров, А.Смит, Д.Стиглер, М.Фридмен, Ф.Хайек, Й.Шумпетер и др.); исследование технологий управления (Т.В.Арцер, Т.Ю.-Базарова, Г.Т.Галиев, О.Куйсинов, Э.А.Смирнов и др.).

Следует выделить исследования, в которых отражены различные аспекты изучения проблем молодёжи в современном обществе: изучение студентов как особой социальной группы (Л.Т.Ахмедова, Е.А.Лагай, Н.М.Петрухина и др.); анализ современных молодёжных проблем (И.М.Ильинский, В.А.Родионов, А.В.Шемелин и др.); исследование видов, форм социальной активности студентов (Б.С.Абдуллаева, И.И.Шульга, Ю.Г.Юркевич и др.); анализ мотивационного воздействия на молодёжь с целью повышения её активности (Д.Макгрегор, Р.Моран, Э.Мэйо, М.Фоллет, Ф.Харрис, А.А.Холиков и др.); исследование индикаторов оценки социальной активности студентов (Р.Х.Джураев, М.Э.Иноятова, З.Р.Кадырова, А.М.Нагимова, О.Ю.Нисман, Д.И.Рузиева, З.Т.Салиева и др.).

Проведённый анализ разработанности темы исследования позволил сделать вывод о том, что отдельные проблемы формирования социальной активности студенческой молодёжи вуза изучены недостаточно, в частности, сам процесс управления, оценка его эффективности, виды и формы социальной активности данной социальной группы. Актуальность и недостаточная разработанность указанных аспектов определили объект, предмет, цель и задачи диссертационного исследования, в котором основной составляющей стала социальная активность у студентов допризывной военной подготовки.

Для решения обозначенной цели нами осуществлён анализ социальной активности студентов по направлению обучения допризывная военная подготовка. Проанализировав основные подходы к исследованию социальной активности личности, мы раскрыли содержание понятия "социальная активность студентов допризывной военной подготовки", выявили и описали индикаторы оценки социальной активности студентов, разработали и реализовали программу опытно-экспериментальной работы по развитию социальной активности студентов; осуществили анализ теоретико-практических основ формирования социальной активности студентов.

В процессе проведения диссертационного исследования нами выявлен уровень социальной активности студентов, поскольку именно он во многом определяет их мотивационные установки, выбор ими различных видов и форм социальной активности. С целью повышения данного уровня нами применены формы и технологии целенаправленного воздействия на развитие социальной активности студен-

тов. В их числе участие студентов в различных видах социальной активности (учебно-воспитательная и научная активность, социальное проектирование и др.).

Методологическую основу исследования составляют структурно-функциональный, системный, аксиологический и программно-целевой подходы. Системный подход позволил выявить структурные компоненты социальной активности личности, раскрыть взаимосвязь между ними. Структурно-функциональный подход использован в процессе исследования функций, видов, форм, технологий управления социальной активностью студентов. Использование этих подходов дало возможность выделить основные элементы социальной активности студентов, выявить взаимосвязь между функциями, технологиями, видами и формами социальной активности студентов и эффективностью формирования социальной активности студентов. В рамках аксиологического подхода осмыслены ценностные представления молодёжи, оказывающие влияние на уровень социальной активности студентов. Программно-целевой подход использован при исследовании форм и видов технологий, а также их взаимосвязи.

Широкий спектр методов исследования: общенаучные (анализ, синтез, сравнение) и социологические (анкетирование, наблюдение, опрос, статистико-математический анализ и обработка полученных данных) позволил реализовать намеченную нами цель в исследовании, что раскрыло эвристический потенциал подходов к исследованию социальной активности личности, выявило специфические характеристики, формы, виды социальной активности студентов.

Использование в качестве теоретико-методологической основы исследования социальной активности студентов социологической концепции жизненных сил личности позволяет выявить взаимосвязь жизненных сил учащейся молодёжи и её пространства, обеспечить выбор инновационных методов и технологий, способствующих реализации социальной активности студентов. Несмотря на различия между концепциями, обусловленные методологическими, мировоззренческими, идеологическими, культурными установками учёных, общим является понимание социальной активности как способности личности удовлетворять свои потребности, формировать собственные личностные качества (ценности, компетенции, установки), изменять условия, решать актуальные социальные проблемы в процессе деятельности в различных сферах. Понятие "социальная активность студентов", его индивидуальной и социальной субъектности трактуется как способность личности к совершенствованию индивидуально-личностных (уровень образования, состояние здоровья, психологические особенности) и социально-коллективных средств (условия, предоставляемые государством, состояние социальной безопасности, социальной сферы, социальное окружение), направленных на участие студентов в решении социальных проблем общества. Социальная активность студентов как объект управления обеспечивается управленческими, организационными и технологическими условиями, что способствует повышению её эффективности.

К основным организационно-управленческим основам формирования социальной активности студентов относятся: цель, принципы (системность, социальное партнёрство, учет индивидуальных особенностей студентов в процессе реализации определенных видов и форм социальной активности); функции, методы, ресурсы (нормативно-правовые, организационные, ресурс ближайшего социокультурного окружения); технологии (планирование, партнерство и др.); индикаторы социальной активности студентов.

Основными индикаторами социальной активности студентов являются: уровень развитости индивидуальной (уровень социальной активности студента, особенности реализации функций, технологии социальной активности студентов) и социальной субъектности (виды студенческих объединений, осуществляющих социальную активность, характер реализации функций и технологий социальной активности студенчества); состояние жизненного пространства населения (состояние высшего профессионального образования) и состояние жизненного пространства студенчества (число студенческих объединений и ассоциаций; количество объектов социальной инфраструктуры).

Следует отметить, что мотивационная структура социальной активности является органической составной частью ее сущности. А мотивы социальной активности - это осознанные причины, по которым студенты вступают во взаимодействие друг с другом, оказывают влияние друг на друга и осуществляют различные виды социально-значимой деятельности.

Социальная активность студентов рассматривается преимущественно либо как политическая активность (участие в выборах, членство в общественных объединениях и т.п.), либо как культурная активность (принадлежность к молодежным движениям и т.п.).

Вывод. Социальная активность студентов является неременным условием подготовки их как будущих специалистов. Обусловлено это тем, что после окончания учебного заведения в процессе профессиональной деятельности им необходимы будут знания, которые они сегодня получают в процессе занятий, в ходе учебной и производственной практик.

Литература:

1. Современная педагогика: от сотрудничества к сотворчеству: Материалы межрегиональной научно-практической конференции / Отв. ред. Е.З.Кремер. 7-8 ноября 2013 года. - М.: МГПУ, 2013. - 150 с.
2. Степанов С.Ю. К одаривающей педагогике сотворчества // Образовательная политика. - М., 2014. - № 4 (66). - С. 40-48.

MIGRATSIYA DAXL QILGAN OILALARDA TARBİYALANAYOTGAN O'SMIRLARNING HAYOTIY MAQSADLARIDAGI USTUVORLIKLAR

Saipova Malohat Latipovna, Jamoat havfsizligi universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada muallif o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari, mehnat migratsiyasiga chiqib ketish sabablarini yoritib, mehnat migrantlari oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda hayotiy maqsadlarning shakllanishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida muayyan tavsiyalarni keltirgan.

Tayanch so'zlar: o'smir, organizmning yetilishi, o'zgarishlar, oila, mehnat migratsiyasi, muammolar, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, barqarorlik, ustuvorlik.

ПРИОРИТЕТЫ В ЖИЗНЕННЫХ ЦЕЛЯХ ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В СЕМЬЯХ МИГРАНТОВ

Саипова Малохат Латиповна, Университет общественной безопасности, доктор философии по психологическим наукам (PhD), доцент

Аннотация. В статье автор освещал особенности подросткового возраста, причины трудовой миграции, а также дал определенные рекомендации по результатам исследований формирования жизненных целей у подростков, воспитывающихся в семьях трудовых мигрантов.

Ключевые слова: подросток, созревание организма, изменения, семья, трудовая миграция, проблемы, социально-экономические причины, стабильность, приоритет.

PRIORITIES IN LIFE GOALS OF ADOLESCENTS GROWING UP IN MIGRANTS' FAMILIES

Malokhat Latipovna Saipova, University of public safety, doctor of philosophy in psychological sciences (PhD), associate professor

Abstract. In the article, the author highlighted the peculiarities of adolescence, the causes of labor migration, and also gave certain recommendations based on the results of studies on the formation of life goals in adolescents raised in migrant labor families.

Key words: teenager, maturation of the organism, changes, family, labor migration, problems, socio-economic reasons, stability, priority.

Kirish. O'smir yoshi «o'tish davri», «burilish davri», «og'ir», «inqirozli davr» deb nomlangan cha bola rivojlanishidagi murakkab davrni aks ettiradi. Chunki bu yoshda hayotning bir bosqichidan boshqasiga o'tish bilan bog'liq rivojlanish jarayonining muhim va murakkab davri qayd etiladi.

Asosiy qism. Bolalikdan ulg'ayishga qadam qo'yish bu davrda rivojlanishning barcha – jismoniy, aqliy, ma'naviy, ijtimoiy tomonlarining asosiy mazmunini va o'ziga xos farqlanishini tashkil etadi. Organizmning yetilishi natijasida ulg'ayish elementlari paydo bo'ladi, ya'ni o'z-o'zini anglash, kattalar va o'rtoqlari bilan munosabatlar, ular bilan o'zaro ijtimoiy harakatlanish usullari, manfaatlar, bilishga oid va o'quv faoliyati, xulq-atvor, faolit va munosabatlarda namoyon bo'ladigan axloqiy-etik meyorlar mazmunida sifatga doir o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yani bu yoshda: psixofiziologik – jinsiy yetilish va u bilan bog'liq bo'lgan ichki gormonal va fiziologik, shuningdek, hissiy-emotsional o'zgarishlar; ijtimoiy o'zgarishlar – bolalikning yakuniga yetishi va kattalar olamiga qadam qo'yish ro'y beradi.

Aynan shu qirralar o'smir hayotidagi yetakchi ziddiyatli jihatdir.

O'smir aqlini mulohazali, ya'ni rasmiy qat'iy egallagan. U hali bu mantiqning mag'zini chaqib ulgurmagan, biroq aynan shu mantiq qandaydir majburiy kuch sifatida uning ongida yuzaga keladi. Aynan shu mantiq voqea-hodisalarda bir xil javob va bahoni talab qiladi: haqiqat yoki yolon, ha yoki yo'q. Biroq turli-tumanlik hamda reallik va insoniy munosabatlarning ziddiyatlari har doim ham mulohazali mantiq chegarasiga sig'ib ketavermaydi. O'smir esa, shu mantiqqa mos kelmaydigan hamma narsani inkor etishga tayyor, chunki bu uning ongida hukmronlik qiluvchi kuch, o'smir mulohazalari va bahosining mezon. Biroq fikrlash mantig'i tipiga ko'ra, kattalarga teng o'smir hayotiy tajribasi va ongining mazmuni bo'yicha hali bolaligicha qoladi. O'zi ustidan hukmronlik qiluvchi kattalar olamining yolonlari, ikkiyuzlamaligiga qarshi e'tiroz bildirgancha u kattalarning qalbiy iliqqligiga, erkalashlariga, tushunishlari, ma'qullashlari, rag'batlantirishlariga, shuningdek, obro'ni inkor etgancha, o'zi to'liq ishonadigan obro'li odamga muhtoj bo'ladi. Bolalik olami va kattalar olamidani ajralib chiqqancha ich-ichidan yolg'iz bo'lgan o'zining tengdoshlari olamini yaratishga intiladi.

Zamonaviy o'smirlar hayotiy qadriyatlarining shakllanishi jarayonida keskin inqirozni his qiladilar. Avvalo, u asosiy qadriyatlar (hayot mazmuni, hayot to'risidagi tushuncha, ma'naviylik, patriotizm)ning shakllanishi, dunyoqarash, din-e'tiqod, axloq, estetika masalalariga qiziqishning ortishi kuzatiladi. Odatda, bu davrning bir tekisda kechishida oila tarkibi yuqori ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan mavzuimiz mehnat migrantlari oilalari bilan bog'liq ekan, oila a'zolaridan biri – ota yoki onaning o'smir yonida bo'lmasligi ularning qarashlariga, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari-yu, kelajak hayotlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish, muayyan tavsiyalar tayyorlash o'ta dolzarblikni kasb etadi. Mehnat migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida, avvalo, iqtisodiy beqarorlik, kichik shaharlardagi ishsizlik, ko'plab oilalarning past daromadi bilan uzviy bog'liq. Aynan shu sabablar erkaklari kabi ayollarni ham odatiy turmush tarzini o'zgartirib, oilasini vaqtincha tashlab chiqqancha rivojlanayotgan mamlakatlarga ishlashga chiqib ketishga majburlamoqda. O'zining oila a'zolarini munosib turmush kechirishini ta'minlash bo'yicha moddiy muammolarni hal qilar ekanlar, mehnat migrantlari va ularning oilalari boshqa turdagi muammolarga duch keladilar. Bunga qachonki er-xotinlardan birining doimiy ravishda o'z rolini bajarmasligi oqibatida oilaviy (er-xotin va bolalar-ota-onalar) munosabatlarning funksional buzilishini kiritish mumkin. Bunda e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim jihat borki, bu oilaning tarbiyaviy imkoniyati pasayishi natijasida o'sib kelayotgan avlodning qadriyatlari, hayotiy maqsadlarini o'zgarishidir. Chunki "klassik adabiyotlarda o'smirlik yoshi bolalik va ulayish o'rtasidagi o'tish davri, inson bolalar olamidani kattalar olamiga o'tishi zarur bo'lgan o'ziga xos «ko'prik» sifatida ko'rib chiqilarkan" [1], bu paytda o'smirning rivojlanishida oilaning o'rni, shubhasiz, yuqori. «Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari» mavzusidagi tadqiqotimiz doirasida respublikamizning Farg'ona viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida hayotiy maqsadlar ustuvorligini aniqlash bo'yicha metodikamizda ishtirok etdilar. Biz yaqinlari mehnat migratsiyasida bo'lganlarni ajratib olib, tahlil qildik.

Adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilarining hayotiy rejalashtirishida zamonaviy vaziyat mavjud qator: yuqori sinf o'quvchilarining kelajakda hayotiy rejalarni qo'yishga bo'lgan obyektiv zaruriyat va bunday rejalashtirishga subyektiv tarzda yetarlicha bo'lmagan qobiliyat o'rtasidagi; maktab o'quvchilarining o'z hayot yo'llarini subyektiv sifatida

namoyish qilish zaruriyati va bola uchun qaror qabul qilishga intilayotgan ota-onalar hamda pedagoglardagi tashqi cheklovlar o'rtasidagi; pedagoglarning o'quvchilarning hayot rejalarini tuzishga tayyorligini shakllantirishning zarurligi va ushbu faoliyatni amalga oshirishda psixologik-pedagogik kompetentlilik darajasining yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatlar bilan tavsiflanadi [2].

Inson hayoti davomida qo'yadigan maqsadlarni shartli ravishda guruhga ajratish mumkin: 1) O'z shaxsini bunyod etish. 2) Boshqa odamlar bilan munosabat qurish. 3) Atrof-muhit bilan munosabat qura olish.

Biz tadqiqotimizda 150 nafar 15-17 yoshdagi yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etishdi, shundan 32 tasining yaqinlaridan biri – mehnat migrantlaridir. Turmushda inson uchun ahamiyatga ega bo'lgan 15 ta hayotiy maqsaddan o'smirlar uchun muhimlarini ketma-ketlikda ko'rsatishlari kerak bo'ladigan metodikaning natijalari (32 nafar respondent metodika javoblari tahlili) jadval ko'rinishida quyidagi ko'rsatkichlarni namoyon qildi:

	Hayotiy maqsadlar	Ma'nosi	Ahamiyat darajasiga ko'ra o'rin
1. Axloqiy tarbiy. Jamiyat a'zolarini or-nomusli, odob-andishali, o'z sha'ni qadrlaydigan, o'zgalarni hurmat qiladigan, g'ururli, pok, rostgo'y, xushmuomalalik kabi axloqiy ideallar asosida tarbiyalash.

2. Ma'naviy tarbiy. Insonparvar, mehnatsevar, diniy va dunyoviy bilimlarni o'rganishga qiziquvchan va shu asosda o'z dunyoqarashini boyitib boradigan, kasbu kor va hunar o'rganishga va o'z mehnati orqali rizqu ro'z topishga intiluvchi, vazifalariga mas'uliyat bilan yondashuvchi, milliy g'ururga ega, Vataniga sodiq xizmat qiluvchi, bunyodkor g'oyalarni ilgari suruvchi, mustaqil fikrlovchi barkamol inson etib tarbiyalash.

3. Ruhiy tarbiy. Iymon, e'tiqodli, o'z nafsini tiya oladigan, haromdan hazar qiladigan, o'z ong shuurini, hayollarini nazorat eta oladigan, yaxshilikka va ezgulikka intiluvchi, idrokli, qalban va ruhan pok inson qilib tarbiyalash.

4. Jismoniy tarbiy. O'z tanini va ongini toza tutadigan, turli zararli odatlardan yiroq, kam yeb, kam uxlaydigan, o'zi va o'zgalar sog'ligi e'tiborli, doimo badan tarbiya bilan shug'ullanib tanini sog'lom va baquvvat qiladigan, oziq-ovqatini halol, pok va foydali bo'lishiga e'tiborli, kuch-quvvatini yaxshi ishlarga sarflaydigan, Vatanini, g'ururini o'z sha'nini himoya qilishga qodir etib tarbiyalash.

Ajdodlarimiz merosi xalqimizning uzoq asrlik urf-odatlarini va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Hayotbaxsh g'oyalar milliy ongning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shaxsning dunyoqarashini boyitadi. Shu sababdan ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yosh avlodda o'zlikni anglash hissini shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ajdodlarimiz merosini o'rganish bilan o'quvchi-yoshlarda o'quvchilarda ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon o'zaro aloqador bo'lib, muayyan muammolarni yechishni taqozo etadi. Ajdodlarimiz merosini har tomonlama o'rganish asosida o'quvchilarda ma'naviy sifatlarni rivojlantirish ularning kamolotini ta'minlashga ko'maklashadi. Shunga ko'ra, ajdodlarimiz merosining o'quvchi-yoshlarda ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilishga intildik.

Buyuk ajdodlarimiz uzoq asrlar davomida insoniyatning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim tarbiya vositalaridan hisoblangan adabiyot va san'at durdonalarini yaratganlar va to'plaganlar. Ushbu ma'naviy qadriyatlarni o'z asarlari mazmuniga singdirganlar va ulardan tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelganlar. Ulug' alloma, Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband o'zlik tarbiyasi sohasida ulkan meros qoldirgan buyuk allomalardan biri hisoblanadi. Uning qarashlarida insoniy kamolot, mehnatsevarlik, do'stlik, o'zini tanish, anglash, ustoz-shogird munosabatlari ustuvor bo'lgan. Bahouddin Naqshband,

avvalo, mehnatni ulug'lagan, insonlarni mehnatsevarlikka undab, o'z mehnati bilan kun ko'rish lozimligini targ'ib qilgan. Bahovuddin Naqshband o'zining ma'naviy-axloqiy tarbiya haqidagi Naqshbandiya tariqatini yaratgan. Bu tariqatning asosini "Dil-ba yor-u, dast-ba kor" ("Ko'ngil Xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin") degan g'oya tashkil etgan. Bahouddin Naqshband o'z tariqatida suhbat yetakchi o'rin tutganligi, jamiyat ishlarini to'g'ri olib borishda suhbat va muloqot muhim ekanligini ta'kidlaydi. Naqshband suhbat jarayonida inson ustozlar yordamida kamolotga yetishi, o'z aql-zakovati, bilimi, keng dunyoqarashi, fahm-farosatini yuksaltirib borishi lozimligini uqtiradi. Allomaning ta'biricha, ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari ustoz va shogird o'rtasida bog'liqlik, ta'lim va tarbiyada uzviylik bo'lishi kerak, ana shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bahouddin Naqshbandning fikricha, agar har qanday kishida ilm egallashga xohish-istak, qiziqish bo'lsa, u o'zligini anglashga qodir bo'ladi. Naqshband o'z pedagogik faoliyatida ongllilik, ko'rgazmallilik, tizimlilik va izchillik, asoslanganlik, nazariy fikrlarning amaliy harakatlar bilan uyg'unligi kabi prinsiplarga amal qilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviyat tarbiyasini shakllantirishda mutaffakkirlarning ijodi va durdona asarlari qatorida milliy musiqa san'ati ham yetakchi vositalardan hisoblanadi. San'at insonning his-tuyg'ulari orqali uning ma'naviyati va axloqiga ta'sir ko'rsatishi ayni haqiqatdir. Bu fikr asrlar davomida ajdodlarimiz va zamonaviy olimlar tomonidan e'tirof etilgan. San'at insonning hissiyotlari va tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. San'at ijodiy hodisa bo'lib, u inson mehnati, aql-idroki, his-tuyg'ularining mahsuli hisoblanadi. San'at asarlarini yaratish orqali inson ijodiy faoliyatini, iste'dodini, tafakkur olamini, yuksak didini, qarashlarini, o'zligini namoyon etsa, san'at asarlarini tinglash, o'rganish orqali esa ruhiy orom, zavq oladi, ma'naviy oziqlanadi.

San'at asarlarida targ'ib etilgan ezgu g'oyalar ta'sirida insonning ma'naviy-axloqiy qarashlari takomillashadi, badiiy estetik didi yuksaladi, madaniyati shakllanadi. O'z tarixini, milliy an'analarini, urf-odat, qadriyat va milliy ohanglarini idrok qilish orqali ma'naviy o'zligini anglay boshlaydi. O'zbek mumtoz namunalari hisoblanmish maqomlar, suvoralar, folklor asarlari va dostonlarda Vatanni sevish, mehnat qilish, jasurlik, mardlik, do'stlik, mehr-muhabbat, bunyodkorlik, hurmat va havas, vafodor va sodiq bo'lish kabi go'zal insoniy fazilatlar targ'ib etiladi. Ayniqsa, «Pandnomalar» o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. «Muhabbatnoma», «Qutadg'u-bilig», «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Bo'ston», «Zarbulmasal» kabi ajdodlarimiz tafakkurining mahsuli bo'lgan mumtoz asarlar axloqiy tarbiya vositasi sifatida ko'p asrlardan buyon yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishga va o'zlik tarbiyasini shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Sa'diy Sheroziyning (1203-1292) «Guliston» va "Bo'ston" asarlari o'quvchilarda o'zligini anglashda, axloqi va ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda, insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim adabiy manbalar hisoblanadi. Sa'diy Sheroziy o'zining hayotiy boy tajribalari, egallagan dunyoviy, diniy bilimlari, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga tayangan holda o'zining buyuk didaktik ruhga ega bo'lgan «Guliston» (1257) va «Bo'ston» (1258) asarlarini yaratgan. Ushbu asarlarda inson o'zligini anglashga qaratilgan qarashlar, g'oyalarni o'z ichiga olgan. "Bo'ston" asari o'n bobga bo'linib: hamd; na't; kitobning yozilish sababi, Abu Bakr bin Sa'd bin Zangiy madhi, Sa'd bin Abu Bakr bin Sa'd madhi, birinchi bob – odilligu tadbiru andisha, ikkinchi bob – ehson, uchinchi bob – ishq, oshiqlik, to'rtinchi bob – tavoze', beshinchi bob – rizo, oltinchi bob – qanoat, yettinchi bob – tarbiyat olami, sakkizinchi bob – shukur qilish, tinchlik, omonlik, to'qqizinchi bob – tavba

va savob yo'li haqida, o'ninchi bob – munajot va kitob xotimasi haqida bayon etiladi. «Guliston» asari sakkiz bobdan iborat bo'lib: debocha, birinchi bob – podshohlar siyrati, ikkinchi bob - darveshlar axloqi, uchinchi bob – qanoat, to'rtinchi bob – sukut saqlashning foydalari, beshinchi bob – ishq va yoshlik, oltinchi bob – qarilik va zaiflik, yettinchi bob - tarbiyat ta'siri, sakkizinchi bob – suhbat odobi haqida yozilgan.

Ko'rinib turibdiki, «Bo'ston» va «Guliston» asarlari o'quvchi-yoshlarda o'zlik tarbiyasi shakllantirishning asosiy omillari hisoblangan imon, e'tiqod, vijdonni mustahkamlash, sabr, qanoat, shukronalik hissiga ega bo'lish, hayr-u ehsonli ishlarni amalga oshirishga intilish, axloqiy-ma'naviy tarbiyaga ega bo'lish yo'lini ko'rsatuvchi pedagogik vosita hisoblanadi. 5-sinf adabiyot darsligida «Guliston» asaridan namunalar taqdim etilgan.

Xulosa: Ajdodlarimiz ma'naviy-axloqiy tarbiyani aqliy hamda jismoniy tarbiya bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirganlar. Shuning uchun ular tomonidan yaratilgan asarlarning qahramonlari jasur, qo'rmas, vatanparvar, o'z xalqiga sadoqatli, halol insonlar sifatida namoyon bo'lganlar. Ularning doimiy mashg'uloti sifatida otda chopish, chovgan o'ynash, qilichbozlik, shaxmat o'yinlari, bahru-bayt aytish, musiqa cholg'ularini chalish kabilar ko'rsatilgan. Shaxs o'zining o'tmishini anglash orqali bugungi kuni va kelajagini aniq tasavvur etadi. Shu asosda o'zining rivojlanish, takomillashish yo'lini belgilab oladi. Ajdodlar merosi vositasida o'quvchilarda ma'naviy sifatlarni rivojlantirishda pedagoglar uzluksiz ta'lim jarayonida asrlar davomida o'zini oqlagan vositalari, shakllari va metodlaridan unumli foydalanish tajribasiga ega bo'lishlari lozim. Shundagina yosh avlod ajdodlarimizning bebaho ma'naviy merosini o'rganish, xalq va jamiyat ravnaqi yo'lida ushbu merosdan samarali foydalanish tajribasini o'zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Буюк алломаларимиз / Масъул муҳар. З.Исломов. - Т.: Ислом университети нашриёти, 2002. - 77 б.
2. Донишмандлар тарбияси хусусида / Тўпл. ва нашрга тайёр. А.Зуннунов. - Т.: Ўқитувчи, 1982. - 175 б.
3. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз такомилли босқичлари. - Т.: Шарқ, 1996. - 144 б.
4. Комил инсон ҳақида тўрт рисола / Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж. - Т.: Маънавият, 1997. - 280 б.
5. Кошифий Х.В. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тарихати / Тарж. Н.Комилов. - Т.: А.Қодирий номли Халқ мероси нашриёти, 1994. - 112 б.
6. Safarova R.G. Historical pedagogical sources and factors of development of students' logical thinking skills. Volume 1 issue 5 Ulf. 2022: 8.2 ISSN: 2181- 3337/ P.630-634. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7077041>

TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH VA UNDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI*Musaxanova Gulnora Mavlyanovna, TDIU katta o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini tashkil qilishni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, mustaqil ta'lim va uni ta'lim jarayonidagi o'rni, o'quv jarayonida o'tiladigan fanlar doirasidagi mustaqil ishlar va ular orqali qamrab olinadigan vazifalar haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, ta'lim shakli, mustaqil ta'lim, uzluksizlik, faollik, mustaqil fikr.

ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЁМ*Мусаханова Гулнара Мавляновна, старший преподаватель ТДЭУ, PhD*

Аннотация. В этой статье автором обсуждена проводимая в настоящее время работа по организации и развитию образовательного процесса в высших образовательных учреждениях, роль самостоятельной работы, в рамках дисциплин проводимых в учебном процессе и задачи, охватываемые ими.

Ключевые слова: образование, форма обучения, самостоятельное обучение, преемственность, активность, самостоятельное мышление.

THE ORGANIZATIONAL IMAGERY PROCESS AND THE ROLE OF CONSOLIDATED IMAGERY AND OBJECTIVES*Musakhanova Gulnora Mavlyanovna, senior lecturer of TDIU, PhD*

Abstract. In this article, the author discusses the ongoing work on the organization and development of the educational process in higher educational institutions, the role of independent work within the disciplines conducted in the educational process and the tasks covered by them.

Key words: education, form of education, independent education, activity, independent thinking.

Kirish. Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqilligi milliy ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Asosiy qism. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim jarayonini tashkil qilish va unda mustaqil ta'limning o'rnini tahlil etar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil qilish, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e'tirof etish mumkin. Shu bilan birga, ta'limning mustaqil ta'lim shaklini talqin etilganligi bois, 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ham ta'limni tashkil etish

shakllarini tahlil qilinib, unda mustaqil ta'limning o'rni va roliga alohida e'tibor qaratilganligi muhimdir. Mazkur Qonunda mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshirilishi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qilishi, oilada mustaqil ravishda ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berilishi davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan.

Talabalar o'quv faoliyati jarayonida mustaqil faoliyat olib borishi uchun pedagogdan quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borish talab qilinadi: fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmuani, ishchi daftari tayyorlash va o'qitish muhitini loyihalash; o'quv dasturini yangilash, ya'ni unga mustaqil ish mavzularini kiritish, mustaqil ta'limga oid namunaviy topshiriqlarni tayyorlash bilan muntazam ravishda nazorat qilib borish; talabalarning har tomonlama bilimdonligiga e'tibor berish, malakaviy bilimi va ko'nikmasini rivojlantirish; talabalar mustaqil ishni bajarayotganida qancha soat va ball berilishini hisoblash; o'qitishning yangi usul va vositalarini ko'rsatgan holda texnologik xaritani ishlab chiqish. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda mustaqil o'rganishga olib chiqilayotgan o'quv materiallari hajmi va mazmunining tuzilishiga katta e'tibor berish bilan bir qatorda uslubiy ta'minlashga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Uslubiy ta'minot faqatgina ma'lumotlar bazasi bo'lmay, u talabning ijodiy faoliyatga yo'naltirishi ham talab qilinadi. Ta'limni tashkil qilish jarayonida ma'ruza mashg'ulotlarining asosiy qismida talaba mustaqil ishlashi kerak, buning uchun ma'ruzani savol-javob-munozara shaklida tashkil etish lozim, ya'ni o'qituvchi yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo'yilgan savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi; ma'ruzani savol-javob usulida olib borishda o'qituvchi ma'ruza davomida butun kurs yoki bo'lim bo'yicha o'quvchilarning savollariga javob beradi; anjuman, ma'ruza, o'quv dasturi doirasida ilmiy-amaliy mashg'ulot sifatida, avvaldan belgilangan muammo bo'yicha ma'ruza va so'zga chiqishlar eshitiladi; mashg'ulot yakunida o'qituvchi ma'lumotlarni to'ldiradi va aniqlik kiritadi; o'quvchilarning vaqtincha erkin fikr almashishiga ruxsat beriladi; o'qituvchi ma'ruzaning yakunida talabalarning tashxisi va qo'yilgan xatoliklari tahlilini olib boradi; talabalarga savollar beriladi va ularning javoblaridan foydalaniladi.

Ta'limning auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ta'lim shaklida talabalar pedagoglar tomonidan berilgan topshiriqlarni o'qituvchining ishtirokisiz bajaradilar. Pedagog birinchi darsning o'zidayoq talabalarga fan uchun ajratilgan soat, mustaqil ishning turlari, nazoratning usul va shakllari hamda muddati, natijalarni baholash mezonlari, mustaqil ishning ahamiyati va zarurligini tushuntiradi.

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshiriladi: ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik; o'quv rejadagi fanlarning ma'ruza mashg'ulotlarida o'rganilmaydigan mavzularini mustaqil o'rganish; internetdan mavzuga doir kerakli ma'lumotlarni izlab topish; kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalarni tayyorlash; oliy ta'lim muassasasi axborot-resurs markazi katalogi orqali mustaqil ravishda adabiyotlarni izlash; o'quv-audio yozuvlarini eshittirish, video materiallarni ko'rish; o'rganilayotgan mavzu bo'yicha darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni o'rganish; nazorat topshiriqlarini bajarish; mavzular buyicha dokladlar, referatlar va esselar yozish; seminar va konferensiyalarda ma'ruza qilishga tayyorgarlik qilish; amaliy mashg'ulotlarda berilgan masala va misollarni yechish; o'quv materiallarini tizimli o'rganish maqsadida albom, jadval, sxema, rebus, testlar va krossvordlar tuzish; o'rganilayotgan mavzular bo'yicha alohida talaba yoki bir guruh talabalar ko'rgazmali qo'llanmalar, slaydlarni tayyorlashi; mustaqil o'rganilayotgan savollarga konspekt tayyorlash; ma'ruzada olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida testlarni yechishi; intellektual-ijodiy va ilmiy ishlarni bajarish va to'garaklarda ishtirok etishi; tanlovlar va olimpiadalarda qatnashishi; o'quv va malakaviy amaliyoti bo'yicha hisobotlar, talabalar konferensiyalariga ilmiy dokladlar tayyorlashi; joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rishi kabilar.

Talabalarni o'quv jarayonida dolzarb muammolarga bag'ishlangan eng yaxshi adabiyotlar bilan tanishtirish, yetakchi olimlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari, ilmiy to'garak ishini muntazam tashkil etish, talabalarning ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, konkurslari olimpiada va ko'rgazmalarini vaqti vaqti bilan o'tkazib turish shubhasiz,

talabalar faolligini oshiradi hamda ularni fanni o'rganishga rag'batlantiradi. Talabalar to'garak mashg'ulotlarida tayyorlagan ilmiy dokladlarini tinglovchilar hukmiga havola etar ekanlar, to'garak a'zolari ham uni muhokamasida faol ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. To'garak a'zolarining soni, muhokama qilinadigan masalalar, ilmiy dokladlarning miqdori, mavzularning mazmuni va boshqalarga ko'ra to'garak rahbari bir oy davomida ilmiy to'garaklar majlisi o'tadigan kunlarni belgilaydi. Eng yaxshi baho berilgan ilmiy dokladlar talabalarning ilmiy konferensiyalarida qatnashishiga tavsiya etiladi. Talabalarning ilmiy konferensiyasida eng yaxshi deb topilgan dokladlar rag'batlantiriladi, keyingi bosqichlarda qatnashishiga tavsiya etiladi. Mustaqil ishlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad auditoriya mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilim va malakalarni mustahkamlash, yangilarini o'zlashtirish va ijodiy ishlash malakasini tarkib toptirishdan iboratdir. Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tayyorlashda ta'lim oluvchilar o'quv materialini o'rganish muhimligini ongli ravishda tushunib yetishlari, shuningdek, samarali o'zlashtirish uchun ularda xohish-istak, qiziqish va ishonch bo'lishi ham talab etiladi. Tajriba ishlarini tashkil etishda ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirishdan oldin ularning dastlabki bilim darajasi, o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hamda mustaqil ishlash qobiliyatlarini tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, ushbu xususiyatlarni har tomonlama tahlil qilmay turib, talabalarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmazligi ham ayni haqiqat. O'qituvchi tomonidan bunday faol metodlarni tatbiq etilishi talabalarni mehnat qilishga, diqqatini tortishga o'z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga, izlanishga undaydi hamda darslarga qiziqishi ortib, qatnashish darajasi faollashadi.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, talabalarning qobiliyatlari o'zlashtirayotgan fanlari asosida mustaqil ta'lim jarayonida ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar hamda tajribalar zahirasi asosida rivojlanadi. O'quv fanlarini chuqur va puxta o'zlashtirish, ta'lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlarni mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish, ilmiy va ijodiy tafakkurini boyitish, o'quv-biluv jarayonidagi savol-javob va bahs-munozarlarda faol qatnashish, o'z fikr-mulohazasini asosli dalillar bilan bayon qilish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir talaba – bo'lajak mutaxassisni oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ЎРҚ-637-сонли «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. 2020-йил 23-сентябрь: <https://lex.uz/>
2. ПФ-5847-сонли «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси» Фармони. 2019 йил 8 октябрь: <https://lex.uz/>
3. Ҳақимова М., Мусаханова Г. Касбий педагогика. - Т.: ТДИУ, 2019. - 306 б.
4. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий методик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т., 2007.
5. Меренков А.В., Куньшиков С.В., Гречухина Т.И., Усачева А.В., Вороткова И.Ю. Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки: Учебно-методическое пособие / Под общ. ред. Т.И.Гречухиной, А.В.Меренкова. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. - 80 с.
6. Мусаханова Г.М. Талабаларнинг мустақил таълим жараёнидаги ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантиришнинг амалиётдаги аҳволи //Образование и инновационные исследования. - М., 2021. - №. 6. - С. 275-279.
7. Musakhanova G. Design and research method as an innovative approach aimed at the development of organizational abilities of students in the process of independent work // Current research journal of pedagogics. - 2021. - Т. 2. - № 9. - P. 110-115.

TA'LIM SIFATINING TARKIBIY QISMLARI, MEZON VA KO'RSATKICHLARI

Davronova Shaxlo Farmonovna, BuxDTI assistenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada «ta'lim sifati» tushunchasi, uning tuzilishi, ta'lim sifati tarkibiy qismlarining tuzilishi va o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Ta'lim jarayoni sifatini baholashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan mezonlar va o'quv jarayoni sifat ko'rsatkichlari taklif etilgan. Ta'lim sifatini ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarning ahamiyati bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, sifat, tizim, sifatli komponentlar, ta'lim jarayoni, ta'lim natijasi, ta'lim jarayoni sifati mezonlari va ko'rsatkichlari.

КОМПОНЕНТЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Давронова Шахло Фармоновна, ассистент БухГМИ, PhD

Аннотация. В статье рассматривается понятие «качество образования», его структура, структура и взаимосвязь компонентов качества образования. Предложены критерии, по которым можно оценить качество и показатели учебного процесса. Описана важность факторов, существенно влияющих на качество образования.

Ключевые слова: образование, качество, система, компоненты качества, процесс обучения, результат обучения, критерии качества и индикаторы процесса обучения.

COMPONENTS, CRITERIA AND INDICATORS QUALITY OF EDUCATION

Davronova Shakhlo Farmonovna, assistant of BukhSMI, PhD

Abstract. The article discusses the concept of «quality of education», its structure, structure and the relationship of components of the quality of education. The criteria by which it is possible to evaluate the quality and indicators of the educational process are proposed. The importance of factors that significantly affect the quality of education is described.

Key words: education, quality, system, quality components, learning process, learning outcome, quality criteria and indicators of learning process.

Kirish. Sifat ta'limni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda va ta'limning har qanday islohoti ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Bu zamonaviy pedagogika va umuman jamiyatning asosiy masalalaridan biridir. Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogik adabiyotlarda «ta'lim sifati» tushunchasi keng talqin qilinmoqda.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogikada ta'limga ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan tizim sifatida qaraladi. Ta'lim tizim sifatida yaxlitlik, ichki o'zaro bog'liqlik, tashkiliylik, ochiqdigi bilan ajralib turadi. Ta'lim – bu mustaqil tizim bo'lib, uning vazifasi ma'lum bilimlarni (birinchi navbatda, ilmiy), g'oyaviy va axloqiy qadriyatlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar, xulq-atvor meyorlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan jamiyat a'zolarini tayyorlash va tarbiyalashdan iborat [1, 82-83-b.]. «Ta'lim» va «sifat» tushunchalariga asoslanib, ta'lim sifati ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik kategoriya sifatida qaralishini anglash mumkin. Uslubiy jihatdan «ta'lim sifati» ta'rifi nafaqat ta'lim tizimida, balki butun jamiyat taraqqiyotida ham muhim bo'lgan ta'lim jarayoni va natijasining o'ziga xos xususiyati sifatida qarash kerak. "Ta'lim sifati" tushunchasini barcha obyektiv va subyektiv xususiyatlarni hisobga olgan holda kompleks ta'lim deb ta'riflash mumkin.

Talabalarning vakolatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan ta'lim muassasasining ko'rsatkichlari to'plami (ta'lim mazmuni, o'qitish shakllari va usullari, moddiy-texnika bazasi va boshqalar) ta'lim sifati sifatida belgilanadi. A.S.Zapesotskiy o'z ishida ta'lim sifatini quyidagicha ko'rib chiqadi: 1) natija, bu yerda ta'lim sifati – bu professional muhitda va umuman jamiyatda talab qilinadigan mutaxassisning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari tizimi; 2) ta'lim sifati – bu nafaqat fuqarolarning, balki tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini ta'minlaydigan ta'lim jarayonining xususiyatlari va ularning majmui bo'lgan jarayon [2]. Ta'lim sifatini aniqlashga yondashuvlarni umumlashtirishni L.N.Davidov [3], ta'lim sifatini ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan, uning maqsadlarini amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalar va ijobiy natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ko'rib chiqishni taklif qiladi. Binobarin, "ta'lim sifati" tushunchasini ko'plab tarkibiy qismlarning to'plami sifatida ko'rib chiqish mumkin, ulardan eng ahamiyatlisi – bu talabalarning bilim, ko'nikma, qobiliyat, malakalari darajasini, ularning shaxsiy xususiyatlarining rivojlanish darajasini, ta'lim olishning psixologik qulayligini belgilaydigan xususiyatlardir. Davlat darajasida ta'lim sifati – bu qabul qilingan ta'lim tizimining ijtimoiy talablar va meyorlar (standartlar)ga muvofiqligi. Shu munosabat bilan, ko'plab elementlarning to'plami bo'lgan ta'lim sifatining ushbu tarkibiy qismlarini o'rganish kerak bo'ladi. Ta'lim sifatida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) protsessual (ta'lim muassasasining ma'muriy va tashkiliy tuzilishi, o'qituvchilarning uslubiy va psixologik va pedagogik tayyorgarligi, ta'lim dasturi, o'quv rejaları va dasturi, moddiy-texnik bazasi va boshqalar); 2) natija (ta'lim, quyidagi bloklardan iborat: axborot, madaniy, qiymat-motivatsion, resurs) [4]. Ta'lim sifatiga quyidagilar kiradi [1]: talabalarning ta'lim yutuqlari darajasi; talabalar tafakkurining rivojlanish darajasi; o'rganish uchun motivatsiya; ta'lim jarayonining psixologik qulayligi; foydalanilgan ta'lim dasturlari tarkibining sifati; ta'lim dasturlarini amalga oshirish sifati. Shu bilan birga, "ta'lim sifati" tushunchasi ijtimoiy o'zgarishlar bilan birgalikda doimiy ravishda yangilanib boradi. Ta'lim sifatini baholash uchun asosan natijalar sifati ko'rib chiqiladi, ularning elementlari quyidagilardan iborat [5, 42-b.]: bilim, qobiliyat, ko'nikma; shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlari; ta'limning salbiy oqibatlari; o'qituvchining kasbiy malakasi va ishga bo'lgan munosabatining o'zgarishi. Ta'lim sifatini biz uchta asosiy tarkibiy qismning o'zaro bog'liq tuzilishi sifatida ko'rib chiqamiz: natija sifati, jarayonning sifati, sharoitlarning sifati. Natija sifatini baholash sharoitlar sifati va jarayon sifatining o'zgarishini belgilab berganligi sababli yoki jarayonning sifatini baholash sharoitlarning rivojlanishini belgilaydi va natijalar sifatiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, butun ta'lim tizimining sifatini oshirish uchun o'zaro jarayon (spiral rivojlanish jarayoni) mavjud. Sharoitlarning sifati quyidagi elementlarni (xususiyatlarni) o'z ichiga oladi [5]: moddiy-texnika bazasi darajasi; o'qituvchilar faoliyatining sifati; boshqaruv organlari faoliyati; talabalarning shaxsiy fazilatlarini; o'quv-uslubiy ta'minot darajasi; ichki va tashqi baholash sifati. Jarayon sifatining asosiy tarkibiy qismlari: ta'lim dasturlarining ta'lim mazmunining sifati; o'quv jarayonini boshqarish; o'quv, uslubiy va moddiy-texnik ta'minot sifati; o'quv jarayoni texnologiyasi; o'qituvchilarning sifatli tarkibi; talabalarning sifati. Natija sifati quyidagi elementlardan tashkil topgan tizim sifatida qaralishi mumkin: talabaning bilim sifati; talabaning o'quv-bilish faoliyati sifati; talaba shaxsini rivojlantirish; bitiruvchining tayyorgarlik darajasi; bitiruvchining malakasi; bitiruvchilarning raqobatbardoshligi va ish bilan ta'minlanishi;

bitiruvchilarning yutuqlari va kasbiy o'sish dinamikasi; talaba shaxsini rivojlantirish. Ta'lim sifatining tarkibiy qismlari o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, keyingi tarkibiy qismlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Bilim sifati, o'quv-bilish faoliyati sifati va talaba shaxsini rivojlantirish bitiruvchining yuqori darajadagi tayyorgarligi va malakasini shakllantirishga ta'sir qiladi. Bitiruvchining malakasi va tayyorligi raqobatbardoshligini oshiradi va ularning ish bilan ta'minlanishiga ta'sir qiladi. Bitiruvchilarning yutuqlari va keyingi martaba o'sishi natija sifati va shu bilan birga, ta'lim sifatini ko'rsatadi. Ta'lim jarayoni talabani o'qituvchi bilan, talabani talaba bilan, talabani tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalarini, turli xil faoliyat turlarini (tarbiyaviy, ijodiy, intellektual va boshqalar), jarayonni tashkil etish shart-sharoitlari, teskari aloqa, turli omillar va boshqalarni amalga oshiradi. Ushbu tushuncha "o'quv jarayoni" tushunchasidan kengroq. Shuning uchun A.V.Xutorskoy ta'lim jarayonini o'qitish subyektlarining ta'lim natijalariga erishish uchun ularni maxsus uyushgan sharoitda pedagogik asoslangan, izchil, uzluksiz o'zgarishi deb ta'riflaydi [6, 48-b.]. Mashg'ulot subyektlari o'qituvchilar va talabalardir, shuning uchun ta'lim jarayoni bu o'quvchilarning o'quv, bilim va o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati bilan birlikda, maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan o'qituvchi va o'qitish faoliyati tizimidir. Ta'lim jarayoni – bu o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish, rivojlantirish va tarbiyalash jarayoni sodir bo'ladigan pedagogik tizimning markaziy bo'g'ini. Ta'lim jarayoni o'ziga xos tarkibiy qismlarga ega: 1) maqsadli komponent; 2) tarkib komponenti; 3) faoliyat komponenti; 4) tashkiliy qism; 5) texnologik komponent; 6) vaqt komponenti. Shu bilan birga, ta'lim jarayoni sifatining xususiyatlariga jarayon samaradorligiga ta'sir qiluvchi boshqa tarkibiy qismlar kiradi. Ular, ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari bilan parallel ravishda, ta'lim jarayoni sifatining tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ta'lim jarayoni sifatining bunday tarkibiy qismlari quyidagilar bo'lishi mumkin: 1. Ta'lim dasturlarining mazmuni. 2. Ta'lim jarayonini boshqarish. 3. Ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va moddiy-texnik ta'minoti. 4. Ta'lim jarayoni texnologiyasi. 5. O'qituvchilarning sifatli tarkibi. 6. Ta'lim oluvchilarning sifati. Ta'lim jarayoni sifatining ushbu tarkibiy qismlari monitoring obyektiga aylanishi mumkin. Biroq, ushbu obyektlarning o'z darajalari, mezonlari va ko'rsatkichlari mavjud, ular yordamida siz obyektning holatini va uning o'zgarishini kuzatishingiz mumkin. Mezonlarni, ko'rsatkichlarni tanlash muammosi o'quv jarayoni sifatini nazorat qilishni tayyorlash va tashkil etishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim sifati muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarda monitoring va baholashning turli mezonlari va ko'rsatkichlari berilgan. Ta'lim sifatining quyidagi mezonlari va ko'rsatkichlari mavjud [1, 48-b.]: bilim, qobiliyat va ko'nikmalar; shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlari; o'qituvchining kasbiy malakasi va ishga bo'lgan munosabati o'zgarishi; oliy o'quv yurtlarini jamiyatdagi obro'sining o'sishi. Ta'lim sifati ko'rsatkichlarining yaxlit tizimi ishlab chiqilgan, unda natijalar sifati va jarayonlar sifati aks ettirilgan [7, 16-17-b.]: o'qitish sifati va o'qituvchilarning malakasini oshirish darajasi; o'quv ishlarining sifati va kasbiy darajasi; o'qituvchilarning rivojlanishi; ta'lim muassasasida pedagogik va talabalar ishini tashkil etish darajasi va samaradorligi va boshqalar. O'quv jarayoni sifatining mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash masalasida quyidagi fikrlarni hisobga olish kerak: 1) sifat ko'rsatkichlari va mezonlari ta'lim natijalari bo'yicha aniqlanishi mumkin. Bunday holda, ta'lim jarayoni sifati natijalar sifati bilan nazorat qilinadi; 2) ta'lim jarayonining sifatini aniqlashda natijani ham, jarayonni ham, ta'lim jarayonining ishlash sharoitlarini tavsiflovchi mezon va ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Ushbu ikkinchi nuqta, bizning fikrimizcha, ta'lim jarayoni sifatini to'g'ri va ko'p qirrali baholashga olib kelishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda, ta'lim jarayoni sifatining tarkibiy qismlari, mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ushbu mezon va ko'rsatkichlar mukammal emas. Ular yangi tarkib va tarkibiy qismlar bilan to'ldirilishi mumkin. Vazifalar va sharoitlarga muvofiq ba'zi mezon va ko'rsatkichlarning mazmuni o'zgarishi mumkin.

Xulosa. Zamonaviy sharoitda rejalashtirish, tashkil etish va sifatni boshqarish bilan shug'ullanadigan OTM raqobatbardosh va samarali ishlashi mumkin. Ushbu jarayonda barcha ichki resurslarni jalb qilish kerak, chunki ushbu maqolada keltirilgan ta'lim jarayoni sifatining tarkibiy qismlari, mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq qilishi va har tomonlama rivojlanishi oliy ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Педагогика: Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, А.И. Мищенко, Е.Н. Шиянов. - М.: Школа-пресс, 2000. - 512 с.
2. Запесоцкий А.С. Образование: философия, культурология, политика. - М.: Наука, 2002. - 456 с.
3. Давыдова Л.Н. Различные подходы к определению качества образования / Качество. Инновации. Образование. - М., 2005. - № 2. - С. 5-8.
4. Панасюк В.П. Педагогическая система внутришкольного управления качеством образовательного процесса: Дис. ... д-ра пед. наук. - СПб., 1998. - 190 с.
5. Управление качеством образования: Практико-ориентированная монография и методическое пособие / Под ред. М.М. Поташника. - М.: Педагогическое общество России, 2000. - 448 с.
6. Хуторской А.В. Современная дидактика: Учебник для вузов. - СПб., Питер, 2001. - 544 с.
7. Зверева В.И. Самоаттестация школы. - М.: Центр "Педагогический поиск", 2000. - 160 с.

ОБЩЕНИЕ КАК НЕОБХОДИМОЕ УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ

Клычева Зульфия Полатовна, к.психол.н., доцент Нукусского ГПИ

Аннотация. В статье раскрывается психологическое исследование об общении, которое является необходимым условием развития и формирования личности.

Ключевые слова: *общение, личность, младший школьный возраст, социально-психологические исследования.*

MULOQOT ZARUR SHART SIFATIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Klicheva Zulfiya Polatovna, psixol.f.n., Nukus DPI dotsenti

Annotatsiya. Maqolada psixologik tadqiqotlar bo'yicha muloqot tushunchasi o'rganildi va uning shaxs shakllanishidagi ahamiyati katta ekanligi ko'rsatildi.

Tayanch so'zlar: *aloqa, shaxsiyat, boshlang'ich maktab yoshi, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar.*

COMMUNICATION AS A NECESSARY CONDITION FORMATION AND DEVELOPMENT OF PERSONALITY

*Klicheva Zulfiya Polatovna, candidate of psychological sciences,
associate professor of Nukus SPI*

Abstract. In article discovers psychological investigation of the notion about relation which is necessary condition of developing and forming personality.

Key words: *contact, personality, younger school age, social-psychological investigation.*

Введение. Общение является необходимым условием развития и формирования личности. В процессе учебной деятельности учащийся выступает как субъект и объект общения. Круг и виды общения у школьников весьма разнообразны, они определяются социальной ситуацией развития ребенка, его возрастными и индивидуальными особенностями и т.д. Учебная деятельность неразрывно связана с общением. Поэтому нарушения общения школьника с людьми, с которыми он взаимодействует в процессе учебной деятельности, непременно сказываются и на характере поведения ребенка в школе.

Основная часть. В исследовании проблем общения большая заслуга принадлежит российским психологам. Среди них Б.Ф.Ломов, А.А.Бодалев, А.А.Лентьев, Л.П.Буева, А.В.Петровский, Я.Л.Коломинский, А.А.Мудрик, И.В.Дубровина и др. В этих исследованиях выявлено, что общение – многогранный процесс, изучаемый разными науками в различных аспектах. Эта многогранность и сложность самого феномена общения сказывается и на его определении, на раскрытии объема и содержания понятия. Л.С.Выготский отмечал большую роль общения в процессе формирования высших психических функций. Раскрывая выдвинутый им принцип «извне во внутрь», он подчеркивал, что функция сначала закладывается в сотрудничестве в процессе общения ребенка с взрослым и ровесниками и только затем становится высшей психической функцией. «Этот переход от форм

социальной, коллективной деятельности ребенка к его индивидуальным функциям является общим законом развития для всех высших психических функций, которые возникают первоначально как формы деятельности в сотрудничестве и лишь, затем переносятся ребенком в сферу психологических форм деятельности».

Б.Г.Ананьев, говоря об объекте исследования и предмете психологии, подчеркивал, что человек является субъектом труда, познания и общения. Общение, по его мнению, представляет собой сплав индивидуального и социального. Оно выступает, с одной стороны, как средство построения человеком своих взаимоотношений с людьми, а, с другой, – как процесс формирования его психического мира.

Процесс общения в целом в психологии принято рассматривать по определению его функций – с трех сторон: коммуникативной, интерактивной и перцептивной. Коммуникативная сторона общения состоит в обмене информацией между общающимися индивидами. Интерактивная сторона общения заключается в организации взаимодействия между общающимися индивидами, т.е. в обмене не только знаниями, идеями, но и действиями. Перцептивная сторона общения означает процесс восприятия друг друга партнерами по общению и установлению на этой основе взаимопонимания. Так, в учебнике «Социальная психология» под редакцией А.В.Петровского отмечается, что межличностное общение – непереносимое условие и одновременно порожденный жизненными потребностями человеческого общества гибкий многоцелевой механизм формирования личности ребенка в ходе усвоения им социально-исторического опыта человека. Общение со сверстниками, как совместная деятельность, обязательная предпосылка становления личности ребенка. В процессах общения он вырабатывает коммуникативные умения, навыки, формирует знания об окружающих и собственном «Я» путем сравнения себя со сверстниками, а затем и с взрослыми. Н.Н.Обозов под «общением» понимает «...такое специфическое взаимодействие, при котором обязателен взаимный обмен мыслями и чувствами с образованием общего «фонда» мыслей и чувств. Только при общении как высшей форме взаимодействия возможен взаимный обмен знаниями, умениями, интересами, ценностными ориентациями. Этот взаимный обмен оказывается особенно плодотворным, если между людьми устанавливаются межличностные отношения». Л.П.Буева говорит о роли общения в формировании личности: «...общение – всегда личностное отношение, в разных его формах активизируются и развиваются разные грани личности, каждая из этих форм может обладать разной значимостью для общества и личности». Б.Ф.Ломов отмечает, что такая проблема в психологии, как общение и личность, разработана явно недостаточно. «Между тем вряд ли можно понять процесс формирования и развития личности без анализа тех реальных связей с другими людьми, в которых этот процесс только и может осуществляться. Личность формируется в системе общественных отношений, в которые она включена социально необходимым образом посредством деятельности и общения». Наиболее близок к целям нашего исследования подход А.А.Бодалева и Р.Л.Кричевского, которые рассматривают общение как взаимодействие людей, где всегда разворачивается взаимопонимание ими друг друга, устанавливаются те или иные взаимоотношения, а также всегда имеет место определенное взаимообращение (в смысле поведения, выбираемого участвующими в общении людьми по отношению друг к другу) и поэтому, как считают авторы, «... межличностное общение постоянно оказывается таким про-

цессом, который, конечно, при условии, если мы хотим постичь его суть, мы должны рассматривать как систему «человек-человек» во всей многоаспектной динамике ее функционирования. И таким образом, в качестве объекта исследования при изучении общения должны выступать не отдельные люди – его участники, а оно само, рассматриваемое как целостный процесс, должно изучаться психологами сначала как монообъект, а затем как элемент более широкой по существу своих основных характеристик социальной системы». Во взаимодействии людей, которое выступает как общение, каждый человек постоянно оказывается в роли объекта и субъекта этого общения. Как субъект он познает других участников общения, проявляет к ним интерес, воздействует на них. И одновременно он оказывается объектом познания для всех тех, с кем он общается. При этом необходимо отметить, что пребывание каждого участника общения одновременно и в роли объекта, и в роли субъекта характерно для любого вида непосредственного общения людей, будь то общение людей, будь то общение учителя и ученика, родителя и ребенка, начальника и подчиненного, артиста и зрителя, врача и больного.

Общение, поскольку оно является одним из основных видов деятельности людей, не только постоянно выявляет основные характеристики их как объектов и субъектов общения, но и в зависимости от того, как оно протекает и какие требования предъявляет к их познавательным процессам, к их эмоционально-волевой сфере и насколько в целом отвечает имеющемуся у каждого из них идеалу общения, так или иначе, оказывает влияние на весь ход дальнейшего формирования их личности и наиболее явственно на такие блоки свойств в ней, в которых находит выражение ее отношение к другим людям и к себе. А изменения, которые в людях происходят под давлением так или иначе (с положительным или отрицательным результатом для целей каждого участника) развертывающегося общения, в свою очередь, более или менее сильно воздействуют на такие базисные свойства личности, в которых выражается ее отношение к различным социальным институтам и общностям людей, к природе, к общественной и личной собственности, к труду. Таковы некоторые общие соображения А.А.Бодалева и Р.Л.Кричевского относительно путей и форм влияния общения на формирование и развитие личности.

Варианты различных классификаций понимания общения, подходов в его исследовании в представлении российских психологов достаточно многообразны. Практически каждый автор, исследующий проблему общения, предлагает как свой вариант классификации существующих в современной психологии точек зрения на этот процесс, так и собственное понимание общения. Как справедливо отмечает А.А.Леонтьев, «...в современной науке об общении существует столь огромное количество несовпадающих определений общения (коммуникации), что вопрос о дефиниции этого понятия становится можно сказать, самостоятельной научной проблемой».

Вывод. В целом, подводя итог обзору исследований общения в современной психологии, можно сказать, что в основе построения исследований российских психологов лежит рассмотрение общения как проявления общественных отношений, а не как самостоятельная сущность. Объектом социально-психологического исследования выступают, как правило, реальные социальные группы (учебные, спортивные, трудовые и т.д.). Еще одной отличительной чертой исследований российских психологов является использование большинством авторов деятельнос-

тного подхода при анализе процесса общения. Вычленение различных сторон процесса общения осуществляется психологами лишь условно для облегчения теоретического анализа этого явления. Исследователи ставят перед собой задачу не абсолютизировать какую-либо сторону или аспект общения, а рассматривают все стороны общения во взаимосвязанном и взаимообусловленном единстве. Именно о таком подходе к исследованию общения идет речь в работах А.В.Петровского, А.А.Бодалева, А.А.Леонтьева, М.И.Лисиной, Б.Ф.Ломова и многих других. Однако, несмотря на единый методологический подход к исследованию общения у российских психологов, как было показано выше, существуют различные точки зрения на содержательную сторону этого процесса, отсутствует общепринятая позиция по поводу соотношения понятий «общении» и «деятельности», используются различные в отдельных случаях противоречивые толкования общения.

Литература:

1. Психология воспитания / Под ред. В.А.Петровского. - М.: Прогресс, 1995.
2. Ганиева Э.И., Адизова Т.М. Формирование стиля общения в учебно- воспитательном процессе: Методические рекомендации. - Т.: ТДПУ, 2001.
3. Ганиева Э.И. Формирование индивидуального стиля общения у подростков в учебно-воспитательном процессе: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. - Т., 2002.
4. Клычева З.П. Межличностные отношения младших школьников // Boshlang'ich ta'lim. - М., 2003. - 3-son. - В. 11-15.

FORSAYT TEXNOLOGIYASINI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Akbarova Sayyora Shuxratovna, TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Forsayt texnologiyasining turli sohalar kelajagini tahlil qilish hamda rejalashtirishdagi o'rni, mazmuni va mohiyati; Forsayt texnologiyasining hususiyatlari va uni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari; Forsayt kompetensiyani shakllantirish zaruriyati va yo'llari kabi masalalar yoritilib, ushbu texnologiyadan oliy ta'limda foydalanish bo'yicha ba'zi xulosa va takliflar berilgan.

Tayanch suzlar: *innovation, concept, forecast, rezhalashtirish, tahlil kilish, tasavvur kilish, zamonaviy o'qish texnologiyalari, creative, kompetent, foresight, foresight technology, foresight compence.*

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ФОРСАЙТ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Акбарова Сайёра Шухратовна, базовый докторант ТГПУ

Аннотация. В статье раскрываются роль, содержание и сущность технологии Форсайт при анализе и планировании будущего различных сфер; особенности технологии Форсайт и возможности ее применения в образовательном процессе; освещаются такие вопросы, как необходимость и способы формирования форсайт-компетенций, а также даются некоторые выводы и предложения по использованию данной технологии в высшем образовании.

Ключевые слова: *инновация, концепция, прогноз, планирование, анализ, воображение, современные технологии обучения, креативность, компетентность, форсайт, форсайт-технология, форсайт-компетенция.*

OPPORTUNITIES FOR THE APPLICATION OF FORSYTHE TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Akbarova planet Shuhratovna, base doctoral student of TSEU

Absract. The article reveals the role, content and essence of Foresight technology in the analysis and planning of the future of various areas; features of Foresight technology and the possibility of its application in the educational process; highlights such issues as the need for and ways of forming foresight competencies, as well as some conclusions and suggestions on the use of this technology in higher education.

Key words: *innovation, concept, forecast, planning, analysis, imagination, modern learning technologies, creativity, competence, foresight, foresight technology, foresight competence.*

Kirish. Hozirgi davrda, ya'ni global texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada oshdi. Bu esa, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan malaka talablarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Bugungi talaba texnologik bilimlarni tashuvchisi va kelajakda yangidan-yangi ijodiy g'oyalarni, texnologiyalar hamda jarayonlar loyihachisidir. Ta'lim dasturini o'zlashtirish jarayonida talabaning o'z kasbiy faoliyatini oldindan ko'ra olish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki ular faoliyat yuritadigan sohasidagi bozor ehtiyojlarini,

buyurtmalarni, sohadagi texnik va texnologik modernizatsiyalashni hisobga olgan holda kelajakdagi mehnat faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim. Buning uchun soha kelajagini tahlil qila olish hamda uzoq vaqt davomida kelajakka ta'sir qiluvchi omillarni takomillashtirish maqsadida qarorlarni qabul qila olish kabi «forsayt» texnologiyasini o'zlashtirishlari lozim.

Asosiy qism. Tadqiqotning maqsadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari juda ko'p, ammo ularning aksariyati fan va texnika taraqqiyotini oldindan ko'ra olish, yutuqlarini prognoz qilish, ularni tasavvur qilishda ilgari ketish kerakligini o'rgatmaydi, ya'ni ta'limni kelajakka yo'naltirishni hisobga olmaydi. Talabalarda kelajakni tasavvur qilish qobiliyatini shakllantirishga imkon beruvchi yangi texnologiyalardan biri bu – «forsayt»dir. Bugungi kunda «Forsayt», «Forsayt texnologiya» va «Forsayt kompetentsiya» kabi yangi tushunchalar paydo bo'lib, forsaytning kelib chiqishi, uning turli sohalar kelajagini tahlil qilish hamda rejalashtirishdagi o'rni, mazmuni va mohiyati hamda forsayt faoliyatini olib borishga oid materiallar internet manbalarida keltirilgan [1-3]. Forsayt soha kelajagidagi yangi yo'nalishlarni, paydo bo'layotgan yangi zamonaviy texnologiyalarni, yangi ijtimoiy talablar va muammolarni aniqlash hamda baholash va amalda qo'llash kabi muhim jihatlariga ega mutaxassislar sonini oshirish uchun maxsus dasturlar asosida o'qishni tashkil etish bilan birga bo'lajak mutaxassislarda, ya'ni talabalarda «Forsayt texnologiya»sini o'zlashtirishga sharoit yaratib, ularda «Forsayt kompetentsiya»ni shakllantirish va rivojlantirishni yo'lga qo'yishi lozim [4-6]. Tadqiqot ishimizni olib borish davomida ta'limning kredit-modul tizimida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ishlashi orqali o'quv modullarini o'zlashtirish jarayonida talabalarda forsayt kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish maqsadi paydo bo'ldi.

«Forsayt» – bu inglizchadan tarjima qilinganda kelajakka nazar degan ma'noni anglatib, biror bir voqea, jarayon, xodisani bir necha yil oldinga nazar tashlagan holda kelajakdagi holatini ko'zdan kechirishni nazarda tutadi. Forsayt orqali turli sohalardagi hozirgi holat, muammolarni aniqlagan holda, uning yaqin va uzoq istiqboliga, soha rivojiga hissa qo'shadigan yechimlar, yo'nalishlar aniqlanadi. Forsayt ko'pincha ishtirokchilar va mutaxassislarning birgalikdagi ishlashi natijasida kelajak strategiyasini ishlab chiqish hamda rivojlanishning tashkiliy muammolari bilan bog'liq yechimlarini topish uchun qo'llaniladi. Forsayt ishtirokchilari mamlakat iqtisodiyoti jabhalari kelajagining turli jihatlariga e'tibor qaratgan holda faoliyat yuritadilar. Forsaytning bir qator yo'nalishlari mavjud: Hududiy forsayt – asosiy vazifasi xududning mintaqadagi o'ziga xos pozitsiyasini, ya'ni raqobatbardosh ustunligini aniqlashdan. Soha forsayti – asosiy vazifasi ma'lum bir sohaning ishlab chiqarish tizimidagi (mehnat taqsimoti tizimi) o'rmini aniqlashdan. Korxonalar forsayti – asosiy vazifasi korxonalar faoliyatining xususiyatlari va holatiga qarab kelajak strategiyasini aniqlashdan. Bozor forsayti – asosiy vazifasi talab va takliflarni o'rganish asosida iste'molchi ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratib, so'ngra mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishlarini aniqlashdan. Jamiyat forsayti – asosiy vazifasi inson qadrini oshirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy yo'nalishlarni aniqlashdan iborat. Dunyoda so'nggi yillarda texnologik taraqqiyot keskin sur'atlarda o'sgani sari kelajakni rejalashtirishning samarali usuli bo'lgan «Forsayt» usullaridan foydalanishga o'tilmoqda. Forsaytning vazifasi: kelajakni taxmin qilish emas, balki qaror qabul qiluvchilar va yetakchi ekspertlarning fikrlari bilan kelishgan holda kelajakni «maqsadli» ko'rishni shakllantirish va asosiy muammolarga javob berish hamda tegishli maqsadlarga erishish uchun uzoq muddatli harakatlar dasturini ishlab chiqishga kirishishdir» [6]. Demak, forsaytning maqsadi – mumkin bo'lgan kelajakni tasavvur qilish, kelajakning istalgan qiyofasini yaratish va unga erishish strategiyasini aniqlashdir. Forsayt – faoliyat sifatida ishtirokchilar xarakatini birlashtiradi hamda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni birgalikda yechimini topish uchun sharoit yaratadi. Forsayt – texnologiya sifatida ham barcha sohalardagi malakali mutaxassislarga o'z sohasining hozirgi xolati, muammolari, yutuqlari va istiqbolini tahlili natijasida sohani innovatsion rivojlantirishning eng muhim

yo'nalishlarini aniqlash, baholash va soha kelajagi uchun qaysi variant eng maqbul ekanligi haqida umumiy fikrni shakllantirishga, ya'ni umuman aytganda, o'z kasbiy faoliyatining kelajagiga qarashga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, Forsayt – bu ma'lum sohaning kelajakdagi istalgan qiyofasini bashorat qilishga, loyahasini tuzishga, modellashtirishga hamda ushbu kelajak kontekstida ma'lum bir xarakterlar ketma-ketligini shakllantirishga yordam beradigan yondashuvlar to'plami yoki boshqacha qilib aytganda, bo'lajak mutaxassisning kasbiy professional tahlil qilishiga xizmat qiluvchi texnologiyadir [7].

Forsayt texnologiyasi ishtirokchilar va mutaxassislarning birgalikdagi fikrlash, muhokama qilish kabi kelajakni belgilashga qaratilgan turli harakatlar orqali kelajakni oldindan tasavvur qilishni va uni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Forsayt texnologiyasining prognozlashdan farqi shundaki, u mutlaqo hamma uchun ochiq va kelajak tasavvurini yaratishda ishtirokchilarga cheklovlar qo'ymaydi. Forsayt – bu ishtirokchilarning ijodiy salohiyatini cheklamaydigan texnologiyadir. Bu shuni anglatadiki, forsaytda davra ishtirokchilarini jalb qiladigan g'oyalarni muhokama qilish natijasi sifatida uzoq vaqt davomida soha kelajagiga ta'sir qiluvchi omillar belgilanadi, ya'ni sohaning rivojlanish kontseptsiyasi yaratiladi. Bunday davra suhbatlari ko'proq g'oyalarni ishlab chiqish, birgalikdagi yechimlarni topish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, forsayt ishtirokchilarining shaxsiy strategiyalarini takomillashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Forsaytning ushbu xususiyatlari forsayt texnologiyasini o'quv jarayoniga muammosiz integratsiya qilish imkonini beradi. Forsayt mashg'ulotlar auditoriyada ham, auditoriyadan tashqarida ham o'tkazilishi mumkin. Ta'limda forsayt faoliyat forsayt texnologiyasi asosida guruhlarda faol ishlashda talabalar o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini ochib beradigan kelajak tasavvurlarini taklif qilishadi. Ayniqsa, talabalarning mustaqil ishlashi jarayonini forsayt faoliyat tarzida tashkil qilish ularning ijodiy ishlash va ijodiy mustaqil fikrlash kabi kreativ kompetentsiyalarini rivojlanishiga olib keladi. Bu esa, talabalarda nafaqat kelajak obrazini yaratish, balki munozara qilishning mumkin bo'lgan barcha kommunikativ usullaridan foydalangan holda ushbu obrazning optimal timsolini topish hamda uni hayotga tatbiq etishda muhimdir. Hozirgi zamon mutaxassislarining asosiy kompetentsiyalaridan biri kelajakni ko'ra bilish, ya'ni forsayt faoliyat yuritish qobiliyatidir. Soha kelajagi mutaxassisning kasbiy xarakterlariga bog'liqdir, ammo kelajak o'zgaruvchan, uni o'zlashtirish, o'zgartirish va takomillashtirish mumkin. Bularning bari bo'lajak mutaxassis forsaytni qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liq. Chunki bu faoliyat vaziyatga qarab shaxsda o'z sohasini rivojlantirish va takomillashtirishga qodir ijodiy yondashuvlarni va usullarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradi [8].

Yuqorida keltirilgan fikrlar talabalarda soha kelajagini maqsadli ko'rinishda tasavvur qila olish qobiliyati, ya'ni forsayt kompetentsiya zarurligini va uni ta'lim muassasasidagi o'qitish jarayonida shakllantirishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, talabanning Forsayt kompetentsiyasi – bu tanlagan sohasi bo'yicha o'zlashtirayotgan bilim, malaka va ko'nikmalar asosida o'z sohasining hozirgi holatini va muammolarini tahlil qila olgan holda, uning kelajak istiqbolini tasavvur qilish hamda unga erishish uchun uzoq muddatli harakatlar dasturini ishlab chiqish, ya'ni forsayt faoliyat yuritish qobiliyatidir. Forsayt bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan forsayt kompetentlik tarkibiga kiruvchi forsayt kompetentsiyaning quyidagi bir-biriga aloqador muhim komponentlari belgilab berildi.

Komponentlarning qisqacha mazmunini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Kreativ tafakkur – insonning noaniq voqealarni noan'anaviy, o'ziga xos tarzda tasavvur qilishini anglatadi. Hissiy intellekt – insonning hislarni fahmlay olish, farqlay olish, boshqalarning xohish va istaklarini tushunish hamda maqsad yo'lida o'z hislarini va boshqalarning hislarini boshqara olishini anglatadi. Tanqidiy fikrlash – narsa va

ma'lumotlarni tahlil qilish, hodisalarni sharhlash, baholash va keyin obyektiv xulosalar chiqarish uchun ishlatiladigan mulohazalar tizimidir. Tanqidiy fikrlash insonlarga ko'proq mantiq bilan qat'iy xulosalar chiqara olishlari uchun muammoning turli tomonlariga qarash imkonini beradi.

Muammolarni ko'p yechimli darajada hal qilish – amaliy yoki nazariy vazifalarni bajarishda paydo bo'lgan murakkab muammolarni to'liq tushunib olishga erishishni, ushbu muammolarni ijodiy tafakkur orqali kognitiv moslashuvchanlik bilan bir necha yechimini topishni va ular orasidan eng maqbul variantini tanlab olishni anglatadi. Qaror qabul qilish – maqsadga erishish uchun muqobil (alternativ) yechimlar orasidan maqsadli va samarali yo'lini tanlab olishda bir to'xtamga yoki bir fikrga kelishdir. Kognitiv moslashuvchanlik – insonning bir fikrni boshqasi bilan taqqoslab, bir vaqtning o'zida masalaning bir necha tomonini mulohaza qila olishidir, ya'ni taqqoslash orqali aniq fikrlashidir. Muzokara olib borish – ishning oson yoki ko'ngildagidek bitishi maqsadida rahbar yoki mas'ul shaxslarning kelishuvlar qilishi, o'zaro munosabatlarda aniq va tiniq rejalarni belgilab, qat'iylik bilan ikkinchi tomonga buni tushuntirish, biror masala yuzasidan rozilik olish hamda shartnoma tuzishdir. Odamlarni boshqarish – insonlarga bor salohiyatlarini namoyon etishlariga xizmat qiladigan shart-sharoitlar yaratib berishdir. Kollaboratsiya – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining hamkorligidir. Xizmat ko'rsatish va servis – inson qadri va turmush farovonligini oshirish maqsadida iste'molchilarning taklif va ehtiyojlarini o'rganish, ular uchun qayg'urish, xizmatlarni iste'molchining taklifiga ko'ra optimallashtirish, xizmat ko'rsatish va servis sifatini yaxshilash bo'yicha ishbilarmonlik muhitini yaratishdir. Bugungi taraqqiyot zamonida biror ishda muvaffaqiyat qozonish uchun oldingi asrdagi kabi iqtidorli bo'lishning o'zi kifoya qilmay qoldi. Forsayt kompetentsiyaning komponentlari inson aqliy faoliyatini chiniqtirib, insonni o'zining kuchli ichki jihatlarni ro'yobga chiqarishga majbur qiladi. Shuning uchun ushbu komponentlarni mutaxassis muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan XXI asr kasbiy ko'nikmalari deyish mumkin.

Tadqiqotlar natijasida shuni aytish mumkinki, forsayt faoliyat talabalar tomonidan qanchalik o'zlashtirganligi ularda bashorat qilish, rejalashtirish, loyihalash va modellashtirish kabi ko'nikmalarni qanchalik shakllanganlik darajasini belgilaydi. Shu sababli ushbu ko'nikmalarga qisqacha tushuntirish beramiz: Bashorat qilish – obyekt va jarayonlar kelajagini hamda rivoj topishini ular haqidagi mavjud ma'lumotlar asosida ilmiy tarzda oldindan tasavvur qilish yoki oldindan aytib berish. Rejalashtirish – obyekt va jarayonlar bo'yicha kelajakda amalga oshirish uchun oldindan o'ylab qo'yilgan vazifalar, tadbirlar va harakatlar kabi bajarilishi aniq talab etiladigan loyiha va topshiriqlarni tuzish. Loyihalash – obyekt va jarayonlar haqidagi boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kelajakda kutilayotgan natijalarni tahmin qilish, bashoratlash hamda rejalashtirish orqali ularni loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish. Modellashtirish – obyekt va jarayonlar haqidagi mavjud ma'lumotlar va ko'rsatkichlarga asoslanib tuzilgan modellarida ularning kelajakdagi xarakteristika va parametrlarini aniqlash, modifikatsiyalash va optimal variantini topish, umuman aytganda kelajakdagi istiqbolini aniqlash. Ushbu tushunchalar mazmunan sinonim tushunchalar bo'lib, ular bashorat qilish, rejalashtirish, loyihalash va modellashtirishni kelgusi voqelikni aniq yoritish uchun xizmat qiladigan amaliy harakatlar ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun forsayt faoliyatni kelajakni yorituvchi harakatlar deyish mumkin. Forsayt faoliyatni jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasi tarzida yuritib umumiy fikrga kelish natijasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarni amalga oshiruvchi «Harakatlar strategiyasi», «Taraqqiyot strategiyasi», «Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi» kabi xujjatlar yaratildi, ko'plab sohalarning kelajak rivojini tasvirlovchi «yo'l xaritalari» ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda [9]. Hozirgi davrda umumiy qabul qilingan o'qitish texnologiyalari bilan bir qatorda ko'pchilik uchun yangi bo'lgan forsayt texnologiyasi faol rivojlanmoqda va ta'limda qo'llanilmoqda. Forsayt

texnologiyasi yordamida mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etishga bag'ishlangan dastlabki forsait tadqiqotlar o'tkazildi va tadqiqot natijalari bo'yicha oliy ta'limdagi islohotlarning hozirgi bosqichida masofaviy ta'limni keng qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi [10].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, hozirgi zamon mutaxassislarining asosiy kompetentsiyalaridan biri – kelajakni ko'ra bilish, ya'ni forsait faoliyat yuritish qobiliyatidir. Bo'lajak mutaxassislarining kreativ kompetentsiyalari ularning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur deb hisoblasakda, sohaning kelajakdagi rivojini tahlil qilish hamda tegishli maqsadlarga erishish uchun uzoq muddatli xarakterli dasturlar ishlab chiqishga yetarli emas. Soha kelajagi mutaxassisning kasbiy professional xarakteriga bog'liqdir, ammo kelajak o'zgaruvchan, uni doimiy ravishda o'zgartirish va takomillashtirish mumkin. Bularning bari mutaxassis forsaitni qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liq. Chunki bu faoliyat vaziyatga qarab shaxsda o'z sohasini rivojlantirish va takomillashtirishga qodir ijodiy yondashuvlarni va usullarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli, zamonaviy ta'limda «forsait texnologiyasi»ni qo'llash – forsait faoliyatda faol ishtirok etuvchi, forsait kompetentligi yuqori, o'z sohasining malakali mutaxassislarini tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Что такое форсайт и как им пользоваться: <https://trends.rbc.ru/trends/futurology/5eb542c89a79470ed74f2d21>
2. Крюков С.В. Форсайт: от прогноза к формированию будущего // Terra Economicus. - 2010. - Т. 8. - № 3-2. - С. 7-17.
3. Форсайт: <https://blog.bitobe.ru/article/forsayt/>
4. Кнителъ М.В., Ларионов П.А. Использование технологии «форсайт» в процессе обучения // Наука и перспективы. - М., 2016. - № 1. - С. 11-14.
5. Кононюк А. Обучение форсайт-компетенциям и его интеграция в университетские программы: <https://cyberleninka.ru/article/n/obuchenie-forsayt-kompetentsiyam-i-ego-integratsiya-v-universitetskie-programmy>
6. Prognozlash, strategik rejalashtirish va forsait tushunchalaridagi bog'liqlik va farqli jihatlar: <http://hudud24.uz/prognozlash-strategik-rejalashtirish-va-forsayt-tushunchalaridagibo%d2%93li%d2%9blik-va-far%d2%9bli-ji%d2%b3atlar/>
7. Akbarova S.A. «Forsait texnologiyasi» va uni zamonaviy ta'limda tadbir etishning ahamiyati // Kasbiy muloqotda chet tili: madaniyat, psixologiya, ta'lim: Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferentsiya materiallari. - T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. - B. 35-38.
8. Андрюхина Л.М. Компетенции XXI века: методология форсайта и адорнации: http://ncrao.rsvpu.ru/sites/default/files/konf_files/andryuhina.pdf
9. Hakimova M.F. Axborot ta'lim muhitida innovatsiya va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi // Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - S. 149-152.
10. Raximov O.D., Manzarov Yu.X., Ashurova L. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida dastlabki forsait tadqiqotlar // Современное образование. - М., 2021. - № 4 (101). - С. 16-22.

IQTISODIY TA'LIMDA KORPORATIV MADANIYATNING ASOSIY FUNKSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Kayumova Mexribonu Sheraliyevna, TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyatini shakllantirish muammolari bo'yicha yozilgan adabiyotlarning umumiy ko'rinishi keltirilgan. Korporativ madaniyatning asosiy funksiyalari va xususiyatlari ko'rsatilgan, raqobatbardosh iqtisodiy ta'lim muassasasi brendini yaratishda korporativ madaniyatning roli aniqlashtirilgan.

Tayanch so'zlar: *iqtisodiy ta'lim muassasasi, korporativ madaniyat, brend, qadriyatlar, tashkiliy madaniyat, innovatsion ta'lim.*

ФОРМИРОВАНИЕ ОСНОВНЫХ ФУНКЦИЙ КОРПОРАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Каюмова Мехрибону Шералиевна, базовый докторант ТГЭУ

Аннотация. В данной статье представлен обзор литературы, написанной по проблемам формирования корпоративной культуры экономического образовательного учреждения. Изложены основные функции и особенности корпоративной культуры, уточнена роль корпоративной культуры в создании бренда конкурентоспособного экономического образовательного учреждения.

Ключевые слова: *экономическое образовательное учреждение, корпоративная культура, бренд, ценности, организационная культура, инновационное образование.*

FORMATION OF THE MAIN FUNCTIONS OF CORPORATE CULTURE IN ECONOMIC EDUCATION

Kayumova Mexribonu Sheraliyevna, TDUE base doctoral student

Annotation. This article presents an overview of the literature written on the problems of the formation of the corporate culture of an economic educational institution. The main functions and characteristics of corporate culture are indicated, the role of corporate culture in creating a brand of a competitive economic educational institution is determined.

Key words: *economic educational institution, corporate culture, brand, values, organizational culture, innovative education.*

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiy muammolarini keskinlashuvi va yuqori darajadagi mutaxassis kadrlarni tayyorlashga talablarning ortishi kundan kunga ortmoqda. Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar munosabati bilan yuqori darajadagi mutaxassislarning iqtisodiy ta'lim mazmuni tashkil etilishida muammolar paydo bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilishda asosiy rol oliy ta'lim muassasasida talabalarning korporativ madaniyatini shakllantirish uchun maxsus yaratilgan tizimga berilishi kerak.

Asosiy qism. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, XX-asrning o'rtalarida ekspertlar o'z biznesini yaxshi biladigan va aniq maqsad, tamoyillarga ega bo'lgan barcha gullab-yashnagan tashkilotlarning muvaffaqiyati, korporativ madaniyat g'oyasini o'z ichiga oladi, degan xulosaga kelishdi. Korporativ madaniyat holatining dinamik tabiati tufayli tashkilotlarning korporativ madaniyatini monitoring qilish va keyinchalik moslashtirish usullarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Zamonaviy sharoitda korporativ madaniyat korxonalar samaradorligi, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, tijorat tuzilmalari xodimlarining

mehnat samaradorligi, jamoadagi psixologik muhit, xodimlarning tashkilotga sodiqligi muammolari prizmasi orqali o'rganiladi. Iqtisodiy ta'lim muassasasida «korporativ madaniyat» tushunchalarini «korporatsiya» va «madaniyat» atamaları orqali tavsiflash odat tusiga kirgan. Ushbu mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun [1] talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish, oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatini shakllantirishni tarkib toptirish va mazkur tayyorgalik darajasini orttirish muammosiga bag'ishlangan umumiy didaktik darajadagi tadqiqot ishlari keng qamrovda olib borilmoqda. Jumladan, madaniy insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida) N.M.Egamberdiyeva, oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy yo'naltirilgan kompetensiyasini shakllantirish I.Panferova, bo'lajak pedagogda kasbiy madaniy munosabatlarning shakllanishi B.X.Raximovning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi.

Hamdo'stlik mamlakatlari olimlari tomonidan P.Druker, K.Kameron, D.Meyster, korporativ madaniyatni rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga mahalliy olimlar muhim hissa qo'shdilar: S.G.Abramova, K.Gastev, I.V.Groshev va boshqalar, o'z ishlarida ko'rib chiqqan. Jumladan: norasmiy ta'lim sub'ektlarining korporativ madaniyatini shakllantirish shartlari J.B.Surtaeva, universitet talabalar guruhining korporativ madaniyatini shakllantirishning pedagogik shartlari O.I.Gabdulxakova, oliy ta'lim muassasalarining imidjini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari Yu.O.Ivanova, xususiyatlarning nazariy va tarbiyaviy asoslari ta'lim muassasasining korporativ madaniyati, O.I.Gorbatko ishlari pedagogik darajada tadqiq etilgan. Shuningdek, respublikamiz pedagog olimlaridan M.F.Hakimova, N.S.Fayzullayeva, D.T.Miraliyeva va boshqa qator pedagog olimlarning tadqiqot ishlarida oliy ta'lim muassasasida pedagogik faoliyatni ko'plab muammolari o'rganilgan. Oliy ta'lim muassasasida pedagogik faoliyatni, madaniyatni va ma'naviy ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga jiddiy hissa bo'lib qo'shilgan mazkur tadqiqotlar ushbu tadqiqotchi muallifiga o'z oldiga qo'ygan ilmiy muammoni oliy ta'lim muassasasida korporativ madaniyatni shakllantirish ko'nikmasini o'z ichiga olgan loyihalashtirish kompetensiyasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish uchun samarali imkoniyat yaratdi. Mazkur tadqiqot ishida iqtisodiy ta'limda korporativ madaniyatini shakllantirish funksiyalari mazmuni, maqsadi, vazifalari o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv va tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida iqtisodiy ta'limda korporativ madaniyatni shakllantirish funksiyalariga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, pedagog, psixolog, sotsiolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va soha vakillarining yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi. Zamonaviy oliy ta'limning rivojlanish yo'nalishini belgilab beruvchi o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida iqtisodiy ta'lim muassasasining ichki (korporativ) madaniyatida o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tashkilotning korporativ madaniyati jamiyat va tashkilotga bevosita ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy va boshqa o'zgarishlar sharoitida birinchi o'ringa chiqadi. Ko'p yillik guruhlarda jamiyatda keng tarqalgan umummadaniy qadriyatlar xulq-atvor namunalari, marosimlar va me'yorlar bilan bir qatorda, o'z normalari ishlab chiqiladi. Turli xil turdagi tashkilotlar, muassasalar haqida gap ketganda esa, biz korporativ madaniyat haqida gapiramiz [2].

Korporativ madaniyat – bu iqtisodiy ta'lim muassasasi samaradorligi va

raqobatbardoshligi uchun «ishlaydigan» madaniyat [3]. Agar korporativ madaniyatning asosiy elementlari tashkilotning samaradorligi va raqobatbardoshligi uchun «ishlamasa» yoki salbiy ta'sir vektoriga ega bo'lsa, u holda korporativ madaniyatning yo'qligi yoki korporativ madaniyat anti-korporativ madaniyatning mavjudligi haqida gapirish kerak» [3]. Korporativ madaniyat mulkchilik, faoliyat sohalaridan qat'iy nazar, deyarli barcha tashkilotlarga xosdir. Har qanday tashkilot murakkab mexanizm sifatida qabul qilinadi, uning hayotiy salohiyatining asosi korporativ madaniyatdir: odamlar tashkilotga nima uchun a'zo bo'lishadi, ular o'rtasida qanday munosabatlar o'rnatiladi; ular tashkilot hayoti va faoliyatining qanday barqaror normalari va tamoyillarini baham ko'rishadi, ularning fikriga ko'ra, nima yaxshiyu nima yomon, yana ko'p narsalar qadriyatlar va me'yorlarga tegishlidir [4]. Uzoq vaqt davomida tijorat korxonalari va tashkilotlar, shu jumladan, iqtisodiy ta'lim muassasasilar korporativ madaniyatini o'rganishga ustuvor e'tibor qaratildi, bu esa, raqobat muhitida qo'shimcha nomoddiy resurslarni izlash zarurati bilan bog'liq edi. Hozirgi bosqichda korporativ madaniyat ijtimoiy-madaniy sohada tashkilotlar uchun ahamiyat kasb etmoqda. Tashkilotga nisbatan «korporatsiya» atamasi tashkilotning bir butun sifatida ko'rib chiqilishini ta'kidlamochi bo'lganda qo'llaniladi, shuning uchun tashkilotning korporativ madaniyati qadriyatlarini, barcha xodimlar tomonidan qabul qilinishi kerak va ular jamoaning yanada uyg'unligiga erishish uchun ishlashga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

Korporatsiyaning xususiyatlari iqtisodiy ta'lim muassasasining quyidagi xususiyatlarida seziladi: institutsional va tashkiliy barqarorlik (iqtisodiy ta'lim muassasasi ishlash standartlarini va o'z tuzilmasini mustaqil ravishda ishlab chiqadi); muayyan tor faoliyat sohasi, mahsulotning o'ziga xosligi (fan va oliy ta'lim); atrofda makonni mahsulotning potensial iste'molchisi/korporatsiya uchun zarur bo'lgan resurslar manbai sifatida qabul qilish; «ishlab chiqaruvchi» va «iste'molchi» o'rtasidagi munosabatlarda ishtirok etish; ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat munosabatlariga jalb qilish; o'zini bir butun sifatida identifikatsiya qilish va raqobat muhitiga qarshi turish («korporativ ruh» mavjudligi); korporativ kapitalning asosini tashkil etuvchi kadrlar va axborot resurslariga egalik qilish; iqtisodiy ta'lim muassasasi faoliyatining mahalliy va tarmoq xususiyati; qarindosh haqida umumiylik manfaatlar. Iqtisodiy ta'lim muassasasi atrofida shakllanayotgan raqobat muhiti va mijozlar bazasiga bog'liq bo'lgan aksariyat xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati; "maqsadlar siljishi" mumkin bo'lgan ko'plab xodimlarning ierarxik ijtimoiy tashkiloti – menejerlar va oddiy xodimlar manfaatlaridagi tafovut; kengayish va o'sishga intilish, qaram tashkilotlarni o'zlashtirish (moliyalashning qisqarishi fonida belgi kuchaygan) [5].

Korporativ madaniyat – bu ma'lum bir tashkilotda qabul qilingan ma'naviy va moddiy qadriyatlar, afsonalar, marosimlar, bayramlar tizimi bo'lib, uning individualligini aks ettiradigan, bir-biri bilan muloqot qilish, qabul qilingan tashkilotni boshqarish strategiyasi doirasida maqsadli shakllangan ijtimoiy muhitda o'zini va boshqalarni xulq-atvori, o'zaro ta'siri va idrokida namoyon bo'ladigan tizimdir. Tashkilot madaniyati, o'z navbatida, tashkilot a'zolarining individual xatti-harakatlarini belgilaydigan, xodimlarning o'zaro ta'sirida o'z-o'zidan shakllanadigan va bilvosita ifodalanadigan qadriyatlar, me'yorlar va g'oyalar tizimi sifatida talqin qilinishi mumkin. V.N.Davydov korporativ madaniyat, uning mohiyatini, tuzilishi va tarkibiy qismlarini tahlil qilmasdan tushunish mumkin emasligini hamda korporativ madaniyatning tarkibiy qismlari haqida turlicha qarashlar mavjudligini ta'kidlagan. Uning qarashlari bo'yicha korporativ madaniyatning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: qabul qilingan rahbarlik tizimi; tashkilotning missiyasi; nizolarni hal qilish uslublari; joriy

aloqa tizimi; shaxsning tashkilotdagi mavqei; shaxsning ishbilarmonlik aloqasi chiptasi; sifat madaniyati; qabul qilingan belgilar, shiorlar, tashkiliy tadbirlar. Korporativ madaniyat elementlarining mazmuni orqali tashkilotning umumiy uslubi tuyg'usi ifodalanadi, uning moslashuvchanligi, farovonligi va barqarorligi ta'minlanadi [6]. Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyati darajasi pedagoglar va boshqa xodimlarning ta'lim muassasasiga bo'lgan munosabati bilan bog'liq bo'ladi. N.K.Gnezdilova, «pedagoglar bevosita ishlaydigan tashkilot sifatida iqtisodiy ta'lim muassasasiga nisbatan boshqacha munosabatda bo'lishlarini» ta'kidlaydi [7]. V.Soloveychikning so'zlariga ko'ra, xodimlarning sadoqati – bu xodimlarning tashkilotga sodiqligini, maqsadlarini, ularga erishish vositalari va usullarini ma'qullashini, tashkilot uchun mehnat motivlarining ochiqligini belgilaydigan xususiyatdir. Xodimning sadoqati tashkilotga, rahbariyatga va hamkasblarga nisbatan mehribon, to'g'ri, hurmatli munosabati, mavjud qoidalar, me'yorlar rioya qilishni anglatadi. Xodimlarning sadoqati xodimning individual qadriyatlar va tashkilotda o'stirilgan qadriyatlarining mos kelishiga bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, iqtisodiy ta'lim muassasasi brendini yaratishning muhim sharti hamdir. Shaxsiy va jamoaviy qadriyatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, korporativ madaniyat mavjud farqlarni yumshatish uchun mo'ljallangan vosita bo'lib xizmat qiladi. Korporativ madaniyat umumiy madaniy makonni shakllantiradi va natijada xodimlarning sodiqligini oshiradi, chunki tashkilotning maqsadlari va qadriyatlarini qabul qilish yuqori darajadagi sodiqlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyati haqidagi birinchi fikrlar K.Yaspersda uchraydi. U o'zining asarlarida odamlar shaxsni belgilaydi deb ta'kidlaydi. Har bir o'ziga xos iqtisodiy ta'lim muassasasining mavjudligi, odamlar – xodimlar, talabalar, iqtisodiy ta'lim muassasasi xodimlari – korporativ madaniyat tashuvchisi ekanligini hisobga olsak, K.Yaspersning g'oyalari zamonaviy tezisga mos keladi. Unga ko'ra, korporativ madaniyat iqtisodiy ta'lim muassasasi imidjining asosidir. K.Yaspers shunday yozadi: «Iqtisodiy ta'lim muassasasi hayoti o'quvchilarning tabiati haqida bunga bog'liq. Agarda iqtisodiy ta'lim muassasasi haqidagi eng to'g'ri g'oyani amalga oshirishga bo'lgan sa'y-harakatlar uni amalga oshira oladigan professorlardan kam bo'lmasa, yaniki ko'proq bo'lmasa befoyda bo'ladi». Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyatiga tadqiqot e'tiborining sababi jamiyatdagi global o'zgarishlar tufayli oliy ta'lim sohasidagi jadal o'zgarishlardir [8]. Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyatida asosiy e'tibor «qadriyatlar», «missiya», «e'tiqod» kabi tushunchalarga qaratilgan bo'ladi. Tashkiliy (ishbilarmonlik) madaniyat biroz boshqacha ko'rinishda bo'ladi va biz ularni aksariyat hollarda e'tiborimizdan chetda qoldiramiz. Tashkiliy (ishbilarmonlik) madaniyat – rejaning jihatlari bilan, huquq va majburiyatlari, xatti-harakatlar normalari, yetakchilik uslubi va boshqalar bilan bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasasining tuzilishi, har qanday tashkilotning tuzilishi kabi, o'tish davridagi dinamik hodisadir [9]. Bu ikkita asosiy holat: birinchidan, tarkibiy o'zgartirish masalalarini hal qilishda iqtisodiy ta'lim muassasasi mustaqilligining huquqiy asosini yaratuvchi «Ta'lim to'g'risida»gi, "Oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi qonunlar kabi me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan iqtisodiy ta'lim muassasasilarining o'z muammolarini hal etish imkoniyatlari kengaydi. Ikkinchidan, jamiyatning ta'lim va ilmiy-tadqiqot xizmatlari mehnatiga bo'lgan talablari, jamiyatning iqtisodiy ta'lim muassasasidan kutishlari o'zgardi. Iqtisodiy ta'lim muassasasi korporativ madaniyati, bizning fikrimizcha, aksiologik yondashuvga muvofiq an'anaviy akademik qadriyatlar va bozor (tadbirkorlik) qadriyatlar, shuningdek, turli madaniyatlar vakillari

tomonidan baham ko'riladigan me'yorlar, an'analar, marosimlar majmui sifatida tushunilishi kerak. Iqtisodiy ta'lim muassasasi akademik qadriyatlar korporativ madaniyatning o'zagi bo'lib, iqtisodiy ta'lim muassasasining ilmiy, ma'rifiy, madaniy markaz sifatidagi qiyofasini belgilaydi. Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyati jamiyat madaniyatining namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, u boshqa har qanday ijtimoiy madaniyat kabi bir xil qonunlarga muvofiq yaratiladi va ishlaydi. Iqtisodiy ta'lim muassasasi uchun Korporativ madaniyat ishlab chiqaruvchi firmalarning korporativ madaniyati bilan solishtirganda alohida obyekt hisoblanadi. Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyati va tijorat tashkilotlari madaniyati o'rtasidagi asosiy farqlardan biri, iqtisodiy ta'lim muassasasining ko'plab maqsad va intilishlarini aniq baholash yoki o'lchash mumkin emasligidadir [8].

Oliy ta'lim muassasasining maqsadlariga erishish uchun kuchli korporativ madaniyatga ega bo'lish muhimligi korporativ madaniyatning asosiy funksiyalari bilan belgilanadi: mazmunli – ichida qo'shma ish ishtirokchilarining mentalitetiga ta'siri, buning natijasida odamlar ongida va shaxsiyat tuzilishida korporativ qadriyatlarga nisbatan oldingi individualistik yo'nalishlarning o'zgarishi; reproduktiv – hajmi bo'yicha intellektual inson kapitalini yangilash birgalikdagi mehnat ishtirokchilarining mehnat imkoniyatlari, mehnat samaradorligi, unumdorligi, madaniyati va ish sifati; mustahkamlash – qo'shma ishda ishtirokchilarning yashirin imkoniyatlarini jalb qilish: bilim, ijodkorlik, o'zini namoyon qilish istagi, motivatsiya tizimlari, tajriba; texnologik – ijtimoiy va iqtisodiy natijalarni olish uchun zarur bo'lmagan barcha turdagi faoliyat va operatsiyalarni istisno qilgan holda boshqaruv jarayonini optimallashtiradigan turli xil texnologiyalardan foydalanish; innovatsion – korporativ madaniyatning mehnat tizimiga miqdoriy va sifat qismlariga ko'p parametrliligi ta'siri, uning mahsuldorligini rag'batlantirish va qo'shilgan qiymatni oshirishda bilvosita ishtirok etish; orqa miya – birgalikdagi ish jarayonida jamoaviy umumiy ma'nolar, elgilar, me'yorlar va xatti-harakatlarning integratsiyasi hamda o'zaro ta'siri.

Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyatini shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi bir nechta omillar guruhining ta'siri bilan bog'liq [11]. Shu bilan birga, omillar korporativ madaniyatning individual elementlarining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qilish bilan birga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiy ta'lim muassasasi korporativ madaniyati holati va uning samaradorligi mezonlarini baholash muammosi muhim hisoblanadi. Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyatini rivojlanish darajasini belgilovchi mezonlari - quyidagilarni o'z ichiga oladi: iqtisodiy ta'lim muassasasi pedagoglari tomonidan korporativ qadriyatlar qabul qilish; pedagoglarning sadoqatlilik va qadriyatlilik; korporativ madaniyatga moslashuvchanlik; pedagoglarning mehnat motivatsiyasi, xarakterlilik; pedagoglarning iqtisodiy ta'lim muassasasida ishlashidan qoniqish hissi; pedagoglarning iqtisodiy ta'lim muassasasi xodimlarini o'ziga xos xususiyatlariga qarashlarining yaxlitligi; pedagoglarning sadoqatlilik.

Kuchli korporativ madaniyat oliy ta'lim sohasida davom etayotgan o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish imkonini beradi. Innovatsion rivojlanish mojarolarini hal qilish iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyatini tartibga solish imkoniyatlari bilan yordam beradi, bu "innovatsion va an'anaviy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishdan" iborat.

Iqtisodiy ta'lim muassasasining korporativ madaniyati foydali korporativ madaniyat bilan izohlanadi: ma'muriy bosimsiz, xodimlarning xatti-harakatlariga mos keladigan maqsadga erishish uchun eng samarali korporativ ichki shaxslararo munosabatlarni tabiiy ravishda tanlashga imkon beradi; iqtisodiy ta'lim muassasasining obro'sini oshirishga

yordam beradi; professor-pedagoglarning har bir a'zosi o'zining (tadqiqotchi va pedagog sifatida) umuman iqtisodiy ta'lim muassasasining obro'sini oshirishda eng katta muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini mustaqil ravishda aniqlashiga ruxsat beradi.

Xulosa. Demak, korporativ madaniyatni shakllantirishning taxallusi (markazi) muhim vakolatlarga ega bo'lgan qoida tariqasida iqtisodiy ta'lim muassasasi rahbariyatini ifodalovchi xodimlardir. Talabalar korporativ madaniyat qadriyatlarini yetkazish kuratorlar orqali amalga oshirilishi mumkin, bu birinchi kurs talabalarini moslashtirish jarayonida, ayniqsa, muhim ahamiyatga egadir. Korporativ madaniyatni o'rganish bo'yicha mavjud yondashuvlarni, turli iqtisodiy ta'lim muassasalar amaliyotini tahlil qilish asosida iqtisodiy ta'lim muassasasi korporativ madaniyatining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: korporativ madaniyatni rivojlantirish yo'nalishlari rahbariyat tomonidan belgilanadi; korporativ madaniyat yetakchi – «hukmron» madaniyatni o'z ichiga olishi mumkin; iqtisodiy ta'lim muassasasi korporativ madaniyatining asosini akademik madaniyat tashkil etadi; korporativ madaniyat tashqi o'zgarishlarga moslashadi, javob beradi; korporativ madaniyat ramzlar, shiorlar, logotiplar, korporativ afsonalar va boshqalar shaklida tashqi ko'rinishlarni topadi. Iqtisodiy ta'lim muassasasining zamonaviy sharoitda o'ziga xos madaniyati uning raqobatbardosh brendni shakllantirishdagi yetakchi roli bilan bog'liq bo'lib, bu ta'lim xizmatlarining mahalliy va jahon bozorlarida raqobatda ustunlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
2. Белова Л.И. Корпоративная культура российского высшего учебного заведения как объект социокультурного анализа: на примере государственного образовательного учреждения Южного Урала. - Челябинск, 2009.
3. Теньников Ю., Мазниченко М. Корпоративная культура как фактор конкурентоспособности образовательного учреждения // Высшее образование в России. - М., 2005. - № 10. - С. 69-77.
4. Гоношилина И.Г. Сильная корпоративная культура образовательного учреждения: параметры измерения // Вопросы культурологии. - Т., 2009.
5. Осипов А.М. Социология образования: теоретические очерки. - Р/Д.: Феникс, 2003.
6. Капитонов Е.А., Капитонов А.Е. Корпоративная культура. - М., 2001.
7. Гнездилова Н.К. Корпоративная культура педагогического вуза и его приверженность образовательному учреждению // Психология. - М., 2013.
8. Kayumova M. Formation issues of corporate culture and ideological immunity of youth // Arxiv nauchnix issledovaniy. - 2021. - T. 2. - №. 1.
9. Hakimova M. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari // Arxiv nauchnix issledovaniy. - М., 2020. - № 32.

O'QUVCHILARNI TARIX DARSLARIDA IMITATSION VAZIYATLARDA ISHLASHGA O'RGATISH IMKONIYATLARI

Seyfullayev Allanazar Skenderbekovich,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion vaziyatlar, ularning turlari, innovatsion vaziyatlarda ishlash metodikasi, innovatsion vaziyatlarda o'quvchilarda tarixiy xotirasini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan. O'qituvchilarning imitatsion vaziyatdani tashkil etishga oid faoliyati yoritilgan. Tarixiy voqelikni imitatsiyalash usullari, turlari yoritib berilgan. Bu maqoladan tarix o'qituvchilari, tadqiqotchilar, yosh mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Tayanch so'zlar: *imitatsiya, vaziyat, o'yin vaziyatlari, tarixiy voqelik, o'quv jarayoni, pedagogik hamkorlik, o'qituvchi, o'quvchi, ta'limiy funksiya, taqlid qilish, takrorlash, topshiriq.*

ВОЗМОЖНОСТИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К РАБОТЕ В МОДЕЛИРОВАННЫХ СИТУАЦИЯХ НА УРОКЕ ИСТОРИИ

Сейфуллаев Алланазар Скендербекович,
докторант Нукусского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные ситуации, их виды, методы работы в инновационных ситуациях, развитие исторической памяти учащихся в инновационных ситуациях. Освещена деятельность педагогов по организации имитационных ситуаций. Объясняются способы и виды имитации исторической действительности. Данная статья может быть полезна учителям истории, исследователям, молодым специалистам.

Ключевые слова: *подражание, ситуация, игровые ситуации, историческая действительность, учебный процесс, педагогическое сотрудничество, учитель, ученик, воспитательная функция, подражание, повторение, задание.*

OPPORTUNITIES FOR PREPARING STUDENTS TO WORK IN SIMULATED SITUATIONS IN THE HISTORY LESSON

Seyfullaev Allanazar Skenderbekovich,
doctorante of Nukus state pedagogical institute

Abstract. This article discusses innovative situations, their types, and methods of working in innovative situations, development of students' historical memory in innovative situations. The activities of teachers in organizing imitation situations are highlighted. Methods and types of imitation of historical reality are explained. This article may be useful for history teachers, researchers, and young professionals.

Key words: *imitation, situation, game situations, historical reality, educational process, pedagogical cooperation, teacher, student, educational function, imitation, repetition, assignment.*

Kirish. Bugungi kunda imitatsiya metodidan ko'plab rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimlarida foydalanilmoqda. Imitatsiya metodi shaxsning aniq faoliyati bilan o'rini almashinishni anglatadi. Pedagogika ensiklopediyasida imitatsiya metodiga quyidagicha ta'rif berilgan. Imitatsiya (lot. imitatio – taqlid) – 1) biror narsaga taqlid qilish, o'xshatma; 2) musiqada – biron ovozda sadolangan ko'p ovozli musiqa asari kuyini boshqa (yuqori

yoki past) ovozda aynan yoki o'zgacharoq qilib takrorlash. Pedagogikada imitatsiyadan keng foydalaniladi [1, 76-b.].

Asosiy qism. Imitatsiya tushunchasi doirasida jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar tushuniladi. Imitatsiyaning tarkibida takrorlash motivlari mavjud. Imitatsiya tushunchasi jarayonlar, harakatlar qayta takrorlanadi. Imitatsiya jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Uning asosini tabiiy voqelikka o'xshatish, uni takror ifodalash namoyon bo'ladi. Imitatsiya faollikka asoslangan, mo'ljallangan harakat usuli hisoblanadi. Turli fanlarda imitatsiya tadqiqot metodi sifatida namoyon bo'ladi. Unda turli tizimlar, ijtimoiy-iqtisodiy obektlarning funksiyalari aynan namoyon bo'ladi. Ayniqsa kompyuter yordamida jarayoning borishi, uni ifodalovchi parametrlar imitatsiya metodi yordamida namoyon bo'ladi. Imitatsiya texnologiyalari asosini o'yin texnologiyalari tashkil etadi. Bunda u yoki bu hodisaga o'xshash jarayonlar hosil qilinadi. Bunday voqealar real hayotda amalga oshadi. Ta'lim jarayonida esa unga o'xshash vaziyatlar yaratiladi. Turli-tuman voqealarni imitatsiyalash orqali o'quvchilarga yetkazish uchun qulay pedagogik vaziyat yaratiladi. Bunday vaziyatlar yordamida o'quvchilarda muayyan voqelik haqida aniq tasavvur shakllanadi. Imitatsiya modeli bilan ishlash jarayonida o'yin texnologiyalariga murojaat qilinadi. Imitatsiya jarayonida o'quvchilar o'zaro hamda o'qituvchi bilan muloqotga kirishadilar. Shunga ko'ra imitatsion texnologiyalar o'yinli va o'yinga asoslanmagan imitatsion texnologiyalarga bo'linadi. Biz quyida dastlab imitatsion texnologiyalar va metodlarning o'yinga asoslanmagan turi haqida fikr yuritamiz. Bunday texnologiyalar o'quvchilarning aniq vaziyatlarni idrok etishlariga ko'maklashadi. Vaziyat tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uning tavsifi foydalanilinish jarayoni bilan bog'liq holda izohlanadi. Vaziyat tashqi shart-sharoitlarga nisbatan subektning ichki munosabatini anglatadi. Vaziyatlar o'qituvchini ham o'quvchilarni ham faollikka undaydi. Bir so'z bilan aytganda vaziyat o'zaro aloqador dalillar majmui hisoblanadi. Vaziyat o'z ichiga muayyan hodisalar va voqealarni qamrab oladi va unga nisbatan faoliyatli munosabatni anglatadi. Vaziyatlar o'qituvchi va o'quvchilardan muayyan yechimlarga kelishni talab qiladi.

Muayyan vaziyatlarni tahlil qilish metodi mazkur vaziyat haqida muayyan qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi. O'z yechimini kutayotgan muammolar muayyan vaziyatlarda makon, zamon va aniq holatlar bilan bog'liq holda vujudga keladi. Muayyan vaziyatlarning tahlili aniq, tabiiy yoki sun'iy tarzda yaratilgan holatlarni chuqur, batafsil tahlil etishni nazarda tutadi. Bunda vaziyatning aniq o'ziga xos jihatlarini aniqlashga harakat qilinadi. Mazkur metod o'quvchilarda tahlili tafakkurni rivojlantiradi. Natijada ular muammolarning yechimiga nisbatan tizimli yondashuv tajribasini egallaydilar. O'quvchilar to'g'ri va noto'g'ri yechimlarni o'zaro farqlash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda maqbul yechimlarni izlab topish layoqaqtini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar ishchanlik va kasbiy faoliyat bilan bog'liq aloqalar o'rnatish, jamoa bo'lib qarorlar qabul qilish, ziddiyatlarni bartaraf etishga o'rganadilar.

Ta'limiy funksiyasiga ko'ra vaziyatlarning o'rtta turi mavjud:

– muammoli vaziyat. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar muammoning kelib chiqish sabablarini izlaydilar. Muammo va yechimlari topishga harakat qiladilar;

– baholash vaziyatlari. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar qabul qilingan qarorlarga baho beradilar;

– illyustratsiyali vaziyatlar. Mazkur vaziyatlarda o'quvchilar o'quv kursi doirasida yechilgan muammolar asosida aniq namunalar oladilar. Uni namoyon etishga harakat qiladilar;

– mashq vaziyatlari. Bunda o'quvchilar murakkab bo'lmagan topshiriqlarni bajarish

mashqlari bilan shug'ullanadilar. Shu bilan bir qatorda o'quv vaziyatlariga o'xshatish, tenglashtirish metodidan foydalanadilar.

Bayon qilish xarakteri va maqsadiga ko'ra vaziyatlar quyidagi turlarga ajratiladi: tarixiy, jonli, insident – voqelikka asoslangan, bahsli, ko'rsatmali vaziyatlar. O'qituvchi muayyan vaziyatlarni tanlashda bir qator omillarga tayanadi. Bunda u o'rganilayotgan mavzuning xususiyatidan kelib chiqadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari, o'quv materiallarning illyustratsiyalar bilan bog'langanligi, o'quv jarayonining texnik vositalar bilan jihozlanganligi, o'qituvchining shaxsiy yondashuvi va ish tajribasi bilan bog'liq holda vaziyatlar tanlanadi va imitatsiyalashtiriladi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchining qaysi vaziyatni tanlashi va imitatsiyalashiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. O'qituvchi o'zining ijodiy layoqatlaridan, kreativ fikrlashidan kelib chiqqan holda ham vaziyatlarni tanlashi va imitatsiyalashi mumkin. O'qituvchi turli-tuman vaziyatlarni tanlash va tahlil qilish natijasida ulardan eng mahsuldorini qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quv vaziyatlari amaliy topshiriqlarning rang-barangligini ta'minlashga xizmat qiladi. Eng samarali yondashuvlardan biri kontekstli yondashuv bo'lib, o'qituvchi darsda vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda topshiriqlarni tanlaydi. Tarix darslarini tashkil etishga nisbatan bunday yondashuv o'quvchilarga voqea-hodisalarni obektiv idrok etish imkonini beradi. O'tmishdagi voqelik bilan bugungi kun oraisdagi aloqadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Imitatsiyalashgan vaziyatli yondashuv asosida tarix darslarini tashkil etish natijasida o'quvchilar tarixiy ma'lumotlar, bilimlar va tushunchalarni obektiv idrok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida esa, o'quvchilarda tarixiy tafakkur, xotira va faollik vujudga keladi. Ular topshiriqlarni bajarishda faollik ko'rsatadilar. Imitatsiyalashgan o'quv vaziyatlari orqali aniq tarixiy jarayonlar va tarixiy shaxslar orasida o'zaro munosabatlar o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalanadi. O'quvchilarga o'rganilayotgan tarixiy voqelik haqida aniq tasavvur hosil bo'ladi va ular o'quv topshiriqlarini bajarishda faollik ko'rsata boshlaydilar. Imitatsiyalashgan vaziyatli yondashuv asosida tarix darslarini tashkil etish o'qituvchidan alohida kasbiy mahoratni talab qiladi. Bir qancha vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv vaziyatlarini tashkil etish murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Tarix o'qituvchisi har doim voqelikka mos keladigan vaziyatlarni jonlantirishga harakat qilishi lozim. Bu esa, o'qituvchi uchun murakkab ishlardan biri hisoblanadi.

Bunday o'quv vaziyatlari quyidagilar bilan farqlanishi lozim: vaziyat ssenariysi voqelikning aniq, haqqoniy ifodasi bo'lishi; imitatsiyalashtiriladigan tarixiy voqelik besh yoki oltita vaziyatni qamrab olishi. Bunda o'quvchilar qo'llanilgan atamalarni tushunishlarni va izohlay olishlariga e'tibor qaratilishi; imitatsiyalashtirilgan o'quv vaziyati sodda, yuzaki xarakterga ega bo'lmasligi, voqelikni aynan ifodalay olishi, o'rganilayotgan muammolar 2-3 ta o'zaro aloqador mavzu doirasida bo'lishi; ma'lumki, tarixiy jarayonlar har doim o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Mazkur voqealar tarixiy-ijtimoiy voqealarni qamrab olishi, o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratiladi.

Xulosa. Agar tarix darslarida bir nechta o'zaro aloqador imitatsiyalashtirilgan o'quv vaziyatlari tashkil etilsa, o'qituvchi ilk o'quv vaziyatiga kirishishdan oldin barcha o'quv vaziyatlarini tahlil qilish usullaridan o'quvchilarni habardor etishi tavsiya qilinadi. O'quv vaziyatlarini tahlil qilish namunasi sifatida nisbatan murakkab o'quv vaziyati tanlab olinishi lozim. O'quvchilar o'quv vaziyatlarini o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini egallashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda imitatsion treninglar alohida ko'nikmalar va tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'quvchilar rang-barang imitatsion vaziyatlarda ishlash tajribasini egallaydilar. Mazkur

tajribalar barcha sinflarda va darsdan tashqari pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning tarixiy tafakkuri va xotirasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda tarix o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda muammoli vaziyatlarga yechim topish usullarini o'rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Педагогика. Энциклопедия / Жамоа. II жилд. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2017. - 376 б.

2. Сафарова Р.Г. Умумий ўрта таълим мактабларида модулли ўқитиш жараёнида қўлланиладиган педагогик технологияларни фанлар кесимида таснифлаш: Методик қўлланма. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2015. - 11 б.т.

3. Сафарова Р.Г Модулли технологиялардан ўқувчиларнинг креатив қобилиятлари ва маънавий-ахлоқий сифатларини ривожлантиришда фойдаланиш имкониятлари // Узлуксиз таълим тизимида модулли ўқитиш технологияларини қўллаш истиқболлари: муаммо ва ечимлар: Республика миқёсида илмий-амалий конференция материаллари. 2018 йил 18-19 октябрь. - Т., 2018. - Б. 10-13.

4. Сагдиев А., Фузаилова Г., Насанова М. Тарих ўқитиш методикаси. - Т., 2008.

5. Быстрова И.Н. Имитационное моделирование как технология подготовки специалистов технического профиля в вузе: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Ростов-на-Дону, 2008.

6. Третьяков П.И., Сенновский И.Б. Технология модульного обучения в школе: Практико-ориентированная монография. - М., 1997.

O'QUV MASHG'ULOTLARIDA XALQARO PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS TADQIQOTLARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Supayeva Aziza Nurulla qizi, TDPU doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning tafakkuri va bilim salohiyatini belgilashda va ularni baholashda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi. PISA, TIMSS, PIRLS dasturlari o'quvchilarning fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.

Таянч so'zlar: PISA, TIMSS, PIRLS, o'quvchilar kompetentligi, salohiyat, tabiiy fanlar.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ PISA, PEARLS, TIMSS, TALIS НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Сулаева Азиза Нуруллаевна, докторант ТГПУ

Аннотация. В этой статье сказано о важности международных программ оценки в определении и оценке мышления и потенциала знаний учащихся. Программы PISA, TIMSS, PIRLS являются международными программами, направленными на оценку уровня знаний учащихся по предметам и предназначены для определения знаний и навыков, приобретенных ими во время обучения в школе.

Ключевые слова: PISA, TIMSS, PIRLS, студенческие компетенции, потенциал, естественные науки.

THE SIGNIFICANCE OF USING THE INTERNATIONAL PISA, PEARLS, TIMSS, TALIS RESEARCH IN EDUCATIONAL LESSONS

Supayeva Aziza Nurullayevna, PhD student of TSPU

Abstract. This article reflects on the importance of international assessment programs in determining and evaluating students' thinking and knowledge potential. PISA, TIMSS, PIRLS programs are international evaluation programs aimed at assessing students' knowledge levels in subjects, and are designed to determine the knowledge and skills students have acquired during school.

Key words: PISA, TIMSS, PIRLS, student competence, potential, natural sciences.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga [1] muvofiq O'zbekiston Respublikasi umumta'lim tashkilotlarining PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish va ularda ishtirokini ta'minlash vazifalari belgilangan.

Asosiy qism. «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga [2] ko'ra, o'quvchilarni baholash xalqaro PISA dasturi reytingida O'zbekistonning 2030-yilga kelib, 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishiga erishish ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida [3] 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish, 348 ta tayanch maktablarni tashkil etish va 6000 nafar o'qituvchilarning malakasini oshirish vazifalari belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Xalq ta'limi vazirligining qarori [4] asosida respublika bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablari (keyingi

o'qinlarda – tayanch maktablar) belgilandi. Qarorga ko'ra, tayanch maktablari – hududdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarini ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirish bo'yicha asosiy metodik bazaga ega bo'lgan, doimiy harakatdagi o'quv mashg'ulotlar, seminar-treninglar, davra suhbatlarini tashkil etish, xalqaro baholash dasturlariga oid ilg'or [5] tajribalarni ommalashtirish ishlarini amalga oshiradigan muassasalar hisoblanadi. Tayanch maktablari bazasida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS tadqiqotlari doirasidagi sinovlarga o'quvchilarni tayyorlash, xalqaro tadqiqotning namunaviy topshiriqlarini yechish bilan birga, tadqiqotda baholanadigan ko'nikma va kompetensiyalarni, o'quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha savodxonligini baholash va rivojlantirish, o'qituvchilarga amaliy va uslubiy tavsiyalar berish maqsadlari ilgari surilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun tayanch maktablar faoliyatini samarali tashkil etish, o'tkaziladigan seminar-trening, o'quv mashg'ulotlari va davra suhbatlarining tizimli va mazmunli bo'lishi dolzarb ahamiyatga ega. PISA – inglizchadan olingan qisqartma bo'lib, Program for international student assessment – o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi degan ma'noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo'lib, u dunyo bo'ylab 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqot an'anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o'tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo'nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo'nalish kiritiladi. 2022-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotda innovatsion yo'nalish sifatida o'quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanadi. Unda o'quvchilar maktabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas, balki olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari baholanadi. PIRLS – ingliz tilidagi Progress in international reading and literacy study so'zlaridan olingan bo'lib, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur dastur IEA tomonidan har 5 yilda bir marotaba amalga oshirilib, unda PISA dan farqli ravishda boshlang'ich ta'limdagi 4-sinf o'quvchilarining badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalari baholanadi. Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiy e'tibor 4-sinf o'quvchilariga qaratiladi, buning boisi, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. TIMSS – ingliz tilidagi Trends in international mathematics and science study so'zlaridan olingan bo'lib, umumiy o'rta ta'limdagi matematika va tabiiy fanlardan ta'lim sifatini baholashga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot 6 dasturidir. TIMSS ham IEA tomonidan joriy etiladigan PIRLS bilan hamnafas keladigan dastur bo'lib, unda 4, 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlari va savodxonliklari har 4 yilda bir marotaba xalqaro darajada baholanadi. 2015-yilga qadar bitiruvchi sinf o'quvchilari ham tadqiqotlarda ishtirok etgan. Ushbu dastur o'quvchilarning, asosan, fundamental bilimlarini va mantiqiy fikrlashini aniqlashga qaratiladi. TALIS - bilim yoki kompetensiyani baholaydigan emas, balki ta'lim muassasasidagi boshqaruv muhitini o'rganadigan dasturdir. Unda o'qituvchilar va maktab direktorlari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish orqali ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning samaradorligi haqida qiyosiy va tahliliy ma'lumotlar olish imkoniyati vujudga keladi. Ta'kidlash joizki, o'tgan vaqt mobaynida Tayanch maktablari bazasida ko'plab tadbirlar o'tkazildi, xalqaro, respublika, viloyat darajasida o'tkazilgan tadbirlardagi

ma'lumotlarni har bir umumta'lim muassasasiga yetkazib berishda tayanch maktablar samarali faoliyat ko'rsatdi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro tadqiqotlar, uning tarkibiy yo'nalishlari, ularda qatnashish orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar, olgan bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, fanlar bo'yicha savodxonligini rivojlantirish, shu bilan birga, milliy ta'lim sifatini oshirishda ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni nazariy hamda amaliy jihatdan tizimli tashkil etishda o'qituvchilarni tayyorlash yuzasidan namunaviy dasturning zaruriyati sezildi. Trenerlar uchun Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi, Respublika ta'lim markazi va Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti hamda tajribali metodistlar, pedagoglar va amaliyotchi o'qituvchilar bilan hamkorlikda ushbu namunaviy o'quv dasturi ishlab chiqildi. O'quv dasturining maqsadi ta'lim olayotgan o'qituvchi va o'quvchi zamonaviy jamiyatda to'laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ya'ni inson faoliyati, aloqa va ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida keng ko'lamli vazifalarni hal qila olishiga qaratilgan. Ustuvor maqsadlarga erishishda Tayanch maktablari va ular orqali barcha umumta'lim muassasalariga uslubiy yordam ko'rsatishdan iborat. O'quv dasturining vazifasi o'quv dasturida berilgan mavzular doirasida tayanch maktablarida tashkil etiladigan seminar, trening va o'quv mashg'ulotlarini samarali va tizimli tashkil etish hamda olingan bilimlar asosida ta'limning barcha darajalarida o'quvchilarning o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish. O'quv dasturi xalqaro PISA, PIRLS va TIMSS tadqiqotlarining mos 7 yo'nalishlari, ya'ni matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, o'qish savodxonligi, kreativ fikrlash hamda boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Dasturdagi mavzular umumiydan xususiylik tamoyili asosida shakllantirilgan bo'lib, unda har bir yo'nalish haqidagi umumiy ma'lumotlar, baholashning asosiy jihatlari, tadqiqotda baholanayotgan ko'nikma va kompetensiyalar, ularni rivojlantirish omillari haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan birga, tadqiqotda foydalaniladigan savol va topshiriqlarning namunalari hamda ularni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O'qish savodxonligi - matnli ma'lumotni anglash va tushunish qobiliyati sifatida qaraladi, olingan bilimlar haqida mulohaza yuritish va maqsadlarga erishish uchun o'qish bilan shug'ullanish, dunyoqarash va imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyatda faol ishtirok etish va jamiyat bilan o'zaro munosabat. Matematik savodxonlik – bu o'quvchilarning matematik fikrlashi, matematikani fan sifatida talqin qilishi hamda turli amaliy va hayotiy sharoitlarda muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatidir. Bu ko'rsatkich proseduralarni, faktlar va atamalar, tushunchalar, vositalarni o'z ichiga oladi. Tabiiy-ilmiy savodxonlik – insonning tabiiy bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishda, savollarni aniqlash va to'g'ri berish, yangi bilimlarni o'zlashtirishda tabiat hodisalarini tushuntirish va tabiatshunoslik muammolari bilan bog'liq holda ilmiy dalillarga asoslangan xulosalarni shakllantirish qobiliyatidir. Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandard, noodatiy va hokazo) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. O'quv dasturidagi mavzular xalqaro dasturlarning baholash qamrov doiralardagi mos mavzulardan kelib chiqqan bo'lib, ularning o'quv mashg'ulotlari davomida to'liq qamrab olinishi nazarda tutilgan, lekin seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda trenerlardan faqatgina ushbu mavzular bilan cheklanib qolmasdan qo'shimcha manbalar yordamida mavzuni boyitgan holda tinglovchilarga yetkazib berishi qo'llab-quvvatlanadi.

O'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar ko'proq 15 yoshga to'lgan maktab o'quvchilarining kundalik hayotiy vaziyatlarda ta'lim olish vaqtida olgan bilimlarini inson faoliyatining turli sohalarida, moliyaviy yutuqlar, ijtimoiylashuv va turli to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha ko'plab vazifalarni hal etishga qanday yondashishlariga e'tibor qaratishi lozim.

O'quv dasturidagi mavzularni yoritib berishga qaratilgan mashg'ulotlarni quyidagi jihatlar asosida tashkil etish ko'zda tutiladi: o'qituvchilar ehtiyoji va qiziqishini e'tiborga olish; ko'rish, o'rganish va qo'llay olish ko'nikmalari natijasi; erkin ijodiy ish, mustaqil harakat va hamkorlik; yaratilgan topshiriqlar o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish; fanlararo (integratsiya) va mavzu qismlari o'rtasidagi bog'liqlik; topshiriqqa mos tushuncha va xatti-harakatlarni anglash va mustaqil tahlil qilish, o'z fikrini himoya qilishdan iborat. Ushbu namunaviy o'quv dasturini samarali tashkil etish uchun namunaviy ish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda quyidagi uchta asosiy qismlarga e'tibor qaratiladi: «nima» (nazariy) – trener-o'qituvchi o'quv dasturida belgilangan mavzular yuzasidan nazariy ma'lumotlar asosida taqdimot tayyorlaydi, mavzuni atroficha tushuntirib beradi hamda tinglovchi o'qituvchilarda mavzu haqida umumiy tushunchalar, tasavvurlar va xulosalar qilishida yordam beradi; «qanday» (amaliy) – bunda trener-o'qituvchi mavzu yuzasidan amaliy jarayonni tashkil etadi. Zamonaviy va innovatsion o'qitish metodikalaridan foydalangan holda dasturda berilgan mavzuga aloqador topshiriqlar ustida tinglovchi o'qituvchilar bilan birgalikda amaliy mashg'ulotlarni bajarishni tashkil etadi. Topshiriqlar ustida ishlash jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash va rivojlantirishning zamonaviy usullari haqidagi ko'nikmalarga ega bo'lish hamda dasturda belgilangan maqsadlariga erishishni ta'minlaydi. «Samara» (mustaqil ish) – nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ish jarayonida qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tinglovchi o'qituvchi mustaqil ravishda dasturda tavsiya etilgan mavzular asosida ijodiy ish olib borishi lozim bo'ladi [6]. Ijodiy ishi o'qituvchining mavzu yuzasidan qo'shimcha manbalar orqali ma'lumotlar izlash, o'rganish, olgan bilimlarini mustahkamlash, mashg'ulot davomida egallagan bilimini o'quvchilarga yetkazib berish hamda o'quvchilarning savodxonligini baholash va rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar asosida dars jarayoni va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish bilan xarakterlanadi. Asosiy tamoyillar tayanch maktablardagi trenerlar uchun mo'ljallangan o'quv dastur va ish 9 reja quyidagi tamoyillarga yo'naltirilgan bo'ladi: o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro dasturlar tajribalarini o'rganish va ulardan foydalangan holda darslarni samarali tashkil etish; o'quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlanish usullarini maktablarda joriy etish; o'qituvchilarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini hamda ta'lim sifatini oshirish orqali xalqaro tadqiqotlarda ijobiy natijalarga erishish uchun zamin yaratish; o'qituvchilarni o'quv jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar bilan ta'minlash.

Xulosa. Kutilayotgan natijalar kurs yakunida tinglovchilar, ya'ni xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlar: o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashning yangi strategiya va usullarini; ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS) tushunchalariga nisbatan zamonaviy yondashuvlar mohiyatini; ta'limga kirib kelayotgan yangi yondashuvlar, strategiyalarni o'rganish, o'z ish faoliyatiga moslashtira olish; ta'lim samaradorligi va uni baholashdagi muammolarni aniqlash, ularning yechimini topishni tahlil qilish; o'qituvchilar bilim,

ko'nikmalarini baholashning yangi usul va vositalarni tanlay olishi; ta'limga kirib kelayotgan yangi innovatsiyalar, xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirish; ta'lim jarayoni sifatini tashxis qilish va baholashning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish; ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish; ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o'z kasbiy amaliyotiga joriy etish bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablar faoliyatini tashkil etish haqida" 2020-yil 8-mayda 17/23-sonli qarori.

5. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/14/education>

6. <https://www.youtube.com/watch?v=odnXDumUGpM>

BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BOYICHA O'QUV MATERIALLARI VA TEXNOLOGIYALARIDAN O'RINLI FOYDALANISH

Jumaniyozova Nodira Xudayberganovna, TDPU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya ta'limi o'quv dasturi asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar bilan birgalikda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish mazmuni va hajmi haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *biologiya ta'limi, kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya, ekologik, estetik, iqtisodiy, jismoniy, gigiyenik.*

ПРАВИЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ И ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Жуманиёзова Нодира Худайбергановна, докторант ТГПУ

Аннотация. В данной статье освещаются мнения о содержании и степени сформированности у учеников естественнонаучных компетенций наряду с базовыми компетенциями на основе учебной программы биологического образования.

Ключевые слова: *биологическое образование, компетенции, коммуникативная компетентность, экологическая, эстетическая, экономическая, физическая, гигиеническая.*

APPROPRIATE USE OF EDUCATIONAL MATERIALS AND TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' BASIC COMPETENCES IN BIOLOGY LESSONS

Jumanyozova Nodira Khudaiberganovna, PhD student of TSPU

Abstract. In this article, opinions about the content and extent of formation of science-related competencies in pupils along with basic competencies based on the curriculum of biology education are covered.

Key words: *biology education, competencies, communicative competence, ecological, aesthetic, economic, physical, hygienic.*

Kirish. Biologiyani o'qitishda, avvalo, o'quvchilarni biologiyaning asosiy g'oyasi, nazariya, qonuniyatlari va tushunchalari, amaliyot, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida tutgan o'rni, biologik bilimlarini o'zlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish nazarda tutiladi va shu orqali insonning tabiat va jamiyatga bo'lgan ongli munosabatini tarkib toptirish bilan uzviy bog'langan holda ta'lim-tarbiyaviy tizim vujudga keladi. Mazkur tizim o'zida o'quvchilar tomonidan fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishlari barobarida, ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, iqtisodiy, jismoniy, gigiyenik, mehnat va baynalminal tarbiyalash masalalarini mujassamlashtiradi.

Asosiy qism. So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talaba yoshlarda zamonaviy bilim ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida

yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmogda [3].

Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashda quyidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi: 1. Modulli ta'lim texnologiyasi. 2. Muammoli ta'lim texnologiyasi. 3. Loyihalash texnologiyasi.

Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi. Biologiya fanini o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiq tugallangan fikrli ismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Modul dasturlari mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadi. Modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning dars davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash ismini o'zida mujassamlashtiradi [2]. O'quvchilarning intellektual tafakkurlarini oshirishda, biologik jarayonlarni bir butunligini tasavvur qilishlarida, mustaqil «shakllar» yaratishda, o'zining xatolarini to'g'irlashda multimediyali animatsiyalar muhim rol o'ynaydi [4]. Ta'lim jarayonida multimediyali texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning ilmiy faoliyatiga va kompyuter bilan ishlashga qiziqishlarini oshiradi. Darslarda kompyuterlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan usul sifatida shakllandi. Natijada darsni qiziqarli va ko'rgazmali bo'lishini ta'minladi.

Taqdimot (prezentatsiya) – bu o'quv materialini slaydlar, tablitsa, sxema, chizmalar, illyustratsiya, audio va video materiallari orqali berishdir. Internet o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etishda juda katta (elektron pochta, qidiruv tizimi, elektron konferensiya) ma'lumot manbai sifatida zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Darsda internet ma'lumotlaridan foydalanish yangi mavzuni qiziqarli ma'lumotlar bilan to'ldiradi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishlarini oshiradi. Internetdan barcha maktab fanlari bo'yicha to'liq yechimi bilan berilgan masala va mashqlarni, testlar, referatlar, turli tajribalarni modellari berilgan tematik saytlarni topish mumkin. Hech kimga sir emaski, aksariyat zamonaviy maktab o'quvchilari zarur ma'lumotlarni adabiyotlardan emas, balki Internetdan olishmogda [1]. Internet ma'lumotlaridan foydalanishning eng muhim tomoni: o'quvchilarning vaqti tejalandi va ko'proq axborotlar olish imkoniga ega bo'ladilar. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar tomonidan olingan ma'lumotlar ustida to'g'ri ishlashga yo'naltirish, eng asosiy ma'lumotlarni ajratib olishga yo'llashdir. Misol uchun, «Yerda o'simliklar dunyosini rivojlanishi» mavzusini o'rganishdan oldin o'quvchilar oldindan internetdan ma'lumotlar olish to'g'risida topshiriq olishadi. Topshiriq individual va guruhli xarakterga ega bo'lishi mumkin. Agar vaqt yetarli bo'lsa, o'quvchilar internetdan olgan ma'lumotlari haqida ma'ruza qilishlari mumkin. Bunday jarayonlar o'quvchilarning internetdan olgan ma'lumotlari ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

Elektron ensiklopediya – bunga misol qilib «Katta ensiklopediya»ni olish mumkin. Bu elektron ensiklopediyadan dars uchun zarur bo'lgan jadvallar, sxemalar, o'simlik va hayvonlar sistematikasi, multimediyali panorama («Hayot evolyutsiyasi», «Yer ekosistemalari») videolavhalar («Yovvoyi hayvonlar hayoti») audio yozuvlar («Hayvonlarning tovushlari») fotoalbomlar («yirtqich hayvonlar») kabi juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin. Video materiallardan foydalanib o'tiladigan darslar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Ayniqsa, 6-7-sinf botanika va zoologiya darslarida o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligini o'rganishda bulardan foydalanish biologiya darslarini yanada

qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu filmlarda baliqlar, suvda ham, quruqda ham yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar hayoti haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, biologiya darslarida rejali tarzda innovatsion laboratoriya darslarini o'tkazishda axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchining, balki o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda, dunyoqarashini kengaytirish-da, fan yutuqlari bilan doimo tanishib borishda, biologik bilimlarni o'zlashtirishda, darslik, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashda muhim manba vazifasini o'taydi [1].

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlariga va tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv materiallari hamda texnologiyalariga quyidagilarni keltirish mumkin:

Kommunikativ kompetensiya: biologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi – biologiya fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O'quvchi biologik tushunchaga ega bo'lishi, tushunchalarning mohiyatini anglashi, ularni yangi vaziyatlarda imkoniyat darajasida o'z ona tilida hamda birorta xorijiy tilda dastlabki tushunchalarini ishlata olishidir.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: o'quvchi biologiya fanining yangiliklari, rivojlanishi bo'yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni ilmiy-ommabop materiallardan foydalanib, zarur ma'lumotlarni izlab topa olishi, ma'lumotlarni saralashi va qayta ishlashi, ulardan foydalana olishi.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: o'quvchi biologiya fanining yangiliklari, rivojlanishi bo'yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar, tirik organizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, organizmlarning hujayraviy tuzilishini mustaqil o'rganish; o'zini-o'zi ma'naviy, ruhiy va intellektual rivojlantirishi, hayot davomida mustaqil holda o'qib-o'rganishi, bilim va tajribani muntazam oshirib borish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: o'quvchi biologiya fanining ilmiy-amaliy soha ekanligini, uning inson va tabiatdagi ahamiyatini anglashi, biologiya fani o'rganadigan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni, tirik organizmlar ustida kuzatish va tajribalar olib borishni o'rganishi va ularda faol ishtirok etishi; tirik organizmlarning o'ziga xos jihatlarni bilishi, ularning salbiy tomonlarini o'zidan kichik bo'lgan yoshlarga o'rgatish jarayonida faol ishtirok etishi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: o'quvchi tabiatdagi tirik mavjudotlarni muhofaza qilish tadbirlarida faol ishtirok etishi; ilmiy tadqiqot olib borgan o'zbek olimlari haqida dastlabki ma'lumotlarni bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: o'quvchi kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblarni buyumlarni necha marta kattalashtirishini hisoblay olishi, mikroskoplar bilan ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirgan bo'lishi; fanga doir masala va mashqlarni mustaqil ravishda yecha olishi, standart topshiriqlarni bajara olish.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Biologik obyekt, hodisa, jarayonlarni tushunish, tanish, izohlash kompetensiyasi: o'quvchi biologiya fanining ilmiy-amaliy soha ekanligini, uning inson va tabiatdagi ahamiyatini anglaydi, organizmlarning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni o'zlashtirgan bo'ladi. Tirik organizmlarning o'xshashlik va farqlarini, tabiatda va inson hayotidagi ijobiy va salbiy ahamiyatini izohlay oladi; ekologik muammolar, maxsus

muhofazaga olingan hududlarni izohlay oladi.

Biologik obyekt, hodisa, jarayonlar ustida kuzatish va tajribalarni o'tkazish kompetensiyasi: tirik organizmda boradigan tiriklik belgilarini va ularning xususiyatlarini tushunish, hodisa, jarayonlar ustida kuzatish va tajribalar o'tkaza olishi, hujayraviy tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ustida kuzatish va tajribalar o'tkaza oladi; biologik obyektlarni foydali va zaharli turlarini, madaniy va yovvoyi xillarini taniy oladi; tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi, inson faoliyatining ijobiy va salbiy ta'sirining oqibatlari, ko'kalamzorlashtirish va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini qo'llay olish, favqulodda holatlarda ehtiyotkorlik chora-tadbirlarini qo'llay oladi.

Sog'lom turmush tarzi va ekologik kompetensiya: tirik organizmlarning inson hayotidagi ahamiyatini anglab yetish, ularni muhofaza qilishni biladi; shaxsiy gigiena qoidalariga amal qiladi; mikroorganizmlarning tabiatda va inson hayotidagi ijobiy hamda salbiy tomonlarini o'rganish va ularning salbiy tomonlarini anglab yetishi, ulardan saqlanish yo'llarini biladi.

Xulosa. Ta'lim vositalari o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda fanga oid kompetensiyalarni egallanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, biologik ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida o'quvchilarda kompetentligini rivojlantirish jarayonida samarali natijaga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar: Pedagogika oily ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. - T., 2014.

2. Niyozov Q. Biologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni // Xalq ta'limi tizimidagi "Mahorat maktablari" faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami. - T.: Fan va texnologiyalar, 2017.

3. Niyozov Q. Biologik ta'lim jarayonida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. - Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017.

4. Tolipova J., G'ofurov A., Umaraliev M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. Biologiya: O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. - T.: Sharq, 2017.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI TIMSS XALQARO
BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O‘QITISHDA METODIK TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Qayumova Shoxsanam To‘lqin qizi, GulDU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitishda metodik tayyorgarligini rivojlantirishning mazmuni va ahamiyati hamda pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: xalqaro baholash dasturlari, TIMSS, innovatsiya, kompetensiya, mulohaza yuritish, kognitiv sohalar, mazmun sohalar.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ
К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ
ОЦЕНОЧНОЙ ПРОГРАММЫ TIMSS**

Каюмова Шохсанам Тулкин кизи, докторант ГулГУ

Аннотация. В данной статье раскрывается содержание и важность разработки методической подготовки и педагогических условий обучения будущих учителей начальных классов на основе международной оценочной программы TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study).

Ключевые слова: международные оценочные программы, TIMSS, инновации, компетентность, мышление, когнитивные области, содержательные области.

**PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF
METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL
TEACHERS IN TEACHING BASED ON THE TIMSS INTERNATIONAL
ASSESSMENT PROGRAM**

Qayumova Shoxsanam To‘lqin qizi, PhD candidate at GuISU

Abstract. This article describes the content and importance of developing methodological preparation and pedagogical conditions for teaching future primary school teachers based on the TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) international assessment program.

Key words: international assessment programs, TIMSS, innovation, competence, reasoning, cognitive areas, content areas.

Kirish. Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e‘tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma‘nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste‘dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil

7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-sonli Farmonida [1] ijtimoiy soha, xususan, ta‘lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish hamda 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga

murojaatnomasida [2] 2021 yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish vazifalari belgilab berildi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta'lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko'maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud. O'zbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umume'tirof yetilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta'lim olishini ta'minlash hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish, unga bo'lgan qiziqish, e'tibor tobora ortib bormoqda. Oldinlari an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarning o'zlari o'rganishi kerak bo'lgan bilimlarni qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, xattoki xulosalarni o'zlari bimalol chiqaryaptilar. "Bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarni bilim olishi, tarbiyalanishi va ularni rivojlanishi uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar yaratilib borilmoqda" [3].

Asosiy qism. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida metodik tayyorgarligini rivojlantirishda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish sifat-samaradorligini oshiradi, o'qituvchilarning o'quvchilarga mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda yordam beradi. TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – bu to'rtinchi va sakkizinchi sinflarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha keng joriy qilingan xalqaro baholash dasturi. Mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchida mavzuga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturiga oid bilimlarini shakllantirish uchun o'quv jarayonining pedagogik shartlarini belgilash mumkin.




1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi haqidagi bilimlarini shakllantirish uchun o'quv jarayonining pedagogik shartlari

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlariga munosib ravishda tayyorlash va bu orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni xalqaro baholash dasturlari asosida metodik tayyorgarligini rivojlantirish o'quv jarayoniga ham kompleks yondashishni talab yetadi. Bu jarayonda, birinchidan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga doir ta'lim dasturlari o'rtasida, ikkinchidan, pedagogika oliy ta'lim dasturlari va boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarni, uchinchidan, xalqaro baholash dasturlari (TIMSS) integratsiyasini ta'minlash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining metodik tayyorgarligini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida rivojlantirish maqsadida, avvalambor, pedagogik shart-sharoitlarini yaxshilash lozim, bu borada har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim tizimiga innovatsion yondashishlari kerak. Quyida «innovatsiya» so'ziga tushuncha berib o'tamiz. Lug'aviy jihatdan «innovatsiya» tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilganda, «yangilik kiritish» degan ma'noni anglatadi [4]. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: «Innovatsiya (ingl. "innovationas") – kiritilgan yangilik, ixtiro): 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralari qo'llanishi» [5]. "Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari «innovatsion ta'lim» deb ham nomlanadi». «Innovatsion ta'lim – ta'lim oluvchida yangi g'oya, meyor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir» [6]. Pedagogik texnologiya deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi san'at va mahorat tushunilib, u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

«Bugungi kunda barcha umumta'lim maktablarda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish va ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish davr talabiga aylanib bormoqda» [7]. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantirish borasida zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish maqsadida, boshlang'ich ta'limda innovatsiya va axborot texnologiyalarning asosiy vazifalari ishlab chiqilib, quyidagi rasmda shakllantirildi" [8]:



2-rasm. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va axborot texnologiyalarining vazifalari

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. «Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim» [8]. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Bu mas'uliyatni bajarish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'zlarining metodik tayyorgarliklarini oshirsalar, ta'lim samaradorligi yanada rivojlanadi.

Xulosa. bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishda metodik tayyorgarligini rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini yanada oshirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони.

2. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи. - Т., 2020. - 25 январь. - 19-сон.

3. Бродская Т.А., Садриева Л.М. Построение адаптационного курса по математике, применяя структурно-логическую схему содержания проблемного типа. - М., 2019.

4. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Мирсолиева М. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик: ЎММ. - Т., 2016.

5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебунисо-Конирил / 4-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. - 169 б.

6. Шабля И.Н. Дисциплина «Стандарты в образовании» как компонент профессиональной подготовки будущего педагога: <https://cyberleninka.ru/article/n/distsiplina-standarty-v-obrazovanii-kak-komponent-professionalnoy-podgotovki-buduschego-pedagoga>

7. Кабиденова С.Ж. Инновационные подходы в системе повышения квалификации как фактор роста профессиональной компетентности педагогов. Вестник "Орлеу"-kst. - 2015. - № 3(9). - С. 49-53.

ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СРЕДА ШКОЛЫ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ У УЧАЩИХСЯ

Русаk Ирина Александровна, аспирант кафедры педагогики и социальной работы ГрГУ, учитель истории и обществоведения средней школы № 34 г. Гродно

Аннотация. В данной статье рассматриваются различные подходы к определению понятия «среда», а также дается характеристика информационно-образовательной среды школы, выделяются ее структурные компоненты в целях формирования гражданской ответственности у учащихся.

Ключевые слова: среда, образование, условия, обстоятельство, информация, школа, личность, формирование.

MAKTABNING AXBOROT-TA'LIM MUHITI O'QUVCHILARNING FUQAROLIGINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Rusak Irina Aleksandrovna, GrDU pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi aspiranti, Grodno shahridagi 34-sonli o'rta maktab tarix va ijtimoiy fanlar o'qituvchisi

Annotation. Ushbu maqolada «atrof-muhit» tushunchasini aniqlashga turli xil yondashuvlar ko'rib chiqiladi, shuningdek, maktabning axborot-ta'lim muhitining tavsifi berilgan, uning tarkibiy qismlari o'quvchilarning fuqaroligini shakllantirish uchun ajratilgan.

Таянч so'zlar: atrof-muhit, ta'lim, sharoitlar, vaziyat, ma'lumot, maktab, shaxs, shakllanish.

INFORMATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT OF THE SCHOOL AS A MEANS OF FORMING STUDENTS' CITIZENSHIP

Rusak Irina Aleksandrovna, post-graduate student of the Department of pedagogy and social work, teacher of history and social science, secondary school № 34, Grodno

Abstract. This article discusses various approaches to the definition of the concept of «environment», as well as a description of the information and educational environment of the school, its structural components are highlighted.

Key words: environment, education, conditions, circumstance, information, school, personality, formation, citizenship.

Введение. Интенсивное развитие современного общества оказывает влияние не только на экономические, социальные и политические преобразования в социуме, но и на её духовно-нравственные составляющие. Сегодня угрозой для развития современного общества является информация, которая представляет основной ресурс для управления массами. Для формирования зрелой личности, которая готова на активные действия для сохранения безопасности и защиты национальных интересов необходимо создать благоприятные условия и сформировать ту информационную среду, которая будет способствовать активному развитию личности в направлении гражданского воспитания. Школа является тем социальным институтом, который обеспечивает личность контролируемым потоком информации в учреждении образования. Поэтому для ак-

тивного развития гражданственности личности необходимо правильно организовать информационно образовательную среду школы с учётом всех ее структурных компонентов.

Основная часть. А.Н.Леонтьевым было определено, что согласно педологическим представлениям, развитие ребенка рассматривается как непосредственная функция двух основных факторов: врожденных свойств ребенка (его «способностей», «одаренности»), с одной стороны, и той среды, в которой совершается это развитие, с другой стороны [4].

Понятие среда широко используется в различных сферах жизни общества. В Словаре терминов по общей и социальной педагогике «среда» рассматривается как реальная действительность, в условиях которой происходит развитие человека; субстанция, которая в отличие от пустого, незаполненного пространства (вакуума) обладает определенными свойствами, влияющими на перенос взаимодействия между данными объектами [5].

Отдельно выделяется термин «среда воспитания», который характеризуется взаимодействиями природных и социальных условий, которые влияют на формирование личности. Таким образом, воспитательная среда определяется контролируемыми и неконтролируемыми условиями.

Выделяется «социально-педагогическая», которая сообразно с социально-педагогическими целями, создаваемая система условий организации жизнедеятельности человека, направленная на формирование его отношений к миру, людям вообще и к другим людям. Данная характеристика определяет «среду» не только как образовательную, но и воспитательную систему. Формирует нравственное отношение к окружающему миру. В.И.Козырь отмечает, что педагогические средства вместе с окружающим природным и социальным миром образуют для учащихся их жизненную среду. Педагогическая среда является открытой, широкой, вариативной системой. Подобное качество может быть достигнуто лишь на основе интеграции всех педагогических средств, которыми располагает как само учебное заведение, так и внешняя социально-педагогическая среда [3]. Характеристика описывает среду как систему педагогических средств. Сегодня как синонимом к социально-педагогической среде используется образовательная среда. Проблема изучения образовательной среды приобретает все более актуальное значение, тем не менее, содержание понятия «образовательная среда» нельзя считать однозначно определенным и устоявшимся. При определении понятия образовательная среда исследователи отталкиваются от понятий «окружающая среда» и «жизненная среда». Данные понятия характеризуются в постоянном взаимодействии человека со средой, в условиях которой он развивается, обучается и воспитывается. Опираясь на данные характеристики, они выводят категорию образовательной среды как совокупности влияний и условий формирования личности, возможностей для ее развития, самореализации [5]. А.В.Хуторской под образовательной средой понимает естественное или искусственно создаваемое социокультурное окружение человека, включающее различные виды средств и содержания образования, способные обеспечивать продуктивную деятельность ученика [6]. При таком подходе процесс обучения есть процесс взаимодействия с образовательной средой, которая, в свою очередь, состоит из жизненно важных для

человека и взаимосвязанных между собой образовательных сфер. Я.А.Коменский пытался спроектировать образовательную среду, которая была бы способна «пробуждать и поддерживать в детях стремление к учению». По мнению С.Д.Дерябо, образовательная среда – это «совокупность всех возможностей обучения, воспитания и развития личности, причем возможностей как позитивных, так и негативных» [1, с. 52]. В.А.Ясвин выделяет следующие важнейшие компоненты образовательной среды: субъекты образовательного процесса, содержание образования (или психодидактический компонент), пространственно-предметный компонент, социальный компонент. Ученый определяет образовательную среду как систему влияний и условий формирования личности по заданному образцу [7].

В современном обществе выделяется информационная среда, которая рассматривается как важнейший фактор информатизации образования. В процессе создании информационной среды должно быть обеспечено единство средств информатики, системы социальной информации и образовательного процесса. Соответственно образовательная среда и информационная образуют информационно-образовательную среду. При рассмотрении формирования личности, необходимо учитывать тот факт, что учащиеся школы подвергаются влиянию различных обстоятельств и условий, значительная часть которых являются не контролируемы. Поэтому, при формировании личности учащихся акцент делается на информационно-образовательную среду школы.

Целью создания информационно-образовательной среды школы является научно-техническое обеспечение практической реализации концепции, программы, в которых четко определен вектор на формирование гражданственности учащихся, а также процесса информатизации образования и науки, и выход на современный уровень развития образования. Для этого необходимо осуществлять деятельность в соответствующей информационной среде, которая представляет собой совокупность программно-аппаратных средств, информационных сетей связи, организационно-методических элементов системы школы и прикладной информации о предметной области, понимаемой и применяемой различными пользователями, возможно, с разными целями. Информационно-образовательная среда включает средства и технологии сбора, накопления, передачи, обработки и распределения учебной информации, средства представления знаний, обеспечивая связи и функционирование организационных структур педагогической деятельности.

Назначение информационно-образовательной среды: выявление, раскрытие и развитие способностей и потенциальных возможностей личности к творческой инициативе; создание условий для самостоятельного извлечения знаний и их количественного усвоения; обеспечение автоматизации процесса обработки результатов обучения, в том числе результатов продвижения в учении; компенсаторность негативных последствий общения обучаемого со средствами новых информационных технологий.

Учитывая выделенные характеристики и компоненты, была разработана информационно-образовательная среда школы, которая направлена на формирование гражданственности учащихся (рис. 1).




Рис. 1. Информационно-образовательная среда школы

При составлении модели информационно-образовательной среды школы, были определены три компонента: технологический, пространственно-предметный и социально-коммуникативный. Данные составляющие выделены со ссылкой на В.А. Ясвина и с учётом специфики среды [7]. Технологический компонент включает в себя содержание и методы обучения, offline и online формы организации обучения, а также образовательные ресурсы. Все составляющие обусловлены целями образовательного процесса и соответствуют современным информационным стандартам. Предметно-пространственный компонент, который обеспечивает разнородность пространственных условий. Составляющие данного компонента определялись с учетом направленности среды на формирование гражданской ответственности учащихся: объекты историко-культурного наследия, символы суверенного государства и учреждения с просветительской и популяризаторской деятельностью.

Третий компонент определен как социально-коммуникативный, который должен обеспечивать взаимопонимание и удовлетворенность всех субъектов (педагогов, учащихся, родителей, представителей администрации и др.) межличностными взаимоотношениями, включая ролевые функции, уважение друг к другу, преобладающее позитивное настроение всех субъектов, их сплоченность и сознательность, авторитетность [7].

В связи с тем, что в образовательный процесс по формированию гражданской ответственности личности должны быть вовлечены все субъекты образовательного процесса, определены следующие составляющие: педагогические советы, информационные, классные часы и экскурсии, а также родительские собрания.

С учетом структурных компонентов информационно-образовательной среды можно выделить два основных направления по организации образовательного процесса: информационно-познавательное, досугово-творческое, которое связано с системой досуга для удовлетворения внутренних и материальных потребностей лиц: предоставление им книг, журналов, газет, создание специальных телевизионных и радиопередач, игр; содействие в организации оздоровительных мероприятий, уро-

ков физкультуры и спорта, посещения театров, выставок, разных цивилизованно-просветительных, спортивных и иных мероприятий. В связи с этим возникает необходимость правильной организации образовательного процесса с использованием различных источников и методов, которая будет направлена на формирование гражданской ответственности личности; информационно-познавательное направление, которое характеризуется просветительской составной частью, определяет получение лицами определений и познаний о настоящих явлениях находящихся вокруг их общества, понимание ими необходимости выделиться со своим непосредственным окружением, потребности познаний в практической деятельности с целью преобразования своего образа существования. Остро стоит задача, направленная на подбор информации гражданской и патриотической направленности, которая может использоваться не только в рамках образовательного процесса, но и за его пределами.

Выводы. А.Н.Леонтьев выделяет две роли среды: активная и пассивная роль. При пассивной роли в качестве исходной предпосылки развития постулируются врожденные задатки способностей данного ребенка, которые могут получить или не получить своего развития в зависимости от условий окружающей среды. При активной роли окружающая среда "определяет развитие; она активно строит деятельность ребенка, лишь используя при этом врожденный фонд его личности, поэтому правильное использование и функционирование информационно-образовательной среды обеспечит максимально комфортное и стабильное развитие гражданской личности [4]. Учитывая высокую динамику современного общественного развития, роль и значение информационно-образовательной среды в процессе формирования гражданской ответственности учащихся становится все более очевидными. Доступ к информационным ресурсам учащимися обеспечивается и вне образовательного процесса, поэтому перед системой образования стоит задача грамотной координации деятельности, в ходе которой у учащихся формируется информационная грамотность. Информационная грамотность представляет собой умение личности анализировать используемые источники и выбирать те, которые содержат объективную информацию.

Литература:

1. Дерябо С.Д. Учителю о диагностике эффективности образовательной среды / Под. ред. В.П. Лебедевой. - М., 1997.
2. Ковалёв Г.А. Психическое развитие ребёнка и жизненная среда // Вопросы психологии. - 1993. - № 1.
3. Козырь В.И. Теоретико-экспериментальное прогнозирование развития УМБ в школах как компонента социально-педагогических технологий // Методика изучения и распространения передового опыта. Контроль за состоянием и использованием учебно-материальной базы школ. - М.: РАО, 1990. - 213 с.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность: <https://www.marxists.org/russkij/leontiev/1975/dyatyelnost/deyatelnost-soznyanie-lichnost.pdf>.
5. Словарь терминов по общей и социальной педагогике: <http://niv.ru/doc/dictionary/social-pedagogy/fc/slovar-209.htm#zag-633>
6. Хуторской А.В. Модель образовательной среды в дистанционном эвристическом обучении // Образовательная среда сегодня и завтра: Материалы II Всероссийской научно-практической конференции / Отв. ред. В.И.Солдаткин. 28 сентября - 1 октября 2005 года. - М.: Рособразование, 2005. - С. 132-134.
7. Ясвин В.А. Исследования образовательной среды в отечественной психологии: от методологических дискуссий к эмпирическим результатам // Известия Саратовского университета. Серия Философия. Психология. Педагогика. - С., 2018. - Т. 18.

**TALABALARDA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH:
MAZMUNI, SHAKLLARI, METODLARI**

Qandaharov Qahramon Hasanovich, NavDPI tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion yondashuvlar asosida talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron muhitdan foydalanish jarayonlarining pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil etish, talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron muhitdan foydalanish, kasbiy tayyorgarligi sifati va samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar tahlil qilindi. Shuningdek, ijtimoiy buyurtma talablariga umummadaniy kompetentlik talablarini optimallashtirish orqali talabalarda fuqarolik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun elektron muhitdan foydalanish jarayonlari ham keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: kompetentlik, fuqarolik, huquqiy madaniyat, fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, ommaviy madaniyat.

**РАЗВИТИЕ ОБЩЕКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ:
СОДЕРЖАНИЕ, ФОРМЫ, МЕТОДЫ**

Кандахаров Харамон Хасанович, научный сотрудник НавДПИ

Аннотация. В данной статье на основе инновационных подходов анализируются педагогико-психологические аспекты процессов использования электронной среды в развитии гражданско-общекультурных компетенций у обучающихся, использование электронной среды в развитии гражданско-общекультурных компетенций у студентов, совершенствование механизмов повышения качества и эффективности профессиональной подготовки. Также раскрыты процессы использования электронной среды для развития гражданских компетенций у обучающихся путем оптимизации требований общекультурной компетенции к требованиям социального заказа.

Ключевые слова: компетентность, гражданственность, правовая культура, гражданская позиция, ценности, семейные отношения, массовая культура.

**DEVELOPMENT OF GENERAL CULTURAL COMPETENCIES IN STUDENTS:
CONTENT, FORMS, METHODS**

Kandaharov Kharamon Hasanovich, researcher at NavDPI

Abstract. Based on innovative approaches, this article analyzes pedagogical and psychological aspects of the processes of using the electronic environment in the development of civic and general cultural competences in students, the use of the electronic environment in the development of civic and general cultural competences in students, and the improvement of mechanisms for improving the quality and efficiency of professional training. Also, the processes of using the electronic environment for the development of civic competences in students by optimizing the requirements of general cultural competence to the requirements of the social order are also mentioned.

Key words: competence, citizenship, legal culture, citizenship position, values, family relations, public culture.

Kirish. Oliy ta'limda talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish uchun, avvalambor, uning mazmuni, mantiqiy va gnoseologik asoslarini tushunishga, shu sohada zamonaviy nazariy va uslubiy

muammolarini izlashga harakat qildik. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda o'qitiladigan o'quv modullarining talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari, usullariga e'tiborni qaratdik. Bunda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan har bir komponent o'rganilayotgan mavzu doirasida tahlil qilindi. L.Klinberg yozganidek, «Didaktikaning nafaqat ilmiy samaradorligi va fanlar o'rtasidagi ilmiy obro'si, balki amaliy ta'siri, o'qitish amaliyotidagi samaradorligi ko'p jihatdan fanning asosiy nazariy va uslubiy masalalarini yanada jiddiy rivojlanishiga bog'liq. Ilm-fanni ilmiy-nazariy va uslubiy tushunish bu uning o'ziga xosligi, muammolarning butun spektrining o'ziga xos xususiyati va tahlil qilish vositalarining mavjudligidan dalolat beradi» [1].

Asosiy qisim. Ma'lumki, oliy ta'limda talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning birinchi muammosi – bu oliy o'quv yurtlarining zamonaviy didaktikasini (ilmiy-pedagogik nazariyalardan biri sifatida) uning funksiyalarini amalga oshirish va uning ilmiy maqomini aniqlash bilan bog'liqdir. Ko'rsatilganlardan tashqari, boshqa uslubiy muammolar ham mavjud. Eng qiyinlaridan biri bu zamonaviy universitetda o'quv modullarining talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun yetarli metodikani topish muammosi mavjudligi aniqlandi. Yana bir muammolaridan biri - o'tkazilgan tadqiqotimizda tahsil oluvchilarning dinamikadagi ko'rsatkichlarini taqqoslash shartlarni tenglashtirishga kafolat bermaydi. O'rganilayotgan muammo gumanitar yo'nalishidadir va u gumanitar bilimlarning ilmiy xarakteriga muvofiq bo'lishi kerak.

Talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida «Sotsiologiya», «O'zbekiston tarixi», «Falsafa» o'quv modullari bo'yicha tahsil oluvchilarning matnlarni sharhlash (ular ramziy va ramziy umumlashtirish sifatida qaraladi), monografik o'rganish, tipik yoki aksincha, nostandart vaziyatlarni fenomenologik tavsifi, keyinchalik tahlil qilish bilan bog'liq holdagi topshiriqlar turkumidan foydalanildi. Ma'lumki, falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi o'quv modullarini o'qitish jarayonida tahsil oluvchilarning o'z-o'zini anglash muammosi ilmiy bilimlarda aynan uning jamiyat bilan munosabatlarining burilish nuqtasida yoki inqirozli daqiqalarida ko'tarilishi isbotlangan bo'lib, bu nafaqat intellektual mezonlarni, meyorlar va qadriyatlarini nafaqat maqbul ishlashni, balki ijtimoiy faoliyatni ham ta'minlashga qaratilgan ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Didaktik bilimlarga bo'lgan yondashuv va, xususan, oliy ta'lim didaktikasida bilim olish holatining belgilari aniq. Bunday sharoitda oliy o'quv yurtlarida zamonaviy o'qitish nazariyasida axloqiy nazariyani tavsiflash zarurati yuzaga keladi.

Ilm-fan etikasi konsepsiyasining asoschisi R.Merton, umuman olganda, normalar tizimi funksional rol o'ynaydi, olimlar uni harakatga ko'rsatma sifatida, ichki muhit sifatida qabul qilishlarini aniqladilar. Ilmiy axloq normal fanning mavjud bo'lishi uchun zarur shartdir. Ilmiy axloqning imperativlari olimlar tomonidan o'zlashtirilib, ularning ilmiy o'zini anglashi aks etadi. Binobarin, ma'lum bir bilim sohasiga mansub olimlar birgalikda foydalanadigan axloqiy meyorlarning yagona izchil tizimi uning yuqori ilmiy maqomini tasdiqlaydi. Shu jihatdan olganda, talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi o'quv modullari mazmuni asosiy quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Sintetik funksiya – alohida ishonchli bilimlarni yagona, yaxlit tizimga birlashtirish.
2. Tushuntirish funksiyasi – sabab va boshqa bog'liqliklarni aniqlash, berilgan hodisaning turli xil bog'lanishlari, uning muhim xususiyatlari, kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlari va boshqalar;
3. Metodik funksiya – nazariya asosida tadqiqot faoliyatining turli shakllari, usullari, metodlari shakllantiriladi.

4. Bashorat qilish funksiyasi – ma'lum hodisalarning haqiqiy holati haqidagi nazariy g'oyalar asosida ilgari noma'lum bo'lgan faktlar, obyektlar yoki ularning xususiyatlari, hodisalar orasidagi aloqalar va boshqalar mavjudligi to'g'risida xulosalar chiqariladi. Bu ilmiy bashorat deb nomlanadi.

5. Amaliy funksiya – har qanday nazariyaning yakuniy maqsadi amalda o'z ifodasini topishi, haqiqatni o'zgartirish uchun «harakatga ko'rsatma» bo'lishi kerak. Shuning uchun, «yaxshi nazariyadan ko'ra amaliyroq narsa yo'q» degan ibora didaktikada keng qo'llaniladi. U yoki bu darajada ushbu funksiyalarni oliy o'quv yurtlarida o'qitish nazariyasi ham amalga oshiriladi. Agar biz universitetda o'quv jarayonining borishini tavsiflasak, o'qituvchining faoliyatini va boshqalarni o'rgansak, unda biz tavsiflovchi funksiyani amalga oshiramiz.

6. Fanning tavsiflovchi funksiyasi – empirik faktlarni to'plash, ularni umumlashtirish asosida ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi. Tushuntirish funksiyasini didaktika tomonidan amalga oshirilishi kuzatilayotgan hodisalarni tushuntirishga, ularning mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Aslida tavsiflovchi nazariyaga ega bo'lgan ayrim ijtimoiy-gumanitar fanlarni oliy o'quv yurtlarida o'qitilishini metodik jihatdan tavsiflash juda qiyin. Masalan, bu oliy ta'lim didaktikasining ko'plab asosiy tamoyillari tizimlashtirilmaganligi va tasniflash uchun aniq asoslarga ega emasligidandir. Ilmiy bilimlarning bashorat qiluvchi vazifasi shundaki, u nafaqat voqea yoki hodisani tushuntiradi, balki ularni oldindan bashorat qiladi. Shu jihatdan olganda, talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan ijtimoiy-gumanitar fanlar tahsil oluvchilarda borliq haqidagi bilimlarni to'g'ri aks ettiradigan haqiqiy bilimlarga erishishga qaratilgan. Binobarin, haqiqiy ilmiy bilim insonga voqelikni o'zgartirishga, uning keyingi rivojlanishini bashorat qilishga yordam beradi. Didaktik bilimlar o'quv jarayonini takomillashtirish va natijalarini bashorat qilish imkonini beradi.

N.L.Korshunova pedagogikadagi bilimlarning obyektivligi (haqiqati) muammosini o'rganar ekan, boshqa ilm-fan singari oliy ta'lim didaktikasi ham «fanning qattiq yadrosi»ni tashkil etuvchi dalillarga asoslangan va asosli bilimlarni o'z ichiga oladi.

V.V. Krayevskiy 1977 yilda o'zining "Ilmiy asoslash muammolari (uslubiy tahlil)" monografiyasida boshlang'ich didaktik «o'qitish», «o'qish», «o'rganish» toifalarini, shuningdek, o'rganishning mohiyatini aks ettiruvchi tushunchalarni: «tarbiyaviy faoliyat», «pedagogik jarayon», «o'quv harakati», «o'qitish uslubi», «o'quv jarayoni», «o'quv loyihasi», «o'quv holati» va boshqalarni tavsifladi. Ularni tadqiqot nuqtai nazaridan batafsil ko'rib chiqaylik.

V.V. Krayevskiy fikricha, didaktik darajada o'qitish – «ijtimoiy tajribani yosh avlodga o'tkazish faoliyatida o'qitish va o'qitishning birligi» sifatida namoyon bo'ladi. V.I.Zagvyazinskiy «o'qitish»ni o'qish va o'rganishni o'z ichiga olgan jarayon deb ta'riflaydi, uning mohiyati talabalarni tizimli ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, qadriyatlar va an'analar bilan tanishtirish, milliy va jahon madaniyati yutuqlari asosida ta'lim va taraqqiyotga yo'naltiradi. I.M.Osmolovskaya ta'kidlashicha, «o'rganish» va «o'quv jarayoni» odatda sinonim sifatida ishlatiladi.

Zamonaviy olimlarning nashrlarida ta'lim, shuningdek, insonning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni va natijasi, jamiyatda hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi sifatida tushuniladi. Ta'kidlanishicha, ta'lim ham mashg'ulot shaklida, ham o'z-o'zini tarbiyalash shaklida, ya'ni so'zning asl ma'nosida o'qituvchi ishtirokisiz tashkil etilishi mumkin.

Talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim

ular da bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, dunyoqarashni tarkib toptiradigan jarayon, deb tavsiflanadi. Bunda bilim – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritilishi mumkin. Ya'ni, bilim talabalar tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarni o'zlashtirish natijasidir.

Bilimni hayotda ko'p samara beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

«Ta'lim» atamasi oliy ta'lim didaktikasida aniqroq shaklda o'qitish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarning shaxsiy rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bilimli odam nafaqat bilimdon, balki jamiyatdagi shaxsiyat xususiyatlarini juda qadrlaydigan shaxsdir. Ta'lim shaxsga ma'lum bir «inson qiyofasini» berish, shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratib berish sifatida qaraladi.

Talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish muhimdir.

Pedagogik jarayon – pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda «...tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida tarbiyalanuvchining o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir» [6].

Pedagogik faoliyat – estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

O'z-o'zini anglash – shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olishi tushuniladi.

Talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini yaxlit pedagogik jarayonda sodir bo'ladi.

Ta'lim – bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan, shuningdek, olingan bilim, ko'nikma, qadriyatlar, qarashlar, tajriba va kompetensiyalarning muayyan hajm va murakkablikdagi birikmasi bo'lgan jarayondir.

Xulosa. Talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun pedagogik jarayon – shaxsning intellektual, ma'naviy, axloqiy, ijodiy, jismoniy, kasbiy rivojlanishi, uning ta'lim ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga yo'naltiriladi. Binobarin, talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun pedagogik jarayonning protsessual va ishlab chiqarish jihatlari ularning uzviylikida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayon muhim hodisa sifatida qadimgi davrlardan beri mavjud bo'lib, bu avvalgi avlodlar tomonidan to'plangan tajribani yangi avlodlarga etkazish, ushbu tajribani takomillashtirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat barqarorligi uchun zaruriyatdir. Pedagogik jarayon asrlar davomida taqrorlanadi va rivojlanadi, zamonaviy ta'lim darajasi uning rivojlanishining keyingi bosqichidir. Demak, har qanday jamiyatda va davlat tuzilmasida ham tahsil oluvchilarning faol umummadaniy kompetentlik pozitsiyalarini shakllantirishga va rivojlantirishga ehtiyoj mavjud bo'lgan.

Pedagogik jarayonda ishlab chiqilgan asosiy prinsiplar, qoidalar va maxsus tushunchalar maktab hamda talabalar guruhlaridagi ijtimoiy-pedagogika fan tarmoqlari, didaktika prinsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-qoidalarni, ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xosligidan kelib chiqib o'zgartiradilar va o'z sohasiga moslashtiradilar. Talabalarda

umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda didaktikadagi ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi prinsipidan keng foydalanish ahamiyatlidir. Bunda pedagogik jarayon – bu o'qituvchi va talabalarning ta'lim, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal qilishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan, maqsadga muvofiq bo'lgan o'zaro munosabatlari tizim tushuniladi.

Adabiyotlar:

1. «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида» 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони.
2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир" номли маърузаси.
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - Т., 2019.
4. http://www.who.int/mental_health/prevention/suicide_rates/en/index.html; <https://www.janes.com>; <http://www.xs.uz/uzkr/post>
5. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Tursunov I.I., Nishonaliev U.N. Pedagogika. - Т.: О'qituvchi, 2007.

**TALABALARNING EKSPERIMENTAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI**

Samandarov Latifbek Qalandar o'g'li, NavDPI tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak fizika o'qituvchilarining eksperimental kompetentligini takomillashtirishda laboratoriya mashg'ulotlarida fanlararo, ichki hamda mashg'ulot turlari orasidagi integratsiyadan foydalanish metodikasining o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: *Crocodile Physics, PhET Simulations, Adobe Flash Player, Difraksiya, Yorug'lik diodi, Plank doimiysini, ichki va fanlararo integratsiya, mashg'ulot turlari orasidagi integratsiya, kompetentlik.*

**ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В РАЗВИТИИ
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ**

Самандаров Латиф Каландарович, исследователь НавГПИ

Аннотация. В данной статье показана роль и значение методики использования междисциплинарных, внутренних интеграций и интеграции между видами обучения в лабораторных занятиях для совершенствования экспериментальной компетентности будущих учителей физики.

Ключевые слова: *Crocodile Physics, PhET Simulations, Adobe Flash Player, дифракция, светодиод, постоянная планка, внутренняя и междисциплинарная интеграция, интеграция между видами обучения, компетентность.*

**THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE
DEVELOPMENT OF EXPERIMENTAL COMPETENCE OF STUDENTS**

Samandarov Latifbek Qalandar ugli, researcher of NavSPI

Abstract. This article shows the role and importance of the methodology of using the integration of interdisciplinary, internal and integration between types of training in laboratory classes to improve the experimental competence of future physics teachers.

Key words: *Crocodile Physics, PhET Simulations, Adobe Flash Player, Diffraction, LED, Planck constant, internal and interdisciplinary integration, integration between types of training, competence.*

Kirish. Ma'lumki ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi – ijtimoiy hamda ishlab chiqarish sohalari uchun yetuk mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Kadrlar tayyorlash tizimi asosida esa, uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini muhim o'rin egallaydi. Bu holat esa, o'z navbatida, umumiy o'rta uchun mutaxassislar tayyorlab beruvchi pedagogika oliy ta'lim muassasalari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha pedagogik ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi va bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda har bir mutaxassislik yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda fanlarni chuqurlashtirib o'rgatish va shu orqali bo'lajak mutaxassislarda kompetentsiyaviy talablarni shakllantirish bo'yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga qo'llanilgan. Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda «Atom, yadro va elementar

zarralar fizikasi» fanidan laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning eksperimental kompetentligini rivojlantirishda fanlararo va ichki bog'lanishlar integratsiyasidan foydalanish metodikasi keltirilgan.

Asosiy qism: Fizika fani ishlab chiqarish texnologiyalari va texnikaning asosi sifatida turli yo'nalishdagi mutaxassisliklar uchun o'rganiladi. Bu fanni mukammal va chuqurlashtirib o'rganishda laboratoriya mashg'ulotlari alohida ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlarni o'tkazish fan o'qituvchisidan yuqori mahorat va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Ko'p hollarda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda ma'lum bir o'lchashlarni amalga oshirish va natijalarni boshqa o'lchash natijalari yoki etalon qiymat bilan taqqoslash hamda o'lchash xatoligini baholash bilan cheklaniladi. Aslida olib qaralganda, fizika fanidan har bir laboratoriya ishini ishlab chiqarish texnologiyasining bir qismi bo'lib, uni o'rganishga kreativ yondashuv zarur bo'ladi. Bunday yondashuvda o'rganilayotgan laboratoriya mashg'uloti ilmiy, fanlararo integratsiya, ishlab chiqarish bilan bog'lanishlarni hisobga olgan holda har tomonlama tahlil etilishi lozim.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida «60110700 - Fizika va astronomiya» ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida «Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi» fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun 38 soat ajratilgan bo'lib, 19 ta laboratoriya ishini bajarish ko'zda tutilgan. Bu laboratoriya ishlarining to'liq jamlanmasi va uni bajarish uslubi "Umumiy fizika (atom, yadro va elementar zarralar fizikasi) fanidan laboratoriya ishlari" nomli o'quv qo'llanmada keltirilgan [1]. Laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish tartibi ko'plab qo'llanmalarda keltirilsada, har bir mashg'ulotda fan o'qituvchisining ijodiy yondashuvi ta'lim samaradorligining darajasini belgilovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar eksperimental kompetentligini shakllantirish metodikasini «Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi» fanidan «Plank doimiysini aniqlash» laboratoriya ishi misolida qaraylik. Plank doimiysini aniqlash bo'yicha ko'plab laboratoriya ishlari tayyorlangan va ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Ushbu maqolada tahlil etilayotgan plank doimiysini aniqlash bo'yicha laboratoriya ishida yarim o'tkazgichli yorug'lik diodidan foydalanilgan [2].

Laboratoriya qurilmasining tuzilishi 1-rasmdagi sxemada keltirilgan.

Laboratoriya mashg'ulotida o'lchashlar quyidagi tartibda bajariladi.

Tavsiya etilgan sxemada yorug'lik diodini (LED) tok manbaiga tok o'tadigan yo'nalishda to'g'ri ulanadi. Sxemaga qarshiligi $R=100\ \Omega$ bo'lgan rezistor, kuchlanishi 9 V li tok manbai va raqamli voltmeter yoki multimetrdan foydalaniladi.

Yorug'lik diodining to'g'ri kuchlanishini o'lchanadi.

Yorug'lik diodi nurlanish chastotasini (?) davri 1mm da 100 da shtrix bo'lgan difraksion panjara yordamida aniqlanadi.

Difraksion panjaradan ekrangacha bo'lgan masofa (L), shkala markazidan k-tartibli difraksion maksimumgacha bo'lgan masofa (x_k) va difraksion panjara doimiysi (d) belgilasak yorug'lik diodi chastotasi(?)ni (5) formuladan aniqlanadi.

5. Tajribani sxema elementlarining turli parametrlarida yoki yorug'lik diodi nurlanish chastotasini aniqlashda tajriba parametrlarini (difraksion panjara davrini, difraksion panjaradan shkalagacha bo'lgan masofani) o'zgartirish bilan kamida uch marta takrorlanadi.

6. Kerakli o'lchashlar bajarilgandan so'ng, yorug'lik diodi nurlanish chastotasining o'rtacha qiymati \bar{f} (eksp, o'rt) uchun (5) formuladan foydalanib Plank doimiysi aniqlanadi.

$h_{(eksp,o'rt)} = eU_d / \nu_{(eksp,o'rt)}$

Olingan qiymatni jadval qiymati (h_{naz}) bilan taqqoslanib o'lchashlarning nisbiy xatosi δ aniqlanadi:

$\delta = |h_{eksp} - h_n| / h_n \cdot 100\%$, bu yerda h_{eksp} va h_{naz} mos holda Plank doimiysining eksperimental va nazariy qiymatlari.

Qizil nurlanishli yorug'lik diodi bilan o'tkazilgan tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

№ U_d

(V) ν_{eksp}

(THz) $h_{eksp} \cdot 10^{34}$

(J?s) $h_{naz} \cdot 10^{34}$

(J?s) δ -nisbiy xatolik

(%)

1 1,91 462 6,614719

6,625

0,117

2 1,93 464 6,655172

3 1,955 472 6,627119

O'rtacha qiymati 1,9317 466 6,632337

Plank doimiysini aniqlash bo'yicha ushbu laboratoriya ishini bajarish davomida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning kasbiy kompetentligi mukammal shakllanishida fanlararo hamda ichki integratsiyaga urg'u berish zarur. O'rganilayotgan laboratoriya ishida ichki bog'lanishlar yadro fizikasi va elektromagnetizm, yadro fizikasi va optika bo'limlari orasida mavjud bo'lib, ishini bajarishdan avval bu bog'lanishlar haqida aniq tasavvurlar hosil bo'lishi kerak. Masalan: laboratoriya ishida qo'llanilayotgan yarim o'tkazgichli diodning tuzilishi va ishlash prinsipi, asosiy xarakteristikalari hamda qurilmaning elektr sxemasi batafsil o'rganib chiqilishi zarur. Elektr sxemada qarshilik qiymatlarining o'zgarishi va diod kuchlanishining hamda u orqali o'tayotgan tokning o'zgarishi diodning volt-ampere xarakteristikasi o'rganilishi lozim. Shu o'rinda talabaning qurilmada ishlatilayotgan yorug'lik diodi ma'lum bir (U_{nom}) kuchlanishga mo'ljallangan bo'lib, $U_{nom} \pm 0.01 U_{nom}$ kuchlanishdagina normal holatda ishlashi va kuchlanishni orttirish orqali yorug'lik diodining nurlanish chastotasini orttirib bo'lmasiligini tajriba davomida anglab olishi kasbiy kompetentlik shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Laboratoriya ishini bajarishda talabalar eksperimental kompetentligini shakllantirishning dastlabki bosqichi ichki integratsiya ya'ni umumiy fizikaning elektromagnetizm bo'limida olingan bilimlarning mikroolam hodisalarini o'rganishga qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi. Laboratoriya ishining ikkinchi bosqichida umumiy fizika kursining "Optika" bo'limida o'rganilgan difraksiya va interferensiya hodisalari, to'lqinlarning kogerentlik shartlari, difraksiyon panjaraning tuzilishi va ishlash prinsipi bo'yicha olingan bilimlarning zarurati ta'kidlagan holda ichki integratsiya amalga oshiriladi. Quyidagi 2-jadvalda o'rganilayotgan laboratoriya ishida ichki va fanlararo integratsiyani amalga oshirish mexanizmi ko'rsatilgan.

2-jadval

Plank doimiysini aniqlash mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotini o'qitishda ichki va fanlararo integratsiya

Ichki bog'lanish Fanlararo bog'lanish

Elektromagnetizm Optika Matematika AKT

yorug'lik diodi (LED) ning tuzilishi va ishlash prinsipi:

p-n o'tish soasi;

zaryad tashuvchilarning rekombinatsiyasi;

rekombinatsiya jarayonida nurlanish kvantining chiqishi;

Plank doimiysini aniqlash ishchi formulasi.

$h = eU_d / ?$ (1) difraksion panjara tushunchasi;

Gyuygens-Frenel prinsipi;

ikkilamchi nurlarning o'zaro kogerentligi;

difraksiyalangan nurlarning interferensiyasi;

Vulf-Bregg qonuni.

$d \sin \theta_n = \pm k \lambda$, (2)

bu yerda

$k = 0, \pm 1, \pm 2, \dots$ kichik burchaklar uchun $\tan \theta_n \approx \sin \theta_n$. $\tan \theta_n \approx x_k / L$ (3)

x_k - k tartibli maksimumlar orasidagi masofa, L-difraksion panjaradan ekrangacha bo'lgan masofa.

$\theta_n = (x_k \lambda) / L$. (4)

$\theta_n = (k \lambda / c) / (x_k \lambda / d)$ (5)

Plank doimiysi aniqlash uchun asosiy ishchi formula:

$h = (eU_d) / \nu = (eU_d x_k d) / (kL \lambda c)$ (6)

bu yerda c- yorug'likning vakuumdagi tezligi Adobe Flash Player animatsiyasi;

Crocodile Physics simulyatori;

PhET Simulations simulyatori;

Microsoft Excel dasturi

Laboratoriya mashg'ulotida talabaning matematika fanidan tenglamalar, proportsiya, trigonometriya bo'yicha bilimlarga ega bo'lish, talaba bu fanlar orasidagi integratsion munosabatlarni belgilaydi. Laboratoriya ishini bajarishda virtual kompyuter dasturlaridan foydalanish axborot kompyuter texnologiyalari (AKT) va yadro fizikasi orasidagi integratsiyani ta'minlaydi [3]. Laboratoriya qurilmasining elektr sxemasida Crocodile Physics, PhET Simulations simulyatorlari orqali elektr zanjirlarini yig'ish, zanjir parametrlarini o'zgartirish va yorug'lik diodining volt-ampere xarakteristikasini o'rganish mumkin. Diodining volt-ampere xarakteristikasini o'rganishda natijalarni Microsoft Excel dasturi orqali qayta ishlash va olingan natijalarni grafik tahlil qilish yadro fizikasi, matematika va AKT orasidagi integratsiyaning ta'minlanishidir.

Laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganilayotgan mavzuni mukammal o'rganish uchun nafaqat ichki va fanlararo integratsiya, balki mashg'ulot turlari orasidagi integratsiya ham amalga oshirilishi zarur. Aslida mashg'ulot turlari orasidagi integratsiya azaldan mavjud bo'lib, o'z-o'zidan amalga oshishi kuzatilsada bu integratsiyaga alohida urg'u berish ta'lim samaradorligining asosiy omillaridan biridir. O'rganilayotgan laboratoriya ishida ma'ruza, amaliy hamda mustaqil ta'lim mashg'ulotlari orasidagi integratsiyani amalga oshirishda mavzuga taalluqli nazariy ma'lumotlar, mavzu bo'yicha masalalar hamda mustaqil ta'lim uchun aniq topshiriqlar ko'rsatilishi lozim [4]. 3-jadvalda mavzuga taalluqli

mashg'ulot turlari orasidagi integratsiya uchun zarur topshiriqlarning namunasi keltirilgan.

3-jadval

Laboratoriya mashg'ulotlarida mashg'ulot turlari orasidagi integratsiya

Mashg'ulot turlari orasidagi integratsiya

Ma'ruza mashg'uloti Amaliy mashg'ulot

Mustaqil ta'lim

Gyuygens-Frenel prinsipini tushuntiring? Difraksiya hodisasi nima? Ekkranda hosil bo'ladigan spektrlarning ketma-ketligi qanday va nima uchun? Yarim o'tkazgichli diod nima uchun elektr tokini bir tomonga o'tkazadi? foydalanilayotgan yorug'lik diodining nurlanish to'liq uzunligi qaysi oraliqda yotadi? Agar hosil qilgan to'liq uzunligi $\lambda = 0,4 \text{ mkm}$ bo'lsa, lazerni yoqish uchun chegaraviy kuchlanishini hisoblang A d o b e Flash Player orqali laboratoriya ishi animatsiyasini yaratish.

Crocodile Physicsdan foydalanib difraksiya hodisasining simulyatsiyasini yaratish.

PhET Simulations simulyatoridan foydalanib elektr zanjirini yig'ish.

Olingan natijalarni Microsoft Excelda elektron jadvallar ko'rinishida ma'lumotlarni yaratish

Xulosa: Laboratoriya mashg'ulotlarida mashg'ulot turlari orasidagi integratsiyadan foydalanish orqali quyidagi natijalarga erishiladi: talabaning mavzu bo'yicha olingan bilimlarini takrorlashga hamda uni qayta o'rganib chiqishga zamin yaratiladi; laboratoriya natijalarini hisoblash jarayonida talabalarda maqsadli amaliy masalalarni yechish ko'nikmalari hosil bo'ladi; mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish orqali talabalarda darsliklar va ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlar, internet saytlari bilan ishlash ko'nikmalarini hamda turli darajadagi kompyuter dasturlari bilan ishlash malakalari shakllanadi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, atom va yadro fizikasi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarida fanlararo, ichki hamda mashg'ulot turlari orasidagi integratsiyani amalga oshirish bo'lajak fizika o'qituvchilarining nafaqat o'rganilayotgan bo'lim bo'yicha, balki umumiy fizikaning boshqa bo'limlari va boshqa fanlar bo'yicha bilimlarini ham mukammal takrorlashi orqali kasbiy kompetentligi yuqori bo'lishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Самандаров Л.Қ., Худайбердиев Э.Н., Насриддинов К.Р. Умумий физика (атом, ядро ва элементар зарралар физикаси)дан лаборатория ишлари: Ўқув қўлланма. - Т.: Malik print co, 2022. - 196 б.

2. <http://mediadidaktika.ru/mod/page/view.php?id=395>

3. Самандаров Л.Қ. Олий таълим муассасаларида физика фанини ўқитишда ахборот-компьютер технологияларидан фойдаланишнинг аҳамияти ва ўзига хос жиҳатлари // Узлуксиз таълим тизимида ёшларни ўқитишга йўналтиришнинг муаммо ва ечимлари: Республика миқёсида илмий-назарий конференция материаллари. - Жиззах, 2022. - Б. 184-186.

4. Худайбердиев Э.Н., Самандаров Л.К. Совершенствование преподавания ядерной физики на основе межпредметной связи // Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога: Материалы III международной научно-практической конференции. - Тверь, 2021. - С. 233-238.

**OLIIY IQTISODIY TA'LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA
TALABALARNI KASBIY KO'NIKMASINI TASHKIL ETISH ZARURATI**

Maxmudova Feruza Haliljanovna, TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy iqtisodiy ta'limda integrativ yondashuvning ta'lim jarayonidagi zaruriyati, uni amalga oshirishdagi vazifalar bayon etilgan. Ta'lim jarayonini integrativ yondashuv asosida tashkil etish muammosi bo'yicha bir qator vazifalar ko'rsatilgan, ularning hal etilish orqali talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini yaratilish imkoniyatlari sanab o'tilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim texnologiyalari, integrativ yondashuv, kasbiy ko'nikma, kasbga yo'naltirilgan muloqot.

**НЕОБХОДИМОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УМЕНИЯ
СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА
В ВЫСШЕМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Махмудова Феруза Халилжановна, базовый докторант ТГЭУ

Аннотация. В данной статье описывается необходимость интегративного подхода в высшем экономическом образовании в учебно-воспитательном процессе и задачи при его реализации. Обозначен ряд задач, связанных с проблемой организации образовательного процесса на основе интегративного подхода, перечислены возможности создания возможностей для формирования профессиональных умений у студентов путем их решения.

Ключевые слова: образовательные технологии, интегративный подход, профессиональные навыки, профессиональная коммуникация.

**THE NEED TO ORGANIZE STUDENTS' PROFESSIONAL SKILLS ON THE
BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN HIGHER ECONOMIC EDUCATION**

Maxmudova Feruza Haliljanovna, basic doctoral student of TSUE

Abstract. This article describes the need for an integrative approach in higher economic education in the educational process and the tasks in its implementation. A number of tasks related to the problem of organizing the educational process based on an integrative approach are outlined, the possibilities of creating opportunities for the formation of professional skills in students by solving them are listed.

Key words: educational technologies, integrative approach, professional skills, professional communication.

Kirish. Jamiyatimizda iqtisodiyotning rivojlanish va texnik-texnologik jihatdan keskin yangilanishi ta'lim tizimi oldiga raqobatbardosh, bugungi kun talablariga javob bera oladigan, ayniqsa, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni yetkazib berish muammosini qo'ydi. Shu boisdan ham o'qituvchi va talabaning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi ta'lim jarayonining muhim jihatlardan biriga aylanadi. Bunda ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, ularni dars jarayonida faol va muntazam qo'llash katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv asosida innovatsion texnologiyalarni qo'llash mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirishga hamda talabalarning kasbiy ko'nikmalarini oshirish rolini faollashtirishga ko'maklashadi. Bo'lajak

mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish kelajakda uning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi.

Asosiy qism. Jahonda talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda biz ham diqqatimizni qaratishimiz lozim. Shu bilan birga integrativ yondashuv asosida talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratish har tamonlama mukammal mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi. Kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning komponentlarini oliy iqtisodiy ta'lim mazmuniga keng tatbiq etish, bo'lajak mutaxassislarni samarali mehnat faoliyatiga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda integrativ ta'lim (Blended Learning) asosida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasiga doir ilmiy munozaralar va forumlarni tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, ta'limning integrativ modelini takomillashtirish, talabalarda kasbiy ko'nikmani shakllantirish jarayonida akmeologik yondashuvning o'ziga xosliklarini aniqlashtirish, integrativ hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ulardan samarali foydalanish, oliy iqtisodiy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga yo'nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Oliy iqtisodiy ta'limda integrativ yondashuv asosida talabalar kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga oid adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish, oliy iqtisodiy ta'lim talabalarida kasbiy ko'nikmani shakllantirishni tarkib toptirish va mazkur tayyorgalik darajasini orttirish muammosiga bag'ishlangan umumiy didaktik darajadagi tadqiqot ishlari keng qamrovda olib borilmoqda. Jumladan, o'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti Sh.S.Sharipov, oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy yo'naltirilgan kompetensiyasini shakllantirish I.Panferova, oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish Z.Sh.Alimardonovlar ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, respublikamiz pedagog olimlaridan M.F.Hakimovaning «Bo'lajak mutaxassislarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash: muammo va yechim» monografiyasi, G.M.Musaxanovanning «Mustaqil ta'lim va uni talabalarni tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni» monografiyasi, G.N.Axunova, L.V.Golish, D.Fayzullaevalarning «Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish» nomli darsligi va boshqa qator pedagog olimlarning tadqiqot ishlarida o'quv qo'llanma va darsliklarida oliy iqtisodiy ta'lim muassasida pedagogik faoliyatni ko'plab muammolari o'rganilgan, yoritib berilgan.

Oliy iqtisodiy ta'lim muassasasida pedagogik faoliyatni, madaniyatni va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga, talabalar kasbiy ko'nikmasini shakllantirishga jiddiy hissa bo'lib qo'shilgan mazkur tadqiqotlar o'z oldimizga qo'ygan ilmiy muammoni oliy iqtisodiy ta'limda integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish ko'nikmasini o'z ichiga olgan loyihalashtirish kompetensiyasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish uchun samarali imkoniyat yaratdi. Mazkur tadqiqot ishida bo'lajak mutaxassislarning oliy iqtisodiy ta'limda integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy ko'nikmasini tashkil etish omillarining mazmuni, maqsadi, vazifalari va tamoyillari o'rganildi. Tadqiqot davomida

tizimli yondashuv va tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo'lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy ko'nikmasini tashkil etishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, pedagog, psixolog, sotsiolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va soha vakillarining yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar ta'lim tizimida boshqaruv masalalari ta'lim muammolarini tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan va ushbu yo'nalishida tadqiqotlar olib borilishining boshlang'ich urinishlari XX asrning boshlariga borib taqaladi. Ta'lim boshqaruvi masalalari, undagi muammolar yechimi va uni takomillashtirish mexanizm va modellari turli fan sohalari negizida olib borilganligini ko'rish mumkin. Hozirda ta'lim boshqaruvi muammolari iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya, kibernetika, pedagogik nazariya, psixologiya kabi fan sohalarining tadqiqot obyektiga aylangan. A.Fayol «ma'muriy boshqaruv» maktabi asoschisi, 1917 yilda e'lon qilgan «Administration industrielle et generale» asari bilan ta'lim boshqaruvi muammolari yechimiga o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazdi. Keyingi yillarda ta'limni boshqarishda ilmiy boshqaruv tamoyillaridan foydalanish, asosan, AQSh, Kanada, Angliya, Shvesiya, Fransiya, Germaniya kabi davlarda keng yo'lga qo'yildi. Lekin, ularning ichida Shvesiya ta'lim tizimi boshqaruvida davlatning aralashuvi darajasi o'ta yuqoriligi bilan ajralib turdi. A.Fayol asos solgan mazkur maktab vakillari tomonidan boshqaruvning universal tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lib, bunda birinchi kategoriya boshqaruv usulida maqsad va vazifalarni belgilash, resurslar ta'minoti va taqsimoti, nazorat, ishlab chiqarishni rejalashtirish, moliya va marketing masalalari boshqaruv ierarxiasining eng yuqori bo'g'ini tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchi kategoriyada esa, tashkilot faoliyatiga doir yuqorida sanab o'tilgan boshqaruv funksiyalari tashkilot boshqaruv ierarxiasining eng yuqori bo'g'ini tomonidan emas, balki tashkilot xodimlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ko'plab G'arb davlatlarining ta'limni boshqaruv modelida aynan mana shu ikkita kategoriyaning har biridan foydalanib kelinishini kuzatish mumkin. Lekin, oxirgi yillarda ta'lim boshqaruvida insoniy munosabatlarga asoslangan tamoyillar orqali boshqaruvni amalga oshirish ta'limni boshqarishda eng samarali tamoyillarning biri sifatida qaralmoqda. Mazkur boshqaruv nazariyasi maktabi vakillari, asosan, psixologiya fani mutaxassislari bo'lib, u boshqaruvda yuqori samaradorlikka erishish sifatida quyidagi tamoyillarga asoslanadi: boshqaruvchi o'z qo'l ostidagi xodimlarni ruhan qo'llab-quvvatlash, ularga bo'lgan to'la ishonchni namoyish etish, xodimlarning o'z-o'zini yo'naltirish va nazorat qilish, ularni mehnat faoliyati natijalariga ko'ra, rag'batlantirib borish, xodimlarning ijodiy va intellektual imkoniyatlaridan keng foydalanish. Boshqaruv nazariyasidagi tendensiyalar va o'zgarishlarni ta'lim tizimlarini boshqarishda qarab chiqadigan bo'lsak, unda umumiy takliflardan farqli o'laroq, aniq modellar yaratilganligini va ta'limni boshqarish paradigmatlari (qarashlar) o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol sifatida A.De.Kalyuve, E.Marks va M.Petrining 1993 yilda e'lon qilingan «Maktab rivojlanishi: model va o'zgarishlar» asarini keltirish mumkin. 2000-yillar boshlariga kelib ta'lim boshqaruvi nazariyasi va amaliyotida jiddiy o'zgarish sezila boshlandi. Bu davrga qadar, asosan, menejment vosita va usullaridan foydalangan holda boshqaruvchilikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, 2000 yillar boshlaridan esa, ta'lim boshqaruvi nazariyasida «yetakchilik» g'oyasi ustunlik qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Ta'lim har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Shuni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60 son farmoni, 2017 yil 20 martdagi «Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2969-sonli, 2017 yil 12 martdagi «O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2929-sonli qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son farmonini qabul qildi va ta'lim muassasalariga bo'lgan yangicha yondashuv, uni boshqarishga innovatsion texnologik yondashuv asosida qarash lozimligini ko'rsatib berdi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar oliy iqtisodiy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishda ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosida ta'lim muassasalari boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning kelajagimiz bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdagi xizmatlarini anglar ekanmiz, Vatanimizda ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga nechog'lik katta e'tibor, ahamiyat berilayotganligini tushunish mumkin. Ajdodlarimiz orzusi muqaddas ona yurtimizda ma'naviyatni yuksaltirish orqali talabalarni kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga intilganlar. Mavjud muammolarni hal etish uchun qilinayotgan amaliy ishlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakat olimlarining amaliy tajribalaridan foydalanish muhimdir. Hozirda Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Malayziya, Germaniya, Koreya va ko'pgina boshqa xorijiy davlatlarning ta'lim tizimini o'rgangan holda, ya'ni xorijiy ta'lim tizimi tahlil etilib, ularning ijobiy holatlari inobatga olingan holda O'zbekiston milliy modeliga mos ta'lim tizimini yaratish hamda uni kelajakda jahondagi eng takomillashgan ta'lim tizimiga ko'tarish uchun puxta asoslar yaratilmoqda. Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy iqtisodiy ta'lim tizimi va professional ta'lim uzviyligini ta'minlash, ta'lim mazmunini integratsiyalash, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «ta'limning ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish» muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, talabalarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish orqali ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ammo, ta'lim jarayonini integrativ yondashuv asosida tashkil etish muammosi bo'yicha bir qator vazifalar turibdiki, ularning hal etilishi talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini yaratadi. Xususan, falsafiy, ilmiy va pedagogik tadqiqotlar asosida talabalarning kasbiy tayyorlashning axboriy-didaktik ta'minotini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirish; ta'limni integrativ yondashuv nuqtai nazaridan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda virtual metodik birlashmalarining o'zaro hamkorlik rolini konseptual tahlil qilish va uslubiy ta'minotini takomillashtirish; «OTM-professional ta'lim» integratsiyalashgan axborot-ta'lim muhitida talabalarni kasbiy tayyorlash metodikasini takomillashtirish; talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi sifat ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini aniqlash va boshqalar. Mazkur vazifalarning hal etilishi talabalarda integrativ yondashuv asosida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. Shu tariqa, talabalarda integrativ yondashuv asosida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda ta'limning innovatsion texnologiyalaridan saarali foydalanish o'qituvchining faoliyatini quyidagi jihatlarga yo'naltiradi: kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali

talabaning faol fuqarolik pozitsiyasiga, murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish va muammolarni ijobiy hal qilish layoqatiga ega shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashish; ta'lim subyektlarining o'zaro munosabatlari xarakterini o'zgartirish, ya'ni o'qituvchi va talabaning hamkor ekanligini, bir maqsadga xizmat qilishlarini anglash; ta'lim jarayonining ko'p qirraliligi orqali talabalarning ushbu jarayonga va fanga nisbatan motivatsiyasini kuchaytirish; ta'lim jarayonini tashkillashtirish usullarini tubdan o'zgartirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish va joriy etishga e'tiborni kuchaytirish. Innovatsiyalarning ta'limda qo'llanishi bugungi kunda ta'lim, fan va amaliyotning integratsiyasiga olib boruvchi asosiy yo'l ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Bu esa, zamonaviy oliy iqtisodiy ta'limda talabalar kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun ta'lim muassasalarining integrativ yondashuvi va innovatsiyalar ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositasiga aylanmog'i kerakligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamarajabov S. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar // Архив научных исследований. - М., 2021.
2. Мамаражабов Ш. Ҳаракатлар стратегияси: таълим ва иқтисодиётни инновацион ривожлантириш модели сифатида // Архив научных исследований. - М., 2021.
3. Hakimova M. Professional pedagogy. Tutorial. - T.: TSEU, 2007.
4. Hakimova M. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari // Архив научных исследований. - М., 2020. - № 3(2).
5. Musakhanova G. (2020). Independent work of students - as a condition for the development of professional self-development. Archive of Scientific Research, 1 (22). retrieved from
6. Musakhanova G. Design and research method as an innovative approach aimed at the development of organizational abilities of students in the process of independent work // Архив научных исследований. - М., 2022. - № 2(1).
7. Kayumova M. Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda korporativ madaniyat va g'oyaviy immunitetni shakllantirish // Архив научных исследований. - М., 2021. - Т. 2. - № 1.
8. Kayumova M. Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash omillari // Архив научных исследований. - М., 2021. - Т. 2. - № 1.
9. Махмудова Ф. Содержание инновационной деятельности учителя в организации экономического образования // Экономика и образование. - М., 2021. - № 5. - С. 282-287.
10. Махмудова F. Ayolning farzand kamolotidagi roli // Архив научных исследований. - М., 2021.

OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH VA UNING AHAMIYATI

Abdurahmonov Zafar Batirovich, Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti
katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirishning asosiy afzalliklari va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: raqamlashtirish, elektron axborot-ta'lim muhiti, raqamli texnologiyalar, zamonaviy ta'lim muhiti, maxsus avtomatlashtirilgan tizim, BI Web-portal.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ

Абдурахмонов Зафар Батырович, старший преподаватель
Таможенного института Государственного таможенного комитета

Аннотация: В статье рассматриваются основные преимущества и значение цифровых технологий, цифровизации учебных процессов в образовательном процессе в высших военных учебных заведениях.

Ключевые слова: цифровизация, электронная информационно-образовательная среда, цифровые технологии, современная образовательная среда, специальная автоматизированная система, TI Web-портал.

DIGITALIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS SIGNIFICANCE

Abdurahmonov Zafar Batirovich, senior teacher of Customs Institute of the State
Customs Committee

Annotation. The article discusses the main advantages and significance of digital technologies, digitalization of educational processes in the educational process in higher military educational institutions.

Key words: digitalization, electronic information and educational environment, digital technologies, modern educational environment, special automated system, TI Web portal.

Kirish. Bugungi kunda respublikamizdagi oliy ta'limda shuningdek, oliy harbiy ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ta'limda yuqori sifatga erishishning zamonaviy usullaridan biri ta'lim berish va uni boshqarishning avtomatlashtirilgan elektron tizimini yaratishdir.

Asosiy qism. Rivojlangan mamlakatlar tajribisidan ma'lumki, sifatli ta'lim tizimiga erishishining o'ziga xos usullaridan biri, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda zamonaviy ta'lim berish uslubiyatlarini ishlab chiqishdan iborat.

Insoniyatning XX asrdagi eng katta kashfiyotlaridan biri axborot texnologiyalarini jamiyatning turli sohalariga faol tarzda tadbiq qilishi bo'ldi. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining ta'lim va tarbiya jarayonlariga qator rivojlangan mamlakatlar tomonidan jadal ravishda tadbiq etilishi sohada katta o'zgarishlarga olib keldi. Jumladan, AQSh

bundan 60 yil oldin birinchilardan bo'lib ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslarini ishlab chiqishni va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq qilishni boshladi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim sohasidagi yangiliklarining aksariyati (onlayn ta'lim, ochiq ta'lim resurslari, ochiq kurslar, ommaviy ochiq onlayn kurslar va boshqalar) AQShda yaratilgani bejiz emas [4].

Keyingi yillarda Yevropadagi davlat ta'lim muasssalarida ham an'anaviy ta'lim texnologiyalarini raqamli texnologiyalarga o'tish bo'yicha ishlar jadallashib ketdi. Bu esa, ta'lim sifatini raqamli texnologiyalar yordamida ko'tarish va shu bilan ko'plab talabalarni ta'lim muasssalariga o'qishga chorlashga imkoniyat yaratdi. Chunki, zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim subyektlariga ko'plab qullayliklar yaratib, ta'lim sifatini oshirishga imkon beruvchi yangi vositalarni taqdim etadi. Bunday vositalar, eng avvalo, talabalarga sharoitlariga qarab o'zlari uchun qulay vaqtda ko'proq bilim olishiga va yaxshiroq qaror qabul qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, olingan saboqlar va bilimlar bilan bo'lishish imkoniyatini beradi. Bularga misol sifatida aralash o'qitishning (blended learning) va ochiq onlayn kurslarining (MOOC - Massive online open course) rivojlanishini keltirishimiz mumkin. Ochiq onlayn kurslarning soni so'nggi yillarda hisobotlarga ko'ra, har yili ikki barobarga oshib borayotganini kuzatishimiz mumkin [2].

2019 yilning 8 oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni imzolandi [1]. Mazkur konsepsiya oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi ustvor vazifalarni belgilab berdi. Ma'lumki, respublikamizda oliy ta'lim tizimi bilan birgalikda oliy harbiy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida sohani raqamlashtirish eng dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Shunday ekan, oliy harbiy ta'lim muasssalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning ichki tartib-qoidalari va kun tartibi mazkur masalani hal etishning alohida yondashuvini talab etadi.

Oliy harbiy ta'limda raqamli texnologiyalar – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim muhitini yaratish usuli hisoblanadi. Raqamlashtirish sharoitida o'quv materiallari, o'quv rejalar, o'quv mashg'ulotlar, jumallar va baholash daftarchasi - bularning barchasi avtomatlashtirilgan tizimga o'tkaziladi. Tinglovchi yoki kursant maxsus avtomatlashtirilgan tizimdan foydalangan holda darslarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Elektron manbalar yaratiladi, unda tinglovchi va kursantlar fan haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ladilar. Ma'lumot uchun bugungi kunda Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona institutida «Bojxona institutida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish, nazorat qilish va boshqarishning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (BI Web-portal yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi)» yaratilgan bo'lib, bu tizim sinov tariqasida amaliyotga kiritilgan. Tizimning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda elektron jurnal sahifasi mavjud bo'lib, ushbu sahifa orqali dars mashg'ulotlarini olib borish, tinglovchi va kursantlar bilimni baholab borish, dars mashg'ulotlariga oid materiallardan foydalanish, ta'lim jarayonlarini monitoring qilish, hisobotlar olish va boshqa shu kabi qulayliklar mavjud. Tizim institutning ichki korporativ tarmog'ida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, bunda ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasidagi onlayn aloqa mustaqil ta'lim jarayonida har bir kursant yoki tinglovchi bilan individual shug'ullanish uchun juda qulay hisoblanadi.

Raqamlashtirilgan tizim o'quv materiallarini tinglovchi va kursantlar tomonidan mustaqil o'zlashtirishga imkoniyat yaratib beradi. Ta'limni raqamlashtirish bir qator afzalliklarga ega. Raqamli tizimlar mustaqil ishlashni nazarda tutganligi sababli, tinglovchi va kursantlar bilim olishga o'zi intilishi kerakligini tushunib yetadi. Bunday ta'lim insonning fe'l-atvorini yanada mustahkamlaydi. Pedagog-o'qituvchilarning ortiqcha yordamisiz tinglovchi va kursantlar yanada yaxshi natijalarga erishadilar. An'anaviy ta'limda tinglovchi va kursantlar bir vaqtning o'zida bir nechta darslik va o'quv materiallarini olib yurishlari kerak bo'ladi. Raqamli ta'limda bulardan voz kechiladi, bu esa, o'z navbatida, qog'ozbozlikni kamaytiradi. Kompyuterda barcha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va zurur materiallar mavjud bo'lib, ular tinglovchi va kursantlarga ta'lim olishida o'ziga xos qulayliklar yaratib beradi [3].

Oliy harbiy ta'limda ta'lim jarayonini raqamlashtirish faqat axborot texnologiyalardan foydalanish degani emas. Balki, ta'limning maxsus avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali onlayn tarzda amalga oshiriladigan raqamli texnologiyalar ta'lim yo'nalishlarining moslashuvchanligi, ularni individuallashtirish, ta'limning ijodiy xususiyatini oshirishga qaratilgan yangi ta'lim modelini yaratish bo'yicha eng muhim vazifani hal etishga yordam beradi [4].

Xulosa. Shunday qilib, oliy harbiy ta'lim tizimini raqamlashtirish, boshqarish va pedagogik ta'limning elektron axborot-ta'lim muhitini yaratish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони.
2. <https://www.spbstu.ru/upload/inter/higher-education-europe-2017.pdf>.
3. Иванова Н.И., Кукушкина О.Ю. Социализация личности в цифровой среде // Материалы международного молодежного научного форума «Ломоносов-2017» / Отв. ред. И.А. Алешковский, А.В. Андриянов, Е.А. Антипов. - М.: МАКС Пресс, 2017.
4. Абдурахмонов З.Б. Ҳарбий-педагогик фаолиятнинг истиқболлари: Республика илмий-назарий конференцияси материаллари тўплами. - Т.: ЎР ҚҚ Академияси, 2021. - Б. 180-185.

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SHAXMATNING AHAMIYATI

Axunjonov Alisher Toshtemirovich, O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kreativligini shakllantirishda shaxmatning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: jamiyat, ta'lim, tarbiya, shaxmat, kreativ, yosh avlod, ijodkorlik, paradigma, texnologiya, innovatsiya, pedagogik jarayon, rivojlantirish.

ЗНАЧЕНИЕ ШАХМАТОВ В ФОРМИРОВАНИИ КРЕАТИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ахунжонов Алишер Таштемирович, самостоятельный исследователь УзНИИПН

Аннотация. В статье рассматривается значение шахмат в формировании креативности у учащихся начальных классов общих средних образовательных учреждений.

Ключевые слова: общество, образование, воспитание, шахматы, креативный, молодое поколение, творчество, парадигма, технология, инновации, педагогический процесс, развитие.

THE UNIQUE IMPORTANCE OF CHESS IN THE FORMATION OF CREATIVE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Akhunjanov Alisher Tashtemirovich, independent researcher at the UzRIPS

Abstract. The article discusses the importance of chess in the formation of creativity in primary school students of general secondary education.

Key words: society, education, upbringing, chess, creativity, young generation, creativity, paradigm, technology, innovations, pedagogical process, development.

Kirish. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari barcha davlatlarning ijtimoiy-siyosiy sohadagi sifat o'zgarishlarini XXI-asr talablari bilan uzviy bog'lab qo'yimoqda. Bugungi jamiyat har bir sohada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan insonlarga ehtiyoj sezmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda barcha sohalarga innovatsion texnologiyalarni joriy etilayotganligi, xususan, ishlab chiqarishni raqamli texnologiyalar asosida rivojlanib borayotganligi ta'lim tizimida ma'naviy barkamol, kreativ fikrlaydigan, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan, yoshlarni tarbiyalashni kun tartibiga qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan keyingi yillarda mamlakatimizda zamonaviy talablarga javob bera oladigan yosh avlod (Z-avlod)ni har tomonlama kamol toptirish maqsadida davlatimizning ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid qator normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilinib hayotga tadbiiq etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-son qarorida yosh avlod ta'lim-tarbiyasini yangi sifat boshqichiga ko'tarish, ularga zamonaviy bilim berish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, «Bizni nazarimizda ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarga nimani qanday qilib o'rgatishimizni

o'zgartirish vaqti keldi». Chunki, biz kelajakda yosh avlodning jamiyatda yana qanday sifat o'zgarishlar kutib turganini aniq aytishimiz qiyin. Shu nuqtai nazardan, ta'lim-tarbiya tizimida yosh avlodni ichki quvvatini to'liq yuzaga chiqarish uchun zaruriy shart-sharoit yaratish, ya'ni sohaga ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan yangi metodika va vositalarni kiritish hamda ana shu sharoitda yosh avlodning noyob qobiliyati va iste'dodini jamiyat talablari asosida rivojlantirish orqali bugungi davr qo'yayotgan muammolarga echim topishimiz mumkin. Ana shundagina biz ta'lim-tarbiyani yangi sifat bosqichi haqida fikr-mulohazalar yurita olamiz. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan yosh avlodni emas, balki egallagan bilimlari asosida o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi ijodkor, kreativ fikrlaydigan, ishbilarmon, har tomonlama rivojlangan komil insonni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonlarda tarbiyalash kerak degan savolga o'z tasdig'ini topgan, ta'limni ijtimoiyligini ta'minlovchi tadqiqot natijalari asosida o'quv jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish ham juda muhim hisoblanadi. Shu o'rinda muhtaram prezidentimizning Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», – degan so'zlari mamlakatimizning istiqboldagi faoliyatimiz me'zoniga aylandi. Agar biz ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Shu bois biz uzluksiz ta'limni takomillashtirishimiz, yoshlarni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalashimiz kerak, – deya ta'kidlagan so'zlarini keltirish o'rinni bo'ladi [1]. Darhaqiqat, inson hayoti – bu rivojlanish, rivojlanish esa, bu natija, natijaga erishish esa, yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi bilan o'lchanadi. Ta'kidlash joizki, dunyoda «To'rtinchi sanoat inqilobi» amalga oshirila boshlagan bugungi kunda yangi ta'lim paradigmasi pedagogik asoslarini yaratishda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini mazmunan va shaklan takomillashtirish asnosida o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi subyektivligini ta'minlash orqali kreativ fikrlaydigan yoshlarni tayyorlashimiz muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida yosh avlodning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchi omilining hamkorlikdagi samarali faoliyatiga hamda o'qituvchining intellektual salohiyati, kreativligini rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativligini shakllantirishga qaratilgan bir qator olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni ham bildirgan fikrlarimizni tasdiqlamoqda. Jumladan, sohada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar N.V.Bibikova, S.I.Gin, O'zbekistonlik olim G.N.Ibragimovalarning ishlarida «Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikda o'quv maqsadlarini hal qilish, bunda o'quvchilarning subyektivligini ta'minlash, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning «Aqliy hujum», «Buratina matematiklar mamlakatida», «Muammoni izlash» kabi zamonaviy metodlardan samarali foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda V.N.Drujininning quyidagi fikrlarini keltiramiz: «Pedagogik nuqtai nazardan kreativlikni rivojlanishi muhim yosh jihatiga ega. Asosan, 6-7 yoshli bolalarda qulay muhit omillari ta'sirida kreativlik rivojlana boshlaydi [4]. Demak, boshlang'ich sinflarda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida ta'limning zamonaviy metodlaridan samarali foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil qilish o'quvchilarning kreativligini shakllanishiga ijobiy ta'sir etar ekan. N.V.Bibikova ham o'z tadqiqotlarini yakuniy xulosalarida «Maqsadli pedagogik jarayon kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish dinamikasining tabiatiga sezilarli ijobiy ta'sir qiladi

deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri, – deya ta'kidlashi bizning fikrlarimizni tasdiqlamoqda. Shuningdek, «Pedagogik jarayonda kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining kreativligini rivojlantirish modeli»ning ayrim jihatlari Dj.Renzullining «Maktab ta'limida rivojlanish modeli»da namoyon bo'ladi. Ushbu model mazmuni quyidagilardan iborat: birinchi turdagi rivojlanishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish, keyinchalik mustaqil tadqiqotga olib kelish va ikkinchi turdagi rivojlanishni tanlashini aniqlash; rivojlanishning ikkinchi turi o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini qobiliyatlari darajasida shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularsiz qobiliyatlarni amalga oshirish mumkin emas. Ikkinchi turdagi rivojlanish quyidagilarni o'z ichiga oladi: kognitiv va hissiy jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan darslar; rivojlanishning uchinchi turi – aql-zakovatga ega bo'lgan, mustaqil ishlashga intiladigan, muammoni chuqurroq o'rganadigan, o'quvchilarning o'ziga xos kognitiv ehtiyojlari uchun mo'ljallangan. Bu erda maqsad tadqiqotchi sifatida o'quvchi o'zini professionallarga xos his qiladi, o'ylaydi, harakat qiladi [5]. Shunday qilib, Dj.Renzullini ushbu modelidan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarni kreativligini rivojlantirish modeli pedagogik jarayonni takomillashtirib borishni talab qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan qisqacha xulosa qilsak, zamonaviy pedagogik jarayonda o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllanish darajasini ta'lim jarayoni subyektlarining ta'lim va tarbiya vazifalarini hal qilishga qaratilgan rivojlanayotgan o'zaro ta'sir deb tushunish mumkin. Sohada tadqiqotlar olib borayotgan olimlar ta'lim jarayonida kreativlikning shakllanishini o'quvchilarning qator sifatleri bilan bog'laydilar. Masalan, Dj.Gilford kreativlikni xotira, E.P.Torrens esa, insonni sezgi o'rganlari, G.N.Ibragimova kreativlikni o'quvchining sezgirligi, intuitsiyasi, fantaziyasi, tadqiqotchilik va refleksiya bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda Abu Nasr Farobiyning quyidagi fikrlarini keltiramiz «...inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ulishidan mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyliigi, ruhiy va axloqiy hislatlari... boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi. Inson o'z faoliyati davomida ularni egallaydi, ularga erishadi [3]. Demak, har bir insonda kreativlik hislati inson bilan birga tug'iladi va u insonning sezgi organlari, kelajakdagi faolligi, muhitning ta'sirida shakllanib, rivojlanib boradi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quv jarayonida yosh avlodni qobiliyatlariga monand ravishda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish paradigmasini amalga oshirishga ijoby ta'sir etuvchi vositalardan biri maktab dasturiga «Shaxmat»ni kiritish hisoblanadi. Mamlakatimizda «shaxmat» vositasini ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun shart-shroit yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi «Shaxmatni yanada takomillashtirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4954 sonli qarori qabul qilinib, hayotga tadbir etilmoqda. Mazkur qaror asosida respublikamizdagi 1000 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 2-4-sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya fani doirasida 18 soatga mo'ljallangan reja asosida shaxmatga o'qitish yo'lga qoyildi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda dunyodagi ko'plab davlatlarda shaxmatni maktab ta'limiga joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Bir qator olim va mutaxassislar «shaxmat»ni o'quv jarayoniga joriy etilishi maktabda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlamogdalar. Jumladan quyidagi fikrlarga e'tibor qaratamiz. Shaxmat – bu murakkab qoidalar tuzilmasi bo'lgan o'yin bo'lib, o'yinning individual darajasi o'yinchi tomonidan ushbu qoidalar tizimining ifodalanishiga, ulardan ijodiy foydalanishga va raqib javobini oldindan ko'ra bilishiga bo'g'liq. O'qituvchilar o'quvchilarni diqqat, xotira, konsetratsiya, ijodkorlik va fikrlash kabi intellektual sifatlarini

rivojlantirish uchun shaxmat vositasidan o'quv strategiyasi sifatida foydalanish mumkin (krogius), yoki mazkur vositadan diqqatni jamlash, muammolarni aniqlash va hal qilish, rejalashtirish strategiyalari, ijodkorlik kabi ko'nikmalarni mustaxkamlash uchun va sust o'zlashtirgan o'quvchilar ravshan fikrlashi uchun qo'llanilishi mumkin [6]. Shaxmatni o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi samarali vositalardan biri ekanligini O'zbekistonlik olimlar ham «Shaxmat – bu, birinchi navbatda, o'yin va unda siz bilganingizdek, o'quv materiali yahshiroq va charchoqsiz o'zlashtiriladi. Shaxmat mantiqiy fikrlash qobiliyatini faol shakllantiradi», – deya ta'kidlaganlar [7]. Sidney universiteti professori P.Go'vergen o'zining «Farzandlarimiz miyasini rivojlantirish mexanizmi sifatida shaxmatning ahamiyati» nomli kitobida shaxmatning tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini, u miyani rivojlanishini hamda rag'batlantirishini ta'minlashini ta'kidlaydi. Shuningdek, Armaniston shaxmat federatsiyasi a'zosi, psixolog R.Arzumutyan boshchiligidagi psixologlar guruhi shaxmatning bolalar miyasiga ta'sirini o'rganmoqdalar. R.Arzumutyan shaxmat ijodiy fikrlashni va qiyosiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishini hamda shaxsning shakllanishiga hissa qo'shishini ta'kidlaydi [8].

Xulosa. Yuqoridagi olim va soha mutaxassislarini bildirgan fikr va mulohazalaridan kelib chiqib ta'kidlash joizki, shaxmatni ta'lim jarayoniga joriy etilishi ta'lim oluvchilarning kreativligini shakllantiruvchi vositalardan biri ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan anjumandagi ma'ruzasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi «Shaxmatni yanada takomillashtirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4954 sonli qarori.
3. Aby Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: Yulduz, 2008. - 224 b.
4. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. - СПб.: Питер, 2000.
5. Модель обогащения Дж.Рензулли: <https://infopedia.su/7x629b.html>
6. Fotinica Gliga, Flesner P.I. Procedia // Общественные науки и бихевиоризм. - М., 2014. - № 116. - С. 962-967.
7. Махмудов А.Х., Джураев Р.Х., Ахунжонов А.Т. Дидактический потенциал шахматной игры // Наука и образование сегодня. - М., 2020. - Ч. 2. - № 6 (53). - С. 70.
8. <http://uniques.uz/Chess.html>

OZODLIKDAN MAHRUM ETISH BILAN BOG‘LIQ BO‘LMAGAN JAZO TAYINLASH ORQALI JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLARNI TARBIYALASH

Abdulxamidov Abbas Abilatibovich,

*Toshkent viloyati Ichki ishlar Bosh boshqarmasi probatsiya boshqarmasi
muhim topshiriqlar bo‘yicha inspektori*

Annotatsiya. Maqolada ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlash orqali jinoyat sodir etgan shaxslarni tarbiyalash, probatsiya xizmati tomonidan boshqa davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar, nazorat ostidagi shaxslarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash va huquqiy ongini yuksaltirish masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: nazorat ostidagi shaxslarning huquqiy holati axloqan tuzatish qayta tarbiyalash mahkumlar huquqlarining ta‘minlanishi ta‘sirchan nazorat.

ВОСПИТАНИЕ ПРАВОНАРУШИТЕЛЕЙ ПУТЕМ НАЗНАЧЕНИЯ НАКАЗАНИЙ, НЕ СВЯЗАННЫХ С ЛИШЕНИЕМ СВОБОДЫ

Абдулхамидов Аббас Абилатибович,

*инспектор по главным заданиям отдела пробации Главного управления
внутренних дел Ташкентской области*

Аннотация. В статье особое внимание уделяется воспитанию правонарушителей в духе законопослушности и повышению правосознания работы, проводимой службой пробации во взаимодействии с другими государственными органами.

Ключевые слова: правовой статус лиц, находящихся под надзором, представляет собой действенный контроль за обеспечением прав осужденных на нравственно-коррекционное перевоспитание.

EDUCATION OF OFFENDERS THROUGH NON-CUSTODIAL SENTENCES

Abdulhamidov Abbas Abilatibovich, *inspector for the main tasks of the
Probation department of the Main department of Internal Affairs of the
Tashkent region*

Abstract. In the article, special attention is paid to the education of offenders in the spirit of law-abiding and increasing the legal awareness of the work carried out by the probation service in cooperation with other state bodies.

Key words: the legal status of persons under supervision is an effective control over ensuring the rights of convicts to moral and corrective re-education.

Kirish. Mamalakatimizda jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish, ularni jamiyatdan ajratmagan holda jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda qayta tarbiyalash borasida keng yeo‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Ilg'or xorijiy tajriba va halqaro standartlarni inobatga olgan holda ichki ishlar organlari tizimini isloh qilish, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktik qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'riylotgan chora-tadbirlarni uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabr kuni «Jinoyat ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4006-sonli qarori [1] qabul qilinib, qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi IIV Probatsiya xizmati va tegishli uchirning hududiy bo'linmalari 2019 yil 1 yanvardan boshlab o'z faoliyatini olib bormoqda.

Probatsiya – umume'tirof etilgan xalqaro termin hisoblanib, «sinov» degan ma'noni anglatib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan, jumladan, shartli hukm qilingan mahkumlarni qayta tarbiyalash, ularning huquqlarini ro'yobga chiqarish borasida ishlar samaradorligini oshiradigan tizim hisoblanadi. Bu xizmat, asosan, tasodifan yoki adashib jinoyat sodir etganlarga nisbatan qo'llaniladi. Ijtimoiy xavfi kam yoxud mayda jinoyat sodir etgani uchun muqaddam sudlanganlar ham bu imkoniyatdan foydalanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazoga mahkum etilganlar esa o'talmay qolgan jazo qismini probatsiya shaklida o'tashi mumkin. Shu bilan birga, probatsiya bo'linmalarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish bo'yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikda samarali tashkil etish; shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish; nazorat ostidagilar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga, shu jumladan, ularning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish orqali har tomonlama amaliy ko'maklashish; nazorat ostidagilarning qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretni tuzgan holda o'rganish [1]. Probatsiya xizmati axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari tayinlangan va shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshiradi. Yuqorida qayd etilgan islohotlar natijasida 2021 yilning 12 oyi davomida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganligi uchun jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 8969 nafar shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlanib, Toshkent viloyatining hududiy Probatsiya bo'linma (guruh)larida hisobga olindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 fevral kunidagi «Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 84-sonli qarorida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish, probatsiya bo'linmalari nazorati ostidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish, nazorati ostidagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha vazirliklar va idoralarning hamkorlikdagi faoliyati mexanizmi tasdiqlandi. Mazkur qarorga asosan ichki ishlar vazirligi probatsiya xizmati, uning xududiy bo'linmalari 8 ta davlat organlari birgalikda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan nazoratdagi shaxslar bilan hamkorlikda ish olib borishi belgilangan. Bular, Sog'liqni saqlash vazirligi; Xalq ta'limi vazirligi; O'zbekiston yoshlar ittifoqi; Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi; O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hamda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi (vakolatlari Mahalla va oilani

qo'llab-quvvatlash vazirligiga o'tkazildi); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi [2]. Misol uchun, qaror bilan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi probatsiya xizmati bilan hamkorlikda: Nazorat ostidagi xotin-qizlarni ishga joylashishiga, bandligini ta'minlashga, qayta kasbga tayyorlashga qaratilgan ishlarga ko'maklashish; Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni amalga oshirish; Xotin-qizlarni sog'lig'ini saqlash, ularni sportga jalb qilish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda ko'maklashishi belgilangan. Qarorda belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida, 2021 yil 12 oyi davomida Toshkent viloyati IIBB Probatsiya boshqarmasi va hududiy bo'linmalari tomonidan hududiy Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi, Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari hamda Toshkent Islom Akademiyasi psixolog mutaxassislari bilan hamkorlikda 14 marotaba seminar-trening mashg'ulotlari tashkil etilib, mashg'ulotda 790 nafar nazorat ostidagi shaxslar (shulardan 163 nafar ayol)lar ishtirok etdi. Shuningdek, qarorga muvofiq, Toshkent viloyati IIBB Probatsiya boshqarmasi, Toshkent viloyati Aholi bandligiga ko'maklashish Bosh boshqarmasi va hududiy bo'lim hamda markazlari bilan hamkorlikda: 134 marotaba «Ishga marxamat» mehnat yarmarkalari tashkil etilib, unda 9112 nafar nazorat ostidagi shaxslarning 8988 nafariga ishga joylashish uchun yo'llanmalar berilib, yo'llanma olgan nazoratdagi shaxslarning 6720 nafari ish bilan bandligi ta'minlandi. Shu bilan birgalikda hamkor tashkilotlar ko'magi bilan 220 nafar nazorat ostidagi shaxslar qayta kasbga yo'naltirish bo'yicha bepul o'quv kurslariga o'qishga yuborilib, o'qitildi va payvandchilik, haydovchilik, qurilish va boshqa sohalar bo'yicha maxsus sertifikatlar topshirildi. Amalga oshirilgan ishlar davomida mehnatga halol munosabatda bo'lgan, tuzalish yo'lga o'tgan va sodir etgan jinoyatidan pushaymon bo'lgan 2661 nafar nazorat ostidagi shaxslarning o'talmay qolgan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasiga asosan muddatidan avval shartli ozod etildi. Shuningdek, 1392 nafar shaxslarning jazolari jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning ajrimiga asosan yengilrog'i bilan almashtirilib, hududiy probatsiya bo'linma (guruhlari) hisobiga olinib, ijtimoiy hayotga moslashtirish va xokimliklar tomonidan bir martalik moddiy yordam berilib, hududiy tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikda tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Xulosa. Mamlakatimizda fuqarolarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya etish borasida qator amaliy ishlar olib borilmoqda, amaliy ishlarning davomi sifatida davlatimiz rahbarining 2018 yil 7 noyabrdagi «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4006-sonli, qarorga muvofiq ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan nazorat ostidagi shaxslarni nazorat qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirildi.

Keng jamoatchilik fikrlarini va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Inson huquqlari bo'yicha milliy markazining takliflari inobatga olinib, jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatdan, oilasidan ajratmagan holda, keng jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda axloqan tuzatish ishlarini olib borishni nazarda tutadi. Bundan maqsad – qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish. Bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Shvetsiya, Yaponiya kabi davlatlarda ushbu xizmat samarali yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda Norvegiya, Daniya, Gollandiya, Shveysariya va bir qator rivojlangan davlatlarning probatsiya bo'linmalarida shartnoma asosida psixologlar faoliyat olib boradi. Buning uchun alohida xizmat xonalari va treninglar o'tkazish zallari tashkil etiladi. Ular nazoratdagi har bir shaxs bilan individual suhbat

o'tkazib boradilar. Mutaxassis psixologlar faoliyati davomida va suhbat o'tkazish chog'ida nazorat ostidagi shaxslarga psixologik yordam ko'rsatadi. Ularning ruhiy holati, hayotiy muammolarini aniqlaydi. Sinov davrida ana shu muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar olib borish bo'yicha tavsiyalar berib boradilar. Nazorat ostidagi shaxslarning ijtimoiy-psixologik portreti psixologik uslublarni (suhbat, kuzatuv, test, rangli belgi) qo'llagan holda tuziladi.

Mamlakatimiz uchun bu yangi institut, lekin qonunchilikda uning maqsad vazifalari aniq ko'rsatilgan. Unga ko'ra, probatsiya bo'linmalari ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish bo'yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etadi. Shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiradi. Nazorat ostidagilar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga, shu jumladan, ularning kasbiy tayyorgarligiga har tomonlama amaliy ko'maklashadi. Nazorat ostidagilarning qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Jinoyat sodir etgan shaxsga ozodlikdan mahrum qilish bo'yicha jazolar tayinlash davlat va uning siyosati, iqtisodiyot, jamiyat va albatta, o'sha shaxsning o'ziga qator muammolar keltirib chiqaradi. Probatsiya hisobiga olinganda esa, mahkum, avvalo, oilasi bag'rida bo'ladi, tibbiy, psixologik va huquqiy yordamdan foydalanadi. Qolaversa, u kasb-hunarga o'rgatiladi, ishga joylashtiriladi, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy faol bo'ladi. Bu bilan u o'zini nojo'ya yo'llardan qutqaradi, oilasiga foyda keltiradi, mamlakat rivoji uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 ноябрь кундаги «Жиноят ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4006-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 февраль кундаги «Ички ишлар органлари пробаця хизмати фаолиятини самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 84-сонли қарори.

UMUMTA'LIM FANLARINI O'QITISH VOSITASIDA O'QUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Tashmetova Shaxlo Xusanova, TDPU katta o'qituvchisi

Аннотация. Ushbu maqolada biz umumiy ta'lim fanlarini o'qitishda o'quvchilar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish haqida gapiramiz.

Таянч со'zlar: aloqa, madaniyat, ta'lim, umumta'lim fanlari, o'qish, o'qitish, shakllantirish, talaba, o'qituvchi.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ ПРЕПОДАВАНИЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ

Ташметова Шахло Хусановна, старший преподаватель ТГПУ

Аннотация. В данной статье речь идёт о формировании культуры общения у учащихся при обучении общеобразовательным предметам.

Ключевые слова: общение, культура, образование, общеобразовательные предметы, изучение, обучение, формирование, ученик, учитель.

FORMATION OF CULTURE OF COMMUNICATION IN STUDENTS BY MEANS OF TEACHING GENERAL EDUCATION SUBJECTS

Tashmetova Shakhlo Khusanovna, senior teacher of TDPU

Abstract. In this article we are talking about the formation of a culture of communication among students while teaching general education subjects.

Key words: communication, culture, education, general subjects, study, teaching, formation, student, teacher.

Kirish. Tarix va pedagogika bizga muloqot madaniyatining yo'qligi nafaqat odamlar o'rtasidagi, balki xalqlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashishiga olib kelishini o'rgatadi.

Asosiy qism. Muloqot muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiyada eng ko'p qirrali va intensiv o'rganilayotgan muammolardan biridir. Muloqotning ayrim tomonlarini o'rganishda boshqa fanlar ham ishtirok etadi. Sotsiologiya muloqotni muloqot qiluvchilarning individual va guruh xususiyatlari nuqtai nazaridan, so'zlovchilarning ijtimoiy rollari nuqtai nazaridan o'rganadi; lingvistika va psixolingvistika – lingvistik va nutqiy aloqa birliklarining o'ziga xos xususiyatlari, matnlarning kompozitsion, stilistik va janr xilma-xilligi; etnografiya – muloqotning milliy va guruh xususiyatlari, shu jumladan, marosim aloqasi. Har bir fan «muloqot» tushunchasini o'ziga xos tarzda izohlaydi; bu fanlarning har biri doirasida yagona nuqtai nazar mavjud emas. Muloqot natijasida insonning boshqa odamlar bilan munosabatlari shakllanadi, ma'lumot, kayfiyat, his-tuyg'ular uzatiladi. Maktabning ta'lim salohiyati nafaqat innovatsiyalar rivojlanishi, balki o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bilan ham ortib boradi, ulardan biri muloqot qilish qobiliyatidir. Talabalar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi bugungi kunda, ayniqsa, dolzarbdir, chunki muloqot muammosiga qiziqishning ortishi inson fanining rivojlanishidagi yangi bosqich va ijtimoiy amaliyot talablari bilan bog'liq.

Inson faoliyatining ko'p turlari (hoh samarali, xoh ta'lim), ular qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, odamlarning umumiy sa'y-harakatlari bilan, ularning muloqot jarayonlari vositasida amalga oshiriladi. Muloqot inson faoliyatining eng muhim omillaridan biridir. Ushbu muammoni ma'lum darajada o'rganishga qaramay, «muloqot madaniyati» tushunchasidan foydalanish pedagogika uchun xos emas. Pedagogik adabiyotlarda «muloqot kompetensiyasi», «kommunikativ kompetentsiya», «kommunikativ tayyorgarlik» yoki «kommunikativ madaniyat» tushunchalari ko'proq qo'llaniladi. Ushbu tushunchalarning barchasida asosiy e'tibor aloqa «texnikalarini» egallashga, shaxslararo aloqalarni saqlab qolish va optimal xulq-atvor strategiyalaridan foydalangan holda muloqotda o'z maqsadlariga erishishga qaratilgan. Ushbu yondashuv muloqot madaniyati muammosi qo'yilganda, shaxs birinchi o'ringa chiqqanda zamonaviy ko'rinadi. Bu o'qituvchi va o'quvchining shaxsiyatiga teng darajada taalluqlidir. Muloqot madaniyati insonparvarlik yo'nalishini ta'kidlaydi, bunda boshqa shaxs eng yuqori qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda pedagogika fani ta'lim muvaffaqiyatli bo'lishi uchun bolada biz unda tarbiyalamoqchi bo'lgan narsaga ijobiy munosabatni uyg'otish zarurligini isbotladi. Munosabat har doim, ma'lumki, faoliyatda, munosabatlarning, muloqotning eng murakkab mexanizmi orqali shakllanadi. Antuan de Sent-Ekzyuperi insoniy muloqotni dunyodagi eng katta hashamat deb atadi. Ko'pgina kasblar uchun bu kasbiy zaruratdir, ya'ni aloqasiz oddiygina mumkin bo'lmagan inson mehnatining bunday turdagi ish o'qituvchining ishi. Pedagogik ishning tuzilishi, umuman olganda, psixologlarning fikricha, 200 dan ortiq tarkibiy qismlardan iborat. Ammo uning eng qiyin qismlaridan biri bu muloqotdir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli va bevosita muloqot orqali pedagogik ishda asosiy narsa - shaxsning shaxsiga ta'siri amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni mohirona tashkil etsa, bolalar jamoasining ajralmas qismiga aylansa, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda asosiy tartibga soluvchi o'qituvchi va bolalar o'rtasidagi katta hamjihatlik hissi bo'lsa, o'quvchi shaxsiga ta'sir qilishi mumkin.

Pedagogik muloqot jarayonini va bu jarayonda shaxs, kasb egasi sifatida o'zini anglab olish har bir o'qituvchi uchun nihoyatda foydalidir. Muloqot madaniyatini pedagogik muammo sifatida shakllantirish o'z vaqtida hal qilishni talab qiladi, chunki bu ko'p qirrali jarayon. Bu jarayonni tashkil etishning zaruriy talabi – uning pedagogik asoslarini bilishdir. Muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonining samarali ishlashining zaruriy sharti – bu talabalar o'rtasida muloqot samaradorligining tamoyillari, talablari va shartlari to'g'risida bilimlarning mavjudligi, turli vaziyatlarda to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalarini to'plash, qulay psixologik iqlim. Muloqot madaniyati insonning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, u avvalgi avlodlar tomonidan to'plangan tajribani va har bir shaxsning doimiy shaxsiy tajribasini aks ettiradi. U o'quvchilarning muloqot qonuniyatlari haqidagi bilimlari asosida shakllantiriladi, ular o'quv va darsdan tashqari ishlar jarayonida e'tiborga olinishi kerak. Muloqot madaniyati o'quvchilarning hayot mazmuniga mas'uliyatli munosabatini shakllantirishning eng yuqori darajasini nazarda tutadi. U muloqot madaniyatini egallashi, ko'p va xilma-xil kommunikativ vaziyatlarda harakat qila olishi kerak. Maktabda ikki asosiy shaxs – o'qituvchi va o'quvchining sinfda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, bo'sh vaqtlarida muloqoti ta'lim jarayoni samaradorligining muhim shartiga, o'quvchi shaxsini shakllantirish vositasiga aylanadi. Demak, zamonaviy maktabda o'quvchilar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirishda o'quvchilar o'rtasidagi muloqot madaniyatining real holatini o'rganish zarur; pedagogik muloqotning mohiyati va mazmunini ochib berish, pedagogik muloqot uslubi va tabiatining o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligiga ta'sirini aniqlash; o'quvchilarning muloqotining o'ziga xos xususiyatlarini va ularning shaxsini shakllantirish uchun uning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash; o'quvchilar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik shartlarini aniqlash. Bularning barchasi «o'qituvchi-shogird» tizimidagi pedagogik muloqot jarayonida,

shuningdek, o'quvchi va tengdoshlari o'rtasidagi ta'limdagi o'zaro aloqa va maktabdan tashqari aloqalardagi shaxslararo muloqot jarayonida amalga oshiriladi. O'qituvchining o'quvchilarning bilan muloqotidan tashqarida na ta'lim, na tarbiya mavjud.

Zamonaviy maktab sharoitida shaxsni shakllantirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning ahamiyati oshadi, lekin u har doim ham muayyan aloqa muammosini hal qilish samaradorligini belgilaydigan qonuniyatlarga amal qilmaydi. Talabalar o'rtasidagi muloqot madaniyati, agar uni shakllantirish jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun zarur pedagogik shartlar majmuasi amalga oshirilsa, shakllanadi va samarali rivojlanadi. Biz bunday shartlarga murojaat qilamiz: o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning ehtiyojlari mazmunini va bu ehtiyojlarni amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olish; muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida shaxsning kognitiv, hissiy-axloqiy va amaliy-samarali sohasiga ta'sirining murakkabligi va uzluksizligi; o'qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan bir vaqtda talabalar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini amalga oshirish; o'quvchilar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonini nazariy va uslubiy jihatdan ta'minlash; umumta'lim fanlarini o'qitish va tarbiyalash imkoniyatlaridan foydalanish.

Tadqiqot davomida so'ralgan respondentlarning javoblarini tasniflash bizga muloqotni tushunishning to'rt turini ajratishga imkon beradi:

1. Muloqot – bu suhbatdoshdan keladigan ma'lumotni idrok etish qobiliyati, bu gapirish, o'qish va yozish qobiliyatidir.

2. Muloqot – axborot, g'oyalar olish.

3. Muloqot – bu odamlarning bir-biri bilan o'zaro ta'siri, buning natijasida ma'lumotlar almashinadi yoki biridan ikkinchisiga o'tadi.

4. Muloqot – bu ma'ruzachilardan, boshqalardan yoki o'zidan keladigan ma'lumotni idrok etishdir.

Ko'rib chiqilgan tushunchalarni umumlashtirib, biz o'quvchilarning muloqot madaniyatini o'quvchilarning tengdoshlari, o'qituvchilari, ota-onalari va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarida amalga oshiriladigan yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan me'yorlar va qadriyatlar, tajriba va ehtiyojlar tizimi sifatida tushunamiz.

Xulosa. Muloqotning asosi uning mazmuni va maqsadi yagona aloqa harakatining istalgan natijasi yoki yagona maqsadli belgi bilan bog'langan harakatlar tizimidir.

Adabiyotlar:

1. Андрияновские педагогические чтения: Сборник научных трудов международной научно-практической конференции, посвящённой 85-летию со дня рождения доктора педагогических наук, профессора, академика МАНПО В.И. Андрияновой / Под общ. ред. д.п.н., проф., академика Академии наук Республики Узбекистан Р.Х. Джуроева. 28 августа 2020 года. - Т.: УзНИИПН, 2020. - С. 37.

2. Азизходжаева С.Т. Оптимизация педагогического общения как условие социально-психологической адаптации учащихся колледжей в учебном воспитательном процессе // Замонавий узлуksиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар: Халқаро илмий конференция материаллари. 2018-ил 27-апрель. - Т.: ТДПУ, 2018. - Б. 75.

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING TIBBIY
MADANIYATINI BIOENERGETIK BILIMLAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Xaydarova Mahliyo, TDPU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining xis-tuyg'ularini bioenergetik tahlili haqida fikr bildirildi.

Tayanch so'zlar: qiziqish, quvonch, hayratlanish, iztirob, g'azablanish, nafratlanish, jirkanish, qo'rquv, uyalish, vijdon, axloqiy hissiyotlar, agressiv hissiyotlar, muhabbat.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ
У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ
НА ОСНОВЕ БИОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ**

Хайдарова Махлиё, исследователь ТГПУ

Аннотация. В статье высказано мнение о биоэнергетической оценке ощущений студентов медицинских вузов.

Ключевые слова: интерес, радость, восхищение, страдание, гнев, ненависть, отвращение, страх, стыд, совесть, моральные чувства, агрессивные эмоции, любовь.

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF MEDICAL
CULTURE AMONG STUDENTS OF HIGHER MEDICAL EDUCATIONAL
INSTITUTIONS BASED ON BIOENERGETIC KNOWLEDGE**

Khaydarova Mahliyo, TDPU researcher

Abstract. The article expressed the opinion about the bioenergetic assessment of the feelings of students of medical higher education institutions.

Key words: interest, joy, admiration, anguish, anger, hatred, disgust, fear, shame, conscience, moral feelings, aggressive emotions, love.

Kirish. «His-tuyg'ular - kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan munosabatidir» deb ta'rif berilgan umumiy psixologiya darsligida [1].

Asosiy qism. Biron-bir narsani idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma'lum yoki noma'lum narsalarga nisbatan shaxsiy munosabat bilan birgalikda ro'y beradi. Ana shu hollarning barchasida his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi xususida, kishining alohida hissiy holati xususida gapiriladi. Shu bilan birga his-tuyg'ularning kechishi o'z rivojlanishiga ega bo'lgan, joriy va o'zgarib turadigan psixik jarayondir. His-tuyg'ular – shaxsning emotsional sohasini tashkil etadiki, ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turishda ishtirok etadi. Odamlar o'rtasidaga murakkab va ko'p qirrali munosabatlar his-tuyg'ular ishtirokida tashkil topadi. His-tuyg'ular – voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakllaridan biridir. Agar bilish jarayonida narsalar va voqelikdagi hodisalar aks etsa, his-tuyg'ularda esa, subyektning o'ziga xos ehtiyojlari bilan qo'shilib, o'zi bilib olayotgan va o'zgartirayotgan narsalarga va voqelik hodisalariga nisbatan uning munosabati aks etadi. Barcha psixik jarayonlar kabi emotsional holatlar, his-tuyg'uning kechishi ham miya faoliyatining natijasi hisoblanadi. Albatta, ularning kechishida shartli va shartsiz reflekslar ham ishtirok etadi. His-tuyg'u kechinmalari har doim ham bir xil tusda bo'lavermaydi. Hissiy holatda, ikkita bir-biriga zid his-tuyg'ularning o'ziga xos birikmasini mujassamlashtirish ham mumkin; masalan: ishq-muhabbat va nafrat

rashq hissini bir-biriga qo'shilib ketishi (his-tuyg'ularning ambivalentligi hodisasi). Kishining his-tuyg'ulari ro'y berishiga ko'ra murakkab shartsiz reflekslarga bog'liq bo'lgani holda ijtimoiy xususiyatga egadir. His-tuyg'ular – kishi shaxsining ancha yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, u bilish jarayonlari va xulq-atvor hamda faoliyatni irodaviy boshqarish bilan birgalikda namoyon bo'ladi. His-tuyg'ular (tor ma'noda) kishi shaxsining yo'naltirilganligida mujassamlashgan barqaror ehtiyojlari obyektiga nisbatan uning munosabatini aks ettiradi. Psixologiyada his-tuyg'ular turlarining yagona tasnifi yo'q. Ko'pincha quyidagi turlari alohida ajratib ko'rsatiladi: ma'naviy (axloqiy), intellektual (aqliy) va estetik (nafosat) his-tuyg'ulari. Ma'naviy (axloqiy) his-tuyg'ularga muhabbat (keng va tor ma'noda), hamdardlik, insonparvarlik, sadoqat va vijdon kiritiladi. Shu narsa e'tiborga loyiqlik xalq tabobati qadimgi davrlardan boshlab inson salomatligini saqlash borasida tana softligi va qalb pokligiga alohida e'tibor berib kelgan. Zamonaviy psixologiya va tibbiyot ham sog'liqni saqlash borasida eng muhim muammolardan biri ichki uyg'unlikka erishish ekanligini ta'kidlaydi. Agar inson o'z e'tiqodiga, ishonchiga nisbatan noto'g'ri xatti-harakat qilsa, vijdon azobiga uchraydi. Ayni ana shu vijdonni qiynalishi qilingan xatoni tuzatishga undaydi. Bunda hatto inson o'zini rasman oqlasa ham vijdoni qiynalishi davom etaveradi. Bunda ichki siqilish, taranglik, besaramjonlik, hotirjamlikni yo'qolishi yuzaga keladi. Buni stress holati deb ham atash mumkin. Demak, «Vijdon» bekorchi nasihatgo'ylar o'ylab topgan abstrakt tushuncha emas. U harakatlanuvchi psixik omildir. U har doim kundalik kayfiyatimizga va shu orqali sog'lig'imizga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday qilib, psixik stresslar yuzaga keltiradigan kasalliklarni oldini olishda insonning ichki pokligi, vijdon pokligi katta ahamiyatga ega. Chunki aynan inson halolligi qudratli va sehirli ta'sir kuchiga ega. Organizmni himoyalovchi hissiyotlar anglangan va anglanmagan holda amalga oshib boradi va aynan shu hissiyotlar insonning psixik holatini yaxshilaydi.

Inson emotsiya mexanizmlarini o'zining oldingi ajdodlaridan meros qilib olgan. Shuning uchun ham insonning ba'zi emotsiyalari jonivorlarnikiga o'xshash (g'azab, ochlik, chanqoqlik, qo'rquv), lekin bular organizm talablarini qondirishdagi eng oddiy emotsiyalardir. Ong va yuksak insoniy talablar rivojlanishi bilan insonda yanada murakkabroq insoniy hissiyotlar rivojlana boshladi. Yuqoridagi fikrlardan quyidagi mantiqiy fikr vujudga keladi. Emotsiyalar hissiyotlardan farqli o'laroq uzoq evolyusion davr mobaynida vujudga kelgan va u faqat insonga emas, balki jonivorlarga ham xosdir. Ular fiziologik talablarni qondirishga xizmat qiladi. Hissiyotlar esa, emotsiyalar asosida idrok ishtirokida faqatgina insonga xos ijtimoiy munosabatlar muhitida rivojlangandir. Inson talablarining esa, ko'pchilik qismi tarbiya asosida shakllanadi, ular jamiyat tomonidan rivojlantirilib boriladi (masalan, gigiyenik talablar, madaniy talablar). Ushbu talablar hissiyotlarni rivojlanishida bevosita ishtirok etadi. Ko'pgina hissiyotlar aqliy faoliyat bilan shunday bog'langanki, ular faoliyatsiz mavjud ham bo'la olmaydi. Insonning emotsional holatini va hissiyotlarini turli-tumanligini ko'rsatishda har qanday hisob-kitob, mezonlar va klassifikatsiyalar o'z ekanini tan olish lozim. Ularni quyosh nurlarining ranglariga o'xshatish mumkin. Ya'ni asosiy ranglarni aniqlab olishgina mumkin bo'ladi ana shu asosiy ranglardan esa, behisob ravishda turli-tuman ranglarni kombinatsiyasini olish mumkin. His-tuyg'ular ham xuddi shunday xususiyatga ega, biz ularning faqat ba'zi asosiy ranglarini guruhlashimiz mumkin xalos. Bizning bu guruhlashimiz, albatta, turli xil mezonlar asosida bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham hozirda his-tuyg'ularni guruhlash bir-biridan farq qiluvchi bir qancha yo'nalishlarda bormoqda. Demak, inson hissiyotlarini tanlab olingan ko'rsatkichlarga qarab turlicha guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, ularni yoqimli va yoqimsizligiga qarab guruhlash yoki ijobiy, salbiy hislarga ajratish yoki boshqa odamlarga bildiriladigan va o'ziga bildiriladigan hissiyotlar guruhlarni ajratish mumkin. Bu holda boshqa odamlarga bildiriladigan hissiyotlarga muhabbat, minnatdorchilik, hasad, nafrat kabilar kirsam, o'ziga bildiriladigan hissiyotlarga: o'zidan mamnun bo'lish, uyalish, afsuslanish kabilar kiritiladi. Atrof-olamdagi hodisalarga baho berish bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar bor masalan:

achinish, xafsalasi pir bo'lish, xursandchilik. Bir qancha hissiyotlar o'zini saqlash instinkti bilan bog'liq masalan: qo'rquv, xavotir, sergaklik va boshqalar. Oraliq hissiyotlar ham mavjud, ular bir necha guruhlarga ajratilishi mumkin: masalan, jahl va alam hislari – ular insonning o'ziga ham, boshqalarga ham qaratilgan bo'lishi mumkin

Fiziologlar yoqimli hissiyotlar ko'pincha vegetativ asab tizimining parasimpatik bo'limini qo'zg'alishi bilan, yoqimsizlari esa, ko'pincha simpatik bo'limini qo'zg'alishi bilan bog'liqligini aniqladilar. Aytish joizki, ijobiy emotsiyalar ham, salbiy emotsiyalar ham insonda faoliyat istagini uyg'otadi, insonni harakatga keltiradi. Ushbu emotsiyalarning yo'qolishi insondagi faoliyatga bo'lgan ehtiyojni yo'qolishiga olib kelishi, apatiya holatini kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bir tasavvur qilib ko'ring, agar inson hayajonlanish, muhabbat, nafratlanish, shodlanish, xafa bo'lish kabilardan mahrum bo'lsa, yaxshilik va yomonlikni yolg'iz sovuq idrok, hisob-kitob yo'li bilan ajratib, kibernetik uskuna singari xatti-harakat qilsa, u qanday ko'rinishga ega bo'lib qoladi? Umuman, biz uni to'laqonli shaxs deya olarmidik? Bu holda inson o'z qiyofasini, ya'ni insoniylik xislatlarini yo'qotadi. Bundan tashqari, inson rivojlanish, takomillashish ehtiyojini hamda qobiliyatini yo'qotib qo'yadi. Insoniy hissiyotning, emotsional qobiliyatning yo'qolishi insoniylikni yo'qolishiga olib keladi, fiziologik emotsiyalarni yo'qolishi esa atrof-muhit bilan har qanday aloqani buzilishiga olib keladi. Emotsiya hayotga, bizning atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalarga qiziqishlarimizni saqlab turadi. Inson o'zining mukammalligi va kamoliga intilishi bilan ahamiyatli va qadrlidir. Insonning hissiyotlari va idroki bir-birini to'ldirib, boyitib borgandagina mukammaldir. Shuning uchun ham barkamol insonni tarbiyalash qandaydir elektron mashinani ixtiro qilishdan ko'ra ancha murakkabroqdir. Ko'pincha adabiyotlarda stressga, ya'ni stress holatiga oid ma'lumotlarni uchratamiz. Ularning ba'zilarida stress holatini yechimini topish va ijobiy maqsadga erishishning psixologiyasi ko'rsatiladi. Stress holatidan to'g'ri chiqib ketish va bu holatdan rivojlanish uchun foydalanish uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi. Stress holatining nazorat qilinmasligi esa neyrobiologik yetishmovchilikka olib keladi va fe'l-atvorda o'zgarishlar hosil qiladi. Nazorat qilingan stresslar bunday yetishmovchilikni hosil qilmaydi. Stress holatini nazorat qilishga intilish kelajakda bu holatlarni o'zini yo'qotib qo'yimaslikka, stress holatidan chiqq olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ammo shuni ham aytib o'tish lozimki, har bir insonning stress holatiga bardoshlilik darajasi turlicha. Bu bardoshlilik darajasi asab tizimining mustahkamligi, chidamligi va tiplari bilan belgilanadi. Qiziqarli holat shundaki, inson stress holatining ko'pligidan ham stress holatini umuman yo'qolib qolishidan ham ruhiy iztirobga tushib qolishi mumkin. Chunki stress holati ma'lum darajada organizmni faollashtirib turishga yordam beradi va uning butunlay yo'qolib qolishi insonda hayotiy qiziqishni pasaytirib yuborishi mumkin. Stress holatini boshdan kechirib, uni to'g'ri yechimini topib, ana shu stress holatini yengib chiqqan odam esa, keyingi rivojlanish uchun ma'lum kuch to'playdi, uni hayotiy zarurat sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq, ammo har bir odam o'zining stress meyorini aniqlab olishi kerak. Bu meyor shunday darajada bo'lishi lozimki, aynan shu holatda inson o'zini ichki muhitini uyg'unlashtira olsin. Buning uchun esa, har bir talaba o'z shaxsini yaxshiroq o'rganishi va o'z ichki muhitida uyg'unlikni saqlashga harakat qilishi lozim. Talaba o'zining stress darajasini aniqlab olganidagina u stress holatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu holdagina talaba stressni yetishmovchiligidan ham (distressdan), stressning ortiqcha yukidan ham qiynalmaydi. Shunday qilib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: zo'riqishning yo'qligi degradatsiya, atrofiyani va o'zini himoya qilish qobiliyatini pasayishiga olib keladi; zo'riqishning ko'pligi (ortiqchaligi) funksional va adaptiv (moslashish) qobiliyatini pasaytiradi.

Biz bioenergetik nuqtai nazardan insonning turli-tuman his-tuyg'ularini ikki guruhga ajratdik: 1. Axloqiy - biriktiruvchi hissiyotlar. 2. Agressiv ajratuvchi hissiyotlar. Agressiv hislarga nafrat, rashk, qasos, qasd, g'azab, xudbinlik kabilarni kiritish mumkin. Bu hislarning asosida

inkor etish, voz kechish qabul qilmaslik yotadi. Bu hislar hayotning bizga yoqmagan tomonlarini inkor etishga, ya'ni real hayotni tan olmaslikka yoki undan yuz o'g'irishga undaydi. Bu hislarga berilgan inson ma'lum darajada reallikni (haqiqatni) inkor etadi, qabul qilmaydi. O'z shaxsini ana shu hayotning bir qismi bo'lgan holatdan ajratgan holda qabul qilishga intiladi. Bu holatda bioenergetik maydonda ham energiya almashinuvi buziladi. Bioenergetik maydonga xuddi shunga o'xshash salbiy energiyalar tortila boshlaydi va natijada ushbu maydon ana shunday ko'rsatmalarga boyib boradi. Bioenergetik maydonning yanada ifloslanishi yuz bera boshlaydi. Bundan tashqari, ushbu hissiyotlar energetik quvvatning tarqalishiga, ya'ni ko'p quvvatni befoyda sarflanishiga sabab bo'ladi. Natijada insonning bioenergetik maydoni o'z quvvatini kamaytirib boradi va kuchsizlanib qoladi. Chunki salbiy hislar quvvatni atrofga yoyilib ketishiga va qo'shimcha quvvatning kirib kelmasligiga xizmat qiladi. Chunki biz bu holda real hayotni inkor etayapmiz, ya'ni o'zimiz hayotiy quvvatdan voz kechayapmiz. Bu holatni uzoq muddatda davom etishi avval bioenergetik maydonni, so'ng esa, jismoniy organizmni yemirilishiga sabab bo'ladi. Shu mexanizmdan kelib chiqqan holda biz bu salbiy hissiyotlarni ajratuvchi hissiyotlar deb atadik. Ular insonning yaxlit bioenergetik maydondan ajralib qolishiga va kuchsizlanishiga (muhofazani kuchsizlanishiga) olib keladi. Albatta, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, stress holatlar ham organizmni faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi va bu to'g'ri, ammo bu holatni ma'lum chegaralari va darajalari mavjud. Ana shu daraja va meyorlaridan chetga chiqish hissiy zo'riqishni salbiy natijalarga, kasalliklarga olib keladi. Demak, ajratuvchi hissiyotlar ham hayotning bir qismi sifatida qabul qilinishi lozim, lekin ularni boshdan kechirayotgan inson ma'lum axloq meyorlariga amal qilishi va ma'lum nazoratni qo'ldan bermasligi shart. Inson biror shaxsdan nafratlanar ekan bu nafrat quvvati (agressiya) nafaqat butun borliqqa, balki o'ziga ham qaratilgan bo'ladi. Chunki har bir shaxs ana shu borliqning bir qismi hisoblanadi. U qanday inson bo'lishidan qat'iy nazar yaxlit biologik dunyoning ma'lum qismini tashkil etadi. Biologik borliqni biror qismini yomon ko'rayotgan, nafrat hissini kechirayotgan odam nafrat predmeti bo'lgan shaxs orqali butun biologik borliqqa o'z nafratini qaratgan bo'ladi. Biz o'zimiz ana shu yaxlit biologik hayotning bir qismi bo'lganligimizdan oxir oqibatda o'zimizni ham yomon ko'ra boshlaymiz. Chunki biologik sferaga tarqalgan agressiya (tajavuzkorlik) biologik predmetlarni tanlamaydi, u radioto'lqinlari singari sferada har tomonga tarqala boradi.

Xulosa. Natijada, o'z agressiyamiz (tajavuzkorligimiz) ma'lum vaqtdan so'ng o'zimizga qaytib keladi. Chunki biologik darajada hamma narsa o'zaro bog'liq va tengdir. Inson borliqning bir qismi, borliq esa, katta va yaxlit organizmdir, u ko'rinmas energetik iplar bilan chambarchas bog'liqlik hosil qiladi. Hattoki, koinotning energetik oqimlari yerning bioenergetik tizimi bilan aloqador va o'zaro ta'sirga ega ekanligi ma'lum. Yer yuzida va umuman koinotda energiyalar almashinuvi ma'lum qonuniyatlar orqali amalga oshiriladi va o'zaro uyg'unlik hosil qiladi. Ana shu uyg'un energiya sferasida yashash uchun inson ham o'z fikrlari va o'z his-tuyg'ularida uyg'unlikka erishishi lozim, aks holda inson ana shu uyg'un borliq energetikasiga hamohang holda hayot kechira olmaydi. Bu hamohanglikni buzilishi, albatta, energiya almashinuvini buzilishiga olib keladi. Rezonans holati, ya'ni bir-biriga mos tushish holati kuchni ikki barobar emas, balki bir necha o'n barobar oshishiga olib kelishini siz yaxshi bilasiz. Inson energetikasining to'lqinlari borliq energetikasining to'lqinlariga mos tushgan holda uning bioenergetik maydonining quvvati bir necha o'n barobar oshib boradi. Mustahkam immunitetga ega inson mustahkam sog'liq egasi ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петровский А.В. и др. Общая психология. - Т., 1992. - 400 б.
2. Абу Али ибн Сино. Саломатлик сирлари: Тиббий рисодалар тўплами. - Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашириёти, 2000. -156 б.
3. Бойдедаев А. Табиат кучлари ва олам эволюцияси. - Т., 1996. - 105 б.

AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI

Quziyev Ravshanbek Baxtiyor o'g'li, O'zPFITI ilmiy xodimi

Annotatsiy. Mazkur maqolada bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot sohasi, unda uchrab turadigan turli xavflar va axborot-psixologik xafsizlikni ta'minlash to'g'risidagi ayrim masalalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, mavzu doirasida ilgari surilgan axborot-psixologik xafsizlik tushunchasi va uning tamoyillari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *axborot, axborot xafsizligi, axborot tahdidi, axborot-psixologik xavfsizlik, konfidentsiallik, ochiqlik.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Кузиев Равшанбек Бахтиер угли, научный работник УзНИИПН

Аннотация. В этой статье рассматриваются некоторые проблемы, связанные с современной быстро развивающейся информационной индустрией, различными угрозами, с которыми она сталкивается, а также с информационной и психологической безопасностью. Также освещается понятие информационной и психологической безопасности и ее принципы.

Ключевые слова: *информация, информационная безопасность, информационная угроза, информационно-психологическая безопасность, конфиденциальность, открытость.*

SOME ISSUES OF INFORMATION SECURITY

Kuziev Ravshanbek Bakhtiyor ugli, researcher at UzSRIPS

Abstract. This article examines some of the challenges associated with today's rapidly developing information industry, the various threats it faces, as well as information and psychological security. It also highlights the concept of information and psychological security and its principles.

Key words: *information, information security, information threat, information and psychological security, confidentiality, openness.*

Kirish. Bugun hayotimizda bir-biridan muhim shunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yuz bermoqdaki, ularga shu kun nuqtai nazardan kelib chiqib baho berish, har qachongidanda, mas'uliyatli yondashuvni talab etmoqda. Bevosita shakllanayotgan shaxsga ijtimoiy omil sifatida ommaviy axborot vositalarining ta'sir doirasi benihoya kengayib bormoqda. Shunday ekan, o'tgan asrning oxiri va asrimiz boshida axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrning «Axborot asri» deb atalishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot asosida ta'lim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda, ijtimoiy hayot samarali boshqarilmokda. Hozirgi kunda hayotning biror-bir sohasini axborotsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday deyilgan edi: «...hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning

eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda» [1].

Bugun tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va ayni paytda o'ta murakkab zamonda yashamoqdamiz. Mutaxassislar bu tezkor davrni «ommaviy axborotlashuv» yoxud «globallashuv asri» deb atashmoqda. Boisi, yer yuzining qaysidir bir chekkasida yuz bergan voqeadan bir necha soniya ichida butun dunyo ahli xabar topmoqda. Bu esa, shubhasiz matbuot va ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli nechog'li oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan aytganda, har qanday matbuot jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar, o'zgarishlar, yangilanishlarni to'laligicha, xolis va haqqoniy aks ettirmog'i kerak.

Biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, dastlabki o'rinda axborot hurujlaridan himoyalaniish yo'llarini ishlab chiqqishimiz va bu yo'lda har birimiz chinakam jonbozlik ko'rsatishimiz darkor deb o'ylayman. Xalqimizning ma'naviy olamini boyitish, ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishini oldini olish, mafkuraviy immunitetni qaror toptirish axborot hurujlaridan saqlanish, himoyalaniishda ahamiyatlidir. Buning uchun esa, avvalambor, Vatanimiz taraqqiyotining mustaqkam poydevorlari bo'lmish yoshlar ongi va kalbida sog'lom hayot tarzini barpo etish, ularda o'z tarixidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish, milliy va umummilliy qadriyatlarga nisbatan ehtirom, izzat ikrom singari ezgu fazilatlarini singdirishimiz zarurdir. So'nggi yillarda axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish tizimini takomillashtirish alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni asosida qabul qilingan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ni [2] misol qilib keltirishimiz mumkin. Xo'sh, axborot xavfsizligi hamda axborot tahdidi o'zi nima? Axborot xavfsizligi deganda, jamiyatni insonlar, tashkilotlar va davlat manfaatlarini asosiy shakllanishi va rivojlanishini ta'minlovchi axborot makonining himoyalanganlik darajasi tushuniladi. Axborot tahdidi esa, jamiyat axborot makonining ishlashiga xavf tug'diruvchi omil yoki omillar birligidir [3].

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi esa, bu jamiyatni, uning alohida guruhlari va shaxslarni axborotning destruktiv shakl va turlarining salbiy ta'siridan himoya qilish maqsadida barcha mavjud axborot resurslaridan samarali foydalanish demakdir. Axborot-psixologik xavfsizlik OAVlarda beriladigan axborot-ma'lumotlarda intellektual reduksiya, jaholat va soddalikni, insonlarni bog'lab qo'yuvchi, agressiya reklama, shuningdek, ochiq va yashirin tarzda shafqatsizlik va kuch ishlatishni, narkomaniya, alkogolizm, pornografiya, toksikomaniya, jamiyatga qarshi xatti-xarakatlar, millatchilik, irqchilik, diniy, sinfiy kamsitish va murossasizlik alomatlarini bo'lmasligini taqozo etadi. Axborot-psixologik xavfsizlik milliy xavfsizlikni mustahkamlash, madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirishning, zamonaviy jamiyatning axloqiy va ma'naviy salohiyatini o'stirishning qudratli omili hisoblanadi. Axborot xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash sistemasining bir qismidir.

Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Konfidensiallik – axborot olish imkoniyati yoki uni begona shaxslar, tashkilot yoki jarayonlarga ovoza qilishni cheklovchi xususiyat.

Ochiqlik – vakil shaxs talabi bilan iste'mol qilishga yaroqli va xammaboplikni anglatuvchi xossa.

Salbiy axborot-psixologik xavfsizlik deganda, inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib shaxs, jamiyat va davlat uchun salbiy oqibatlarini keltirib chiqaruvchi ta'sir ko'rsatishning maxsus vosita va metodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan inson yoki shaxslar

guruhiga ta'sir ko'rsatish tushuniladi.

Salbiy axborot-psixologik xavfsizlik ta'sir vositalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: inson salomatligiga zarar yetkazish; insonning xohish bildirish erkini anglanmagan darajada to'sib qo'yish, unga sun'iy ravishda qaramlik sindromini singdirish; insonni siyosiy, madaniy, axloqiy o'z-o'zini identifikatsiya qilish qobiliyatini yo'qotishi; ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish.

Axborot-psixologik xavfsizlikning ta'sir vositalari quyidagilardan iborat:

1) Maxsus ta'sir vositalari – inson yoki shaxslar guruhiga salbiy axborot- psixologik ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan texnik va dasturiy vositalar.

2) Maxsus ta'sir metodlari – oqibatlari shaxs, jamiyat va davlat uchun salbiy natijalarga olib keladigan inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishning usullari ketma-ketligi, davomiyligi.

Axborot-psixologik xavfsizlik standartlari deganda – inson ruhiyati uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydigan axborot-psixologik ta'sirning tasdiqlab quyilgan o'rnatilgan tartibdagi parametrlari tushuniladi.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashdagi davlat siyosati asosan quyidagilar bilan belgilanadi: axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish; axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash tizimini shakllantirish; davlat boshqaruv organlari va jamoat birlashmalarining axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatlarini koordinatsiyalash; O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarining va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatlarini belgilash.

Axborotga muayyan voqea-xodisalar to'g'risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, keng ma'no kasb etayotgan tushuncha sifatida ta'rif beriladi.

Axborotlarni aniq maqsadda yig'ish, saqlash, tizimlarga ajratish va ulardan ommaviy tarzda foydalanishda texnik, dasturiy, algoritmik ishlar va ularning tashkiliy vositalari beqiyos ahamiyatga ega. Axborotlashtirilgan jamiyatning har bir bo'g'inida axborotlar bankiga murojaat qilinadi va shu asosda zamonaviy ta'lim texnologiyalari yaratiladi va ta'lim-tarbiya jarayondarini optimal boshqarish imkoniyati vujudga keladi.

Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan jamiyatimizning hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy siyosiy o'zgarishlarga e'tibor berar ekanmiz, xozirgi kunda tobora avj olib borayotgan, mamlakat taqdiriga bevosita dahldor bo'lgan masalalardan biri, ya'ni aholini axborot psixologik hurujlardan himoya qilish masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida baholanmokda.

Axborot psixologik hurujlar bugungi kunda insonning o'zligiga va kelajagiga tahdid solayotgan vositalardan biri ekan, albatta, bunda ana shu hurujlardan himoyalaniish yo'llari, usullari ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hayot sur'atlari juda ham tezkor darajada ilgarilab ketayotgan bir davrda yashamokdamizki, bunday vaziyatda, albatta, jamiyat a'zolarini atrofda bo'layotgan voqea hodisalarga nisbatan xushyor, e'tiborli, mavjud shart-sharoitlarga nisbatan xolis, mantiqan to'g'ri va aniq baho bera olish qobiliyatlarini shakllantirish tahdidlarga qarshi kurashishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlab o'tganlaridek: «Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi xarakterlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgaridagidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas» [4, 112-b.].

Yukoridagi fikrlari o'z o'zidan globallashuv jarayonlari avj olib borayotgan bir pallada

axborot olamini juda ham katta kuchga ega ekanligidan dalolat beradiki, bunda kuchli ma'naviyat va ma'rifatga ega barkamol avlodni tarbiyalash har qachongidan ham dolzarbligini ko'rsatadi, desak, mublag'a bo'lmaydi. Xo'sh, mamlakatning axborot xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy maqsadlari sifatida nimani ko'rsatishimiz mumkin? Bular: ko'pgina axborot jarayonlarining tabora ortib borayotgan globallashuvi, jahon axborot tarmoqlarining shakllanishi, rivojlangan mamlakatlarning axborot makonida domenantlikka ishtilishi sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilish; davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilot, korxonalar ham fuqarolarning faoliyatlari uchun zarur bo'lgan axborotni to'liq va hech bir to'siqlarsiz olishlari uchun imkoniyatlar yaratish; fuqaro, tashkilotlar va davlatning axborotini olish, tarqatish hamda foydalanish bo'yicha huquqlarini amaliy ishlashini ta'minlash; axborot resurslarining yaxlitligi, saqlanishining buzilish va noqonuniy foydalanishining oldini olish va boshqalardir.

Yaqin kelajakda globallashuv jarayonining yanada kengayib borishi oqibatida jahon mamlakatlarining informatsion hayot tarziga o'tishi bilan ushbu masala yanada dolzarb tus olishi muqarrar. Ushbu masalani ijobiy hal etish uchun bir qator chora-tadbirlar qilinishi zarur. Xususan, shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlovchi kuchli qonunchilik asosini yaratish, ularni amaliyotda ishlash mexanizmlarini va axborot hurujlariga qarshi tura oladigan huquqiy asoslarni shakllantirish, davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida axborot havfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus tadbirlarni o'tkazish lozim. Shuningdek, yoshlarda axborot bilan ishlash madaniyatini oshirish, ularda axborot olish, uni qayta ishlash, saqlash kabi malakalarini oshirish uchun kuchli, mahsus bilim hosil qilish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, internetning ta'lim sohasiga kirishi va uni ta'lim jarayonida qo'llanilishi uchun, albatta, yoshlarimiz ongida ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirishimiz lozim. Ayniqsa, pedagoglar o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda quyidagi jihatlarni hisobga olishlari lozim: o'quvchilarni internet saytidan fanlarga oid manbalarni olish, o'rganish, tahlil qilish, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga texnologik yo'naltirish; o'quvchilarni ommaviy axborot vositalari materiallarini o'qish, o'rganish va ularni amalda qo'llashda samarali foydalanishlari uchun ularni ruhiy jihatdan tayyorlash, yo'naltirish; ommaviy axborot vositalari materiallarini to'g'ri idrok etishlari uchun tushuntirishlar olib borish; o'quvchilarda ommaviy axborot vositalari materiallariga nisbatan to'g'ri ijobiy munosabatni ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy dunyoqarashni tarkib toptirish; ota-onalar ham yoshlarga oilaviy tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalari materiallarini to'g'ri tahlil qilib, erkin mustaqil fikrlovchi sifatidagi ko'nikmalarni shakllantirib borishlari lozim.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.
2. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари: Рисола. - Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
3. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: состояния и возможности психологической защиты. - М.: ПАГС, 1998.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ART-DIZAYNGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Doniyorova Shahnoza Erkinovna, JDFU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Talabalarga kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning samarali metodlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: art-dizayn, bo'lajak dizayner-pedagoglar, loyihalash, chizmalar, ijod qilish, pedagogik dizayn, ijodiy-kreativ, kreativlik, mantiqiy-kreativ, ilustrativ materiallar.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ДИЗАЙНЕРСКИХ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Дониерова Шахноза Эркиновна, соискатель ДжГПУ

Аннотация. Освещены эффективные методы формирования знаний об арт-дизайне будущих учителей, основанные на творческом подходе к учащимся.

Ключевые слова: арт-дизайн, будущие дизайнеры-педагоги, дизайн, рисунки, творчество, педагогический дизайн, креативно-творческое, творчество, логико-творческое, иллюстративные материалы.

EFFECTIVE METHODS OF DEVELOPING ART-DESIGN KNOWLEDGE OF FUTURE TEACHERS BASED ON CREATIVE APPROACH

Doniyorova Shahnoza Erkinovna, JDFU independent researcher

Abstract. Effective methods of developing the knowledge of art-design of future teachers based on a creative approach to students are covered.

Key words: art-design, future designer-pedagogues, design, drawings, creation, pedagogical design, creative-creative, creativity, logical-creative, illustrative materials.

Kirish. Bo'lajak dizayner-pedagoglarga taqdim etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan o'quv materiallariga besh bosqichda ishlov beriladi. O'quv materiallarini loyihalash jarayoni bir qancha parametrlar asosida amalga oshiriladi. Bunda, asosan, dizayn kursi doirasida taqdim etiladigan bilimlarga e'tibor qaratish lozim. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak dizayner-pedagoglarning mantiqiy-kreativ fikrlash layoqatini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallarini tizimli tarzda taqdim etish nazarda tutiladi. Bunda bilimlarni taqdim etish jarayoni aniq ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi.

Asosiy qism. O'quv materiallarini guruhlash aniq metodlar, topshiriqlar va ularning yechimini o'z ichiga oladi. Dizayn darslarida mukammal ishlab chiqilgan modellardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday darslarni amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan barcha materiallar besh bosqichda takomillashtiriladi.

O'quv materiallarini tahlil qilish. Bu o'quv materiallariga ishlov berishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Mazkur jarayonda tayanch qismlar ajratib olinadi. Bo'lajak dizayner-pedagoglarning ehtiyojlari va professor-o'qituvchilarning vazifalari belgilanadi. Ta'lim maqsadlari aniqlanadi. Auditoriyadagi talabalarning faoliyati, ular bilan amalga oshirilgan ishlar baholanadi. Shu bilan bir qatorda, kutiladigan natijalar ham aniqlanadi. Mazkur bosqichning samaradorligini aniqlash maqsadida bir necha bosqichlarda rivojlanish nazarda tutiladi. Bunda dizaynga oid tayanch bilimlarini nazarda tutgan holda topshiriqlar

tizimi shakllantiriladi. Batafsil ishlab chiqilgan maqsadlar dizayn kursini o'qitish metodikasini ishlab chiqish imkonini beradi. O'quv jarayoni mazmunini interaktiv materiallar va samarali metodikalar bilan boyitiladi. Shu bilan bir qatorda, professor-o'qituvchilar o'quv jarayoni samaradorligi jarayonini aniqlash metodikalarini ham qo'llaydilar. Taqdim etiladigan bilimlarni aniq belgilab olish o'quv topshiriqlari mazmunini maqsadga muvofiq tarzda aniqlash imkonini beradi. Bu topshiriqlar o'z ichiga nazorat topshiriqlari, yakuniy topshiriqlar va ularni qo'llash usullarini qamrab oladi.

Yaratiladigan ijod namunalarini loyihalash. Bu dizayner-pedagoglarni kasbiy tayyorlashga yo'naltirilgan keng va talabalarni ijodiy-kreativ tomonlama rivojlantiruvchi bosqichi hisoblanadi. Mazkur vaziyatda barcha xulosalarni hisobga olish, to'plangan materiallar va ishlab chiqilgan rejalarni tahlil qilish, chizmalar, mashqlar va baholovchi holatlarni shakllantirish, ichki va umumiy dizaynlarni aniqlash, loyihaning qat'iy yechimlarini talab qiladigan qismlarini ajratish nazarda tutiladi. Shu asosda loyihaning bir qator nusxalari, ssenariysi yaratiladi. Har bir elementga birinchi bosqichdagi topshiriqlarning ko'rsatadigan ta'siri aniqlanadi. Barcha topshiriqlarni kreativ yondashuvga asoslangan holda bajarish nazarda tutiladi. Mazkur loyihaning o'zi ham bir necha qismlarga bo'linadi: o'quv vositalarini tanlash. Bu o'rinda ham auditoriyadagi talabalarning faoliyatini tahlil qilish amalga oshiriladi. O'qitishning nazarada tutilgan shakllari va shart-sharoitlari belgilab olinadi. Materiallarning mazmuni va ularni namoyish qilishda qo'llaniladigan metodlar aniqlanadi. Shundan keyingina o'quv topshiriqlarini yechish va bu jarayonda qo'llaniladigan metodlarni aniqlashga kirishiladi. Talabalarda barcha topshiriqlarni yechishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar hosil qilinadi. Chizmalardan foydalanish rejasi yoki ssenariysi tuziladi. O'quv materiallari qo'llaniladigan texnik vositalar ajratib olinadi. Loyihaning turli qismlarini ifodalovchi maketlar tayyorlanadi. Har bir elementning tavsifi va unga beriladigan ekspert baholar aks ettiriladi. Mazkur jaryonning asosiy jihati o'quv kursiga qo'yiladigan texnik talablarning aniqlanishidir. O'quv materiallarining tajriba jarayonida qo'llaniladigan shakllarini tayyorlash. Loyiha uchun zarur bo'ladigan ilustrativ materiallarni tanlash hamda tayyorlash, animatsion hamda interaktiv materiallarga o'rin ajratish, audio hamda video vositalarni ishlab chiqishga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda alohida, maromiga yetmagan jihatlar ham ko'zga tashlanadi. Bunday o'rinlarni aniqlash natijasida ishlab chiqilgan ssenariyga o'zgartirishlar kiritiladi. O'quv materiallari ustida ishlash va ulardagi kamchiliklarni baholash. Bunda o'quv topshiriqlarining ishlab chiqiladigan loyiha mazmuniga to'liq mos kelishini aniqlashga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, modellarning sifat jihatdan ustun tomonlari aniqlanadi. Loyihaning ustuvor jihatlarini aniqlash maqsadida «Fikriy hujum» metodidan foydalaniladi. Yaratilgan mahsulotning kuchli va zaif tomonlari shu yo'sinda aniqlab olinadi.

Loyihani ishlab chiqish. Har qanday loyihaning asosiy texnik jarayoni mavjud loyihaning umumiy tarkibida barcha elementlar o'z o'rniga ega bo'ladi. Shu tariqa loyiha tarkibiga yangi elementlar kiritiladi va ular orasidagi o'zaro aloqadorlik ta'minlanadi. Bu o'rinda bo'lajak dizayner-o'qituvchilar loyihaning asosiy jihatlarini bayon qilishga ko'maklashadigan metodlarni tanlay olishlari muhim ahamiyatga ega. Loyihaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda uning shakllari va metodlarini har tomonlama chuqur tahlil qilish va bayon etish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda loyihaning barcha elementlari o'z joyini egallaydi. Eng samarali mashq va topshiriqlar aniqlab olinadi. Loyihani ishlab chiqish bosqichi murakkab bosqich hisoblanadi. Loyihani bajarish jarayonida muayyan metodlar uning ma'naviy sifatlariga egaligini tasdiqlaydilar.

Loyihani tadbiq etish. Ushbu bosqichda dizayn kursi o'quv jarayonini o'zaro muvofiq keladigan tizimlar yordamida boshqarish metodikasi bilan boyitiladi. Uning yordamida talabalar o'quv materiallarini o'rganish uchun qulay vaziyatga ega bo'ladilar. Shunga ko'ra, mazkur bosqich talabalarning kasbiy rivojlantirishga ko'maklashadi. Mazkur bosqichda o'quv materiallarining bo'lajak dizayner-pedagoglarning amaliy faoliyatida qo'llanilganlik darajasi baholanadi. Ushbu o'rinda bo'lajak dizayner-pedagoglar uchun tanlangan didaktik kursga nisbatan yondashuv baholanadi. Topshiriqlarning samarali bajarilganligi haqidagi dastlabki natijalar aniqlanadi va umumlashtiriladi. Professor-o'qituvchilar bilan bo'lajak dizayner-pedagoglar orasida hamkorlikka asoslangan munosabatlar shakllantiriladi. Bu esa, o'quv kursini o'zlashtirishga xizmat qiladigan yo'riqnomalar uchun materiallar to'plash imkoniyatini vujudga keltiradi.

Loyihaning amalga oshirilganligini baholash bosqichi. Dastlabki axborotlarni to'plab, umumlashtirgandan keyin o'quv kursini samardorligini baholashga kirishiladi. Bunda topshiriqlar bilan olingan natijalarning o'zaro muvofiqligi aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak dizayner-pedagoglar foydalangan o'quv materiallari ham baholanadi. O'quv materiallari umumiy vazifalarga mos kelgandagina topshiriqlarning bajarilganlik darajasini baholash mumkin. Shu asosda o'quv kursining mazmuniga ishlov beriladi. Mazkur bosqich o'quv kursi yoki uning alohida bloklarini yangilashga bo'lgan talablarni ham qamrab oladi.

Xulosa. Pedagogik dizayn – yaxlit tarzda tahlil jarayoni bo'lib, ta'limiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida bilimlarni taqdim etish tizimi ifodalaydi. Mazkur tizimda bo'lajak o'qituvchilarni dizaynga oid bilimlar bilan qurollantirish amalga oshiriladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning dizaynga oid bilimlarni tizim tarzda o'zlashtirish, muammolarni anglash, mazkur muammolarga yechim topish uchun qo'llaniladigan faoliyat usullarini aniqlash va uni amalga oshirishdan iborat o'quv harakatlarini qamrab oladi. Pedagogik dizayn shunday o'quv fanki, unda samarali, qulay usullar yordamida bo'lajak o'qituvchilarga bilimlar taqdim etiladi. Pedagogik usullar va metodlardan pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilar samarali foydalanish natijasida o'quvchilarda dizaynerlik faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otadilar va ushbu yo'nalishdagi pedagogik mahorat sirlarini o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Климова Л.Н. Арт-дизайн в дизайн-педагогике Московского колледжа // Арт-дизайн: структура, содержание и перспективы развития специализации: Сборник научных трудов. - Екатеринбург, 2009. - С. 71-75.

2. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: Monografiya. - T.: Fan va texnologiya, 2017.

3. Safarova R., Abdullaeva B. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. - T.: RTM, 2014.

4. Шарипов Ш.С. Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов труда и профессионального образования): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Т., 2000.

5. Nishonaliyev U.N., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi: O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2007. - 374 b

6. Nishonova Z.T. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalq ta'limi. - T., 2001.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xujayarova Nafisa Sultonmurodovna, QarDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika, ta'limni axborotlashtirish, informatika va axborot texnologiyalari, psixologiya va falsafaga oid zamonaviy adabiyotlarda kompetensiya tushunchasiga nazariy va uslubiy yondashuvlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: kompetensiya, ta'lim, bo'lajak mutaxassis.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

Хужаярова Нафиса Султанмуродовна, преподаватель КарГУ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические подходы к понятию компетентности в современной литературе по педагогике, информатизации образования, информатике и информационным технологиям, психологии и философии.

Ключевые слова: компетенция, образование, будущий специалист.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON A CREATIVE APPROACH

Khujayarova Nafisa Sultanmurodovna, teacher of QarDU

Abstract. This article covers theoretical and methodological approaches to the concept of competence in modern literature on pedagogy, informatization of education, computer science and information technology, psychology and philosophy.

Key words: competence, education, future specialist.

Kirish. Jahon oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muaccacalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, talabalarda mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion salohiyati va kasbiy ijodkorligini rivojlantirish, ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlik tamoyillarini modellashtirish, o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishda aralash ta'lim Blended Learning texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifati hamda malakasini uzluksiz oshirish bo'yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yildi. Bu borada ijodiy kompetentlikni shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, lokal modulli texnologiyalarni tatbiq etish, ijodkorlikni baholash mezonlari va parametrlarini aniqlashtirishning prognostik modellarini tatbiq etishning meyoriy asoslari ishlab chiqildi. Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muaccacalari talabalarini kreativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, pedagogik jarayonning mazmuni, rivojlantirish mezonlari va shakllanish darajalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. «Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari

imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» [1] ustuvor vazifa etib belgilandi. Bunda har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning acociy talablarini hal etishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiya muammosi «Ta'limning ma'lum natijasi» sifatida birinchi marta 2001 yilda «Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish strategiyasi» materiallarida taqdim etilgan. Ular «xorijiy va mahalliy adabiyotlarda kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lgan kompetentlik/kompetensiya muammosining rivojlanish tarixini ko'rib chiqdilar. Buni mualliflar guruhi I.A.Zimnyayaning XI simpoziumda taqdim etilgan "Ta'limda kvalimetriya: metodologiya, usullar, amaliyot», «Ta'lim tizimining turli darajalarida asosiy ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish (deskriptor xususiyatlari)» ma'ruzasi tasdiqlaydi [2]. O.E.Lebedev «Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmui» deb ta'riflaydi [3, 3-b.]. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammosi (N.V.Kuzmina, A.K.Markova, J.Raven, R.Uayt, N.Xomskiy va boshqalar)ga oid ishlarni tahlil qilish asosida uning ta'limda shakllanishida uch bosqichni ajratish mumkin: Birinchi bosqich – kompetensiyaga asoslangan yondashuvning rivojlanishi 1960-1970 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda «kompetensiya» tushunchasi ilmiy apparatga N.Xomskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, kompetentlik va kompetensiya ta'riflarini farqlash shartlari belgilangan edi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishning ikkinchi bosqichida (1970-1990) til o'rgatish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruvchi kasbiy mahorat, yetakchilik va boshqaruv sohalarida «kompetentlik» va «kompetensiya» atamalaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Bu davrda «ijtimoiy kompetensiyalar/kompetentlik» tushunchasining mazmuni ishlab chiqila boshlandi. J.Raven o'z tadqiqotida kompetentlik va uning turlarini talqin qiladi, keyinchalik bu kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Uning «Zamonaviy jamiyatdagi kompetentlik» asarida kompetentlik «ijtimoiy ahamiyatga ega sohadagi hayotiy muvaffaqiyat» deb talqin qilinadi [4]. Muallif o'z asarida kompetensiyalarning 39 turini ko'rib chiqadi va ularni «motivatsiyalangan qobiliyatlar» bilan belgilaydi. Ushbu ish butun dunyoda, shu jumladan, mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda kompetentlik tushunchasi va turlarini talqin qilish muammosi bo'yicha faol ish uchun turtki bo'ldi. J.Raven kompetensiya darajasi va inson faoliyati natijasi o'rtasidagi munosabatga ishora qiladi. Muallifning fikriga ko'ra, kompetensiya shaxsning faoliyatning turli tarkibiy qismlarini qulay tarzda amalga oshirish va muhim natijaga erishish uchun birlashtirish qobiliyatidir. Kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: hodisalar va vaziyatlarni tahlil qilish, oldingi tajribaga tayanish, keyingi to'siqlarni ko'rish, faol bo'lish, yetakchilik va rahbarlik qilish qobiliyati. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya bir-biridan nisbatan mustaqil bo'lgan komponentlar yig'indisidan iborat bo'lib, shaxsning o'ziga xos «yuqori subyekt» xususiyatini tashkil qiladi. Bu xususiyat insonning turli faoliyatida turlicha namoyon bo'lishi mumkin. J.Raven o'z asarida har qanday kasbiy faoliyatda shaxsga zarur bo'lgan bir qator fazilatlarni ajratib ko'rsatadi: mustaqil ishlash qobiliyati; mas'uliyatni o'z zimmasiga olish; tashabbus; muammolarni ko'rish va ularni hal qilishga tayyorlik; yangi vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati; hamkorlik qilish qobiliyati; bilimlarni mustaqil egallash qobiliyati; asoslangan qarorlar qabul qilish [4]. Aslida, J.Raven ushbu konsepsiyadan foydalanmasdan asosiy kompetensiyalardan foydalanadi. Uchinchi bosqichda ta'lim sohasidagi kompetensiyaning ilmiy konsepsiyasi o'rganilmoqda. YUNESKO hujjatlari va materiallarida barcha tomonidan ta'limning kutilayotgan natijasi sifatida qabul qilinadigan kompetensiyalar ro'yxati mavjud.

1990 yildan boshlab A.K.Markova asarlarida kasbiy kompetensiya mehnat psixologiyasi kontekstida ko'rib chiqila boshlaydi. L.M.Mitina, o'z navbatida, pedagogik kompetensiyani o'rganib chiqdi, shundan kelib chiqadiki, u bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidan,

shuningdek, ulami o'qitish, muloqot qilish va takomillashtirishda qo'llash usullari va vositalaridan iborat [5]. D.A.Maxotin va Y.V.Frolov asarlarida pedagogik kompetensiyaning faolligi va kommunikativ tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatib, «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Ularning fikricha, kompetensiya talaba qaysi fan bo'yicha yaxshi ma'lumotga ega bo'lganligi va u o'qishga tayyor bo'lganligi bilan belgilanadi. Mualliflar kompetentlikni talabaning fazilatlarini birlashtirish sifatida ko'rib chiqadilar [6]. «Ta'limning umumiy mazmunini modernizatsiya qilish strategiyasi»ga ko'ra, «kompetentlik» tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: xulq-atvor, kognitiv, operatsion, texnologik, motivatsion, ijtimoiy va axloqiy komponentlar, ta'lim natijalari va boshqalar. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga bag'ishlangan ishlar va materiallarda «kompetentlik» tushunchasining umumiy qabul qilingan aniq ta'rif mavjud emas. Bundan tashqari, pedagogika fanida talabalarning «kompetensiyalari»ni izohlash bilan bog'liq masalalar hali ham muhokama qilinmoqda. Oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlari sxemalarida kompetensiya «ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va amaliy tajribani qo'llash qobiliyati» sifatida belgilanadi. Pedagogik kontekst – bilim, ko'nikma va malakalarda namoyon bo'ladigan shaxsiy fazilatlar yig'indisidir. Boshqacha qilib aytganda, «kompetensiya» ostida kimningdir bilim va tajribaga ega bo'lgan masalalar doirasini ko'rib chiqish kerak bo'ladi; bu bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llashning ijodiy va samarali namoyon bo'lishi, tezkor harakat qilish va kerakli natijaga erishish imkonini beradi. Shunday qilib, «kompetensiya» deganda, biz o'zimizning kasbiy faoliyatimizni ta'minlash imkonini beruvchi oliygohda shakllangan bilim, ko'nikma va harakat usullari majmui sifatida tushuniladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy elementi asosiy kompetensiyalar asosida ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangilashdan iborat: «Umumta'lim maktabi umuminsoniy bilim, ko'nikma va malakalarning yangi tizimini, shuningdek, talabalarning mustaqil faoliyati va shaxsiy mas'uliyati tajribasi, ya'ni zamonaviy asosiy kompetensiyalarni shakllantirishi kerak». A.V.Xutorskoy kompetensiyalarni mazmuniga ko'ra - asosiy, umumiy fan va fan kompetensiyalariga ajratishni taklif qiladi. U talaba faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha asosiy kompetensiyalarni ajratib ko'rsatadi, bu unga to'plangan ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga, zamonaviy jamiyatda hayotning amaliy ko'nikmalarini egallashga imkon beradi. Tadqiqotchi yettita asosiy kompetensiyani aniqladi: «1) qiymat-semantik; 2) umumiy madaniy; 3) tarbiyaviy va kognitiv; 4) axborot; 5) kommunikativ; 6) ijtimoiy-mehnat; 7) shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi» [7].

Obyektiv xarakterga ega bo'lgan va asosan maktab ta'limi bosqichida shakllanadigan asosiy kompetensiyalar oliy o'quv yurti bitiruvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni belgilaydigan kasbiy yo'nalish kompetensiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy kompetensiya muammosiga u yoki bu darajada taniqli jamoat arboblari, faylasuflar, tarixchilar, o'tmish o'qituvchilari e'tibor berishgan va hozirda taniqli nazariyotchilar va ta'lim amaliyotchilari tomonidan o'rganilmoqda. Bu davrda kompetensiya fenomeni pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, akmeologiya nuqtai nazaridan tavsiflanadi, uning uslubiy imkoniyatlari cheklangan va tushunchaning to'liqligini ochib bermaydi. Kasbiy kompetensiya tushunchasini va uning asosiy tarkibiy qismlarini batafsilroq tahlil qilaylik. Olimlar tomonidan «kompetensiya» tushunchasining mohiyatini ochib berish bo'yicha hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan bir nechta yondashuvlarni tahlil qilamiz. Turli tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida bu tushuncha turlicha talqin qilinadi. Kompetensiya – ma'lum bir sohada bilim, ko'nikma, tajriba yoki ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'lgan malakalar majmuiga ega bo'lishdir. Ta'rif kompetensiya tarkibini ko'rsatadi, lekin uning elementlari o'rtasidagi tizimli munosabatlarni hisobga olmaydi.

Kompetensiya – xodimning o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif o'qituvchi kompetensiyasi tarkibini aniqlash va tekshirish uchun yetarli darajada to'liq va aniq emas. Kompetensiya – bu xodimning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini o'z

ichiga olgan, unga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish imkonini beradigan, o'z mutaxassisligidan jarayonni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanish qobiliyatini o'z ichiga olgan har tomonlama ta'limdir. Bu ta'rif, bizning fikrimizcha, ko'proq «professionallik» tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, undan kompetensiya shaxsiy motivatsiya va hissiy-irodaviy komponentning mavjudligi bilan farqlanadi. K.J.Risqulovning fikriga ko'ra, «kompetensiya – turli kasb egalariga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlarni, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlarni, shuningdek, shaxsning axloqiy meyorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa, shaxsning amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya meyorlarini ijodiy yondashuv asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezonlari samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi» [8, 70-b.]. I.N.Ilxamova [9, 78-b.] kompetensiyani ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga to'xtalib, u xalqaro tilshunoslik, ijtimoiy-lingvistik va madaniyatshunoslik kompetensiyalarini o'z ichiga oladi, deb hisoblaydi. Kompetensiya – bu ma'lum sohada samarali ishlash uchun zarur bo'lgan va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shaxsning turli layoqatlari va hususiyatlarining yig'indisidir. Kasbiy kompetensiyani konseptual apparatga e'tibor qaratgan holda, turli xil formulalarni qayd etish mumkin, ammo kompetensiya tarkibida mualliflar bir ovozdan 3 komponentni (darajani) ajratib ko'rsatishadi: nazariy, amaliy va shaxsiy. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasining tuzilishini hisobga oladigan bo'lsak, tadqiqotchilar umumiy fikrga ega emaslar. V.A.Slastenin «Kasbiy kompetensiya tushunchasi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi», – deb hisoblagan [10]. I.F.Isayev va V.I.Vorotilovning birgalikdagi fikricha, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi – bu tayyorgarlikni belgilaydigan pedagogik mahoratga asoslanadi. Tayyorlikning ikki turi mavjud: nazariy – u analitik, prognostik va mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishni o'z ichiga oladi va amaliy – tashkilotchilik va muloqot qobiliyatlarini o'z ichiga oladi [11]. Kasbiy kompetensiya – psixologik-pedagogik va uslubiy kompetensiyadan iborat. Zamonaviy jamiyat talaba va o'ziga nisbatan shaxsiy va insonparvarlik pozitsiyasini egallashga qodir, talaba shaxsini rivojlantirishni maqsad qilgan, ijodkorlik qobiliyatiga ega, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'zini o'zi tarbiyalashga intiladigan o'qituvchilarga muhtoj. Shuning uchun o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetensiyasini oshirish muammosi dolzarbdir. Hozirgi vaqtda ushbu kompetensiyani tuzilishi bo'yicha kelishuv mavjud emas. N.N.Lobanova uni shaxsning tizimli mulki sifatida tavsiflab, uchta komponentni ajratib ko'rsatadi: kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat va kasbiy-shaxsiy. Kasbiy ta'lim (asosiy) – kishi shaxsini o'rganadigan fanlar asoslari bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish. Kasbiy faoliyat – amaliyotda sinovdan o'tgan va shaxs tomonidan eng samarali deb belgilangan kasbiy bilim va ko'nikmalar. Kasbiy-shaxsiy – o'qituvchining shaxs, shaxs va faoliyat subyekti sifatidagi pozitsiyasi va yo'nalishini belgilaydigan shaxsiy fazilatlar [12]. Turli xil yondashuvlarga qaramay, mualliflar kompetensiya tarkibida nazariy, amaliy va shaxsiy darajalar (komponentlar) mavjudligiga qo'shiladilar. Uslubiy kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: bilimlarni o'zlashtirish yo'llarini bilish, o'quv jarayonida didaktik usul va vositalarni qo'llash qobiliyati. Uslubiy kompetensiya quyidagilar bilan ifodalanadi: motivatsion-shaxsiy, predmet-mazmun, nazariy-uslubiy va operativ-faoliyat (nazariy va amaliy komponentlarning birligi) komponentlar. Amaliy komponent uslubiy kompetensiyalar bilan ifodalanadi: gnoseologik, loyihalash, o'qitish, diagnostik, tadqiqot. Keling, ushbu kompetensiyalarni tavsiflaymiz. Gnoseologik kompetensiya kasbiy bilimlarning ikki tomonlama birligini nazarda tutadi. Bir tomondan, ular o'qituvchi asoslarini o'rgatadigan fanga, ikkinchi tomondan, talabalarga qaratilgan. O'qituvchining pedagogik bilimlarining butun tizimi har bir alohida pedagogik muammoni hal qilishdan iborat. O'qituvchiga biron bir manbadan kelgan ma'lumot hech qachon topilgan shaklda ishlatilmaydi. Uni talabalarga taqdim etish uchun ixchamlashtirish kerak: tuzilishi, tizimlashtirilishi, asosiy narsani ta'kidlash va zamonaviy AKT texnologiyalari yordamida qayta ishlash. Jadval, diagramma, grafik va h.k. ko'rinishdagi axborotlarning yig'ima shakli pedagogik vazifa bilan belgilanadi. Loyihalash kompetensiyasi o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini loyihalashtirish, darsning ish dasturini, eslatmalarini va texnologik xaritalarini tuzishdan iborat. O'qitish

kompetensiyasi o'quv jarayonini amaliy amalga oshirishni nazarda tutadi. Mashg'ulotning to'g'ri usullari va vositalarini tanlash muhimdir. Diagnostik kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quv faoliyati natijalarini baholash, ularning ta'lim standartlari va tanlangan dasturda mustahkamlangan kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan meyoriy talablarga muvofiqligini aniqlash. Tadqiqot kompetensiyasi ilmiy va uslubiy tadqiqot usullarini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Masalan, umumta'lim muassasalaridagi ilmiy-tadqiqot faoliyati ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalaridagidan farq qiladi.

Maxsus kasbiy kompetensiyalar mazmunini tahlil qilgandan so'ng, biz kasbiy kompetensiyani shakllantirishning quyidagi usullarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: o'z tajribasini umumlashtirish va to'plash (uslubiy birlashmalar, seminarlar, mahorat darslari, konferensiyalar ishida ishtirok etish); pedagogik mahorat tanlovlarida ishtirok etish; tadqiqot va eksperimental faoliyat, shu jumladan, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq; kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Xulosa. Amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyat turlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyasining bir qismi sifatida o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab kompetensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin, masalan, o'quv, tashkiliy, uslubiy, ilmiy, AKT kompetensiyasi, o'z-o'zini tarbiyalash kompetensiyasi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харақатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Халқ сўзи. - Т., 2017. - 8 февраль. - 28 (6722)-сон.

2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - М., 2003. - № 5. - С. 34-42.

3. Лебедев О.Е. Компетентный подход в образовании // Школьные технологии. - М., 2004. - № 5.

4. Равен Д. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. - М.: Когито-Центр, 2002. - 396 с.

5. Митина Л.М. Управлять или подавлять: выбор стратегии профессиональной жизнедеятельности педагога. - М., 1999.

6. Фролов Ю.В., Махотин Д.А. Компетентная модель как основа оценки качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. - М., 2004. - № 8.

7. Хуторской А.В. Современная дидактика: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2001.

8. Riskulova K.J. Ingliz tili ўқитувчиси социолингвистик компетенцияси ва унинг ўзига хос хусусиятлари // Филология масалалари. - Т., 2016. - 4-сон.

9. Илхамова И.Н. Нофилологик таълим йўналишидаги талабаларнинг ижтимоий-маданий компетентлиги контекстида нутқ кўникмаларини такомиллаштириш: Пед. фанл. д-ри (PhD) ... дис. Автореф. - Т., 2019.

10. Сластенин В.А. Профессионализм педагога: акмеологический контекст // Педагогическое образование и наука. - М., 2002. - № 4. - С. 4-10.

11. Исаев В.А., Воротилов В.И., Ковальчук О.В. Образование взрослых: компетентный подход // Взаимодействие личности, общества и образования в современных социокультурных условиях: Межвузовский сборник научных трудов. - СПб.: ЛОИ-РО, 2005. - С. 230-233.

12. Лобанова Н.Н., Косарев В.В., Крючатов А.П. Профессиональная компетентность педагога. - Самара: РАО, СПб. ин-т образования взрослых РАО, Самар. экон. Лицей, ОАО "СамВен", 1997. - 107 с.

**SHARQ ALLOMALARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDA
O'SMIR-QIZLAR TARBIIYASINING O'RNI**

Qo'chqorova Oysha Oltiboyevna, SamDTU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharqda pedagog olimlari asrlar davomida bola tarbiyasiga, ma'naviy-axloqiy qarashlariga katta e'tibor berganligi haqida fikr yuritiladi. Insoniyat o'z xatti-harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq-axloq qoidasi haqida gap boradi.

Tayanch so'zlar: *axloq, odob, ma'rifat, bola, tarbiya, milliy, qadriyat, oilab, samiyimiylik, xalq, avlod.*

**РОЛЬ ВОСПИТАНИЯ ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ
ВОЗЗРЕНИЯХ УЧЁНЫХ ВОСТОКА**

Кучкорова Ойша Олтибоевна, преподаватель СамГМУ

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что ученые-педагоги Востока на протяжении веков уделяли большое внимание воспитанию детей, их духовно-нравственным взглядам. Сосредоточены направления человеческого поведения, важнейшие черты человечества в деятельности личности, в ее совершенстве, речь идет о принципе нравственности.

Ключевые слова: *нравственность, порядочность, просвещение, ребенок, воспитание, национальное, ценность, семья, искренность, народ, поколение.*

**THE ROLE OF EDUCATION OF ADOLESCENT GIRLS IN THE SPIRITUAL AND
MORAL VIEWS OF THE SCHOLARS OF THE EAST**

Qo'chqorova Oysha Oltiboyevna, teacher in of SamSMU

Abstract. This article discusses the fact that pedagogical scholars in the East for centuries have paid great attention to the upbringing of children, their spiritual and moral views. The directions of human behavior, the most important features of humanity are concentrated, and in the activity of the individual, in his perfection, it is a question of the principle of morality.

Key words: *morality, decency, education, child, upbringing, national, value, family, sincerity, people, generation.*

Kirish. Ma'lumki, o'zbek xalqining bir necha ming yillar davomida yaratgan, avaylab-asrab kelayotgan axloq odob durdonalarini, boy qadimiy me'rosini, milliy qadriyatlarimiz yutuqlarini o'rganish va unga amal qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, faxrimiz bo'lgan Sharq allomalarimiz Kaykovus, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabi jahonga mashhur ma'rifatparvar shoir va yozuvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ular naql qilgan rivoyatlari yosh avlodlarimiz uchun axloq-odob sabog'idir.

Asosiy qism. Sharqda pedagog olimlari asrlar davomida bola tarbiyasiga, ma'naviy-axloqiy qarashlariga katta e'tibor berganlar. Bu tarbiya masalalari Sharq olimlari tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, mashhur hind masali «Kalila va Dimna», Nizomul Mulkning «Sayohatnoma», Nosir Hisravning «Saodatnoma», «Ro'shnonoma», Yusuf Xos Hojibning, «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbubul qulub»,

«Vaqfiya», Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yog'ud axloq» kabi asarlari shular jumlasidandir. Ma'lumki, insoniyat o'z xatti-harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq-axloq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Imom Al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to'rt hislatni Oллоh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir» [1, 94-b.], – deb yozadi. Diqqat qilsak, yuqoridagi e'tiroflar butun jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk allomalarning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari hech bir davrda zavol topmaganligini ko'rsatadi. Ayni paytlarda ham bu fikrlar bugungi kun talabiga mos tarzda qalamga olingan deb ham o'ylaysiz. Sharqona axloq haqida so'z borar ekan, zardo'shtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham, qadimgi turk yozma bitiklarida ham hech qachon qadr-qimmatini yo'qolmaydigan fikrlarni uchratish mumkin. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, sharqona pedagogikada, diniy-falsafiy risolalarda, allomalar meroslarida keng o'rin berilgan. Jumladan, eng qadimiy ta'limiy, axloqiy manba sifatida e'tirof etilgan «Qobusnoma» XI asrda yaratilgan bo'lib, uning muallifi Kaykovus bu asarini «sana 475 da boshladim» – deya ma'lumot beradi. U bu asarini keksayganda yozadi va o'g'liga bag'ishlaydi. «Qobusnoma» 44 bobdan iborat bo'lib, deyarli har bobida inson shaxsi, tarbiyasi borasida to'xtalib o'tadi. Ayniqsa, yoshlarning ilm o'rganish masalasiga Kaykovus alohida diqqat qiladi. Uning fikricha, ilm olish insonni har tomonlama kamol toptiradi deya e'tirof etiladi. Muallif, tarbiya borasidagi fikrlari orasida, diqqatga sazovor tomoni shundaki, u faqat o'g'il bolalardan tashqari, qiz bolalar tarbiyasiga oid fikrlari ham muhim ahamiyatga egadir. «Agar qizing bo'lsa, uni mastura doyalarga topshir, toki yaxshi parvarish qilgaylar» (qizing) katta bo'lgandan keyin muallimga topshir «Balog'atga yetgandan so'ng... unga shafqat va marhamat ko'rgazgil, chunki qiz otaning asiri bo'lur. O'g'il otasiz bo'lsa ham, u o'ziga ish topa oladi. Qiz o'jiz va bechora bo'lur. Har nimagaki ega bo'lsang, oldin qizga bergil va uning mol halini tuzatgil» [2, 72-b.], – deydi. Bu bilan muallif, qiz bolalar ham ilmumalrifatda, kasb-hunarda o'z zamonasida muhim o'rin egallashlari mumkinligiga ishora qiladi. «Qobusnoma»da o'smir-qizlarga kelajak avlodni tarbiyalovchi inson sifatida qaraydi va ularning ilmsizligi va harakatsizligi taraqqiyotni ortda qoldirilishiga sabab bo'ladi deya hisoblaydi. Shunday ekan, asarda tilgan olingan ta'limiy, tarbiyaviy mulohazalar bo'lajak onalarimizga, o'mak bo'ladigan qimmatli manba sifatida qaramoq lozim. Muallif, asarda aytilgan nazariy, ilmiy mulohazalarini hayotiy va amaliy misollar vositasida yoritib beradi. Chunki, u xalqning turmush tarzini sinchkovlik bilan kuzatgan va umumiy xulosalarini, qiziqarli bo'lishini ta'minlashda, hayotiy hikoyalar, maqollar va donishmandlarning hikmatli so'zlaridan o'rni bilan foydalangan. Har bir oilada voyaga yetayotgan farzandning ijodkori ona hisoblanadi. U farzandlar uchun o'z kuch-g'ayratini, mehri-muhabbatini ayamaydi. Ayniqsa, oilada bo'y ko'rsatayotgan qizlarning axloqli, odobli, iffatli, hayoli, sabrli, intizomli qilib tarbiyalash ona zimmasiga tushadi. Chunki, oilaviy munosabatdagi samimiylilik, oiladagi kattalarga ham, bolalarga ham ta'sir etadi, ularning rivojlanishlariga yordam beradi. Har bir oilaning azaliy o'z an'analari bo'lganidek, Sharq xalqlarining ham o'ziga xos milliy an'analari urf-odatlarini mavjud. Bu an'analari milliy va tarixiy, madaniy, ijtimoiy, umumbashariy an'analari bilan ham ma'lum ma'noda bog'liq bo'ladi. Gap oilada bola tarbiyasi haqida borar ekan, har bir farzandga xoh o'g'il bo'lsin, xoh qiz bola birinchi o'rinda ularga hunar, adab, bilim berish ota-onadan farzandga merosdir. Tarbiyaning yana biri uncha ilmu adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir» [3, 362-b.]. Buyuk shoir aytgan

fikrlar, bevosita qiz bolalarni tarbiyalashga ham daxldor bo'lib, ularni barcha ro'zgor ishlarini yuritishga o'rgatishni, odobli va bilimli bo'lishini nazarda tutadi. Yana bir muhim axloqiy masala, o'smir qizlar uchun zarur bo'lgan shirinsuxanlik madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Chunki, qiz bolaning aqli va dunyoqarashini, fikr tuyg'ularini, bilimi va o'zini tutish madaniyatini, saviyasini tafakkurini ma'lum darajada so'zda ifoda etadi. So'z, muomala madaniyati yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanadi. Muomala madaniyatida so'z aqlidan kuch, tildan ixtiyor oladi. Insonning odobi dastavval uning tilida, keyin tili orqali bilimida ko'rinadi. Oilaning ko'rki bo'lgan qiz bolaning muomala madaniyati uning did farosatidan, fahmi va odobidan darak beradi. Bu muhim axloqiy tarbiyaning e'tiborga molik jihatlaridan biridir. Muqaddas Qur'oni Karimda: "U biror kalimani so'zlay boshlar ekan, yonida uning so'zlarini taftish qiluvchi nazoratchi turadi" – degan oyat mavjud. Oyatning mazmuni shundan iboratki, og'izdan chiqayotgan har qanday so'zlar, odamlar orasida tezlik bilan o'z bahosini oladi. Shunday ekan, ayniqsa, qiz bola yoqimli, foydali zaruriy mavzularda so'zlamog'i, o'zining did va farosatini, odobini namoyon etadigan fikrlarni namoyon etilmog'i lozim.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, qiz bolaning shirin muomalasi, uning jismoniy ko'rinishini go'zallashtiradi, atrofidagilarga quvonch bag'ishlaydi. Bu ajoyib fazilatlarini o'zlashtirish, hushmuomalalik madaniyatini shakllantirishda so'z sehri katta ahamiyatga egadir. So'z sehri esa, bebaho xazina kitoblarda jamlangan. Donishmandlar kitobni, inson qo'llariga qiyoslashadi. Chunki u sizni nazorat qiladi va siz xohlagan ishni amalga oshiradi. Yana, kitoblar bilim manbai bo'lib, inson ulardan xohlagan sohaga doir ma'lumotlarni topa oladi. Eng muhimi, oldiga quygan maqsadini amalga oshirish uchun ilk qadam singari bebaho ko'makchidir va qimmatli xazinadir. Odatda balog'at yoki o'smirlik yoshidagi yigit-qizlar kitobga oshno bo'lsa, o'zlarining orzu-o'ylariga hamohang qahramonlar bilan xilvatda suhbat quradi. Bu hol har kuni kattalardan eshitadigan pandunasihatdan kuchliroq nasihatlardan ijobiy ta'sir qilganligi tajribada sinalgan. Aslida, kitob ham odam kabi turmush hodisalaridan saboq beradi va ovozsiz gapiradigan beminnat suhbatdoshdir. Ayni shu haqiqatni anglagan ajdodlarimiz kitobga mehr qo'yg'alar va sevib mutolaa qilganlar. Kitobni o'ziga yaqin oshno hisoblagan allomalar, olgan ilmlari uchun, hayotni o'rganganlari uchun, o'zlaridagi yaxshi xislatlarga ega bo'lganliklari uchun kitobdan minnatdor bo'lganlar va qimmatli oliy xaizina sifatida e'zozlaganlar. Inson uchun kitob mutolaasi, hayotida uchraydigan kishilar bilan muomala muloqot qilishga o'rgatadigan hayotiy ko'rgazmali qurol hamdir. Kitob mutoalasiga, xususan, ayollar ma'rifatida tutgan o'rni haqida Sharq allomalarining asarlarida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Tabiiyki, kitob mutolaasi, o'smir qizlarda hayo, ibo, iffat, andisha kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi va muhim tarbiyaviy vosita ekanligini uqtiradi. Alloma hakim Ibn Sino tili bilan aytganda, «Insonda doim turadurgan husn va latofat hayo ila iffatdur, hayosiz yuz jonsiz jasad kabidur». Darhaqiqat, qiz boladagi hayoni dilni ravshan qiladigan nurga qiyoslash mumkin. Yana iffat, hayo ko'proq qizlar, ayollar uchun olmosdan qimmat, injudan qadri ziynat va fazilatdir. Aynan ana shu aqidaga amal qilgan Sharq allomalari, dono xalqimiz turli hikoyat va rivoyatlarni yaratganlar. Balog'at yoshidagi qizlarga ta'lim bergan, ustozlik qilgan otinbibilar yurtimizning barcha hududida uchraydi. Ular o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, qizlarga ta'lim berishga harakat qilganlar. Hatto maxsus ta'lim maskanlari ham faoliyat olib borgan. Shu o'rinda qadimiy tariximizning yorqin sahifasini tashkil etgan, ilk xotin-qizlar madrasasi, uni bunyod etgan shaxs ham ayol kishi ekanligini tasdiqlovchi tarixiy ma'lumotlarni keltirish mumkin. Bu Surxondaryo viloyatida mavjud bo'lib, Qirq qiz qal'asi nomi bilan yuritiladi (hozirda bu ta'lim maskanining qoldiqlari saqlangan). Qirq qiz qal'asi haqida, unda o'rganilgan ilmlar,

qizlarga o'rgatilgan kasb-hunarlar xususida xalq orasida turli rivoyatlar, qissalar, hattoki dostonlar yaratilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Rivoyatlardan biri, bevosita shu kal'ada yashagan dushman hujushini qaytargan qahramon qiz Guloyim va uning qirq dugonalari haqidadir. Bu qal'a tarixi bilan bog'liq ayrim ta'limotlar manbalarda ham uchrashdi. Surxon vohasidan yetishib chiqqan mashhur alloma Yusuf Hayom ibn at-Termiziyning onalari Ummu Gulsum va uning dugonasi Binni Tanzilaning aytishicha, «Otam ibn Varoq at-Termiziy va hayotimning sururi – umr yo'ldoshim ibn Xoshimiyning padari buzrukvorlari, ya'ni qaynotam, bu qal'ani menga in'om etganlar. Undan so'ng men bu qal'aga qirqdan oshiq qizlarni turli mamlakatlardan jamlab, har biridan qirq imtihon olganman. Ularning qobiliyati va iqtidoriga qarab, qirq mavzudagi qirqta ilmni o'rgatganman. Bundan turli har xil hunarlarni, ayniqsa, ilmi befanda (bichish-tikish, otda yurish)ni o'rgatganman. Farzandim va jiyanim (akamning qizi) Ruhaydoga o'z qizimni omonatga topshirdim. Unga shu qal'a va ilmim ham oxiratgacha o'lmas ilm bo'lishini ta'minlashini buyurdim» [4, 16-17-b.], qabilidagi ma'lumotni hikoya qilib beradi. X-XI asrga kelib, Ruhaydo va Xuraydalar bu joyni avval maktab, so'ngra madrasa, bugungi kun tili bilan aytganda, ayollar akademiyasiga aylantirishgan. Qizlarga ilm berish bilan bog'liq maskanlardan yana biri, masjid-madrasa Buxoro viloyatining Jondor tumanida joylashgan. U ham ma'rifatparvar ayol tomonidan barpo etilgan bo'lib, u ham «Qirq qiz» nomi bilan yuritiladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Sharqda millatning taraqqiyoti xotin-qizlarning ma'rifatida, ilmiy dunyoqarashida, ma'naviyati va mafkurasida ekanligini, shuningdek, kelajakning, millatning tayyanch onalari ekanligini tasdiqlab turibdi. Yana, kelajak avlodni aqlli, tarbiyali, yaxshi xulq va sog'lom e'tiqod egalari bo'lishlarida ham ko'proq onalar xizmatiga bog'liq ekanligini avlodlarimiz teran anglaganlar. Shu boisdan, qizlarni o'smir yoshidan tarbiyasiga e'tibor berganlar, ilmi bo'lishlari uchun, kitob o'qishga da'vat etganlar. Darhaqiqat, millatni xor va taraqqiyotdan ortda qoldiradigan narsa onalarning ilmsizligi va harakatsizligida. Bugungi kunda Forobiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy kabi olimlar nega yetishib chiqmayapti? Chunki, ulug' olimlarni ulug' onalar tarbiyalaydi [5, 8-b.], – deydi Sharqshunos olish Rizouddin ibn Faxriddin o'zining "Mashhur xotinlar" (tarixda nomi chiqqan ayollar) nomli asarida. Muallif yana bir o'rinda Sharqda ulamo mansabidagi zotlarning ko'pchiligi: «Qizlarni maktabda o'qitish, ularga yozuv-chizuvni o'rgatish kerak emas», – deya shariat nomidan jar solishayotganlarga qarshi chiqib, nafaqat yozuv-chizuv, balki ularni kitobxonlikka jalb etish lozimligini aytadi. Chunki, kitobxonlik qizlarga ta'lim usuli, tarbiya nizomi, go'zal axloq, muomala usuli, o'zini tuta bilish odobi, zehnni poklash yo'llarini o'rgatadi. O'smir qizlar savodxonligi va zarurati bilan bog'liq manbalar, ma'lumotlarga duch kelamiz. Shu o'rinda, mashhur tarixchi, ikki tilda ijod qilgan shoira Dilshodi Barnoning maktabdorlik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar diqqatga sazovordir. U 50 yildan ortiq muallimlik qilib, qizlarga xat-savod o'rgatgan, ta'bi nazm qizlarga she'riyat ilmidan dars bergan. «Hamdam va hamsuhbatlarim zehnlil sohibi nazm yosh shoiralarni bo'lib, 51 yil maktabdorlik qildim. Maktabda a'lo va o'rta o'quvchilardan doimo 20-30 qiz ta'lim olar edi. 891 qizni savodli qilib chiqardim. Bulardan yaqin to'rt dan bir qismi tab'i nazmi bor oqila qizlar edi», – deydi Dilshodi Barno o'zining «Tarixi muhodiron» asarida. U shogirdlari orasida: «Anbaroy sakkizdan o'n to'rt yoshgacha adab ta'limiga mashg'ul bo'ldi. Bu sakkiz yashar qizcha yoshligiga qaramay, hazrat Navoiy g'azaliyotlarini o'rganishga behad qiziqardi. Umidim borki, qizcha katta o'aira bo'lg'usidir» [6, 62-b.]. Haqiqatdan ham, Dilshod otin umid qilganidek, uning shogirdi Anbar otin nomi bilan katta shoira bo'lib yetishdi va o'zbek adabiyoti tarixida o'zining betakror ijodiy merosi bilan o'rin oldi. «Qizlar maktablarida o'qitish tartibi haqida pedagog olim U.Dolimov quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. «Qizlar maktablarida ham hijo (bo'g'in – hosil usuli) qo'llanilgan. Abjad hisobi haqida ma'lumot berilgan. Abjaddan keyin

«xaftiyak» o'rgatilgan «xaftiyak»da 13-14 kichik-kichik suralar jamlangan bo'lib, «Qur'on»ni o'qish va yodlash uchun bir bosqichdir. Shuningdek, «Chor kitob» o'qitilgan va kitob o'qib tugatilgach, forsiy va turkiy adabiyotning buyuk nomayandalaridan Xo'ja Hofiz, Alisher Navoiy, Bedil, Fuzuliy, So'fi Ollyor va boshqa ijodkorlarning asarlarini o'qiganlar» [7, 32-33-b.]. Yuqorida tilga olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki, o'smir yoshidagi qizlar tahsil olgan maktablarda mumtoz adabiyot namunalari o'rganish eng muhimi, mustaqil kitoxonlik masalasi yaxshi yo'lga qo'yilganligidandarak beradi. Ma'lumki, o'zbek xalqi – o'z o'tmilshida eng ko'p shoira yetishtirgan bo'lib, ular qizlar maktablarida savod chiqarmaganlarida, mustaqil kitoxonlik qilmaganlarida, podshohlar saroyiga mansub bo'lgan Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodirabegimlarini, XIX asming o'zida Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Muazzamxon, Muattarxon, Anbar otin, Qambarniso, Mutriba, Nozimaxonim kabi o'nlab mashhur shoiralar qayerdan yetishib chiqqan bo'lar edi? Haqiqatdan ham chiroyli xulq xuddi oftobga o'xshaydi. Oftob muzni eritgani kabi, chiroyli xulq ham barcha yomonliklarni eritib yuboradi. Xalqimizda yana bir buyuk hikmat bor: «Ota-onasi o'lgan odamni emas, odob-axloqi bo'lmagan odamni yetim de»!

Xulosa. Demak, inson uchun axloq-odob buyuk insoniy fazilat sanalar ekan, balog'at yoshidagi qizlarimizga ayni shu haqiqatni tushuntirish, ularning tashqi va ichki dunyosining qadri odob bilan birga ekanligini anglatish har bir tarbiyachining vijdoniy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Имом Исмоил Ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. - Т.: Ўзбекистон, 1990.
2. Qobusnoma. - Т.: O'qituvchi, 1973.
3. Алишер Навоий. Қайратул - аброр. - Т.: F.Фулом номидаги адабий ва санъат нашриёти, 1989.
4. Ризоуддин Фахриддин ўғли. Машхур хотинлар. - Т., 2019.
5. Қодирова М. Дилшод (ҳаёти ва ижоди). - Т.: Фан, 1971.
6. Турсунова М. Мадраса барпо етган маликалар: Илмий-оммабоп рисола. - Т.: Зилол бууик, 2019.
7. Долимов У. Миллий ўйғониш педагогикаси. - Т.: Нашр, 2012.

MOBILLIKNING TURLARI VA TALABALARDA KASBIY MOBILLIKNI RIVOJLANTIRISH

Nizamova Muyassar Nuritdinovna, NamDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta'limda mobillik turlarining mazmuni hamda kasbiy mobillik mohiyatni ifodalovchi funksiyalar yoritib o'tilgan. Shuningdek, talabalarda kasbiy mobillikni rivojlantirishning dolzarbligi, mobillik tushunchaga sharhlar, uning amaliyotga kirib kelishi, qo'llanilishi, mazmuni, mohiyati va tuzilmasi keltirilgan.

Tayanch so'zlar: *mobillik, kasbiy mobillik, bo'lajak menejerlar, funksiyalar, tuzilma, harakatchanlik, akademik, kasbiy, shaxsiy, kommunikativ, innovatsion, axborot, kognitiv.*

ВИДЫ МОБИЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Низомова Муяссар Нуритдиновна, преподаватель НамГУ

Аннотация. В статье освещено содержание видов мобильности в образовании и функции, представляющие сущность профессиональной мобильности. Также представлена важность развития профессиональной мобильности среди студентов, комментарии к понятию мобильности, ее реализации, применению, содержанию, сущности и структуре.

Ключевые слова: *мобильность, профессиональная мобильность, будущие менеджеры, функции, структура, мобильность, академическая, профессиональная, личностная, коммуникативная, инновационная, информационная, познавательная.*

TYPES OF MOBILITY AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL MOBILITY IN STUDENTS

Nizamova Muyassar Nuritdinovna, teacher of NamSU

Abstract. The article reveals the content of the types of mobility in education and the functions that make up the essence of professional mobility. The importance of developing professional mobility among students is also presented, comments on the concept of mobility, its implementation, application, content, essence and structure.

Key words: *mobility, professional mobility, future managers, functions, structure, mobility, academic, professional, personal, communicative, innovative, informational, cognitive.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [1, 39-b.] muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda zamonaviy mutaxassis nafaqat o'zining kasbiy mahorati, yuqori malaka darajasi, balki intellekti, innovatsion jarayonlardagi faol ishtiroki, axborotlarni tezkor topish, qayta ishlash, harakatchan va tashabbuskor bo'lishi zarur. Mazkur talablar barcha soha mutaxassislaridan uzluksiz ravishda o'qish, bilimlarini rivojlantirish, o'zgarishlarga tezkor moslashish va qarorlar qabul qilish, missiyasini rostdashi hamda doimiy faol bo'lishini ifodalovchi kasbiy mobillikni o'zida rivojlantirish zaruriyatini belgilaydi.

Asosiy qism: So'ngi yillarda ta'lim jarayonida mobillik atamasidan ko'p foydalanilmoqda va u iste'moldagi tushunchaga aylanib bo'ldi. Dastlab "mobillik" so'zining ma'nosiga to'xtalsak. "Mobillik" atamasi lotinchada "mobilis" – harakatchan, qo'zg'aluvchan, "harakatchan, tezkor harakatga, qo'zg'alishga layoqatli" [4], "hissiy holatlarning almashishi, tafakkur tezligining namoyishi, engil va tez-tez o'zgaruvchan, bir joydan ikkinchi joyga tezkor ko'chishga layoqatli bo'lish" kabi ma'nolarni anglatadi. Lug'aviy izohlarga tayangan holda, o'z-o'zini doimiy rivojlantirib borish, o'zgarishlarga, yangi va kutilmagan vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish va moslashish qobiliyatiga ega kasb egasiga nisbatan mobil tushunchasini qo'llashimiz mumkin ekan. Yuqorida sanab o'tilgan hususiyatlarga ega bo'lgan bo'lajak menejerlar o'zining bosh g'oyasini to'la anglaydi, kelajakda menejerlik faoliyati bilan shug'ullanayotganligini ongli ravishda tahlil qiladi, kasbiy faollikni namoyish qiladi va amaliy harakatlarga kirishuvchan bo'ladi. Ta'kidlash joizki, mobillikni faqatgina shaxsning jismoniy harakatchanlikka bo'lgan qobiliyati emas, balki uning psixologik xususiyatlari, fikrlashi va hissiy jarayonlardagi harakatchanligi sifatida ham izohlashimiz lozim. Mobillik tushunchasi dastlab o'tgan asrning boshlarida amerikalik sotsiolog olim P.A.Sorokin tadqiqotlarida uchraydi. Uning fikricha, mobillik "insonning yoki ijtimoiy ob'ektning ma'lum bir ijtimoiy vaziyatdan boshqasiga ko'chishi"ni ifodalaydi [3]. Tadqiqotchi individual va guruhli ijtimoiy mobillikni tadqiq qilish asnosida ularni vertikal va gorizontal turlarga ajratadi. Mazkur tushunchaning vujudga kelishini dunyo miqyosida inson maqomining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar sifatida ifodalash zaruriyati, deb qayd etadi. Sorokinning tadqiqotlari keyinchalik ko'plab sotsiolog olimlar tomonidan davom ettirildi hamda mobillikning inson kapitalining boyishiga, uning shaxsiy rivojlanish, yangi bilimlarni egallashi va almashishi, tillarni o'rganishi, madaniyatlarni ko'nikmalarini rivojlantirishi orqali hayotda o'z o'rnini topishi va ish joyi bilan ta'minlay olish darajasida ko'mak berishiga e'tibor qaratdilar. Ular, mobillik tushunchasiga– ta'lim vositasi, sharti yoki omili sifatida qarash imkoni ekanligini ta'kidlaydi. Ta'lim sohasiga mobillik atamasi "akademik mobillik", "kasbiy mobillik" tushunchalari shaklida amaliyotga kirib keldi. Mobillik tushunchasi pedagogik amaliyot va tegishli adabiyotlar tahlilida quyidagi ko'rinishlarda shakllanganligi hamda rivojlanganligini e'tirof etish mumkin: akademik, kasbiy, shaxsiy, kommunikativ, innovatsion, axborot, kognitiv.

Ta'limda mobillik turlarining mazmuniga aniqliklar kiritamiz va ular quyidagicha:

- 1) Akademik mobillik – talaba yoki o'qituvchilarning mamlakatdagi yoki xorijdagi oliy ta'lim muassasalarida kelishuv asosida ma'lum muddat o'qish yoki dars berishini anglatadi.
- 2) Kasbiy mobillik – "professional mobil qobiliyat" – bu shaxsning tez va muvaffaqiyatli ishlash qobiliyati va tayyorligi, yangi texnika va texnologiyani o'zlashtirish, etishmayotgan bilimlarni egallash yangi kasbga yo'naltirish samaradorligini ta'minlaydigan bilim va ko'nikmalar faoliyati.
3. Shaxsiy mobillik – shaxsiy harakatchanlik ishda individual xususiyatlarga (faollik, plastika, moslashuvchanlik, yuqori energiya) asoslangan integral shaxsiy sifat sifatida belgilanadi va sub'ektning xatti-harakati va faoliyatida maqsadlilik, mustaqillik, yangi tajribaga ochiqlik shaklida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik, o'z-o'zini rivojlantirish uchun motivatsiya, tezkor qaror qabul qilish.

1. Kommunikativ mobillik – bu har qanday nutqiy vaziyatda tez va adekvat javob berishga qodir bo'lgan shaxsning xususiyatlari. Biroq, nutq holatlari orasida chet tilini bilishni talab qiladigan holatlar, ya'ni chet til makonidagi nutq vaziyatlari bo'lishi mumkin. Bunday holda, zamonaviy mutaxassis turli xil ijtimoiy va, albatta, kasbiy vaziyatlarda erkin harakat qilishga, tegishli javob berishga va chet tilida muloqot harakatini bajarishga tayyor bo'lishi kerak.

2. Innovatsion mobillik – o'qituvchining innovatsion harakatchanligi – bu nafaqat "innovatsiyalar o'rtasidagi", balki "innovatsiyalar doirasidagi" kosmosdagi harakatchanligi, nafaqat kasbiy faoliyatda yangi narsalarga o'tish yoki individual innovatsion loyihalarni amalga oshirish, ushbu sohada ishlash qobiliyatidir.

3. Axborot mobillik – jamiyatning axborot harakatchanligini sezilarli darajada oshiradi, bu esa, kapital va ishchi kuchining samaraliroq tarmoqlarga oqishini tezlashtiradi va shu bilan butun iqtisodiyotni yanada samaraliroq qiladi. Kompyuterlashtirish xususiy sektorda ham, davlat sektorida ham mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi.

4. Kognitiv mobillik – bo'lajak mutaxassisning boshqaruv faoliyatidagi o'zgaruvchan vaziyatlarda muammolarni o'z vaqtida va konstruktiv echimini topishga doir tayyorligi va qobiliyatini ta'minlovchi shaxsiy, ehtiyoj-motivli, mazmunli-faoliyatli, kreativ, kommunikativ va axborot komponentlaridan iborat bo'lgan integrativ kasbiy-shaxsiy xususiyatidir.

Ta'kidlash mumkinki, bir qator rus olimlari mobillik bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan va ular tomonidan ushbu tushunchaga izohlar va ta'riflar berib o'tilgan. Jumladan, L.V.Goryunova kasbiy mobillikning nazariy modelini ishlab chiqdi. Uning fikricha, kasbiy mobillik modeli shaxsning ta'lim sohasida kasbiy kompetensiyalardan iborat yaxlitlik, o'zgarishlarga tayyorlik va faollik kabi sifatlardan tarkib topishidir [2]. Tadqiqotchi zamonaviy dunyoning "yuqori darajadagi turbulentslik" sharoitida o'qituvchi uchun uzluksiz o'qish va qayta o'qish, o'zgarishlarga tezkor moslashish, mustaqil ravishda o'z mavqei oshirib borishni boshqarish imkonini beruvchi tuzilma va qobiliyatlarning muhimligini asoslaydi.

Rus pedagog olimlaridan E.A.Poddubskyaning fikricha, tushunchaning mohiyatini ta'lim oluvchilarning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida birlashgan hamda o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlarning murakkab tizimini ifodalovchi ta'lim jarayoni nuqtai nazarida pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish mumkin. Tadqiqotchi kognitiv mobillikni pedagogik hodisa sifatida talqin qilgan ekan, uni qadriyatli-mazmunli, rivojlantiruvchi-bashoratlovchi, tartiblashtiruvchi-korreksion va refleksiv-rag'batlantiruvchi funksiyalari orqali yoritish mumkinligini e'tirof etadi. Mazkur funksiyalarni belgilashda kognitiv mobillikning ifodalanish darajasi sifatida pedagogning kasbiy-shaxsiy tavsifi hamda ta'lim maqsadlari unumdorligiga erishilishi orasidagi ma'lum qonuniyatlarga asoslangan aloqalar inobatga olingan.

Tadqiqot tahlillari asosida kasbiy mobillik mohiyatni ifodalovchi funksiyalarga quyidagicha yondashildi:

Qadriyatli-mazmunli funksiya. Muqarrar ravishda kasbiy turg'unlikni vujudga keltiruvchi adaptiv xatti-harakatlar modeliga qarshi o'laroq bo'lajak menejerlarning erkin tanlov sharoitida ongli ravishda kasbiy rivojlanish imkonini afzal ko'rish va qo'ldan boy bermasligini ifodalaydi. Bo'lajak menejerlarning uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z faoliyatini loyihalashtirishga yo'nalganligining ta'limiy va ijtimoiy-madaniy muhitdagi doimiy o'zgarishlar vaziyatida zaruriyatga aylanishi. Bo'lajak menejerlarning kasbiy-shaxsiy rivojlanishida shaxsiy va ijtimoiy muhim bo'lgan mazmunning yaratilishiga, madaniy-ma'naviy tajribaning saqlanishi va boyishiga ko'maklashadi.

Rivojlantiruvchi-bashoratlovchi funksiya. Bo'lajak menejerlar uchun kasbiy faoliyatning mo'ljallangan modellarini loyihalashtirish va ularni amalga oshirish uchun istiqbolli dasturlarni ishlab chiqishni ifodalaydi. Bo'lajak menejerlarning ta'lim jarayonini tizimli tahlil qilishga nisbatan turli darajalarda vujudga keladigan ziddiyatlarni qayd qilish, kuzatish, o'rganish va tashxis qilish imkonini beradi. Bu vaziyatlarda konstruktiv echim: bo'lajak

menejerlarning ta'limga doir ehtiyojlari va o'qituvchining vaziyatni o'zgartirishga tezkor munosabati o'rtasidagi nomuvofiqlik; shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimni loyihalash ustuvorligining shakllanishi va mutaxassisda axborotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasining etarli emasligi; kasbiy faoliyat davomida vaziyatga va uning oqibatlariga ta'sir ko'rsatish haqida axborotga ega bo'lmaslik.

Tartiblashtiruvchi-korreksiyalovchi funksiya. Bo'lajak menejerlarning o'z kasbiy faoliyatini boshqarishga o'rgatish, avvaldan rejalashtirilgan strategiyalar va taktikalarni tartibga solish va zarur hollarda tuzatishlar kiritishida turli xil ijtimoiy-psixologik omillarning ta'sirini hisobga olish imkonini ifodalaydi. Tartiblashtiruvchi-korreksiyalovchi funksiya bo'lajak menejerlarning kelajakda boshqaruv faoliyatida nazorat qilish, modellashtirish va bashorat qilishda yaqqol namoyon bo'ladigan ichki aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Refleksiv-rag'batlantiruvchi funksiya. Bo'lajak menejerlarning o'zini shaxs va o'z kasbining ustasi sifatida uzluksiz ijodiy qayta tiklashga motivatsion tayyorligini shakllantirish omili bo'lib, kasbiy va shaxsiy rivojlanishda egallangan darajasini tizimli tahlil qilish, baholash va rag'batlantirishni ifodalaydi. Refleksiyaga bo'lgan ehtiyoj, shaxsiy faoliyatida unumdor bo'lmagan natijalarini qayd qilish ko'nikmasi bo'lajak menejerlarda doimiy kasbiy izlanishda bo'lishga rag'batni paydo qilish hamda o'zini pedagogik voqelik subyekti, deb bilish va ta'lim jarayonini butun hodisa sifatida anglashga xizmat qiladi.

Bo'lajak menejerlarning kasbiy mobillogi uning faoliyati mazmunini o'zgarishiga tezkor moslashish imkoniyatini yaratadi. Ya'ni, bo'lajak menejerlarga kasbiy mobillogi rivojlantirish – shaxsining ma'lum qobiliyatinigina emas, balki kasbiy faoliyatini tashkil qilish, rivojlantirish, moslashuvchan tafakkurga ega bo'lish, yangiliklarni qabul qilish va ularni jarayonga samarali singdirishning uyg'unligini ifodalaydi.

Bo'lajak menejerlarda kasbiy mobillogi rivojlantirish jarayoni quyidagicha: o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorligi, yangi sharoitlarga moslashishi va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati, kasbiy faoliyatiga oid bilimlarni o'zlashtirishda bir darajadan yuqorisiga mohirlik bilan o'tishi, soha ta'limiga doir innovatsiyalarni o'zlashtirishi hamda kasbiy rivojlanish sur'atini ifodalovchi integral sifat shaklida e'tirof etiladi. Kasbiy mobillogi shaxsning turli muammoli vaziyatlarga nisbatan ta'sirchanligi samarasini ifodalovchi asosni, shuningdek, atrof-muhit va ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarga bo'lgan mustahkam shaxsiy manbaini tashkil qiladi.

Kasbiy mobillogi asosi mustaqil tarkiblardan tashkil topadi, ular quyidagicha:

O'zgarishlarga tayyorlik – o'zgarishga xohish; shaxsiy hayoti va faoliyatiga o'zgarishlar kiritishga tayyorlik; kreativlik; tezkor qarorlar qabul qilish; ko'p o'qishga layoqat; atrof-muhit holatini kuzatish va to'g'ri baholash ko'nikmasi.

Faollik – notanish kasbiy sharoitlarga moslashish va ularni o'zgartira olish qobiliyati; erishiladigan maqsadlarni mustaqil qo'yish va ularni amalga oshirish qobiliyati; turli xil ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish ko'nikmasi; natijalarni oldindan ko'rish va intensiv faoliyatni tartibga solish.

Xulosa. Demak, kasbiy mobillogi bu – kasbiy faoliyatga doir o'zgaruvchan sharoitlarda o'z-o'zini rivojlantirish, muayyan vaziyatlarda tezkor echim topish, kasbiy ehtiyojlarini anglash va zamonaviy talablarga moslashtirishga tayyorlik qobiliyatini rivojlantirishni ifodalaydigan integrativ xususiyatidir. Shuningdek, bo'lajak menejerlarda ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya muhiti va kasbiy faoliyatiga oid tushunchalarni bilish faollogi, o'zgaruvchan vaziyatlarni boshqarish, tezkor moslashish, maqsadga intilish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish, axborotlar bilan ishlash, hamkorlik mazmunini

tushunishga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish zarurligini ifodalaydi. Mazkur jarayonning yaxlitligi bo'lajak menejerlarda aqliy faoliyat, refleksiya, maqsadni aniqlashtirish va amalga oshira olish ko'nikmasi hamda muhit, vaziyat o'zgarishidan qat'iy nazar o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi.

Pedagogika sohasida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat ega bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Kasbiy mobillik bo'lajak menejerlarga alohida yondashuvni hosil qilish, kutilmagan holatlar, o'zgarishlarga tezkorlik bilan moslashishga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish imkonini beradi. Talabalarning yuqori motivatsiyasi, bilimdonligi, o'zgarishlarga ochiqligi, turli vaziyatlarga moslashuvchanligi, fikrlash tezligi, qiziquvchanligi, ijodkorligi va faolligi kabi xususiyatlari uyg'unligini ifodalovchi ichki tayyorligini shaxsiy integrativ sifatlarni tashkil etadi. Shaxsiy integrativ sifatlarni ularning mukammal qiyofasini hosil qiladi va dunyoqarashi, tafakkur darajasi, faoliyati mahsulini his qilishi asosida kasbiy mobillikni rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. - Т., 2017.
2. Горюнова Л.В. Составляющие профессиональной мобильности современного специалиста // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. - 2007. - № 1. - С. 63-68.
3. Sorokin P.A. Social and cultural mobility. The free press of Glencoe, Illinois: <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.275737>.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев ва б., ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006 - 672 б.

PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Ibroximov Maqsadjon Axmedovich, NamDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada professional ta'lim yo'nalishi talabalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi yuzasidan olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning mazmun va mohiyati izohlangan. Shaxs ijtimoiylashuvida oliy ta'lim muassasalarining didaktik imkoniyatlarini ta'minlashga oid fikrlar yoritilgan. Shuning bilan birga professional ta'lim yo'nalishi talabalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tavsiflangan.

Tayanch so'zlar: *professional ta'lim, bo'lajak o'qituvchilar, ijtimoiylik, kompetentlik, rivojlantirish, tadqiqotlar.*

ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ибрахимов Максаджон Ахмедович, преподаватель НамГУ

Аннотация. В статье раскрывается содержание и сущность исследований, проведенных учеными по проблеме развития социальной компетентности студентов, обучающихся в сфере профессионального образования. Социализация личности отражает идею обеспечения дидактического потенциала высших учебных заведений. Также описаны особенности развития социальной компетентности у студентов, обучающихся в системе профессионального образования.

Ключевые слова: *профессиональное образование, будущие учителя, социальность, компетентность, развитие, исследование.*

CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE OF STUDENTS STUDYING IN THE FIELD OF PROFESSIONAL EDUCATION

Ibragimov Maksadjon Akhmedovich, teacher of NamSU

Annotation. The article reveals the content and essence of research conducted by scientists on the problem of developing the social competence of students studying in the field of professional education. The socialization of the personality reflects the idea of providing the didactic potential of higher educational institutions. Also, the characteristics of social competence development in students studying in the field of professional education are described.

Key words: *professional education, future teachers, sociality, competence, development, research.*

Kirish. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan jadal va tub o'zgarishlar natijasida professional kadrlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish – O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [1] muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning

pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish va didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashni ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan asoslagan pedagog olimlardan R.X.Djurayev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, X.F.Rashidov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, M.B.Urazova va J.A.Hamidovlar bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'limni integratsiyalash, loyihalash faoliyatiga tayyorlash, zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyalari kabi ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan. So'nggi yillarda ushbu muammo yuzasidan olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida ijtimoiylashuv mazmun va mohiyati izohlangan. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili professional-pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan birga uning ijtimoiylik muammosi nafaqat falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot, psixologiya kabi fanlarning, balki pedagogika fanining ham ilmiy-tadqiqot muammosi ekanligini ko'rsatdi.

Asosiy qism. Shaxs ijtimoiylashuvining huquqiy jihatlarini o'rgangan Z.M.Maxmudov tomonidan shaxs ijtimoiylashuvining huquqiy jihatlariga oid pedagogik, huquqiy ta'limotlar, fikrlar, qarashlar va ularni takomillashtirishni taqozo etuvchi omillar mantiqiy ketma-ketlikda, davr talablaridan kelib chiqqan holda tahlil qilingan. Tadqiqotning muhim jihati shaxs ijtimoiylashuvini huquqiy ta'minlashni takomillashtirish borasida ilmiy xulosalar, takliflar, tavsiyalar ishlab chiqilgan. Uning fikricha, shaxs ijtimoiylashuvida ijtimoiy tarbiya institutlarning tarkibiy qismi bo'lgan madaniyat muassasalarining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagog olim N.M.Egamberdiyeva o'z tadqiqotlarida pedagog kadrlarning o'z pedagogik faoliyatiga nisbatan ijtimoiy yo'naltirilmaganligi, ya'ni kasbiy ta'limni jamiyatning aniq ijtimoiy xususiyatlari, ta'lim muassasasi, talabalar va o'qituvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini hisobga olib tashkil etishga e'tibor sustligi to'g'risida fikr bildiradi. Shuningdek, kasbiy-amaliy jihatdan tayyorlashning bir tomonlamaligi va cheklanganligini, kasbiy-madaniy nuqtai nazarning shakllanmaganligi, mutaxassis va shaxs sifatida o'qituvchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga undaydigan omillarning etarli emasligi, motivatsiya darajasining pastligi kabi o'ziga xos xususiyatlarni qayd etib o'tadi.

So'ngi yillarda mintaqaviy darajada ijtimoiy xulqning yangi shakllarini – maqsadga intilish, pragmatizm, aniq natijaga yo'nalganlik, raqobatbardoshlik, ijtimoiy-siyosiy faollik bilan milliy mentalitet xususiyatlarini birlashtirish asosida individualizatsiya tamoyillarining ildiz otishi kuzatilmoqda. Tadqiqotchi Z.T.Saliyevaning ilmiy ishlarida o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish o'quv, faoliyat, muloqot jarayonida bo'lg'usi kasbiy faoliyatga o'zaro uyg'un ijtimoiy-axloqiy moslashishni ta'minlash, ijtimoiy ahamiyatli ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi borasida fikrlar bildirgan. Shuningdek, yosh tadqiqotchilardan D.A.Madjidova: tabaqalashgan yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish, G.Q.Mardiyeva: ijtimoiy moslashtirish texnologiyasini takomillashtirish, H.X.Hamzayev: o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish, D.B.Mahmudova: ijtimoiylashtirishning didaktik tizimi, X.M.Tojiboyeva: o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishni tizimlashtirish kabi tadqiqotlarni tadqiq etishgan.

Yoshlar ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun E.Frommning g'oyalarini ilgari surgan Rossiyalik olim A.V.Mudrik ilmiy izlanishlarida quyidagi "ijtimoiy jarayonlarning ijtimoiy-ma'naviy va ruhiy asoslari favqulodda kuchlidir", degan fikrlarni ta'kidlagan holda, izohlovchi yondashuv tarafdorlari ko'pincha ekzistensializm nazariyasiga tayanadilar. Ekzistensializm – yashashni, ayni vaqtda yashayotganlikni anglash o'zgarayotgan va o'tayotgan zamonnin ruhiyati va vujudida doimiy his etib yashashni anglatadi. Ekzistensial yondashuvning susayishi manfaat olish darajasi yuqori bo'lmagan jamoalarga o'zi anglamagan holda

qo'shilib ketishni kuchaytiradi. Ekzistensiya shaxsning o'z-o'ziga beradigan bahosi, o'z-o'zini qadrlash darajasi hamdir. Demak, shaxsning o'zini-o'zi baholash darajasi qancha past bo'lsa, uning ijtimoiy foydali bo'lmagan holatlarga, jamoatlarga integratsiya bo'lishi shuncha yuqori bo'lishi haqidagi fikrlarni bildiradi [4].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan kasbiy ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, professional-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirgan. L.V.Andropova, I.V.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, M.I.Lukyanova, S.N.Mironenko, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan bo'lajak maktab o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorgarlashda kasbiy kompetentligini shakllantirish, ta'lim natijalarining yangi paradigmasida asosiy kompetensiyalarning o'rni [2], ularni diagnostika faoliyatiga tayyorlash va ta'lim mazmunini integratsiyalash orqali bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish kabi ilmiy-tadqiqotlar yuzasidan ishlar olib borishgan.

Xorijiy mamlakatlarning D.Gwen, C.Cameron, M.Shameer va J.Hdmldinen kabi tadqiqotchilari ilmiy izlanishlarida yoshlar ijtimoiylashuvining pedagogik konsepsiyasi va amaliy xususiyatlari yoritilgan. B.Blum, R.Mohan va boshqa tadqiqotchilar ta'limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kompetentlik masalalari, professional-pedagogik etuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishni nazariy va amaliy asoslashga e'tibor qaratgan.

Nomlari yuqorida qayd etilgan mualliflarning ilmiy-tadqiqot ishlarini, oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar tayyorlash jarayonini tashkil etilishi, fanlarni o'qitish, malakaviy pedagogik amaliyot holatini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari etarlicha yoritilmagan, bu esa, mazkur muammoni tadqiq etish zaruratini taqozo etadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot talablardan kelib chiqqan holda bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik va ilmiy-metodik asoslari, tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Pedagogikadagi kompetentli yondashuv va ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli yo'nalishlarda talqin qilingan. Professional ta'lim yo'nalishi talabalarining ijtimoiy fikrlashi, mustaqilligi, faollik hamda ijodkorliklarining rivojlanib borishi, dunyoqarashlarining kengayib borishi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Davr talabiga ko'ra, bugungi kunda ilmiy-texnik taraqqiyotning innovatsion rivojlanishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak mutaxassislarining zamonaviy sharoitlarga tez moslashishi hamda o'quv-bilish motivlarini egallashlariga intilishini talab etadi. Bu esa, professional ta'lim yo'nalishi talabalarini mustaqil izlanishga, kasbiy muammolarni mustaqil echish bilan birga ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun ham, bugungi kunda ijtimoiy faol bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy vazifalaridan bo'lib, bunda ijtimoiy kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik faoliyat va nazorat muhitining o'zaro ta'sirlashuvi

mexanizmlari quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: professional ta'lim yo'nalishi talabalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi davlat buyurtmasi va jamiyat talablariga muvofiq professional ta'lim yo'nalishlarida malakali kadrlar tayyorlash; Davlat ta'lim standartlarida bitiruvchining professional-pedagogik faoliyatida o'qituvchilik, tarbiyachilik, o'quv-metodik, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot vazifalarini amalga oshirishi ko'zda tutilgan. Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida tayanch, umumkasbiy va maxsus-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim mazmuni, o'quv reja, dasturlar, ta'lim shakli, metod, vositalari va darsliklar, elektron axborot ta'lim resurslari hamda boshqa didaktik materiallar, o'quv-metodik qo'llanmalar, laboratoriya jihozlari, ta'lim texnologiyalari va boshqalardan foydalanish asosida aniqlanadi [5]. Professional-pedagogik faoliyatni amalga oshirish va nazariy bilimlar hamda psixomotorik harakatlar asosida amaliy ko'nikmalarni real sharoitda qo'llash maqsadida malakaviy pedagogik amaliyot tashkil etiladi [3]. Bunda bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilari ta'lim jarayonida egallangan umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni namoyon etish; professional-pedagogik faoliyat jarayonida – keng dunyoqarashga ega, mustaqil, faol, tashkilotchi, qobiliyatli, ijodkor, malakali kadrlarning tayyorlanganligini aniqlash va tahlil qilib borish uchun faoliyat monitoringi amalga oshirildi. Natijada, etuk, malakali kadrlarning mustaqil va rejali asosda o'z ustida ishlashi, ijtimoiy kompetensiyalarni izchil rivojlantirib borishini ta'minlash.

Hozirga zamon oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga oid o'tkazilayotgan darslar monitoringning bir qancha usullari mavjud. Tadqiqotimiz davomida ma'lum bo'ldiki, dars jarayonini tahlil etish davomida quyidagilarga e'tibor berishni maqsadga muvofiq deb hisobladik: o'qituvchining darsga tayyorgarlik darajasi va uning ijtimoiy kompetentlik bo'yicha materiallar asosida asosiy mavzuni tushuntira olishni namoyon etganligi; o'qituvchida muayyan darsga taalluqli o'quv rejasini va ijtimoiy kompetentlik bo'yicha ishlanmalarning mavjudligi, didaktik tarqatma material, ko'rgazmali qurollarning tayyorligi; o'qituvchining darsga tayyorgarligi bilan yuzaki (yoki darsning bir qismida) tanishib chiqilmaydi. Uning darsga tayyorgarligini, ijtimoiy kompetentlik bo'yicha materiallarni qo'llay olganligini, ularning talabalarga tushunarli bo'lganligi, ularda qiziqish uyg'otganligi darajasini butun mashg'ulot mobaynida kuzatish va tahlil etish lozim; darsning maqsad va vazifalari qo'yilish jarayonida pedagog ijtimoiy kompetentlik bo'yicha materiallarning mazmunini tushuntirishga alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir; pedagogning ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga oid masalalarni aks ettiruvchi mavzuning mohiyatini ochib berish orqali darsga aniq maqsad ko'yishi, o'qituvchi talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan maqsadni to'g'ri izohlashi va o'qituvchi hamda talabalarning vazifalari aniq belgilanishi zarur; tashkiliy ishlar tahlili davomida auditoriyaning umumiy tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ya'ni, auditoriyada talabalar o'z joylarini egallaganligi, ular diqqati dars mavzusiga yo'naltirilganligi, ko'rgazmali qurollar, kompyuter texnikasidan foydalanish orqali namoyish etilayotgan slaydlar mavjudligi, ijtimoiy kompetentlikni namoyish qilinishiga mo'ljallangan axborotlarning kompyuter xotirasiga oldindan kiritilganligi; mashg'ulot o'tkaziladigan xonaning darsga umumiy tayyorligi, talabalarning ijodiy kayfiyati, o'quv xonasi, stollarning va auditoriya doskasining tozaligi, bo'r hamda namlangan lattaning mavjudligi, kompyuter texnikasining ishga tayyorgarligi, ayrim sabablarga ko'ra darsda qatnashmayotgan talabalarning ism, shariflari yozilgan varaqchani pedagog stoliga qo'yilishi, shuningdek, pedagog va talabalarning tashqi qiyofasiga ham e'tibor beriladi.

Xulosa. Professional ta'lim yo'nalishi talabalarini malakali kadrlar sifatida tayyorlash va ularning ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl, metod va vositalari, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli vaziyatli topshiriqlar, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari muhim o'rin tutadi. Professional ta'lim yo'nalishi talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarida o'z-o'zini takomillashtirish borasida muttasil ishlashlari, axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetentligini talab darajasiga etkazish zaruriyati, ulardagi ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish muammosining muhim echimlaridan hisoblanadi. Mazkur muammolarni ijobiy hal qilish uchun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda talabalarni o'qituvchi tanlovi asosida imkoniyatidan kelib chiqib rejalashtirilgan dasturdan chiqmagan holda, ta'lim beruvchi xohlagan metod, shakl va vositalar asosida "o'qitish" emas, balki talabalarda shakllanishi zarur bo'lgan kompetensiyalarni ongli ravishda o'zlashtirish ishtiyoqini rivojlantirish, ichki va tashqi motivatsiyani sifatli bilim olishga yo'naltirish, ya'ni mustaqil izlanuvchi sifatida ta'lim olishlariga yo'naltirish kerak.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. - Т., 2017. - Б. 39.
2. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. - Воронеж: НПО "МОДЕК", 2003. - 480 с.
3. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т., 2007. - 315 б.
4. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и специально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане: Дис. ... д-ра пед. наук. - Т., 2005. - 311 с.
5. Ҳамидов Ж.А. Бўлажак профессионал таълим ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси: Пед. фанл. д-ри ... дис. (DSc). - Т., 2017. - 310 б.

TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

*Nishonbekova Jadira O'rinboy qizi, 155-sonli umumta'lim o'rta maktab
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan to'garaklarda o'quvchilarning musiqiy-estetik kompetentligini shakllantirishdagi muammolar va muallifning o'quvchilar bilan o'tkazgan so'rovnoma natijalari aks etgan.

Таянч so'zlar: kompetentlik, o'quvchi, o'quv jarayoni, kommunikativlik, musiqiy-estetik, rivojlantirish faoliyati, to'garak mashg'ulotlari.

ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НА КРУЖКОВЫХ ЗАНЯТИЯХ

Нишонбекова Жадира Уринбой кизи, учитель общей средней школы № 155

Аннотация. В данной статье отражены проблемы формирования музыкально-эстетической компетентности у учащихся в кружках, организованных в общеобразовательных школах, и отражены результаты авторского опроса учащихся.

Ключевые слова: компетентность, студент, учебный процесс, коммуникативная, музыкально-эстетическая, развивающая деятельность, групповое обучение.

PUPILS IN CIRCLE TRAINING FORMATION OF MUSICAL-AESTHETIC COMPETENCE

*Nishonbekova Zhadira Urinboi kizi, teacher of the general secondary
school № 155*

Abstract. This article reflects the problems of forming the musical-aesthetic competence of students in clubs organized in secondary schools and the results of the author's survey with students.

Key words: competence, student, educational process, communicative, musical-aesthetic, development activity, group training.

Kirish. Yangi O'zbekiston yoshlarining musiqiy-estetik kompetentsiyasini shakllantirish zamonaviy dunyoda ularning raqobatbardoshligi va mobilligini ta'minlashning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim paradigmasida insonning o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini namoyon etish muammolari alohida o'rin egallaydi. Ta'limni insonparvarlashtirishning umumiy jarayonlari, pedagogik paradigmalarning o'zgarishi, modellar va texnologiyalarning ustuvorligi oshib borayotganligi, pedagogik hamkorlikning subyekt-subyektga asoslangan jihatini dolzarblashtiruvchi partisipativlik g'oyasi ushbu vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda.

Asosiy qism. «Kompetentsiya» tushunchasi lotincha «competere» – qobiliyat so'zidan olingan bo'lib, «yaroqlilik, loyqlik» degan ma'noni bildiradi. Ushbu so'z keng ma'noda umumiy yoki muayyan masalalarni yechishda mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada qo'llay olishni ham anglatadi. Demak, kompetentsiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish layoqatidir. Pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik muammolari ko'plab tadqiqotlar obyekti sifatida tadqiq etilgan.

Jumladan, R.X.Djuraev – kasbiy tayyorgarlikning tashkiliy-pedagogik asoslari [2], N.A.Muslimov – o‘qituvchini kasbiy shakllantirishning pedagogik asoslari [3], N.M.Egamberdieva – talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish [2] va boshqalar mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Umumta’limiy kompetentsiyalar sohasida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirgan olim B.X.Xodjaev kompetentsiyalarning kontseptual asoslarini metodologik jihatdan ancha murakkablik darajasida ko‘rib chiqish lozimligini ta’kidlab o‘tadi: «Kompetentsiyalarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi: umumiy tadrijiylikka ega kompetentsiyalarning turlari; kompetentsiyalar o‘z tasdig‘ini topadigan voqelikning real obyektlari maydoni; kompetentsiyalarning ijtimoiy-amaliy zaruriyati va ahamiyati; obyektga munosabatiga ko‘ra tarbiyalanuvchi tomonidan kompetentsiyaning mazmun-mohiyati va shaxsiy ahamiyatining anglanganligi; real obyektga taalluqli axborotlarning o‘zlashtirilishi; ma’lum kompetentsiya sohasiga doir tarbiyalanuvchining minimal zaruriy faoliyat tajribasi; indikatorlar – ta’lim bosqichlarini hisobga olgan holda tarbiyalanuvchining kompetentligini aniqlashga doir o‘quv va nazorat-baholashga doir topshiriq namunalari [3; 104-b.].

Biz o‘quvchilarning musiqiy qiziqishlarni aniqlash uchun ilmiy raxbarimiz bilan birgalikda «Musiqiy qiziqishlarni aniqlash so‘rovnomasi»ni tuzdik. So‘rovnoma Toshkent shahar Yashnabod tumanidagi 155-maktabning 7-sinf o‘quvchilarida o‘tkazildi. So‘rovnomaning birinchi savoliga o‘quvchilar quyidagicha javob berdilar.

1-jadval

O‘quvchilarga musiqa darslari yoqishi haqida fikrlari (n= 30)

Javoblar	Ha	Yo‘q	Bilmadim
%	86,7 %	13,3%	0%

Berilgan javoblardan aksariyat 86,7% o‘quvchilarga musiqa darslari yoqishini, 13,3% o‘quvchilarga yoqmasligini ko‘rish mumkin. Bu javoblardan musiqa darslari ko‘pchilik o‘quvchilarga yoqadi, degan xulosaga kelish mumkin. Biz o‘quvchilarning musiqa darslarining aynan nimasi yoqishi bilan ham qiziqdik, javoblar quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

O‘quvchilarga musiqa darslarining nimasi yoqishi haqida fikrlari (n= 30)

Javoblar	Estetik zavq olaman	Qiziqaman	Rohatlanaman
%	46,6%	36,6%	16,8%

Yuqoridagi javoblardan 46,6% o‘quvchilar estetik zavq olaman. 36,6% o‘quvchilar musiqa darsiga qiziqishini, 16,8% respondentlar esa, musiqa darslarida rohatlanishini bildirishgan. Javoblarini qiyoslagan holda aksariyat o‘quvchilar musiqa darslaridan estetik zavq olishi aniqlandi. Biz o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlaridan yoki to‘garaklardan ko‘proq bilim va malaka olish mumkinligi haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

3-jadval

Musiqa darslarida ko‘p bilim, malaka olish mumkinmi yo to‘garaklardami savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari

O‘quvchilarning fikrlari	Dars mashg‘ulotlarida	To‘garaklarda
%	56,6%	43,4%

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, 56,6% o'quvchilar dars mashg'ulotlarida, 43,4% o'quvchilar ko'p bilim, malaka olish mumkin degan fikrni bildirishgan. Bu bilan aksariyat o'quvchilar dars mashg'ulotlarining to'garaklarga qaraganda afzal bilishadi. Shuningdek, biz tadqiqot davomida o'quvchilarning to'garaklarning qanday tashkil etilishi haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

4-jadval

To'garaklarning qanday tashkil etilishini istar eding savoliga o'quvchilarning bergan javoblari

Javoblar	har haftada bir marta	har haftadan 2 marta	har oyda 2 marta
%	23,3%	70%	6,7%

So'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'lishicha, 23,3% o'quvchilar har haftada bir marta, 70% o'quvchilar har haftadan 2 marta, 6,7% o'quvchilar har oyda 2 marta to'garak mashg'ulotlari tashkil etilishini istashlarini bayon etishgan. Bu javoblardan shu narsa aniqlandiki, o'quvchilar to'garak mashg'ulotlarini hozirgidek, haftada bir marta emas, har haftada 2 marta tashkil etilishi tarafdorlaridir. Shu bilan bir qatorda to'garaklarda aynan qanday mashg'ulotlar o'tkazilishi haqidagi o'quvchilarning fikrlari ham qiziqish uyg'otadi.

5-jadval

Musiqqa to'garaklarida qanday mashg'ulotlar o'tkazilishini xohlardingiz savoliga o'quvchilarning bergan javoblari

Ball	noan'anaviy mashg'ulotlar	musiqiy o'yinlar	menga farqi yo'q
%	80%	20%	0%

Bu savolga 80% o'quvchilar noan'anaviy mashg'ulotlar, 20% o'quvchilar esa, musiqiy o'yinlar tarzida to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish zarurligi ta'kidlashgan. To'garak mashg'ulotlarida nafaqat musiqani, ashulani ijro etish, balki musiqqa tarixini o'rganish bo'yicha ham qiziqarli dalillar olindi.

6-jadval

Musiqqa to'garagimizda qanday musiqqa tarixini o'rganishni istar edingiz savoliga o'quvchilarning bergan javoblari

Ball	mumtoz musiqqa tarixini	zamonaviy musiqqa tarixini	menga farqi yo'q
%	36,6%	63,4%	0%

36,6% o'quvchilar mumtoz musiqqa tarixini, 63,4% o'quvchilar esa, zamonaviy musiqqa tarixini o'rganishni istashlari aniqlandi.

7-jadval

Musiqqa to'garaklarining inson salomatligi uchun qanday afzalliklari bor deb o'ylaysiz savoliga o'quvchilarning bergan javoblari

Ball	inson psixologiyasiga yaxshi ta'siri bor	hech qanday ta'siri yo'q	bilmadim
%	83,3%	16,7%	0%

O'quvchilarning musiqiy to'garaklarning inson salomatligi uchun ahamiyati haqidagi fikrlari ham qiziqarlidir. 83,3% inson psixologiyasiga yaxshi ta'siri bor deb javob bergan bo'lsalar, 16,7% hech qanday ta'siri yo'q deb javob berishgan. Bu javoblardan shunday xulosaga kelish mumkin o'quvchilar musiqaning inson psixologiyasiga, uning kayfiyatini ko'tarishga ijobiy ta'sirini ta'kidlashgan. Hattoki og'ir kasallarni Motsart, Chaykovskiy kabi jahon musiqasi durdonalarining asarlari bilan artterapevtik usullar bilan da'volashgan.

So'rovnomada o'quvchilarning musiqa to'garagi mashg'ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashuvlar tashkil etish haqidagi savol bilan ham murojaat qildik, uning natijalari quyida keltirilgan.

8-jadval

Musiqa to'garagi mashg'ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashuvlarni xohlaysizmi javoblarisavoliga o'quvchilarning bergan javoblari

Javoblar	Ha	Yo'q	Bilmadim
%	73,3%	16,6%	10,1%

73,3% o'quvchilar musiqa to'garagi mashg'ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashishni istashlarini, 16,6% bunday uchrashuvni istamasliklarini, 10,1% o'quvchilar esa, bilmadim javobi bilan kifoyalanishgan. Demak, aksariyat o'quvchilar mashhur kuy va qo'shiqlar mualliflari bilan uchrashishni, o'larning hayot va ijodi bilan yaqindan tanishishni, katta bo'lganlarida ulardek mashhur inson bo'lishni istashadi. Shuningdek, savolnomada o'quvchilarning musiqa to'garaklarini nafaqat sinfxonalarda, balki tabiat qo'ynida o'tkazish haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

9-jadval

Musiqa to'garaklari tabiat qo'ynida o'tkazilsa, estetik zavq olasizmi savoliga o'quvchilarning bergan javoblari

Javoblar	Ha	Yo'q
%	53,3%	46,7%

53,3% o'quvchilar musiqa to'garaklari tabiat qo'ynida o'tkazilsa, estetik zavq olishini, 46,7% o'quvchilar esa, rad javobini berishgan. O'quvchilarning teng yarmisi musiqa darslarini tabiat qo'ynida o'tkazilishi tarafdorlaridir.

10-jadval

Musiqa to'garagiga ko'p do'stlaringizni taklif qilasizmi savoliga o'quvchilarning bergan javoblari

Javoblar	Ha	Yo'q
%	83,3%	16,7%

83,3% o'quvchilar musiqa to'garagiga ko'p do'stlarini taklif qilishini, 16,7% o'quvchilar esa, rad javobini berishgan.

Xulosa. O'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan aniqlanishicha, musiqa darslari

ko'pchilik o'quvchilarga yoqadi, musiqa darslaridan estetik zavq olishi aniqlandi. Aksariyat o'quvchilar dars mashg'ulotlarining to'garaklarga qaraganda afzal bilishadi. O'quvchilar to'garak mashg'ulotlarini hozirgidek, haftada bir marta emas, har haftada 2 marta tashkil etilishi tarafdorlaridir.

Adabiyotlar:

1. Egamberdieva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped. fanl. d-ri ... Dis. - T., 2010. - 332 b.

2. Jo'raev R. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi umumiy o'rta ta'lim vazifalari // Pedagogik mahorat. - T., 2001. - 2-son. - B. 2-10.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T., 2015. - 95 b.

4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. - T.: Iqtisod dunyosi, 2018. - 178 b.

GUMANITAR VA IJTIMOYIY FANLAR TA'LIMI

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASHDA XARAKATLI O'YINLARINING IJOBIY SAMARASI

Radjabov Shavkat Zaripbayevich, TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashda foydalanadigan xarakatli o'yinlar tasnifi yoritiladi. Maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashda xarakatli o'yinlarining ijobiy samarasi ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: *eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, jismoniy tarbiya, xarakatli o'yinlar, jismoniy madaniyat, xarakatlar, jismoniy mashqlar.*

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЙ ЭФФЕКТ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Раджапов Шавкат Зарипбаевич, самостоятельный соискатель ТГПУ

Аннотация. В этой статье рассмотрена классификация подвижных игр, которые дети с нарушениями слуха используют в физическом воспитании. В статье раскрывается положительный эффект их выполнения в физическом воспитании детей с нарушениями слуха.

Ключевые слова: *дети с нарушениями слуха, физическое воспитание, сидячие игры, физическая культура, движения, физические упражнения.*

THE POSITIVE EFFECT OF THEIR PERFORMANCE IN PHYSICAL EDUCATION OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS

Radjabov Shavkat Zaripbaevich, independent researcher of TSPU

Abstract. This article will cover the classification of behavioral games that children with hearing impairments use in physical education. The article reveals the positive effect of their performance in physical education of children with hearing impairments.

Key words: *children with hearing impairments, physical education, sedentary games, physical culture, movements, exercise.*

Kirish. Jismoniy madaniyat va sport sog'lom, kuchli, chaqqon, topqir, to'siqlarni eng a oladigan, ona Vatanni ko'z qorachig'iday e'zozlovchi vatanparvar, kelajakka ishonch bilan qaraydigan yoshlarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli kishilik jamiyatining eng ibtidoiy holatidan hozirgi kunimizga qadar har qanday jismoniy kamolot va to'qlikni avlodlarning kamolotini ta'minlovchi zanjir deb hisoblab kelishgan.

Asosiy qism. O'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy barkamolligini ta'minlash faqat ota-ona, maktabning ishigina bo'lib qolmasdan, balki u davlat ahamiyatiga molik ish hamdir. Jismoniy tarbiyaga bo'lgan e'tibor, g'amxo'rlikning kun sayin oshib borishi bu fikrimizning yorqin dalilidir. Jismoniy tarbiya mazmuni besh xil tushunchalarda o'z ifodasini topadi [1, 45-b.]: jismoniy kamolot, jismoniy holat diagnostikasi, jismoniy madaniyat, jismoniy-sport ishlari, jismoniy malumot. Jismoniy kamolot – o'sib kelayotgan yosh avlodning ichki organlarining o'zgarishi, o'sishidir. Birinchi navbatda, yurak va o'pka, shuningdek, nerv va harakat tizimi,

tana shaklining o'zgarishi, teri-muskul tizimi, og'irligi, tananing mukammal rivojlanishidir. Pedagogik tushunchada jismoniy kamolot insondagi jismoniy ma'lumotning o'sishi borasidagi o'zgarishlar, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga, nomukammallikdan mukammallikka tomon bo'lgan o'zgarishlar tushuniladi. Jismoniy madaniyat tarbiyaning tarkibiy qismidir. Jismoniy madaniyat mazmuniga quyidagilar kiradi: inson azolarining tuzilishi va ularning funksional kamoloti – ichki azolar, nerv va harakat, suyak-muskul tizimi, badanning uyg'unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash. Gigiyena qoidalariga ko'nikish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning har tomonlama mohirligini o'stirish. Ularni amalga oshirish yoshlarimizning turmush tarzini, jismoniy madaniyat va sport asosida mazmunli shakllanishini taminlaydi. Yuqoridagi sifatlarni doimiy mashqlar asosida har bir shaxsda o'z badaniga va uning go'zal bo'lishiga intilish, shaxsiy sog'lig'ini jamiyat taraqqiyoti bilan, xalq madaniyati bilan bog'lash sifatlari shakllanadi. Jismoniy tarbiya talim mazmunida ham qaror topadi. Uning vazifasiga eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda tanlangan sohaga aloqador ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish kiradi. Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar orqali ham, xususan, ishlab chiqarish talimi orqali ham amalga oshiriladi: jismoniy sog'lik, badan go'zalligi va boshqalar qaror topadi. Insonni kamol toptirish har tomonlama jismoniy tarbiyalashni ko'zda tutadi. Jismoniy tarbiya sog'liqni saqlashga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, yoshlarni mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashga qaratilganidir. Jismoniy tarbiya ta'limoti o'z ichiga «jismoniy madaniyat», «jismoniy barkamollik», «jismoniy tarbiya», «jismoniy rivojlanish» kabi tushunchalarni oladi. Jismoniy madaniyat – insonlarni jismoniy jihatdan mukammallashtirish uchun foydaladigan moddiy hamda madaniy qadriyatlar yig'indisidir. Maxsus maktab muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun o'quv tipidagi mashg'ulotlar ertalabki gimnastika, fizikultura daqiqalari, chiniqtiruvchi muolajalar, harakatlil o'yinlar ekskursiyalar, sayohatlar, bayramlar, yakkama-yakka va mustaqil mashg'ulotlar tarzida uyushtiriladi. Bulardan tashqari, musiqali ritmik darslarida ham jismoniy tarbiyani vazifalarini hal qiladigan jismoniy mashqlar, o'yinlar va raqslardan vosita tarzida foydalaniladi. O'quv tipidagi jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarida bolalarni harakatlil o'yinlar asosiy rol o'ynaydi. Tizimli harakatlil o'yinlar asosan bolalarni kuchini, elastikligini mustahkamlaydi, nafas olish, qon aylanish va yurak tomir tizimi ishlarini, organlardagi modda almashinuvi jarayonini yaxshilaydi. Harakatlil o'yinlar uyushgan holda yaxshi kayfiyat bilan boshlansa, har kungi bajarilgan jismoniy mashqlarning ta'sir kuchi komatni tutish va jismoniy mashqlarning sog'likka foydasi haqidagi dastlabki elementar bilimlarni shakllanishiga olib keladi. Harakatlil o'yinlar muvozonatlashgan tizimdan iborat bo'lib. Unda tug'ma va shartli refleks ta'sirining o'zaro murakkab munosabati orqali harakatga bo'lgan ehtiyoj bilan uning qanoatlantirilishi o'rtasidagi bog'lanish qaror topadi. Biz maxsus maktabda jismoniy tarbiya jarayonida keng foydalaniladigan harakatlil o'yinlarning tasnifini ishlab chiqdik. Bunday tizimlashtirish asosiga qo'yidagi mezonlar olindi [2, 74-b.]: yakka o'yin jarayonidagi yig'indi puls: yurak qisqarishlari takrorligi: harakatlar, u, jumladan, yugurish harakatlari soni yig'indisi: shug'ullanuvchilarning tanish, notanishroq, yangi o'yinlarga va o'yin mashqlarini bajarishga qiziqishi.

O'yinlardagi harakat faolligi darajasi mana shunday mezonlar asosida uch guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ancha qiziqish uyg'otgan va nisbatan yuqori harakat faolligini ta'minlagan o'yinlar kiritildi. Bolalar bunday o'yinlarni o'yin harakatlarini bajarish sitaklarini yo'qotmasdan va tashabbuslarini kamaytirmasdan ko'p karra o'ynaydilar. Bunday o'yinlar vaqt bo'yicha 15 minut va undan ortiq davom etishi mumkin. Masalan: «Otib qochar», «Bo'ron», «Cho'pon». «Quloq cho'zma» bular beysbol, golf kabi AQShning milliy o'yinlariga o'xshab ketadi.

Ikkinchi guruhga shunday o'yinlarni kiritdiki, ularni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar qiziqish va juda faollik bilan o'ynaydilar, biroq o'yin holatlarini bajarishga bo'lgan qiziqish

bolalarda tez so'nadi. Harakat faolligi esa pasayadi, o'yinlarning davomiyligi o'rtacha 7-8 minut davom etadi. Bu o'yinlarni bajarish vaqtida harakat faolligi 500-800 lokomotor birligini tashkil yetadi, 50% yugurish harakatlariga to'g'ri keladi.

Uchinchi guruhga umumiy harakat faolligi yuqori bo'lmagan o'yin harakatlari va o'yinlarini jamladik. Buning kuzatishlarining ko'rsatishicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bunday o'yinlardagi tashabbusi juda tez pasayib ketadi. Harakat faolligi 7-10 minut o'ynalgandan keyin 500 lokomotor aktidan ortib ketadi.

Quyida xarakterli o'yinlaridan ayrimlarini o'tkazish namunasini keltiramiz.

Eshit va uni bajar. O'qituvchi bir nechta harakatni (2-6), ularni ko'rsatmadan ovozi chiqarib aytadi. O'yin qatnashchilari o'qituvchi qanday aytgan bo'lsa, amalda shu ketma-ketlikda bajarishlari shart. O'yinda xatoga yo'l qo'ygan bolalar jarima oladilar. Eng kam jarima to'plagan bola o'yinda g'olib deb topiladi.

Qushlar parvozi. Qushlar (bolalar) qanoqlarini yozib butun maydoncha bo'ylab uchib yuradilar. «Bo'ron boshlanadi!» degan signal berilishi bilan ular daraxtlarga chiqib yashirinadilar (badantarbiya devorchisiga tirmashib chiqadilar). O'qituvchi «Bo'ron bosildi», deyishi bilan «qushlar» shohlardan tushadilar (badantarbiya devorchasidan pog'onama-pog'ona, ohista) va uchishni davom ettiradilar. Ko'rsatmalar. Agar badantarbiya devorchasi bo'lmasa, o'rindiqlar, yashiqlar va boshqa buyumlardan foydalanish mumkin.

Arg'amchi ustidan sakrash o'yini. Bolalar arg'amchining ikki uchidan ushlab aylantira boshlaydilar, qator bo'lishib arg'amchiga tegmasdan navbatma-navbat sakraydilar. Arg'amchiga kim tegib ketsa, o'sha arg'amchi aylantirayotgan bolalardan biri bilan o'rin almashadi.

Qala himoyasi o'yini. O'yinovchilar 3-4 aylanaga saflanadilar. Har bir o'quvchining orasidagi masofa 1 metr. Ularning oyoqlari oldidan chiziq chiziladi. Aylanalar markaziga tayyoqchalar o'rnatiladi. O'yinchilardan biri himoya qilish uchun chiziq atrofiga borib turadi. Unda voleybol yoki basketbol to'pidan foyniladi. O'yin o'qituvchi qo'ng'irog'i bilan boshlanadi. O'quvchilar to'plarni bir-biriga oshira turib, payt poylab, to'pni qallaga tekkizishga harakat qiladilar. Himoyachi esa qo'l, oyoq va gavdasi bilan qalani himoya qiladi. To'pni tekkizgan o'yinchi himoyachi bilan o'rin almashadi.

Zovurdagi bo'ri o'yini. Bir-biridan 60-70 sm uzunlikda ikki yonma-n chiziq o'tkaziladi, u zovur vazifasini o'taydi. Bir yoki ikkita boshqaruvchilar, «bo'ri»lar zovurda turadilar. Qolgan bolalar "yechkilar" hisoblanadi. «Yechkilar» chiziqning bir tomonida, o'z o'ylarida bo'ladi. Qarama-qarshi tomonga yaylovchi belgilaydigan chiziq chiziladi. O'qituvchining ishorasiga binoan, «echkilar» o'ylaridan chiqib, zovurdan sakrab, yaylovga chopib o'tishadi. «Bo'rilar» esa, ularni tutishga harakat qiladilar. Har bir yugurishdan so'ng qo'lga tushganlar soni sanab chiqiladi, so'ng yangi «bo'rilar» saylanadi.

Kech qolma! Polga kubiklar yoki silindrlar doira shaklida terib qo'yiladi. Bolalar kubiklar yonida turishadi. O'qituvchining ishorasi bilan ular xona bo'ylab yuguradilar. Bunda ular bir-birlariga urilib ketmasliklari va kubiklarni tepib o'tmasliklari kerak. «Kech qolma!» degan buyruq berilgach, bolalar o'z kubiklariga qarab yuguradilar.

Doiraga tushir. Bolalar davra qurib turadilar. O'rtaga katta chambarak qo'yiladi va doira chiziladi. Doiradan 2-3 qadam masofada davra qurib turgan bolalarning qo'lida ichiga qum to'ldirilgan xaltachalari bo'ladi. O'qituvchining «Tashla!» degan buyrug'i bilan barcha bolalar xaltachalarini doiraga tashlaydilar. So'ngra o'qituvchining «Xaltachalarni ko'tarib oling!» degan buyrug'i bilan bolalar xaltachalarini olib, o'z joylariga kelib turadilar. O'yin 4-6 marotaba takrorlanadi.

O'rmondagi ayiq. Maydonning bir tomonida ayiqni chizib qo'yiladi. Ikkinchi tomonda bolalar yashaydigan uy aks ettiriladi. O'qituvchi inida o'tiradigan «ayiq»ni tanlaydi. O'qituvchi: «Bolalar, boringlar o'ynab kelinglar!» deyishi bilan bolalar uydan chiqib. O'rmonga o'ynagani ketadilar. Qo'ziqorin teradilar, kapalak tutadilar va hokazo...

Ular xor bo'lib shunday deydilar:

Ayiq ini oldida,
Qo'ziqorin teramiz.
Ayiqvov o'kirkanda
Bizlar qochib ketamiz.

«O'kirkanda» so'zidan so'ng «ayiq» uylariga qochib ketayogan bolalarni tuta boshlaydi. «Ayiq»ning qo'li tekkan bola tutilgan hisoblanadi, uni o'z iniga olib borib quyadi. O'z chegarasidan o'tgandan keyin bolalarni ushlash mumkin emas. O'yin 3-4 marotaba takrorlanadi.

«Kim birinchi?» o'yini. Ikkita stulning o'rtasiga 8-10 m masofada arqoncha tashlab qo'yiladi. O'yinchilar ikki guruhga bo'linadilar. O'qituvchining buyrug'i bilan o'quvchilar o'z raqiblari stuli atrofida yugurib, aylanib stulga o'tirib oladilar va oldinga yengashib arqon uchini ushlashga harakat qiladilar. Kim birinchi bo'lib arqon uchini ushlasa. O'sha o'yinchiga bir ochko beriladi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Qaysi guruh ko'p ochko to'plasa, o'sha guruh g'olib deb topiladi.

«Qoch-qoch». Ishtirokchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchisi oldinda, ikkinchisi orqada turadi. O'qituvchining ishorasi bilan birinchi guruh qochadi, ikkinchisi quvlaydi. Quvlovchi o'yinchilar yetib olsa, o'zlari orqaga qochadilar, ushlaganlar quvlaydilar. O'yin ishtirokchilaridan ko'pi ushlanib, ular soni oz qolguncha o'ynaladi.

«Soqqa». O'yin ishtirokchilari ikki qatorga tizilib turadilar. Birinchi qatordagi o'yinchilar qo'lidagi to'p yoki toshni uzoqqa uloqtiradilar. Ikkinchi qatordagi o'yinchilar esa, qo'lidagi to'p bilan uni urishga harakat qiladilar. Agar o'yinchi tekkiza olmasa, boshqa gurux o'yinchisi tashlashiga ruxsat yetiladi. Agar o'yinchi soqqani tekkiza, bir ochko beriladi. Navbat ikkinchi guruh o'yinchisiga berilib, unga soqqani uloqtirishga ruxsat yetiladi. O'yinda kamroq xatoga yo'l qo'yib, ko'proq ochko to'plangan guruh g'olib chiqadi. Soqqa sifatida to'p (yoki toshdan) foydalanish mumkin.

«Qirg tosh». O'yinchilar 3-4 guruhga bo'linadilar. O'yin estafeta shaklida o'tkaziladi. Hamma guruh qatordagi orqama-orqa bo'lib saflanadilar. O'qituvchi buyrug'i bilan har bir guruh oldidagi o'yinchilar har qadamda tosh qo'yib chiqadilar va belgilangan joydan qaytib keladilar. Keyinchi uyinchi esa, toshni yig'ib keladi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan guruh g'olib hisoblanadi. Toshlar o'rnida tennis to'plaridan ham foydalanish mumkin.

«Durra soldi». O'yinchilar doira shaklida o'tiradilar. Boshlarini tizzaga qo'yib, ko'zlarini yumadilar. Bir o'yinchi qo'lidagi durrani biror o'yinchi orqasiga quyadi, durra qo'yilgan o'yinchi boshlovchini quvib ketadi. Boshlovchi o'z joyiga o'tirib olsa, keyingi durrani solish uchun aylanadi. O'yin shu tariqa davom yettiradi.

Xulosa. Shunday qilib, biz o'tkazgan tadqiqot kuzatishlar eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning harakat faolligini oshirish uchun milliy harakatli o'yinlar va o'yin harakatlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Ular eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning harakatli o'yin faoliyatiga bo'lgan barqaror qiziqishini ta'minlaydi va harakat faolligini oshirish uchun sharoit tug'diradi. Binobarin, ular funksional imkoniyatlarni oshirishga asos yaratgan va o'sayotgan organizmning harakatlanishiga tayyorgarligini yaxshilaydi.

Adabiyotlar:

1. Амирсайдова Ш.М. Махсус педагогика фани ривожланишида шарқ мутафаккирлари ғояларининг ўрни ва роли: Пед. фанл. номз. ... Дис. авто-реферати. - Т., 2006.
2. Боскис Р.М. Письмо слабослышащих детей. - М., 2004.
3. Мўминова Л., Амирсайдова Ш. ва бошқ. Махсус психология. - Т.: Фан ва технологиялар, 2013.
4. Пўлатова П., Нурмухамедова Л., Амирсайдова Ш. Махсус педагогика. - Т.: Фан ва технологиялар, 2014.

SURDOPEDAGOGIK FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH BO'YICHA TAJRIBALAR

Malikova Xurshida Ikramovna, TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada surdopedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash mazmuni yoritiladi. Maqolada surdopedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ijobiy samarasi ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: *surdopedagogik fanlar, o'qitish, pedagogik texnologiyalar, tajribalar, videotahlil, mutaxassislik fanlar, mavzu, interfaol metodlar, ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar.*

ОПЫТ ПРИМЕНЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ СУРДОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Маликова Хуршида Икратовна, самостоятельный исследователь ТГПУ

Аннотация. В данной статье освещено содержание применения педагогических технологий в преподавании сурдопедагогических дисциплин. В статье раскрывается положительный эффект применения педагогических технологий в преподавании сурдопедагогических дисциплин.

Ключевые слова: *сурдопедагогические дисциплины, преподавание, педагогические технологии, эксперименты, видеонаблюдение, специальность дисциплины, предмет, интерактивные методы, лекции, практические занятия.*

EXPERIMENTS ON THE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING SURDOPEDAGOGICAL DISCIPLINES

Malikova Khurshida Ikramovna, independent researcher of TDPU

Abstract. This article will cover the content of the application of pedagogical technologies in the teaching of surdopedagogical disciplines. The article reveals the positive effect of the use of pedagogical technologies in teaching surdopedagogical disciplines.

Key words: *surdopedagogical sciences, teaching, pedagogical technologies, experiments, video communication, specialty disciplines, subject, interactive methods, lectures, practical classes.*

Kirish. Mutaxassislik fanlari talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash asosida, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida korreksion-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga oid bilimlarni egallashga, maxsus ta'lim jarayonida ijodiy izlanuvchanlik bilan yondashish, mulohazalar zanjirini mantiqiy qura olish, qiziqarli materialni tanlash, o'rganilayotgan obyektlarning xossalarni isbotlash bo'yicha malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga, o'z bilim va malakalarini mustaqil to'ldirib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan fan sifatida namoyon bo'ladi [1].

Asosiy qism. Mutaxassislik fanlari ta'limida pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar tahlili pedagogik texnologiya funksiyasiga aniqlik kiritish va uning konseptual modelini qurishga oid yondashuv variantini asoslash imkonini berdi. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda ta'lim maqsadini amalga oshirishda turli ta'lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil sifatida o'quv mashg'ulotlarining didaktik vazifasi inobatga olinadi. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim

metodlarini tanlashning mezonlari dars jarayonidagi tahsil oluvchilar sonini hisobga olishdir. Agar ularning soni ko'pligini tashkil etmasa, u holda faol o'qitish metodlaridan foydalanib, o'qitishni jadal sur'atlarda olib borish mumkin bo'ladi. Agarda ko'p bo'lsa, ularning har biriga e'tibor berish uchun vaqt yetishmasligi natijasida tahsil oluvchilarni boshqarish murakkablashadi. Bunda o'quv materialini bayon qilishda ko'proq og'zaki usullardan ma'ruza, hikoya tushuntirishlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida talabalarni o'quv imkoniyatlari - bunda tahsil oluvchilarning yoshi, darslarga tayyorgarlik darajasi, jamoadagi o'zaro munosabatlar, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini e'tiborga olish lozim. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga binoan ta'lim metodlarini tanlashda yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslangan holda o'quv jarayonlarini to'liq loyihalashtirish orqali tashkil etiladi va berilgan o'quv materiallari mazmuni tahsil ularga ongiga tez-oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishiladi [2]. «Karusel» metodi mutaxassislik fanlarni o'qitishda mavzu yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirish va mukammal o'zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo'llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: har bir guruhga asosiy savollar bo'lib beriladi. Har bir guruhga qog'oz beriladi va guruh a'zolari 4-5 daqiqa mobaynida o'zaro fikrlashib, javobni qog'ozga yozadilar. Belgilangan vaqt o'tgach, o'qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog'ozni keyingi guruhga uzatadilar. Har bir guruh har bir savolga o'zidan oldingi guruh yozganiga qo'shimcha javob yozib chiqadilar. Har bir guruh o'zining yozgan javobini izohlab beradi. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarining qo'shimcha izohlari berilgan holatda o'ziga qaytib keladi, go'yo savol yozilgan, qog'oz guruhlar orasida aylanib, to'ldirilgan shaklga keladi. O'qituvchi yozilgan javoblarga qarab mikroguruh a'zolarini baholaydi. Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, bunda guruh a'zolari mavzuni savollarga bo'lib, to'liq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir guruhning fikrlari muhokama qilinishi natijasida guruh a'zolari o'z yutuq va kamchiliklarini aniqlab oladi. Eng muhimi talabalar mustaqil fikrlashga, faollikka yo'naltiriladi va ularda bir-birini baholay olish ko'nikmasi shakllanadi. Shu yerda muammoli va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalarining hamohang tarzidagi uyg'unligi ko'rinadi. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda samarali kommunikatsiya va faoliyatda mustaqillik bilan ta'minlash maqsadida bugungi kunda keys-texnologiya, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, muammoviy-modul texnologiyasi, loyihaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanilinish ijobiy samara beradi. Keys-texnologiya barcha faol ta'lim metodlarini o'z ichiga oladi. Keysni hal qilishda talaba nafaqat egallangan bilimlarni qo'llash, balki o'zining shaxsiy sifatlarini ham namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi [3]. Amaliy mashg'ulotlarda har bir talaba ishini maksimal darajada faollashtirish va uni keys ustida ishlash jarayoniga jalb qilish maqsadida o'quv guruhlari 4-6 kishidan iborat ishchi kichik guruhlariga bo'linadi. Kichik guruhlarini shakllantirish va rollarni taqsimlash talabalarning o'zlariga topshiriladi. Kichik guruhlarda ishlash barcha qatnashchilarning ijodiy qobiliyatini samarali namoyon etishga, musobaqachilik ruhini rivojlantirishga, shaxslararo va guruhiy kommunikatsiya malakalari va ko'nikmalarini ishlab chiqishga yordam beradi. O'quv mashg'ulotlarining turli bosqichlarida har bir talaba mustaqil ijodiy faoliyat tajribasini to'plab olishi uchun individual, guruhiy va jamoaviy ish shakllari qo'llanadi. Keys ustida ishlash jarayonida, shuningdek, guruhda muhokama qilish (shu jumladan, guruhda ishlash, kubik va sinkveyn, aqliy hujum) metodi ham qo'llanadi. Imkon darajada yuqori samaraga ega bo'lish

maqsadida, avvaldan ishlab chiqilgan keysdan tashqari, tegishli axborot va metodik hamkorlikdan foydalaniladi. Talabalarning ijodiy potensialini rivojlantirishda qo'llanadigan «Keys» nomli to'liq ish kompleksi tayyorlanadi. Keys ustida ishlashdan ko'zlangan maqsad talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon modelini eksperimental va nazorat guruhlarida joriy etish natijalarini qiyoslashdan iborat bo'ladi. «6x6x6» metodi mutaxassislik fanlarni o'qitishda bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchi-talabani muayyan faoliyatga jalb etish orqali mavzuga oid topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish imkonini beradi. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruh tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. «6x6x6» metodining afzallik jihatlari shundaki, u guruhlarining har bir a'zosini faol bo'lishga, o'zlarining shaxsiy qarashlarini ifoda etishga undaydi, guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi, ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt 20 daqiqa mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o'quvchi-talabdan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida «6x6x6» metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keldi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. «6x6x6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. «6x6x6» metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo'yib chiqadi. Keyin o'quvchi-talabalarni 6 ta guruhga bo'ladi. O'quvchi-talabalarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga ushbu varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi-talaba o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi. O'quvchi-talabalar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchi-talabalar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng, belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlarga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. «Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodi mutaxassislik fanlarni o'qitishda mavzusini mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metodni qo'llash jarayonida quyilagi amallar bajariladi: o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmuini tayyorlaydi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu

mohiyatini yorituvchi «yadro» tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi); har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi; guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

«Zakovatli zukko» metodi mutaxassislik fanlarni o'qitishda mavzular bo'yicha bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchi-talabalarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi [4, 99-b.]. «Zakovatli zukko» metodi o'quvchi-talabalarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra, shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchi-talabalar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra, har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchi-talabalarning tafakkur tezligi aniqlanadi. «Zakovatli zukko» metodi o'quvchi-talabalar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

«Qarama-qarshi munosabat» metodi mutaxassislik fanlarni o'qitishda mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi; ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi; tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi; jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan, 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi; kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi; jamoaning umumiy fikriga ko'ra, yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi. Videotahlil ham zamonaviy ta'limda so'nggi yillarda tobora ommalashib borayotgan metodlardan biri bo'lib, mutaxassislik fanlarni o'qitishda o'quv materialining talabalar tomonidan obrazli o'rganilishiga yordam beradi. Muayyan nazariy yoki amaliy ma'lumotlar video tasvir yordamida talabalarga yetkazilib beriladi. Ta'lim amaliyotida videotahlil sifatida o'quv ko'rsatuvlari, slaydlar, diafilmlardan samarali foydalanish tajribasi mavjud. Mazkur metoddan foydalanish uchun ma'lum texnik vositalar, chunonchi, videokamera hamda tasvirni ekranga uzatish qurilmalarining mavjud bo'lishi talab etiladi, shuningdek, mashg'ulot tashkil etilayotgan xona ma'lum darajada jihozlanishi (masalan, xonada yorug'likni kamaytirish imkonini beruvchi moslamalar bo'lishi) lozim. Video tasvir yordamida talabalarga o'quv materialini yetkazib berishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarlikka, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishigina emas, shu bilan birga texnik vositalar bilan ishlay olish ko'nikmalariga egaligi ham muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Videotahlil ham boshqa interfaol metodlar kabi talabalar o'rtasida bahs-munozarani yuzaga keltirish, ularda o'rganilayotgan yoki tasvirda namoyish etilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy qarashlarni hosil qilish imkonini beradi. Tasvir namoyish etilgach, talabalar u yuzasidan bahsga kirishib, ma'lum muammoning yechimini topishga harakat qilishlari lozim. Ushbu jarayonda asosiy o'rinlarga e'tibor qaratish, namoyish etilgan materialning eng asosiylarini ajratib olish, ular asosida qarorlar qabul qilish va umumiy xulosalarga kelish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida

videotahlil sinf talabalari tomonidan ommaviy, guruhli yoki juftlik asosida olib borilishi mumkin. Harakat shaklining tanlanishi tasvirda aks etgan materialning murakkabligi, talabalar uchun qay darajada tanish yoki notanish bo'lishiga bog'liq. O'qituvchi videotahlilning texnik hamda tashkiliy-texnologik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini nazorat qilib boradi, zarur o'rinlarda talabalarga maslahat yoki ko'rsatmalar berib borishi mumkin. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi umumiy shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: 1. Ta'lim metodlarining yetakchi va umumiy ta'lim tamoyillariga muvofiq kelishiga erishish. 2. Mutaxassislik fanlari mazmuni, o'zlashtirilayotgan mavzu xususiyatini inobatga olish. 3. Ta'lim maqsadiga erishish va pedagogik vazifalarning ijobiy yechimini ta'minlashga xizmat qila olishiga ishonch hosil qilish. 4. Talabalarning o'quv imkoniyatlarini e'tiborda tutish. 5. Pedagogik jarayon davomida turli xil tashqi omillarning ta'siri va kutilmagan holatlar, vaziyatlardan chiqib keta olishga tayyor bo'lish.

Xulosa. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida yuqorida tavsifi keltirilgan interfaol metodlardan ma'ruzalarda va amaliy mashg'ulotlarda foydalanilish ijobiy samara beradi. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Demak, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni amalga oshirilishi har bir o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarining sifati bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ilmiy-intellektual salohiyatini oshirishga, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Marschark M., HarryG. Lang, John Albertini - educating deaf students. - Oxford University Press, 2006. - 83 p.
2. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. - Т.: Ўқитувчи, 2004. - 104 б.
3. Зиёмухаммедов Б. Илғор педагогик технология: назария ва амалиёт. - Т.: Ибн Сино, 2001. - 59 б.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Т.: Молия, 2002.
5. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. - Т.: Фан, 2002.

KREDIT-MODUL TA'LIM TIZIMIDA MUSTAQIL ISHLARINING TASHKIL ETILISHINING ZAMONAVIY ILMIY-METODIK YONDASHUVLARI

Xaydarova Oygul Fazliddinovna, TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. To'g'ri tashkil etilgan mustaqil ish o'quvchilarning o'quv tajribasi, hayotiy ko'nikmalari, ijtimoiy va kasbiy jozibadorligini, shaxsiy va o'zini o'zi qadrlash imkoniyatlarini egallashiga zamin yaratadi. Mustaqil ta'lim kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Tayanch so'zlar: kompetensiya, mustaqil ta'lim, surdopedagog, talabalar, o'qituvchi, mutaxassislik, tabaqalashtirilgan yondashuv.

СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ

Хайдарова Ойгул Фазлиддиновна, преподаватель ТГПУ

Аннотация. Грамотно организованная самостоятельная работа создает основу для приобретения студентами опыта обучения, навыков жизненной, социально-профессиональной привлекательности, возможностей для личностной и самооценки. Самостоятельное образование формирует профессиональные компетенции.

Ключевые слова: компетентность, самостоятельное обучение, сурдопедagog, студенты, учитель, специализация, дифференцированный подход.

MODERN SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK IN THE CREDIT-MODULAR SYSTEM OF EDUCATION

Haydarova Oygul Fazliddinovna, lecturer of TSPU

Abstract. Properly organized independent work creates the basis for students to acquire learning experience, life skills, social and professional attractiveness, opportunities for personal and self-esteem. Independent education forms professional competencies.

Key words: competence, independent learning, deaf teacher, students, teacher, specialization, differentiated approach.

Kirish. Oliy ta'lim tizimi fan va amaliyot yutuqlariga, milliy va jahon madaniyatining insonparvarlik an'alarini saqlash va ularga amal qilgan holda, uzluksiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asoslanadi.

Asosiy qism. Oliy kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirishning belgilovchi me'zonlari demokratlashtirish, uzluksizlik, integrativlik, standartlashtirish, moslashuvchanlik va ochiqlik, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati kabi mezonlar sanaladi. Oliy pedagogik ta'lim talabalarning insonning tabiat, madaniyat, jamiyat, davlat bilan tabiiy munosabatlarini, shaxsni vujudga kelishi jarayonlari haqidagi bilimlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi, ularni psixologik, pedagogik, ijtimoiy muammolarning tarkibiy munosabatlarini hisobga olgan holda o'quv kurslarida taqdim etilgan antropologik bilimlar tizimi bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Bo'lajak mutaxassis modelini amalga oshirish dasturi nafaqat kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlarni egallashni, balki professionallik, kasbiy mahoratni belgilaydigan kasbiy madaniyat, ko'nikma va qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim tizimidagi yangi an'analarga muvofiq o'qituvchilarni tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri bu talabalarning o'z-o'zini o'qitishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish, kasbiy

vazifalarni ijodiy hal qilish, tezkor axborot oqimida harakat qilish qobiliyati, kelajakdagi mutaxassisning aks ettiruvchi madaniyatini shakllantirish, talabalarning o'quv faoliyatini va ularning kasbiy o'sishini loyihalashtirish. Hozirgi bosqichda kredit-modul ta'lim tizimida OTMdagi o'quv jarayoni o'z mexanizmi va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan yakuniy natija bilan kafolatlanayapti. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro subyekt-subyekt ta'sirini belgilaydigan dialogik yondashuv asosida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga ahamiyat berilmoqda. Pedagogik ta'lim nafaqat talabani axborot bilan to'yinganligiga, balki samarali, ijodiy fikrlashni shakllantirishga, shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va axborotni har tomonlama qayta ishlash usullarini shakllantirishga qaratilgan. Talabalarda kognitiv ehtiyojlar, umumiy va kasbiy rivojlanishga qiziqishlar, o'z-o'zini o'qitish va rivojlantirishga intilish va tayyorlikning maqsadli shakllanadi. Zamonaviy ilmiy va uslubiy adabiyotlarda shuni isbotlamodaki, talabalarning mustaqil ishini to'g'ri tashkil etilganligi nafaqat o'quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirishga, shu jumladan, o'zida bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni mustahkam, chuqur o'zlashtirishga, tahlil qilish, tizimlashtirish va o'quv materiallarini tavsiflashga, fan ichida va fanlararo aloqani o'rnatishga, shakllangan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Balki muhim insoniy fazilatlarining – mustaqillik, tashabbuskorlik, qo'yilgan vazifalarga ijodiy yechim topish, mavjud imkoniyat va qobiliyatlarni maksimal rivojlantirish va qo'llay olishga ham ko'mak beradi. Shuning uchun talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlari kursi faol ravishda mutaxassislarni tayyorlash tizimida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanadi. Bu yangi avlod oliy ta'limining davlat standartlarida o'z aksini topgan bo'lib, u o'quv davrining 50% hajmida auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni ko'zda tutadi.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, mustaqil ishlar doimo didaktikaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida o'rganilib kelgan. Talabalar tomonidan mustaqil ishlarning ahamiyati M.Monten, T.Kampanelli, Y.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalotssi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy va boshqalarning asarlarida alohida etirof etilgan. Zamonaviy bosqichda mustaqil ishlar tizimini takomillashtirish, uni tashkil etish va tarkibini boyitishning eng samarali yo'llarini izlashga katta ahamiyat berilmoqda. Ilmiy-metodik adabiyotlarda mustaqil ish belgilarini aniqlash, uning turlarini tasniflash, mustaqil ishning umumiy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi; umumta'lim maktablaridagi sinfda va darsdan tashqari soatlarda hamda OTmlardagi auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi vaqtlarda mustaqil ishlarni har tomonlama tashkil etish va o'tkazishning turli usullari o'rganiladi. Mustaqil ish ta'lim jarayonini tashkil etish shakli sifatida, o'quv faoliyati turi sifatida, shuningdek, o'qitish usuli sifatida hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish vositasi sifatida qaraladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ilmiy-metodik adabiyotlarda turli atamalar – «mustaqillik», «mustaqil faoliyat», «talabalarning mustaqil ishi» atamalaridan foydalaniladi. Mustaqillik faoliyatning o'ziga xos xususiyati sifatida va talabalarning mustaqil ishi uning namoyon bo'lish shakli sifatida o'quv jarayonida faoliyatning ikki turi bilan – ishlab chiquvchi (reproduktiv) va o'zgartiruvchi (samarali) amalga oshirish usullari va xususiyatlari bilan bog'liq. Muhim insoniy fazilat sifatida mustaqillik deganda zamonaviy didaktikada ongli ravishda o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalari tizimi tushuniladi. Talabalarning mustaqil faoliyati bilimlarni o'zlashtirishga, ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirishga, ularni yangi sharoitlarda yangi o'quv materialida o'qituvchining bevosita yordamisiz va ishorasisiz operatsiyalarning tartibi va to'g'riligi haqidagi ilgari shakllangan tasavvurlar asosida foydalanishga qaratilgan. Talabalarning mustaqil ishi-bu o'quv mehnat turi bo'lib, u mashg'ulotlarda mustaqil bilim faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydi, talabalarning mustaqilligini insoniy fazilat sifatida shakllantirishga hissa qo'shadi, o'quv va ilmiy bilimlarni egallash vositasi hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlarda mustaqil ishlarning turli xil belgilari ajratilib berilgan: o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalariga binoan talabalarning vazifada qo'yilgan maqsadga yetishish ishtiyoqi bilan o'z vaqtida mustaqil ishlarni bajarish, talabalarga ijobiy motivatsiya berilgan holda ulardagi ijodiy faoliyatga intilish. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarda talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlariga eng samarali yondashuv deb o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarini amalga oshirishda talabalarning bilim olish jarayonini o'qituvchi tomonidan bilvosita nazorat qilinishi tan olinadi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etishda kelajakdagi mutaxassisning maqsadlarni erkin belgilash, ularni bajarish va tasdiqlash bilan bog'liq psixologik zaxiralari va shaxsiy salohiyatini ochib berishga qaratilgan akmeologik prinsiplarni, shuningdek, talabalarga ta'lim strategiyasini tanlash huquqini qat'iy chegaralashni inkor etuvchi andragogikani, talaba shaxsiyatini o'quv jarayoni subyekti sifatida rivojlanishini o'z ichiga oluvchi sinergetikani ham hisobga olish tavsiya etiladi. Talabalarning kognitiv faoliyatini samarali boshqarish o'qituvchi faoliyatining va boshqaruv algoritmining o'ziga xos xususiyatlari belgilaydigan, talaba faoliyatini belgilaydigan algoritmi faollashtirishni o'z ichiga oladi. Talabalarning kognitiv faoliyatini boshqarish algoritmini joriy etish maqsadni belgilash, boshqariladigan obyektning (talabani) dastlabki holatini o'rnatish, boshqariladigan obyektning asosiy o'tish holatlarini ta'minlaydigan harakatlar dasturini aniqlash, nazorat qilinadigan obyektning boshqaruvning har bir lahzasidagi holati to'g'risida ma'lum parametrlar tizimi to'g'risida ma'lumot olishni (aks ta'sir), shuningdek, aks ta'sir kanali orqali olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, tuzatish ishlarini ishlab chiqish va tadbiq etishni o'z ichiga oladi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida har bir kurs uchun o'quv maqsadlarini aniqlashda bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy, kasbiy, pedagogik va kognitiv yo'nalishini belgilaydigan xususiyatlar va xususiyatlar, zamonaviy fan yutuqlariga muvofiq psixologik, pedagogik, maxsus va uslubiy tayyorgarlikning zarur darajasi va xususiyatlari. amaliyot, malaka xususiyatlarini hisobga olgan holda mutaxassisga qo'yiladigan talablar hisobga olinadi. Har bir o'quv fanida talabani dastlabki holatini aniqlash maxsus texnika yordamida yangi o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan avvalgi o'quv bosqichining asosiy o'quv elementlarida uning bilim, ko'nikma va qobiliyatlari darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi. Olingan natijalar asosida talabani dastlabki darajadan talab etilayotgan darajaga o'tishining pedagogik ta'sirlari dasturi ishlab chiqilmoqda.

Talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlari mazmuni oliy kasbiy ta'limning davlat standarti va fan o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, kursni umuman o'zlashtirish uchun ma'lum bir o'quv materialining ahamiyati, bo'limlar va mavzularning mavzulararo, fanlararo va amaliy ahamiyati, talabalarning auditoriya darslari hamda MTS doirasida o'tkazilgan talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzluksizligi, kurs ishlari va tezislarni bajarishda, shuningdek, har bir mavzuni talabalar tomonidan o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar hisobga olinadi. Talabani kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'quv ma'lumotlariga katta ahamiyat beriladi. Ta'lim elementlarini tanlashda izomorfizm prinsipi tadbiq etilib, bu fanning barcha asosiy tarkibiy elementlari va mantiqiy birliklarini o'quv predmeti tarkibiga kiritishni ta'minlaydi, shuningdek minimallashtirish prinsipi ham mavjud bo'lib, bu faqat tarkibida hech qanday ortiqcha elementi bo'lmagan o'quv materialini mammal deb hisoblaydi. Ushbu ikki tamoyil tarkibni tanlash usulini belgilaydi, bu zarurat va uning hajmining yetarliligi talabini amalga oshirishga imkon beradi. O'quv materialini strukturalashda ilmiy xarakterdagi didaktik tamoyillar, tizimlilik, ochiqilik hisobga olinadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarishning muhim jihati o'qituvchidan o'quvchiga ma'lum bir ma'lumot oqimini og'zaki va yozma taqdimotining maqbul kombinatsiyasi bilan assimilyatsiya qilish uchun uzatadigan to'g'ridan-to'g'ri aloqa kanalini tashkil qilishdir.

Bu talabalarga zarur o'quv va ilmiy-uslubiy adabiyotlar, sinfdan tashqari mustaqil ishlar uchun maxsus ishlab chiqilgan vazifalar, shuningdek ularni amalga oshirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar bilan o'quv natijalarini o'z-o'zini nazorat qilish vazifalarini taqdim etishni o'z ichiga oladi. Uslubiy ta'minotning barcha tarkibiy qismlari asosiy didaktik talablarga javob berishi kerak, chunki ularning mazmuni va tuzilishi orqali sinfdan tashqari mustaqil ishlarning har bir bosqichida talabalarning o'quv bilim faoliyatini bilvosita boshqarish ta'minlanishi kerak. Samarali mustaqil ishlashning muhim shartlaridan biri bu minimal vaqt sarflaganda uning ishonchliligi, to'liqligi va maqbul chastotasi talablariga javob beradigan o'qituvchi nazoratini (aks aloqa) tashkil etishdir. Nazorat choralarini talabalar tomonidan sinfdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil yetish va o'tkazishning to'g'riligi va samaradorligini aniqlash, olgan bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlarini tekshirish va baholash, qiyinchiliklar va xatolarning sabablarini aniqlash, o'quv materiallarini sifatli o'zlashtirish uchun munosabatlarni yaratish, muntazam ravishda ishlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga, ongli, maqsadli, ijodiy mustaqil ishlarni tashkil etishga qaratilgan. Bunga baholash, o'qitish va tarbiyalash kabi nazorat funksiyalarini amalga oshirish orqali erishiladi. Baholash funksiyasi olingan bilimlarning sifatini baholashning obyektivligi prinsipini amalga oshirishda talab qilinadigan narsalar bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi. O'qitish funksiyasi nazorat ishi davomida olingan natijalarni hisobga olgan holda o'quv materialini talabalar tomonidan takrorlanishini maqsadga muvofiq tashkil etishdan iborat. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi faol, ijodiy mustaqil ishlash uchun motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Nazoratning davriyligi masalalari uning mazmuni va davomiyligi bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Nazoratning maqbul chastotasi bilim jarayonini boshqarish usuliga, o'rganilayotgan materialning tuzilishiga va o'quvchining individual xususiyatlariga bog'liq. Nazorat natijalariga ko'ra o'qituvchining qaror qabul qilishi tezkor bo'lishi kerak. Tuzatish ishlarini ishlab chiqish va joriy etish frontal mashg'ulotlar jarayonida jamoaviy boshqaruvni ham, oldindan ishlab chiqilgan algoritm bo'yicha yakka boshqaruvni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa. Biz shuni ta'kidlaymizki, nazorat jarayonida talabalar baholarining haqqoniyligi va taqqoslanishini ta'minlaydigan samarali o'lchov vositalaridan biri bu o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik testlardir. Pedagogik testlardan foydalanish barcha nazorat funksiyalarini samarali amalga oshirishga yordam beradi, tinglovchilarning potensial imkoniyatlarini aniqlash bilan bog'liq uning tahmin qiluvchi funksiyasini joriy etish va ulardan foydalanishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Макарова О. В. Изучение готовности к усвоению нового курса как одно из условий эффективной внеаудиторной самостоятельной работы (на примере курса "Методика развития слухового восприятия") // Современные технологии диагностики, профилактики и коррекции нарушений развития: Материалы научно-практической конференции. 10-11 октября 2005 года. - М., 2005. - С. 33-38.

2. www.Ziyonet.uz

BO'LAJAK MUHANDISLARDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQLAR TIZIMI

Bakirova Xilolaxon Botiraliyevna, O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak muhandislarda leksik kompetensiyani energetika terminlari misolida kontentga asoslangan yondashuv asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tahlil qilingan. Har bir tur mashqlar tizimi alohida ta'riflar bilan boyitilgan.

Tayanch so'zlar: *leksik kompetensiya, energetika terminlari, muloqot muammolari, muloqot shartlari, mashg'ulot turlari, sintagmatik va paradigmatic xususiyatlar.*

СИСТЕМА УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Бакирова Хилолахон Ботиралиевна, соискатель УзГУМЯ

Аннотация. В данной статье анализируются упражнения, направленные на развитие лексической компетенции у будущих инженеров на основе содержательного подхода на примере энергетических терминов. Каждый тип системы упражнений обогащается отдельными определениями.

Ключевые слова: *лексическая компетентность, энергетические термины, проблемы общения, условия общения, виды обучения, синтагматические и парадигматические признаки.*

SYSTEM OF EXERCISES FOR DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERS

Bakirova Hilolaxon Botiraliyevna, UzSWLU independent researcher

Abstract. This article analyzes the exercises aimed at developing lexical competence in future engineers based on a content-based approach on the example of energy terms. Each type of exercise system is enriched with separate definitions.

Key words: *lexical competence, energy terms, communication problems, communication conditions, types of training, syntagmatic and paradigmatic features.*

Kirish. Leksik kompetensiya rivojlanishining yakuniy darajasi turli muloqot muammolarini hal qilish uchun leksik birliklardan foydalana olish malakalarini rivojlantirish bilan bog'liq. Kompetensiyaning mazkur darajasi chet tilida amaliy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, muloqot shartlariga muvofiq va kerakli til bilimlari, nutq ko'nikmalari va malakalaridan foydalangan holda turli xil kommunikativ vazifalarni hal qilishga qaratilgan [1]. Aslida, lug'atni o'rganish uchun juda ko'p foydali mashg'ulot turlari mavjud, masalan, muvofiqlashtirish mashqlari (Matching drills): talaba bunda termini o'ziga mos keluvchi ta'rif yoki ekvivalenti bilan, sinonimlari/antonimlar bilan, tasvir/belgi/qisqartma yoki diagramma bilan, birikmalar bilan birlashtirishi lozim.

Asosiy qism. So'zlarni toifalarga ajratish (sategorization), bunda (multiple choices) talabdan mos yoki to'g'ri so'zni tanlash talab qilinadi.

To'ldirish (sompletion tasks), masalan, bo'sh joylarni to'ldirish.

Yaratish (creation tasks) topshirig'ida o'quvchilardan yangi o'rganilgan terminlarni jumalalarda yoki yozma holda va nutqda qo'llash so'raladi [2].

Olimlarning yuqoridagi nazariyalarini hisobga olgan holda, leksik mashqlar tizimini

ikkita katta guruh til (retseptiv) va nutq (reproduktiv) mashqlariga ajratishni taklif qilmoqchimiz. Til mashqlarini lingvistik kompetensiyani shakllantiradigan va grammatik hamda leksik qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan mashqlar deb atash ham mumkin. Bunday mashqlarda, asosan, til materiali bilan ishlanadi. Nutq mashqlari esa, og'zaki nutqni rivojlantirish, o'qish tezligini rivojlantirish, matnni taxmin qilish, tahlil qilish va tushunish qobiliyatini shakllantirish uchun ishlatiladi. Mazkur mashqlarda til va nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirish ketma-ketligi hisobga olinadi. Mashqlarning ikkala turi ham leksik materialni so'zlar, iboralar, jumlar, frazeologik birlik va matn darajasida o'rgatish bo'lib, uni o'quvchilar yozma yoki og'zaki shaklda, sinfda, juft bo'lib, kichik guruhlarda yoki mustaqil ravishda bajarishlari mumkin bo'ladi.

Tadqiqot ishimizda mutaxassislik leksikasini o'zlashtirish uchun mashqlar tizimini ikki guruhga – til va nutq mashqlariga bo'ldik va har ikki guruhda ham so'z darajasidagi mashqlar, frazeologik va gap darajasidagi mashqlar turlariga bo'linadi. Mazkur mashqlar, asosan, terminlarning semantikasi va ularning sintagmatik hamda paradigmatic xususiyatlarini qamrab oladi. Mashqlar tizimida terminlar murakkabligining oshib borishini hisobga olgan holda, mashqlarni bajarish ketma-ketligini osondan murakkabga tomon belgiladik. Mazkur mashqlar tizimi mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishi va bo'lajak mutaxassislarning sohasiy terminlar bilan ishlashi, o'zlashtirishi hamda nutqda qo'llash malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'zda tutadi.

Dastlab leksik mashqlar ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Tillararo interferensiyaga ko'ra, qiyinchiliklarni bartaraf qiluvchi mashqlar majmuasi.
2. Til ichki interferensiyasiga ko'ra, qiyinchiliklarni bartaraf qiluvchi mashqlar majmuasi.

Bu ikki katta guruh, o'z navbatida, kichik guruhlarga bo'linadi:

1. Tillararo interferensiyaga ko'ra, qiyinchiliklarni bartaraf qiluvchi mashqlar majmuasi:
 - 1) Oson o'zlashtiriladigan terminlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi. Bunda shakl va ma'no jihatidan bir-biriga mos keluvchi faqat talaffuz jihatidan farq qiluvchi internatsional va o'zlashgan terminlar bilan ishlanadi.

Ta'kidlash joizki, chet tillarni o'qitishning zamonaviy usullari nuqtai nazaridan, tarjima xarakteridagi mashqlar samarali hisoblanmaydi. Leksik birliklarning ma'nolarini to'g'ridan-to'g'ri tarjimasiz ifodalash usullari rasmlar, imo-ishoralar, mimikalar, vaziyatlar va boshqalar yordamida o'rgatish ko'proq samara beradi [3]. Ammo, texnika universitetida ingliz tilini o'qitish amaliyotimiz shuni ko'rsatdiki, talabalar o'rtasida ingliz tilini bilish darajasi turli bo'lgani uchun, tarjima mashqlari ingliz tilini bilishning boshlang'ich darajasi yetarli bo'lmagan talabalar uchun qulay metod hisoblanadi. Bilim darajasi turli bo'lgan talabalarda leksik ko'nikmalarining rivojlanishiga tizimli leksik va nutq mashqlari yordam beradi. Leksik mashqlarni darsning istalgan bosqichida bajarish mumkin, lekin odatda darsning boshida bajarish ko'proq samara beradi. Leksik mashqlar har xil shakllarda bo'lishi mumkin: o'yinlar – mavzu bo'yicha ko'proq so'zlarni aytish yoki yozish, doskada yozilgan so'zlarni alifbo tartibida tezroq tartibga solish, koptokni ushlab olish va so'zni tarjima qilish – ingliz tilidan ona tiliga va aksincha, rasmlar ostiga so'zlarni tezroq yozish, sinonimlar, antonimlar, yasama so'zlar, so'z va so'z birikmalarining tarjimasini, berilgan so'zlar bilan jumlar tuzish, kartochalar bilan juft bo'lib ishlash va hokazo.

2) Qiyin o'zlashtiriladigan terminlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi:

- a) shakl va ma'no jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan terminlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi. Mazkur tur mashqlar o'quvchilarga "ma'lum bir leksik materialni

kontekstga ko'ra anglashiladigan, uning rasmiyligiga qarab tanib olish va tushunishga o'rgatuvchi mashqlar"ni qamrab oladi [4; 102-b.]. Demak, bu tur mashqlar o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini va terminlar ma'nosini kontekstga qarab anglash qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Jumladan: energetika mutaxassisligiga oid matnlarni sarlavhalar (yoki rasmlar) bilan solishtirish uchun mashqlar; matn kontenti ustida ishlashga qaratilgan mashqlar: savollarga javoblar, xulosalarning to'g'ri / noto'g'ri ekanligini aniqlash; matnda keltirilgan terminlarning lug'atda taqdim qilingan ta'riflar bilan o'zaro bog'liqligi;

b) terminologik so'z birikmalar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi. Mazkur mashqlar majmuasi terminlarni til va nutq konstruksiyalarida ishlatish bo'yicha mashqlarni o'z ichiga oladi. Bu mashqlar so'zlar, so'z birikmalari, jumlarlar va matnlarni tuzishga asoslangan: morfemalardan so'zlarni hosil qilish; turdosh so'zlarning uyalarini (gnezd rodstvennix slov) tuzish; so'z shakllarining shakllanishi (shaxs va sonda turlanishi va boshqalar); har xil turdagi iboralar va jumalarni shakllantirish; har xil turdagi matnlarni tuzish shular jumlasidandir. Shuningdek, texnika tilidagi eng keng tarqalgan terminologik so'z birikmalar bilan ishlash uchun umumiy o'zak asosida tuzilgan leksik birikmalarni aniqlash, yasaliq, ishlatilish va tarjima qilish xususiyatlarini tahlil qilishga qaratiladi.

2. Til ichki interferensiyaga ko'ra, qiyinchiliklarni bartaraf qiluvchi mashqlar majmuasi:

1) oson o'zlashtiriladigan terminlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi:

a) o'zagi bir xil bo'lgan yoki bir xil bo'lmagan, so'z yasovchi qo'shimchalar orqali yangi termin hosil qilish oson bo'lgan yasama so'zlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi. Mazkur tur mashqlar majmui terminning asosiy xususiyatlarini ajrata olish, farqlay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ularning asosini til birliklari va matn tahlili tashkil etadi, jumladan: matn tahlili, ya'ni matndagi nutq turini aniqlash qobiliyati - tavsiflash, bayon qilish, fikrlash; gapni sintaktik tahlil qilish, masalan, gapning maqsadga ko'ra turi; so'z turkumlari va ularning shakllarining morfologik tahlili, masalan, matndan alohida ot, sifat, fe'l va boshqalarni tanlash qobiliyati; leksik tahlil, masalan, terminning ma'nosini aniqlash, uni talqin qilish, so'z yasaliq usullarini tushuntirish qobiliyati; so'zni morfemik tahlil qilish, masalan, so'zning negizi, prefiks, o'zak, suffikslarni aniqlay olish; fonetik tahlil, so'zdagi tovushlarni ajrata olish, ularning sonini aniqlash qobiliyati; so'zning tovushlar va harflar tarkibini o'zaro bog'lay olish qobiliyatlarini va boshqalar shular jumlasidandir. Bu guruhdagi mashqlar so'z yasovchi termin va termin elementlari (o'zak va affikslar) haqidagi bilimlarni to'plashga qaratilgan.

2) Qiyin o'zlashtiriluvchi terminlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi:

a) sinonim terminlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi. Bu turga bir xil tipdagi, ya'ni ma'nosi bir xil bo'lgan terminlarni solishtirish bo'yicha mashqlar kiritiladi. Bu tur mashqlarni bajarishdan maqsad – ma'nodosh terminlarning muhim xususiyatlarini aniqlash, masalan, terminni aniqlashda umumiy bo'lgan belgilarini ajratib ko'rsatish, farqlarni topish, terminning vazifasini aniqlash, asosiy terminni ajrata olish kabi qobiliyatlar rivojlantiriladi;

b) polisemik, ya'ni ko'p ma'noli terminlar bilan ishlash uchun mashqlar majmuasi. Bunda bir ma'nosi umumfoydalaniluvchi so'z sifatida ishlatiluvchi, ikkinchi ma'nosi esa, termin sifatida ishlatiluvchi so'zlar bilan ishlash ko'zda tutilgan. Mazkur guruh mashqlari ko'p ma'noli terminlarning ma'nolarini aniqlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu kabi mashqlar terminlarni yakka holatda va kontekstda ishlatilganda noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladi.

Leksikaning metodik tipologiyasida mashqlar tizimi u yoki bu turdagi leksik birliklarni o'zlashtirishda yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini

hisobga olingan holda tuziladi. Shu o'rinda, leksik qiyinchiliklarning oldini olish uchun quyidagi tavsiyalarni ifodalaymiz:

- 1) leksik birliklarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga mos ravishda guruhlariga ajratish;
- 2) har bir guruhga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan metodlarni ishlab chiqish;
- 3) leksik qiyinchiliklarni bartaraf etish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: qiyin so'zlarni bir-biridan ajratish; o'rganilayotgan birliklarni turli kombinatsiyalar va assotsiativ munosabatlarini tahlil qilish; o'quv jarayonida farqlash qobiliyatini shakllantiruvchi differensiallovchi mashqlarni bajarish.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, aniq bir chet tilni o'rgatish uchun ishlab chiqiladigan til materialining tipologiyasi, jumladan, leksikaning metodik tipologiyasi nafaqat dissertatsiyalarda, balki mualliflar darsliklar tuzishda ham e'tiborga olsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki metodik tipologiyasi ishlab chiqilgan leksik birliklar til o'rgatish jarayonini tashkil qilishda va maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqishda juda katta samara beradi. Leksik malaka va ko'nikmalarni shakllantirishning samaradorligi metodik tipologiyaning sifatiga bog'liqligi ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlangan.

Adabiyotlar:

1. Шамов А.Н. Лексические навыки устной речи и чтения - основа семантической компетенции обучаемых // Иностранные языки в школе. - М., 2007. - № 4. - С. 19-21.
2. Georgieva V. Systematization of military terminology: Foreign Language competence as an integral component of a University Graduate Profile, 2007. - P. 85-104.
3. Harmer J. Essential teacher Knowledge. - Pearson education Limited, 2012. - 288 p.
4. Барышников Н.В. Методика обучения второму иностранному языку в школе. - М.: Просвещение, 2003. - 159 с.

СТРУКТУРА ОРГАНИЗАТОРСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ КАК КОМПОНЕНТ ЦЕЛОСТНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Кочкарова Дильноза Ахмадбаевна, старший преподаватель Совместного Белорусско-Узбекского межотраслевого института прикладных технических квалификаций в городе Ташкенте

Аннотация. В статье рассматривается понятие «организаторская культура», представляющее собой совокупность компонентов (эмоциональный, ценностный, интеллектуальный, практический), которые позволяют личности интегрироваться и адаптироваться в существующих и будущих условиях социально-организаторского развития студентов, учитывая нравственные и моральные установки в обществе, а также возможности их самореализации в процессе педагогической деятельности.

Ключевые слова: организаторская культура, технические вузы, общество, организаторское мышление, педагогические компоненты, знания, педагогическая деятельность.

TECHNIKA OLIY TALIM YURLARIDA TASHKILY MADANIYATNING TUZILISHI YAHLIT TALIM TIZIMINING TARKIBII QISMI SIFATIDA

Kochkarova Dilnoza Axmadboyevna, Toshkent shahridagi Belaruss-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada jamiyatdagi axloqiy munosabatlarni, shuningdek, ularning pedagogik faoliyatda o'zini-o'zi amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, talabaning ijtimoiy-tashkiliy rivojlanishining mavjud va kelajakdagi sharoitlariga integratsiyalashuvi va moslashishiga imkon beruvchi tarkibiy qismlarning (hissiy, qadriyat, intellektual, amaliy) kombinatsiyasi bo'lgan «tashkiliy madaniyat» tushunchasi muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar: tashkiliy madaniyat, texnik universitetlar, jamiyat, tashkiliy fikrlash, pedagogik komponentlar, bilim, pedagogik faoliyat.

THE STRUCTURE OF ORGANIZATIONAL CULTURE IN TECHNICAL UNIVERSITIES AS A COMPONENT OF AN INTEGRATED EDUCATIONAL SYSTEM

Kochkarova Dilnoza Akhmadbaevna, senior lecturer of Joint Belarusian-Uzbek interdisciplinary institute of applied technical qualifications in the city of Tashkent

Abstract. The article discusses the concept of «organizational culture», which is a set of components (emotional, value, intellectual, practical), which allow the individual to integrate and adapt in the existing and future conditions of the social and organizational development of students, taking into account the moral and moral attitudes in society, as well as the opportunities their self-realization in pedagogical activity.

Key words: organizational culture, technical universities, society, organizational thinking, pedagogical components, knowledge, pedagogical activity.

Введение. Государственная политика, проводимая Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым, выстраивается из специфики внутреннего состояния организационной деятельности студентов и потенциальных возможностей образовательного процесса в вузе и корректируется с учётом мирового опыта. Глубокие социально-политические и экономические изменения в мировом масштабе, переход к рыночной экономике ставят перед суверенным многонациональным узбекским обществом важнейшую педагогическую проблему – сформировать организаторскую функцию молодого специалиста, способствующую осуществлению эффективной профессиональной деятельности, что позволит оценивать данную

деятельность с позиции не только компетентностной, но и духовно-нравственной ценности. Так как человек, в котором сформирована организаторская культура, занимается не только потреблением и обогащением культурных, нравственных и экономических ценностей, но и восходит на новый уровень своего развития, поэтому организационную культуру логично будет рассматривать в качестве важнейшего средства по личностному саморазвитию. Следовательно, совершенствование системы организационной культуры в студентах будет обеспечивать конкурентоспособность наших кадров во всех сферах деятельности, а также применять передовые формы и методы управления качеством высшего образования.

Основная часть. Для того, чтобы общество успешно развивалось, необходимо воспитать у его членов качества, входящие в понятие «организаторская культура»: способность к риску, творческая активность, ответственность за принятые решения, уважение к партнерам и др. Однако программой обучения, которая предусмотрена для технических вузов это не всегда удается реализовать в полной мере. Это связано с тем, что научно-методические разработки недостаточно систематизированы. Организаторской культурой характеризуется состояние общественной деятельности педагогической направленности, которое имеет место быть на определенной ступени общественного развития. При этом, она включает в себя как организаторские знания, состоящие из педагогического опыта и организаторского мышления, так и материальный продукт, подразумевающий мир вещей и производственных процессов. Организаторское понятие понимается как организатор, имеющий организаторские способности, талант, задатки того, кто-то что-то организует; организационный относится к организации чего-либо (период, расходы, меры и т.д. Благодаря организаторской культуре во многом происходит формирование образа современной общественной жизни. Она свойственна всем элементам воспитательной системы, а также каждому способу, виду и форме коммуникативной деятельности отдельных работников, коллектива и общества в целом.

В исследовании мы исходили из предположения, что организаторская культура студента технического вуза как сложный, интегративный, практико-ориентированный, нравственно-организаторский аспект личности может быть реализована при условии, когда в процесс формирования организаторской культуры студентов включен ряд компонентов (эмоциональный, ценностный, интеллектуальный и практический); для студента организаторская культура превращается в профессиональную потребность; процесс формирования организаторской культуры подразумевает использование не только традиционных, но и специальных курсов для стимулирования возможностей передавать будущим коллегам полученные учащимися знания.

Анализ литературных данных (С.А.Баландин, Е.В.Лебедева, И.А.Савина, М.Х.Саидов, К.А.Стародуб, Н.И.Терещук, А.Х.Тиллаев, Н.В.Юрасюк и др.) позволил выделить следующие характерные черты состояния организаторской культуры преподавателей технического вуза: отсутствие понимания преподавателями необходимости организаторской культуры; недостаточная неосведомленность преподавателей о сущности этого процесса; низкая образовательная культура преподавателей; несоответствие современным требованиям образовательной культуры студентов и преподавателей; отсутствие у ряда преподавателей понимания сущности новых образовательных стратегий и роли, которую играет организаторская культура в современных педагогических и социальных условиях; отсутствие в технических вузах целостной системы по формированию организаторской культуры студентов; низкий уровень владения преподавателей и студентов организаторскими компетенциями. При получении высшего образования осуществление углубленной организаторской подготовки происходит в учебной и во внеучебной деятельности, при изучении предме-

тов по специализации и т.д. Определяя понятие организаторская культура студентов, необходимо отметить, что сегодня ее более правильно представлять в качестве составляющей части общечеловеческой культуры в целом, обуславливающей при этом организаторскую компетенцию, которая позволяет человеку реализовывать социальные роли, будучи объектом и субъектом организаторских отношений, обеспечивает участие в современной педагогике, как в роли потребителя (объекта), так и руководителя (субъекта). Организаторская культура включает три компонента: аксиологический, операциональный и когнитивный.

Компоненты процесса, формирующего студенческую организаторскую культуру, состоят из: принципов, целей, задач, содержания, формы и методов. В техническом вузе компоненты системы, формирующие организаторскую культуру, представляют собой: назначение и структуру системы, обеспечение кадрами, структура системного управления, финансовое, правовое и нормативное обеспечение, студенческая характеристика, техническая и материальная база и т.д. Особую роль играет педагогическое проектирование - это компоненты, отобранные согласно цели, а также определение отношений и связей между ними, направленных на формирование организаторской культуры. Если рассматривать организаторскую культуру на уровне личности (И.Н. Горностаева, Л.В. Соколова и др.), то в современной литературе можно выделить такие ее показатели, как: коммуникационный (общение); когнитивный (знания); оценочно-рефлексивный (самооценка); содержательно-операционный (умения). Среди других показателей также можно выделить форму и способ общения в процессе их педагогических и социальных действий; знания организаторской направленности; интеллект; навыки. Существенные препятствия в развитии организаторской культуры студентов заключаются в пассивности основной массы будущих специалистов технических вузов, в отсутствии опыта организовывать свои собственные организационные дела, в неумении включиться в оценку и анализ результатов труда, в организаторскую деятельность и др.

Вывод. Таким образом, педагогические компоненты – это компоненты, отобранные согласно цели, а также определение отношений и связей между ними, направленных на формирование организаторской культуры. Существенные препятствия в развитии организаторской культуры студентов заключаются в пассивности основной массы будущих специалистов технических вузов, в отсутствии опыта организовывать свои собственные организационные дела, в неумении включиться в оценку и анализ результатов труда, в организаторскую деятельность и др.

Литература:

1. Базавлущкая Л.М. Генезис исследования формирования организаторской культуры: Монография. - Челябинск: Искра-Профи, 2014. - 74 с.

2. Саидов М.Х., Саидова Д.Н. Развитие высших учебных заведений - гарантия прогресса общества и повышения конкурентноспособности национальной экономики // Вестник науки и образования. - М., 2020. - № 3(81). - Часть 3, 2020. - с.16-18.

3. Фалеева Л.В. Формирование организационной культуры студентов как фактор социализации личности: Дис. ... канд. пед. наук. - Казань, 2014. - 190 с.

ARAKINNING AMALIY INGLIZ TILI KURSI DARSLIGIDA ISHLATILGAN MAQOL VA MAQOL MASHQLARINING MIQDORIY VA SIFAT TAHLILI

Boyxanov Shuxratjon Mashrapovich, TDPU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Arakinning amaliy ingliz tili kursi darsligida ishlatilgan maqol va maqol mashqlarining miqdor va sifat tahliliga bag'ishlangan. Maqollar chastotasini aniqlashda Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusidan (Corpus of Contemporary American English – COCA) foydalanildi. Korpus tahlil natijalariga asoslanib, maqollar ishlatilish darajasi ko'ra, besh toifaga ajratildi. Keyin maqol mashqlari miqdori va ularda berilgan topshiriqlar o'rganildi hamda ular tasniflandi va nihoyat erishilgan natijalar muhokama qilindi va xulosa qisqacha bayon etildi.

Tayanch so'zlar: *maqollarni bevosita va bilvosita o'rgatish, maqolning bo'limlari va kurslararo chastotasi, paremioididaktika, yuqori chastotali maqol.*

КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ И КАЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ УПРАЖНЕНИЙ С ПОСЛОВИЦАМИ, ПРИВЕДЁННЫХ В УЧЕБНИКЕ ПРАКТИЧЕСКОГО КУРСА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА АРАКИНА

Бойханов Шухратжон Машрапович, докторант ТГПУ

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию количественного и качественного анализа пословиц и пословичных упражнений, используемых в учебнике английского языка Аракина. При анализе и выявлении частотности пословиц использовался Корпус современного американского английского языка (COCA - Corpus of Contemporary American English). На основе результатов корпусного анализа пословицы разделены на пять категорий в соответствии с их частотностью. Затем изучено и классифицировано количество пословичных упражнений и заданий, содержащихся в учебниках. В заключение обсуждены и обобщены полученные результаты.

Ключевые слова: *прямое и косвенное обучение пословицам, внутри- и межкурсовая частотность пословиц, паремиидиактика, высокочастотные пословицы.*

QUANTITATIVE AND QUALITATIVE ANALYSIS OF PROVERBS AND PROVERB EXERCISES USED IN PRACTICAL ENGLISH COURSEBOOK BY ARAKIN

Boykhanov Shuhratjon Mashrapovich, doctoral student of TSPU

Abstract. This article is devoted to study of quantitative and qualitative analysis of the proverbs and proverb exercises used in English course book by Arakin. In analyzing and identifying the frequency of proverbs the Contemporary American English (COCA), was used. Based on the corpus analysis results, the proverbs were divided into five categories according to their frequency. The number of proverbial exercises and the tasks contained in course books were then studied and classified. Finally, the achieved results were discussed and summarized.

Key words: *direct and indirect teaching of proverbs, intra- and inter-course book frequency of proverbs, paremioididactics, high frequency proverbs.*

Kirish. Maqol va matallar ixcham va ko'p ma'noli til birliklari bo'lib, ularning bu kabi xususiyatlari turli sohalar va uslublarda samarali qo'llash imkonini beradi. Xususan, bolalarni tarbiyalashda va chet tillarni o'rgatishda maqollarning ahamiyati kattadir. O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rgatishda paremiyalardan xalq ta'limi va oliy va o'rta maxsus ta'lim muassalarida ko'p yillardan buyon qo'llanilishi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ammo har bir narsaning muqaddimasi, tarixi bo'lgani kabi, chet til maqollarining o'rganilish tarixi mavjud. Ushbu maqolamizda aynan shu davrgacha hech kim tomonidan

o'rganilmagan mavzu, ya'ni XXI-asr boshlarida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ingliz maqollarning o'qitilishini o'rganishga maqsad qilganmiz.

Asosiy qism. Angliyada maqollarning o'qitilishi XV-asrda boshlangan bo'lib, o'qitishda tarjima mashqlaridan foydalanilgan. Maqollarni didaktik va pedagogik maqsadlarda qo'llash XVI-XVII asrlarda ham davom etganligini M.Orkin o'zining "The Poor cat's adage and other Shakespearian proverbs in Elizabethan grammar-school education" deb nomlangan maqolasida qayd etgan. Amerikalik tadqiqodchilar D.Holmes va U.Miderlar o'zlarining "Children and proverbs speak the truth": teaching proverbial Wisdom to Fourth Graders" deb nomlangan kitoblarida ta'limda maqollardan foydalanish an'anasi shu paytgacha davom etayotgani haqida ma'lumot keltirganlar [9]. O'zbekistonda ham ingliz tilini o'qitishda maqollardan foydalanish an'anasi mavjud bo'lib, bu borada V.D.Arakin muallifligida besh kursga mo'ljallab yozilgan va respublika oliy o'quv yurtlarida XXI-asrning boshlarigacha keng qo'llanilgan "Практический курс английского языка" [1-5] darsligini alohida e'tirof etish o'rinlidir. Biz mazkur maqolamizda aynan V.D.Arakin muallifligida yozilgan darslikdagi maqol mashqlarini miqdor va sifat jihatdan o'rganishni maqsad qilganmiz. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar bajarildi: avval darslikdagi maqollar soni aniqlandi, so'ngra Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi COCADan foydalangan holda ularning chastotasi tahlil qilindi. Tahlil natijasida, maqollar ishlatilish darajasiga ko'ra, besh toifaga ajratildi. Shu bilan birgalikda maqol mashqlari miqdori va ularda berilgan topshriqlar o'rganildi hamda tasniflandi va nihoyat, erishilgan natijalar muhokama qilindi va xulosa qisqacha bayon etildi.

Biz ushbu tadqiqotimizda Baxman taklif etgan mayor [7] va ?.Hatipo?lu, N.C.Da?k?n maqolasidagi [8] fikrlaridan foydalandik. Baxman Communicative language ability, ya'ni tilni muloqotda qo'llay olish qobiliyatini, til vaziyatida undan to'g'ri foydalana olish qobiliyati deb ta'rif bergan. Shunga binoan tildan muloqot maqsadida foydalanish meyorini ishlab chiqqan. Ushbu meyor, asosan, ikki qismdan, organizational competence (shakllantiruvchi ko'nikmalar) va pragmatic competence (Funksional ko'nikmalar)dan iboratdir. Mazkur ko'nikmalarning har biri turli darajadagi qismlarga bo'lingan. Masalan, shakllantiruvchi ko'nikmalar ikki guruh grammatik (lug'at, morfologiya, sintaktika; fonetika) va tekstual ko'nikmalar (Cohesion-izchillik va rhetoric organization - matndagi o'zaro zid fikrlarni qiyoslash maqsadida bir xoshiyada yoki alohida xoshiyada yozish, boshqacha aytganda, fikrlar ketma-ketligi) bo'lsa, pragmatik ko'nikmalar bu - illokutiv ko'nikmalar (Ostin), ya'ni tildan muloqotda turli maqsadlarda foydalana olish ko'nikmasi [6] (tildan ma'lumot berish, boshqarish, everistik va nutqni ta'sirchan, obrazli ifodalash maqsadida foydalanish) hamda sotsiologik ko'nikmalar (shevaga xos so'zlarning xilma-xilligi, to'g'ri qo'llash hamda til sohibi fikrini tushuna olish ko'nikmalardir. ?.Hatipo?lu, N.C.Da?k?n maqollarni darsliklarda qo'llanishini tahlil qilgan va unda, asosan, uch jihatga, ya'ni maqollarning miqdoriga, ularning chastotasiga va 1990 yilda Baxman tomonidan taklif etilgan meyorga tayangan. Biz Baxman taklif etgan meyor va ?.Hatipo?lu, N.C.Da?k?n qo'llagan metod, shu bilan birgalikda maqollarning bo'limlar va kurslararo chastotasi hamda maqol mashqlarning xilma-xilligi meyorlari asosida tadqiqot olib bordik: maqollarning umumiy soni; maqollar chastotasi; maqollarning bo'limlar va kurslararo chastotasi; maqol mashqlarning xilma-xilligi.

B.D.Arakin muallifligidagi 5 qismdan iborat ingliz tili amaliy kursi darsligida jami 125 ta maqol, matal va aforizmlar topildi. Ushbu maqollar chastotasini aniqlashda Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi COCA (Corpus of Contemporary American English)dan foydalanildi va ular miqdoriy tahlil qilindi hamda 5 ta toifaga bo'lindi: chastotasiz, past chastotali, o'rta chastotali, yuqori chastotali va juda yuqori chastotali maqollar. Maqollarni bunday toifalarga tasniflashda ularning miqdori hisobga olindi. Masalan, 1) chastotasiz (korpusda ishlatilmagan); 2) past chastotali - chastotasi 1 dan 9 gacha bo'lgan maqollar; 3) o'rta chastotali - chastotasi 10 dan 50 gacha bo'lgan maqollar; 4) yuqori chastotali -

chastotasi 50 dan 100 gacha bo'lgan maqollar; 5) juda yuqori chastotali – chastotasi 100 dan yuqori maqollardir.

Darslikda maqollar yangi dars lug'ati, dialog, qisqa hikoya va 52 ta mashq tarkibida ishlatilgan. Ular, asosan, ikki usul orqali: bevosita va bilvosita o'rgatilgan. Biz bevosita va bilvosita terminini quyidagi ma'noda qo'lladik, agar maqollar mashqda keltirilib, ularni bajarish uchun berilgan topshiriq ham aynan ushbu maqollarni nutqda amaliy qo'llash uchun mo'ljallangan bo'lsa – bevosita, aksincha, u tallaffuz yoki grammatik mashq tarkibida yoki yangi darsning yangi so'zlarining misoli tarkibida qo'llangan bo'lsa – bilvosita usul orqali maqolni o'rgatish, deb atadik.

1) Maqollarni bevosita o'rgatish reseptiv (asosan, o'qish) yoki produktiv (gapirish va yozuv) mashqlarida berilgan. Ushbu mashqlar, o'z navbatida, topshiriqlarning soniga qarab: 1) bir topshiriqli; 2) ikki topshiriqli; 3) ko'p toshiriqli turlarga ajratildi. Quyida maqol topshiriqlaridan so'ng [K1; 213-b.] kabi ma'lumot berildi. Bu V.D.Arakin muallifligidagi ingliz tili amaliy kursi 1-kurs 213-betda ma'lum bir maqol topshiq mavjudligini bildiradi.

1. Bir topshiriqli: 1) describe situations illustrating the following proverbs: [K1; 213-b.]; 2) write a short story to illustrate the proverb "A friend in need is a friend indeed; [K; 93-b.]; 3) write the gist of "A Friend in Need". When writing analyze the title of the story [K2; p. 93]; 3) comment on the following quotations [K3; 136-b.]. 4) translate the following sentences into Russian [K4].

2. Ikki topshiriqli: 1) think of a proverb which could be applied to your daily round: 1) make up a conversation with your fellow student to finish it with this proverb [K1; 193-b.]; 2) explain the meaning of the proverb and use it in a situation of your own. [K1; 318-b.]; 3) pair work. Read the quotations given below and agree or disagree with them. Your opinion should be followed by some appropriate comment where possible [K4; 277-279-b.]; 4) below are some quotations dealing with family life and children? Illustrate them with a short story [K4; 186-b.].

3) Ko'p topshiriqli: 1) find English proverbs concerning meals. Provide them with Russian equivalents, ask your fellow students to illustrate them [K1]; 2) role-playing: Each member of the group must tell a short story, joke or proverb to entertain the party [K2; 62-b.] 3) write a short story to illustrate the proverb "A friend in need is a friend indeed". Use Essential Vocabulary of the lesson. Retell your story in class [K2; 93-b.]; 4) give Russian equivalents for the following English proverbs and sayings (or translate them into Russian), b) makes up and acts out dialogues to illustrate the meaning of the proverbs [K3; 24-b.].

2. Bilvosita. Ingliz tili amaliy kursi darsligida maqollar bilvosita mashq qilingan. Ularni quyidagi til mashqlari va matnlarda ko'rish mumkin: 1) fonetik (tallaffuz) mashqlar: a) the material below is to be prepared for reading. Mark the stresses and tunes. Concentrate your attention on sounds; b) Let your fellow student read the sentences aloud for you to detect his errors in sounds and tell him what must be done to get the sounds right [K1; 163-b.]; 2) grammatik mashq: Fill in prepositions: A stitch ... time saves nine [K]; 3) dialog yoki matn tarkibida: weather talk dialogue: It never rains but it pours [K1; 231-b.]. Write the gist of "A Friend in Need". When writing analyses the title of the story [K; 93-b.]; fill in prepositions; Unit 6 Text: "The Man of Destiny" by G.B. Shaw [K; 93]; 4) yangi so'zlar uchun keltirilgan misolda: Put off to postpone, e.g. Never put off till tomorrow what you can do today [K3; 179-b.].

Xulosa. Biz 5 kursga mo'ljallab yozilgan darslikda qo'llanilgan maqol mashqlarni ijobiy yoki salbiy, deb baholash fikridan yiroqmiz. Sababi, ushbu mashqlar o'z davrida talabalarning paremiologik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, ba'zi fikrlarni aytib o'tishni o'rinli deb o'ylaymiz. Ijobiy jihatlari: 1) kamsonli bo'lsada bir maqolning turli topshiriqli mashqlarda takrorlangan; 2) darslikning kursiga qarab

bosqichli xilma-xil paremiologik mashqlar berilishi; 3) talabalarda produktiv nutqi rivojlantirishga qaratilgan mashqlar mavjudligi. Salbiy jihatlari: 1) birinchi kurs darsligida produktiv mashqlar berilmagan; 2) maqollar soni kurslar va bo'limlar kesimida son jihatdan turlicha taqsimlangan; 3) ko'p bosqichli mashqlarda yuzaga keladigan mummolar mavjudligi (tarjima qilish, ma'nosini aytib berish va uni biror bir til vaziyatida qo'llash til darajasi turli bo'lgan talabalarda lingvistik va ekstralingvistik muammo kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buning ustiga dars faqat maqol o'rganishdan iborat emas; boshqa til materiallarini ham dars davomida shakllantirish va rivojlantirish kerak. Boshqacha aytganda, bu vaqt muammosi deganidir). Ushbu maqolamizda Arakin muallifligida nashr etilgan 5 qismdan iborat ingliz tili amaliy kursi darsligini kontent va korpus tahlil qildik. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu darslikda jami 125 ta maqol ishlatilgan bo'lib, korpus tahlil ularning 99 tasi, yoki deyarli 80% kam ishlatiladigan maqollar ekanligini ko'rsatdi. Albatta, bu tahlil Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusiga asoslangan va darslik mualliflari qanday meyorga ko'ra maqollar tanlaganlari bizga ma'lum emas. Erishilgan natijalar yuzasidan tanqidiy fikr bildirishdan yiroqmiz, sababi tanlangan paremiya ingliz maqoli bo'lmasligi yoki shunchaki kam ishlatiladigan aforizm bo'lishi mumkin. Tadqiqotimizda Baxman (1990) taklif etgan meyor va C.Hatipoglu, N.C.Daskin (2020) qo'llagan metodlardan tashqari: 1) maqollarning bo'limlar va kurslararo chastotasi; 2) rivojlantiruvchi mashqlarning xilma-xilligi kabi meyorlar qo'shildi va ushbu meyorlar bo'yicha darslik tahlil qilindi. Maqollarning bo'limlar va kurslararo chastotasi deganda, bir maqolni turli matnlarda va mashqlarda qo'llanganligini nazarda tutdik. 1) Write a short story to illustrate the proverb "A friend in need is a friend indeed". Use Essential Vocabulary of the lesson. Retell your story in class 2) Write the gist of "A Friend in Need". When writing analyse the title of the story mashqlari firkrimiz isbotidir. Kelajakda ushbu tadqiqotda erishilgan natijalarni O'zbekistonda paremioididaktikaning rivojlanish bosqichlarini yoritishda va nazariy fanlarni o'qitishda qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Аракин В.Д., Селжанина Л.И., Гинтовт К.П., Соколова М.А. Практический курс английского языка. 1 курс: Учебник для студентов высших учебных заведений. - 6-изд., доп. и испр. - М.: ВЛАДОС, 2012.
2. Аракин В.Д. Практический курс английского языка. 4 курс: Учебник для студентов высших учебных заведений. - 4-изд., доп. и испр. - М.: ВЛАДОС, 2003.
3. Аракин В.Д. Практический курс английского языка. 2 курс: Учебник для студентов высших учебных заведений. - 6-изд., доп. и испр. - М.: ВЛАДОС, 2005.
4. Аракин В.Д. Практический курс английского языка. 3 курс: Учебник для студентов высших учебных заведений. - 6-изд., доп. и испр. - М.: ВЛАДОС, 2006.
5. Аракин В.Д. Практический курс английского языка. 4 курс: Учебник для студентов высших учебных заведений. - 5-изд., доп. и испр. - М.: ВЛАДОС, 2012.
6. Бозва-Омелечко Н.Б. Краткий толковый словарь социолингвистических терминов. - М.: Готика, 2004. - 60 с.
7. Bachman L.F. (1990). Fundamental considerations in Language testing. - Oxford: Oxford University Press. - P. 81-84.
8. Hatipoglu C., Daskin N.C. (2020). A proverb in need is a proverb indeed: Proverbs, textbooks and communicative language ability. South African Journal of Education, Volume 40, Number 1: doi.org/10.15700/saje.v40n1a1664
9. Meider W. (2004). Proverbs: A Handbook. Greenwood press.

**INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK IQTISODCHI
TALABALARINING IJTIMOYI FAOLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY
MASALALARI**

Pulatova Ziyoda Abdumalikovna, TDIU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy o'quv yurti ingliz tilini o'qitish jarayonida bo'lajak iqtisodchi talabalarining ijtimoiy faolligini shakllantirish borasida fikrlar yuritilgan. Ijtimoiy faollik tushunchasi atroflicha tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: *ijtimoiy faollik, talabalar, ingliz tili, bo'lajak iqtisodchilar, yoshlar, mamlakat.*

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ
АКТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ-БУДУЩИХ ЭКОНОМИСТОВ
В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Пулатова Зияда Абдумаликовна, старший преподаватель ТДИУ

Аннотация. В статье рассматривается формирование социальной активности у студентов-будущих экономистов в процессе преподавания английского языка в высшем учебном заведении. Тщательно проанализирована концепция социальной активности.

Ключевые слова: *социальная активность, студенты, английский язык, будущие экономисты, молодежь, страна.*

**THEORETICAL ISSUES OF THE FORMATION OF SOCIAL ACTIVITY OF
STUDENTS OF FUTURE ECONOMISTS IN THE PROCESS OF TEACHING
ENGLISH**

Pulatova Ziyada Abdumalikovna, senior teacher of TDUE

Abstract. The article discusses the formation of social activity of students of the future economist in the process of teaching English at a higher educational institution. The concept of social activity has been thoroughly analyzed.

Key words: *social activity, students, English, future economists, youth, country.*

Kirish. Yoshlar mamlakat tayanchi, xalqning ishongan kuchi, millat bardavomligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni ko'p jihatdan, kelajagimiz egalari – yoshlarning har tomonlama yetuk bo'lishlarini ifodalaydi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davri har bir o'sib kelayotgan yosh avlodidan zamon talablariga hozirjavoblik va ijtimoiy faollikni talab qilish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini har qachongidan ko'ra dolzarb darajaga ko'tarmoqda. Chunki ma'naviy qadriyatlar va axloq normalari, mohiyatiga ko'ra, kishilar ijtimoiy borlig'ining atributi sifatida, insonlarning: bir-biriga, oilasiga, jamoasiga, Vataniga va butun insoniyat taqdiriga insonparvarlik munosabatlarini namoyon qiladi va ularning yuksak darajasi jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, ma'naviy qadriyatlar va axloq normalarining buzilishi jamiyat barqarorligiga putur yetkazadi. Masalan, Aristotel: «tabiat insonga jismoniy va intellektual kuch-qudrat bergan. Ammo inson bu qudratdan g'ayriinsoniy maqsadlarda ham foydalanishi mumkin. Shuning uchun faoliyati axloqiy kafolatlanmagan inson eng pastkash va yovvoyi mavjudotdir» [1, 467-b.], – deb yozgan edi.

Asosiy qism. Shu ma'noda yosh avlod tarbiyasida olib borilayotgan faoliyatda har bir harakatimizning ma'naviy-axloqiy asosini ta'minlashimiz zarur. Xususan, ijtimoiy faollikni axloq normalari asosida tashkil qilish va ularga barcha kishilarning istisnosiz amal qilishi demokratiya va ijtimoiy adolatni namoyon qiladi. Demokratik jamiyatda ijtimoiy faollik fuqarolarning o'z-o'zini anglash vositasidir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar muvaffaqiyatining muhim sharti xalqimizning, har bir fuqaroning ijtimoiy faolligiga tayanishdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohot jarayonlari, fuqarolarning milliy ma'naviy va ma'rifiy salohiyatlari, ijtimoiy faolliklari turli-tuman bo'lishiga qaramay, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorlashuviga olib kelmoqda. Buni umumbashariyatning obyektiv rivojlanish qonuniyati tarzida e'tirof etish zarur. Xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlar tajribasidan ma'lumki, tarixiy davr taqozosi bilan har bir jamiyatda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'zgarib turgan. Jahon siyosiy makonidagi oshkora yoki xufyona manfaatlar kurashida ezgulik va yovuzlik kurashi namoyon bo'lgan. Shuning uchun insoniyat tarixi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi ma'naviy-axloqiy normalar va tamoyillarni, ularni hayotga joriy qilishning usullari, vositalarini uzluksiz takomillashtirish jarayonidan iboratdir. Shunday qilib, insoniyat sivilizatsiyasini saqlab qoladigan muqobil kuchlar tarkibida ma'naviyatning ustuvor kuchga aylanib borayotganligi obyektiv qonuniyatdir. Ya'ni, «Har qanday ijtimoiy hodisa singari milliy qadriyatlarning ham o'ziga xos rivojlanish qonuniyati bor. Bu haqiqatni unutish, milliy qadriyatlarni bir yoqlama, sun'iy ravishda ulug'lash va ideallashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi hayotda ko'p bora o'z isbotini topgan. Ayniqsa, O'zbekiston kabi ko'p millatli, ko'pkonfessiyali mamlakatda bunday harakatlar oxir-oqibatda millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy va diniy betoqatlik kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin» [2, 82-b.]. Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodni har tomonlama komil insonlar bo'lib yetishishlarini nazarda tutadi. Bu jarayonda chet tillarni o'qitishning zamonaviy usul va vositalarining ta'limda keng joriy etilishi yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ijtimoiy faolligini oshirishga olib keladi. Til bilish insonning nafaqat savodxonligini oshiradi, balki boshqa xalqlarning milliy mentaliteti, tarixi, madaniyati, san'ati va xarakterini o'rganishga olib keladi. Ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, talabalarning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlashga qaratilgan «Ingliz tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PQ-1875-sonli qarori jamiyatda o'zining dolzarbligini ko'rsatmoqda. Jumladan, qarorda «zamonaviy» pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishdan iborat» [3], – deb ta'kidlangan. Talaba-yoshlarning xorijiy tillarni mukammal egallashlaridan tashqari, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni puxta o'zlashtirishlarini zamonamiz talab qilmoqda. Yangitdan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni talablaridan kelib chiqqan holda talaba-yoshlarning bugungi axborot muhitidagi ijtimoiy faolligini oshirish, chet tillarga qiziqishlariga nisbatan motivatsion muhitni yaratish ayni muddaodir. Ulardagi

motivatsiyalarni bevosita xorijiy tillarga doir iqtisodiy loyihalarni yaratishga yo'naltirish, ilm-fanning amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlashga sharoit yaratish bizning maqsadimizdir. Bugungi ta'lim talaba-yoshlar va o'qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida ta'limni yuqori darajada tashkil etishni, ta'limdan olinadigan samaradorlikni oldindan belgilab olishni, darsning to'liq o'zlashtirilishi uchun dars usullaridan to'g'ri foydalanish hamda zaruriy ta'lim vositalari, boshqa kerakli shart-sharoitlarni oldindan tashkil etishni va darsning maqsadiga to'liq erishishni talab etmoqda. Ingliz tillarni o'qitishda shu vaqtgacha mavjud bo'lgan an'anaviy ta'limdan, ya'ni ta'limning markazida o'qituvchi turuvchi ta'lim berish usulidan farqli ravishda, talaba-yoshlarning mustaqil o'rganib, tahlil qilib, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqaruvchi, ya'ni ta'limning asosiy ishtirokchisi talaba hisoblangan jarayonga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda xorijiy tajribalarga tayanib, darslarni har bir darsga doir mavzularni slaydlar, videoroliklar, master-klasslar, musiqalar, ko'zni charchatmaydigan ranglar va animatsiyalar asosida olib borish yo'lga qo'yilgan. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ta'limning sifat va samaradorligini yaxshilash, talabalarning xorijiy tillarni o'zlashtirishdagi ijtimoiy faolligini oshirish asosida, ularda o'zlari ta'lim olayotgan xorijiy til bo'yicha mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish, ijodiy izlanish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborotlashgan jamiyat talaba-yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirish uchun zamonaviy talablarni oldimizga qo'yimoqda. Bu esa, o'z navbatida, yetuk olimlar va mutaxassislarimizning xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va texnologiyalarini mukammal o'rganib, milliy mentalitetimizga moslashtirilgan holda zamonaviy fan dasturlari va darsliklarni yaratishni dolzarb darajasiga olib chiqmoqda. «Umumevropa standarti bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda interfaol-kommunikativ metoddan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ingliz tilini o'qitishni jahon andozalari darajasiga yetkazish uchun ilg'or davlatlar tajribasidan oqilona foydalanib, uzluksiz va uzviylikka asoslangan Davlat ta'lim standartlari asosida chet tillar bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi». Shu boisdan, ta'limning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni tubdan isloh etib, xalqaro darajaga ko'tarish davlatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bugungi zamonaviy va interfaol usullarni xorijiy tillarni o'qitishda qo'llash boshqa fanlarga nisbatan qulay va samarali ekanligi bilan ajralib turadi. Professor-o'qituvchilarning bu usullar asosida har bir darsni alohida o'tishi, turli didaktik va mantiqiy o'yinlar bilan darsni o'tishi talabalarning ta'lim jarayonida olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalana olish kompetensiyasini shakllantiradi. Ingliz tillarni zamonaviy usullarda o'qitilishini samarali tashkil etish asosida talaba-yoshlarda quyidagi ijtimoiy faol ko'nikmalar shakllanadi: chet tillarda o'z ona tilidek bermalol og'zaki va yozma ravishda muloqotga kirisha olish; jahonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ilmiy yangiliklar natijalarini xorijiy tillarda ham o'zlashtira olishi; dunyo xalqlari madaniyati va sivilizatsiya namunalari (musiqa, kino, teatr, opera, ta'lim)dan bahramand bo'lish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarining kengayishi. Respublikamizda xorijiy tillarga qaratilayotgan e'tibor bevosita o'sib kelayotgan yoshlarimizning kelajakda jahon andozalariga javob beradigan kadrlar bo'lib yetishishlariga qaratilgan jarayondir. Har bir insonning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ijtimoiy-ma'naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati ijtimoiy faollik hisoblanar ekan, mazkur harakatni ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar asosida tashkillashtirish

– bugungi va kelajak hayotimizni ma'naviy-axloqiy inqirozlardan saqlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Xususan, birinchidan, ijtimoiy faollikning ma'naviy-axloqiy omillar bilan determinlashganligi muayyan shart-sharoitlarni taqozo qiladi; ikkinchidan, ijtimoiy faollikning ma'naviy-axloqiy tamoyillari ishlab chiqilishi zarur va ushbu tamoyillar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi lozim; uchinchidan, axloqiy normalar va tamoyillarning umumiy insonparvarlik mezoni butun insoniyat ijtimoiy faolligini barqarorlashtirish bilan xarakterlanadi; to'rtinchidan, yoshlarda ma'naviy-axloqiy tamoyillarni shakllantirish bilan ijtimoiy faollikni uyg'unligiga erishish, barkamol avlodni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Jamiyatdagi takomillashish jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligining oshishi dolzarb masala. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti - ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatlarini o'zida qamrab oladi. Jamiyatda yashovchi yoshlar ana shu sohalarining barchasida ijtimoiy faollik ko'rsatishi hayotiy zaruriyatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: «Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda» [4]. «Ijtimoiy faollik» keng qamrovli tushuncha bo'lib, u talaba yoshlarning ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san'at, siyosat, huquq kabi sohalarda ham faol bo'lishini anglatadi. Demak, «ijtimoiy faollik» o'zining tub mohiyatiga ko'ra, kishilar jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, sotsial va boshqa sohalaridagi faolligini ifodalaydi. Bozor munosabatlari va yangicha dunyoqarash shaxsning ijtimoiy faolligi strukturasi ma'naviy-intellektual, ijtimoiy-siyosiy faollik yetakchi va hal qiluvchi element ekanligini ko'rsatdi. «Ijtimoiy faollik» tushunchasining mohiyatini yoritish uchun «faollik» tushunchasining mazmuniga e'tibor berish lozim. Hozirgi globallashuv jarayonida intizomli, mas'uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e'tiqodli, bag'rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va shu kabi oliyanob fazilatlar egasi bo'lgan yoshlarga yashash uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'la oladilar. Ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'z-o'zini anglashi, qadr-qimmatini qay darajada e'zozlashi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati va harakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiy faolligi bilan bog'liq. Yoshlarning ijtimoiy faollashuvi deganda, ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan bosimsiz ko'maklashishga intilishlari tushuniladi. Mas'uliyat ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqin mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsad doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnamashida ma'lum ma'noda ideal ham rol o'ynaydi. Inson shaxsi taraqqiyoti bo'yicha jahon ilmida to'plangan nazariy qarashlar hamda O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, birinchidan, inson shaxsining ijtimoiy faolligi, eng avvalo, jamoada, ma'lum faoliyat turlarida shakllanadi. Ikkinchidan, talabalik davri ijtimoiy faollik hamda turli axloq normalarini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar davri bo'lgani sababli, yoshlar orasida ustuvor faoliyat hisoblangan

ta'lim jarayoni muhim omil hisoblanadi. Uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar ijtimoiy borliq mazmunini individual borliq bilan bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Bizning nuqtai nazarimizdan, ijtimoiy faollik – bu shaxsning barqaror mulki va ijtimoiy muhit bilan intensiv, ongli ravishda o'zaro hamkorlik qilishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar majmui bo'lib, ular ichki (aqliy) va tashqi (amaliy) faoliyat jarayonida ijtimoiy ahamiyatga ega va ijtimoiy taraqqiyot vazifalariga muvofiq o'zini va jamiyatni o'zgartiradi. «Ijtimoiy faoliyat» tushunchasi bugungi kunda keng va tor ma'noda talqin qilinmoqda. Keng va tor ma'noda ijtimoiy faollik deganda, shaxsning ijtimoiylik darajasini aks ettiruvchi sifat tushuniladi, ya'ni uning ijtimoiy butunlik bilan aloqalari, jamiyat manfaatlari yo'lida harakat qilishga tayyorligi, jamoat manfaatlarini qabul qilish salohiyati, tor ma'noda esa, shaxsning ma'lum bir ijtimoiy hamjamiyat bilan aloqasini ifodalovchi sifati tushuniladi.

Xulosa. Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, ijtimoiy faollik – bu tashabbuskor, yo'naltirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faollik va ijtimoiy hamjamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan shaxsning murakkab yaxlit sifati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Политика: Сочинения. - Т. 4. - М.: Мысль, 1983.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-1875-сонли қарори. 2012 йил 10 декабрь: <http://lex.uz>.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь: www.president.uz.

KREDIT-MODULLI TIZIM ASOSIDA TALABALARGA XORIJIY TILNI O'QITISH

Ibragimova Sevara Baxodirovna, TDIU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola chet tilini o'qitishda kredit-modulli tizim masalasiga bag'ishlangan. Maqolada asosiy tushunchalar haqida qisqacha ma'lumot berilgan va xorijiy tilni kredit-modulli tizim asosida o'qitish metodikasi tavsiflangan.

Tayanch so'zlar: *oliy ta'lim, kredit-modulli tizim, xorijiy tillar.*

**ПРЕПОДАВАНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ
НА ОСНОВЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ**

Ибрагимова Севара Баходировна, старший преподаватель ТГЭУ

Аннотация. Статья посвящена вопросу функционирования кредитно-модульной системы в обучении иностранному языку. В статье представлен краткий обзор основных понятий и дана характеристика методике обучения иностранного языка на основе кредитно-модульной системы.

Ключевые слова: *высшее образование, кредитно-модульная система, иностранные языки.*

**TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS BASED
ON A CREDIT-MODULAR SYSTEM**

Ibragimova Sevara Bakhodirovna, senior teacher of TSEU

Abstract. The article addresses to the issue of functioning of credit and module system of foreign languages teaching. The article gives a brief overview of main notions and presents distinctive characteristics of methods of teaching based on credit and module system.

Key words: *higher education, credit and module system; foreign languages.*

Kirish. O'zbekistonning ta'lim sohasidagi milliy manfaatlarini aks ettiruvchi ta'lim siyosati jahon taraqqiyotining umumiy tendensiyalarini hisobga oladi, bu esa, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlarni talab qiladi.

Asosiy qism. Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga joriy etish nafaqat ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi bosqichi, balki ta'lim sifatini boshqarish vositasidir. Kredit-modulli tizim asosida o'quv jarayonini qurish o'quv jarayonini mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining yangi talablariga muvofiq tashkil etishga imkon beradi. Kredit-modulli ta'lim tizimi o'quv jarayonini tashkil etish modeli bo'lib, u modulli ta'lim texnologiyalari va kredit ta'lim bo'g'inlari kombinatsiyasiga asoslangan. Kredit-modulli tizim bo'yicha o'qitish har bir modulning tarkibiy mazmuni va talabalarni baholash tizimiga ega bo'lgan o'quv materialining mantiqiy tugallangan qismlaridan (modullardan) iborat oldindan ishlab chiqilgan modulli dasturga muvofiq talabalar tomonidan diskret rejimda o'zlashtirilishini tashkil etishni nazarda tutadi [4]. Kredit-modulli tizim o'zining afzalliklariga ega va bir o'quv dasturidan ikkinchisiga, shu jumladan, doktorantura ta'lim dasturlariga o'tish davrida talabalarning harakatchanligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Kredit-modulli tizim talabalarga o'qish va o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv fanlarini tanlash, ularni ma'lum vaqt ichida o'zlashtirishga majbur qilish imkonini beradi [5]. Kredit-modulli tizim quyidagilarni ta'minlaydi: ta'lim dasturining modulli tuzilmasi; mehnat zichligini baholash

uchun kredit birliklaridan (kreditlardan) foydalanish; bilimlarni baholash uchun ball-reyting tizimlaridan foydalanish; talabalarning individual o'quv dasturini shakllantirishdagi ishtiroki; ta'lim jarayonida o'z-o'zini o'rganish ulushini oshirish; ta'lim dasturlarining moslashuvchanligini oshirish. O'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi bilan fanning mazmuni tarkib modullariga bo'linadi (semestrda 2-4 modul), ya'ni o'quv intizomi tarkib modullari tizimi sifatida shakllanadi. Modul o'quv jarayonining tegishli shakllari bilan amalga oshiriladigan ta'lim va kasbiy dasturning (o'quv intizomi, amaliyot, davlat attestatsiyasi) hujjatlashtirilgan tugallangan qismidir. YE.N.Solovova modul tushunchasining quyidagi ta'rifini beradi: «Bu kurs yoki uning avtonom qismi, uning doirasida turli xil ta'lim trayektoriyalarini qurish uchun yetarli bo'lgan zarur dasturiy ta'minot va o'quv-uslubiy yordamga ega, agar kerak bo'lsa, boshqa modulli kurslar bilan osongina bog'lanib, ichki strukturaning dastlabki moslashuvchanligi tufayli tarkib/shakl/hajmi o'zgartirishga qodir» [8]. Shunday qilib, tarkib moduli ma'ruzalar, seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil va individual ishlar (masalan, kurs ishlari), maslahatlashuvlar, amaliyotlar va modul bo'yicha bilimlarni boshqarish (joriy va yakuniy test) uchun vaqtni o'z ichiga olishi kerak. Modulli o'qitish va boshqa turdagi mashg'ulotlar o'rtasidagi tub farqlar quyidagi qoidalarda mavjud: mashg'ulot mazmuni to'liq, mustaqil, murakkab modullarda keltirilgan bo'lib, ular bir vaqtning o'zida axborotlar banki va uni o'zlashtirish uchun uslubiy qo'llanma hisoblanadi; o'qituvchi va talabaning o'quv jarayonidagi o'zaro aloqasi tubdan boshqacha asosda amalga oshiriladi, modullar yordamida talabalar har bir pedagogik uchrashuv uchun ma'lum darajadagi dastlabki tayyorgarlikka ongli ravishda mustaqil erishadilar; modulli o'qitishning o'ziyoq ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ustuvor subyekt-subyekt munosabatlariga muqarrar rioya qilishni talab etadi [4-7].

E.N.Solovova ta'kidlaganidek [8], til kurslariga moslashtirilgan modulli ta'lim tamoyillari quyidagilardir: tarkibiy mazmunning modulligi tamoyili; moslashuvchanlik, dinamizm, chiziqsizlik tamoyili; refleksiv faoliyat va fanlararo bog'liqlik tamoyili; avtonomiya va teng javobgarlik tamoyili. Ushbu tamoyillarning amaliyotga tatbiq etilishi xorijiy tillarni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Kredit-modulli o'rganishni to'liq tushunish uchun kredit tushunchasi va uning xorijiy tilni o'rgatishdagi rolini hisobga olish kerak. Kreditlar tizimi kredit birligidan o'quv ishlarining murakkabligi o'lchovi sifatida foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishning barcha asosiy jihatlarini tizimli aniqlash hamda ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq barcha tarkibiy qismlarning umumiyiligini ifodalash sifatida tushuniladi. Kreditlar kunduzgi ta'lim shaklida o'quv yili davomidagi o'quv yuklamasining o'quv natijalari va mehnat zichligiga mos keladi. Odatda, o'quv yuklamasi o'quv yilida 1800-2000 soatni tashkil etadi va bitta kredit umumiy o'quv yuklamasining 30 soatiga to'g'ri keladi. Kreditlar barcha malaka yoki o'quv dasturlari, shuningdek, ularning o'quv tarkibiy qismlari (modul, fanlar bloki va boshqalar) bo'yicha taqsimlanadi. Har bir komponentga berilgan kreditlar soni o'quv natijalariga erishish uchun talabalarning o'quv yuklamasining murakkabligi jihatidan uning «vazniga» mos keladi. Kreditlar rasmiy o'quv dasturini (yoki alohida modulni) tugatgandan so'ng va kutilayotgan o'quv natijalarini ijobiy baholaganidan so'ng alohida talabalarga (kunduzgi yoki sirtqi o'qish shakllari) beriladi. Kredit-modulli tizim asosida xorijiy tilni o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tilni o'qitish amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, «Chet tili» fani ko'p o'lchovli, ya'ni unga nafaqat so'z boyligini o'rgatish, balki tilning boshqa jihatleri, shuningdek, nutq faoliyati turlari kiradi. Shuni ham yodda tutish kerakki, barcha talabalar tilni bilishning turli

darajalariga ega. Natijada, kredit-modulli tizimda xorijiy tilni o'qitishning xususiyatlaridan biri – bu ko'p bosqichli mashqlarning mavjudligi. Kelajakda talabalar materialni o'zlashtirish darajasi va tezligini mustaqil ravishda sozlashlari mumkin.

Yuqoridagi talablarni qondirish uchun mos ravishda maktab ham o'zgarishi va bu jarayon doimiy davom etishi kerak. Buning uchun o'qituvchi mustaqil, faol, ro'y beradigan o'zgarishlarga oson moslashuvchan, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, o'z-o'zini rivojlantirib borishni qadrlaydigan, bilimli va doimiy o'qishga tayyor bo'lishi lozim. Shunday qilib, birinchi navbatda, o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida talablar qo'yiladi. Hozirgi vaqtda pedagogik ilmlar tasnifida aynan mutaxassis kadrlar kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi, katta qiziqish uyg'otayotganligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, innovatsion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash, bu masalani ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim unsurlaridan biri ekanligini targ'ib qilish taqozo etilmoqda. Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo'lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo'nalishlarida qo'llaniladi. Kompetensiya turli sohalar mutaxassislari faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo'lib, uning kelib chiqish tarixi boshqaruv nazariyasi, ish jarayonini ishlab chiqarish maqsadiga adekvat va to'liq mos tarzda to'g'ri boshqarish asosida uning samaradorligini so'zsiz ta'minlash, menejmentlik amaliyoti, ishlab chiqarish jarayonidagi yuqori va pastki xodimlar mehnat muomalasini qo'yilgan maqsad va samaradorlikka yo'naltirish bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra, konkret xodim kompetensiyasi o'z faoliyati va o'z shaxsiy resurslarini samaradorlikka yo'naltira olish qobiliyati bilan hamohangdir [3].

Kompetentlik ilmiy muammo sifatida, hozirgi vaqtda aniq va yagona ta'rifga ega emas va unga qiziqish muhim rivojlanish tarixiga ega bo'lishiga qaramay, to'liq tahlil qilinmagan. Kompetentlik tushuncha sifatida XX asrning 50-yillari oxirlarida ilmiy so'zlashuvda paydo bo'ldi. Dastlab uning mahalliy va xorijiy tadqiqotlardagi talqini turli xil mohiyat kasb etar edi. Shuni ta'kidlash lozimki, «kompetensiya» tushunchasining ilmiy maydonda paydo bo'lishi, uning tilshunoslikdagi o'ziga xosligini belgilashi bilan birgalikda, iqtisodiyot va menejment terminiga aylanishi va hozirgi kundagi jami pedagogik jarayonlarning muhim maqsadlaridan biri bo'lib borayotganligi tushunchaning evolyusion rivojib borayotganligini aks ettiradi. Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»da [4] kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. *competo* – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. «Kompetentlik» (ingl. «*competence*» – «qobiliyat») esa, hayotiy faoliyatda nazariy bilimlardan unumli foydalanish, yuqori darajadagi kasbga oid malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishdir. «Kompetentlik» tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik «noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik deganda, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi tushuniladi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki

har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: murakkab jarayonlarda; noaniq vazifalarni bajarishda; bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda; kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi [5]. N.Muslimov, J.O'sarov, O'.Sultonova, G.Karlibaeva, K.J.Risqulova, A.K.Markova, A.V.Xutorskiy, M.Pavlova kabi olimlar o'z tadqiqot ishlarini kompetensiya tushunchasi va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosiga qaratganlar. K.J.Risqulovning tadqiqot ishlarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari to'g'risida quyidagicha fikrlar bildirilgan: «kompetensiya» u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa, shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezonini samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi» [6]. N.Muslimov va boshqalarning «Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari» o'quv qo'llanmasida kasbiy kompetentlikni quyidagi 5 ta turga ajratadi: 1) ijtimoiy kompetentlik; 2) shaxsiy kompetentlik; 3) maxsus kompetentlik; 4) texnologik kompetentlik; 5) ekstremal kompetentlik.

A.K.Markovaning fikriga ko'ra, kompetentlik «...mustaqil va mas'uliyat bilan harakat qilishga imkon beradigan ruhiy holatlar kabi aqliy fazilatning kombinatsiyasidir, u insonning muayyan mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati va ko'nikmalariga ega bo'lishi»ni anglatadi [7]. A.K.Markova muayyan insonning kompetentligi uning kasbiy mahoratiga nisbatan torroq bo'ladi, «Inson, umuman olganda, o'z kasbining ustasi bo'lishi mumkin, lekin barcha kasbiy masalalarni hal etishda kompetentli bo'lmasligi mumkin», – deb hisoblaydi. A.V.Xutorskiy kompetensiya va kompetentlikka ta'rif bera turib, «...ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs – kompetentli shaxs», – degan fikrni ilgari suradi. Kompetentlikni didaktik tizim sifatida qarab, uni tarkibiy qismlarga ajratadi, bu qismlarning o'zgarishi tizimning qanday holatlarda, ya'ni statik va dinamik holatlarda bo'lishini ko'rsatadi. Statik model – bu ma'lum bir vaqt momentida modelning qaysi komponentlardan iborat ekanligini ko'rsatadigan tarkibiy model. Dinamik model – bu vaqt o'tishi bilan (ma'lum bir vaqt ichida) kompetentlikning o'zgarish jarayoni modeli. Ushbu model statik modelga nisbatan ancha murakkab. Bu yerda maqsadlar, mazmun, hajm, boshqa komponentlar bilan kesishish yo'nalishlari o'zgaradi. Model o'zgarish vaqtida komponentlarning o'zaro munosabatlari va bog'lanishlarini ifoda etadi [7]. Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Bo'lajak fizika o'qituvchisining o'quv eksperimental kompetentligini esa, maqsadli ravishda maxsus kompetentlikning tashkil etuvchisi sifatida qarashimiz mumkin. Fizika o'qitish metodikasining mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ilmiy bilimlarning mutlaqo barcha tarkibiy qismlari fizik eksperimentlar bilan bog'liq. Fizik eksperimentlarni o'qitishning asosiy metodlaridan biri, o'rganish obyekti va ko'rgazmalilik vositasi sifatida ham talqin qilishimiz mumkin. Uning ahamiyati shunchalik kattaki, bo'lajak fizika o'qituvchilarining fizikadan o'quv eksperimenti (FO'E) sohasidagi kompetentligini shakllantirish ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Eksperimental kompetentlik orqali fizika o'qituvchisining FO'E sohasida kompetensiyalari

tushuniladi. Kompetensiya, o'z navbatida, o'quv mashg'ulotlariga qo'yiladigan talabdir. Bu bo'lajak o'qituvchining bilim va vaziyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish, vujudga kelgan muammoni hal qilish tartibini shakllantirishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalaydi.

FO'E sohasidagi kompetensiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va namoyon bo'lishi: 1) maktab fizika kabinetini asosiy jihozlar bilan ta'minlash sohasidagi kompetensiya: qurilmalarni bilish va undan foydalanish ko'nikmalari; qurilmalarni almashtirishda tubdan yangi eksperimental qurilmalarni yaratish, uy sharoitida qo'ldan yasash mumkin bo'lgan qurilmalarning imkoniyatlaridan foydalanish; 2) talabalarning fizik o'quv eksperimenti sohasidagi kompetentligi (laboratoriya ishlari, uyda bajariladigan eksperimentlar, eksperimental masalalar, kompyuter yordamida bajariladigan eksperimentlar): o'quv eksperimenti metodikasini bilish, uni amalga oshirish texnikasini o'zlashtirish, eksperimentning ahamiyatini anglash, eksperimentni loyihalash va amalga oshirish; 3) namoyish eksperimenti sohasidagi kompetensiya: namoyish eksperimentini amalga oshirish texnikasini egallaganlik, nazariy material bilan bog'liqligini ochib berish; tajriba qurilmalarini loyihalashtirish ko'nikmalari; 4) fizik hodisalarni kuzatish va tadqiq qilish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishdagi kompetensiya: qo'yilgan didaktik vazifalarga qarab FO'E o'tkazish turi va usulini tanlash, bilish faoliyatini tashkil etish (ko'proq mustaqil), maktabda va uyda fizik tajriba o'tkazish, nazorat qilish va baholash; 5) texnika xavfsizligi qoidalari sohasidagi kompetensiya: qoidalarni bilish; o'quvchilar va o'qituvchilar sog'lig'ini saqlash uchun o'quv jarayonida FO'Eni oqilona tashkil qila olish [8]. Yuqorida ta'kidlangan tamoyillar bo'lajak o'qituvchilarning eksperimental kompetentligini rivojlanuvchi ta'lim nuqtai nazaridan shakllantirishda bilim olish faoliyatini ta'minlaydigan, talabalarning real sharoitlarga oson moslashishiga va o'quv jarayonini anglashiga yordam beradigan asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Xulosa. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammosi uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoning metodologik va pedagogik asoslarini ishlab chiqish, ularni nazariy va amaliy jihatdan asoslash, shuningdek, bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga nisbatan tizimli yondashuv asosida zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish qayd etilayotgan jarayonning samarali tashkil etilishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегимкулов У.Ш ва бошқ. Ахборот технологиялари: Ўқув қўлланма. - Т.: Ношир, 2009. - 368 б.
2. Разуваева Т.Н. Социально-психологическая структура педагогического коллектива как субъекта инновационной деятельности: Автореф. д-ра психол. наук. - Сургут, 2009. - 37 с.
3. Кадырова М.Т. Компетентлик ёндашуви назарияси ва унинг педагогик мазмунига доир қарашлар // Молодой ученый. - Ч., 2020. - № 43 (333). - С. 343-345.
4. «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002.
5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. - Т., 2015. - 120 б.
6. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996.
7. Хуторской А.В., Хуторская Л.Н. Компетентность как дидактическое понятие: содержание, структура и модели конструирования: Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.
8. Павлова М.С. Экспериментальная компетентность будущего учителя физики // Вестник ТГПУ. - Т., 2010. - № 1 (91).

PEDAGOG KADRLARNING AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

G'ulomov Jobirbek, TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Pedagogik texnologiya ta'riflarida asosiy tushunchalar "tizimli metod" ekanligini, qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaning tizim sifatidagi tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Sbu maqsadda aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiyani o'qitishdagi boshqa yondashuvlardan farqlovchi bosh belgi hisoblanadi. Ushbu maqola har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Tayanch so'zlar: *axborot-kommunikativ kompetentlik, o'zini o'zi rivojlantirish, pedagog kadrlar, bo'lajak o'qituvchi, bilim, ko'nikma va malaka, uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi, pedagogik muloqot.*

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Гуломов Жобирбек, преподаватель ТГПУ

Аннотация. В определениях педагогической технологии основными понятиями являются "систематический метод", а все остальные слова обозначают компоненты педагогической технологии как системы. Именно системный подход отличает педагогическую технологию от других подходов в обучении. В данной статье показано, что саморазвитие и самовыражение каждого педагога напрямую связано с его творчеством.

Ключевые слова: *информационно-коммуникативная компетентность, саморазвитие, педагогический коллектив, будущий учитель, знания, умения и навыки, система непрерывного педагогического образования, педагогическое общение.*

DEVELOPMENT OF INFORMATION-COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PEDAGOGICAL PERSONNEL

Gulomov Jobirbek, teacher of TSPU

Abstract. The article is devoted to the development of knowledge, skills and abilities of parents and officials of mahallas in order to create a full-fledged lifestyle for children with disabilities. The authors shared their opinions and comments on the professional development of officials and parents of children with disabilities.

Key words: *shildren with disabilities, parents, mothers, mahalla officials, public councils, Cascade technology, knowledge, qualifications, skills.*

Kirish. Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi hamda ta'limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini uzluksiz pedagogik ta'lim tizimiga tatbiq qilish yildan yilga keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ta'lim bilim olishga nisbatan yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. An'anaviy ta'limda o'qituvchi tayyor bilimlarni uzatish rolini bajarib, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini nazorat qilish va baholash vazifasini bajargan. Bugungi kunda uning

zimmasiga pedagoglarni axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quv-loyihaviy va o'quv-tadqiqot faoliyatlarini tashkil etishga yo'naltirish vazifalari qo'yilmoqda. Binobarin, pedagoglarning axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, ulardan amaliyotda foydalanish kabi holatlarni ifodalovchi axborot kompetentligiga, o'quv topshiriqlari bo'yicha bir necha yechimlarni ilgari surish, ular orasidan optimal yechimni aniqlash, yechimni bayon etish, asoslash, yechim bo'yicha o'z fikrlarini himoya qilishdan iborat kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishlarini ta'minlash davr talabi sanaladi. Pedagoglarning axborot va kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishlarini ta'minlash uchun esa, professional ta'lim muassasasining pedagoglarida ham turkum kasbiy kompetentlik sifatлари, xususan, axborot-kommunikativ kompetentlik mavjud bo'lishi zarur [1].

Asosiy qism. Axborotlashtirish jarayonida pedagogik hamjamiyat tomonidan ko'p sonli axborot resurslari ishlab chiqilmoqda, lekin, bu ishlarni yetarli deb bo'lmaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar va kompyuter tarmoqlari axborot resurslariga kirish va yig'ishning butunlay yangi imkoniyatlarini yaratdi. O'qitishning turli shakllari bilan birgalikda va birlikda ta'limni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Bunday imkoniyatlardan biri sifatida axborotli yondashuv e'tirof etiladi. Axborotli yondashuvning empirik negizi o'quv axborotlarini qayta ishlash, uzatish, saqlash va o'zgartirishning hozirda mavjud bo'lgan amaliy tajribalarini tahlil qilish, uni umumlashtirish va muayyan qonuniyatlarini aniqlashga asoslanadi.

Axborot-kommunikativ kompetentlik – mutaxassisning axborot-kommunikatsiya texnologiyaning funksional imkoniyatlaridan to'laqonli xabardorligi (bilish darajasi), faoliyatni samarali tashkil etish ko'nikma, malaka, tajribalarini o'zlashtirishi (motivatsion daraja), ulardan kasbiy maqsadlarni amalga oshirish yo'lida izchil, samarali foydalana olish (faoliyat darajasi), ijod mahsulini yaratish (ijodiy daraja) qobiliyati. Mazkur ta'rif turli sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarning umumiy kasbiy sifatlaridan birini anglatishga xizmat qiladi. Mazkur ta'rifdan kelib chiqqan holda, "pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligi" tushunchasi yuzaga keladi [2]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan o'quv maqsadlarida foydalanishning samarali yo'llari, shakl, metod va vositalari, kompyuter texnologiyasi, matn protsessorlari, elektron jadvallar bilan ishlash, shuningdek, Internet tarmog'i imkoniyatlaridan maqsadli, izchil foydalanishga oid bilimlarga ega. Pedagoglar elektron axborot ta'lim resurslariga doir dastur va loyihalar bilan tanishtirilgan hamda ulardan o'quv jarayonida amaliy foydalanish yo'llarini o'zlashtirgan. Asoslovchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jarayonida respondent-tinglovchilarning o'zlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni namoyon etishdagi bilim, ko'nikma va malakalari darajasi tayanch (quyi – motivatsion), maxsus (o'rta – kognitiv) hamda kasbiy (yuqori – faoliyatli-refleksiv) daraja tarzida baholandi [3].

"Pedagogik kompetentlik va va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha tinglovchilarni pedagogik mahorat va uning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: tinglovchilarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish; ularda pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish, pedagogik jarayonni samarali yo'lga qo'yish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; tinglovchilarning pedagogik va nutq texnikasiga ega bo'lishlarini ta'minlash; ularda pedagogik deontologiya va pedagogik madaniyat sifatlarini tarkib toptirish, pedagogik qobiliyatni rivojlantirish; tinglovchilar tomonidan pedagogik muloqot, pedagogik nazorat (takt) va pedagogik ta'sir ko'rsatish malakalarini yetarli darajada o'zlashtirilishini ta'minlash; ularda pedagogik madaniyat sifatlarini shakllantirish. Professional ta'lim muassasalari pedagoglarning

kasbiy mahoratlari haqida soʻz yuritishdan avval "mahorat" va "pedagogik mahorat" tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir [4].

Mahorat – "mahorat" – mohirlik, ustalik, epchillik – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, oʻta mohirlik bilan bajarish. Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan oʻta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda koʻrinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor boʻlishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Taʼlim jarayonining faol ishtirokchisi boʻlgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Zamonaviy sharoitda shaxslararo muloqot va uning samarali tashkil etilishi oʻziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy faoliyati mohiyati va davr talabiga koʻra oʻqituvchilarning kommunikativ qobiliyatga egaliklari dolzarflik kasb etadi.

Kommunikativ qobiliyat – oʻqituvchining talabalar, ota-onalar, hamkasblar va taʼlim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni toʻgʻri yoʻlga qoʻyishga yordam beradigan individual xususiyati.

Pedagogning kommunikativ kompetentligi. Pedagogga xos boʻlgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon boʻladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan oʻzaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali boʻlishiga intiladi. Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik taʼsir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining joiy boʻlishini taʼminlash pedagogning zimmasiga katta masʼuliyatni yuklaydi. Agarda toʻgʻri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qoʻrquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tugʻilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq meʼyorining buzilishi kabilarga sabab boʻlsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan toʻgʻri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda oʻqishga va mustaqil oʻrganishga, fikrlashga boʻlgan qiziqish ortadi. Pedagogik muloqot oʻziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi [5].

Pedagogning pedagogik taktikaga egaligi uning yurish-turishi, vazminligi, oʻzini tuta bilishida namoyon boʻladi: ushbu sifat – talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik; turli faoliyat boʻyicha talabalarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariga oqilona pedagogik rahbarlik qilish; talabaning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda boʻlish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qoʻyish; talabalarga ishonish va ularning faoliyatini nazorat qilib borish; ular bilan muloqotni tashkil etishda oʻzini oqlagan ishchan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qoʻshib olib borish: 1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda boʻlish; 2) yuksak talabchanlik; 3) suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qaygʻurish malakasi; 4) ruhiy barqarorlik, dadillik va ogʻir vazminlik; 5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan soʻzlay olish; 6) qatʼiyatlilik (qaysarlik emas); 7) talabalarga nisbatan eʼtiborli va xushyor boʻlish talabaga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi.

Talabaga ishonchsizlik bilan qarash pedagogning pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida pedagogning

pedagogik taktga ega emasligi yotadi. Har qanday qo'pollik, kesatiq va koyishlar, talabalarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularga ishonchsizlik bildirish pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Pedagogik takt, shuningdek, pedagogning talaba javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e'tibor qaratishida, bordi-yu, talaba xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to'g'rilashda, talaba faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo'yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda javob berayotgan talabaga jilmayish, turli imo-ishoralalar bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari, qo'l harakatlari bilan uning javoblarini ma'qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish. Ta'lim jarayonida o'qituvchi rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, natijalarni baholash va tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Ta'lim jarayonini boshqarish – o'qituvchi tomonidan muayyan mavzu bo'yicha yoki nazorat ishlarini o'tkazish maqsadida tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarining ilmiy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishi olib borilishi, natijalarning tahlil etilishi.

Ta'lim jarayonini samarali boshqarish o'qituvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlarini ilmiy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirish, olib borish va natijalarni xolis, tizimli tahlil etishga doir bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishiga bog'liq. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etishni rejalashtirishda kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzishga e'tibor qaratadi. O'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etishdagi roli o'quvchilar oldiga o'quv masalalarini qo'yish, ularning samarali bajarilishi uchun zarur sharoitni yaratishdan iborat. Agarda ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini boshqarishda o'qituvchi uni to'g'ri yo'naltirish vazifasini bajarsa, nazorat o'quvchilar faoliyatining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayoni bo'yicha natijalarni baholash va tahlil qilishda o'qituvchi ta'lim jarayonining qanday kechganligini bilish, yutuqlar omillarini o'rganish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilashga e'tibor qaratishi lozim. O'qituvchining ijodkorligi u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilish [6]. Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi: tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati; bir qolipda fikrlamaslik; o'ziga xoslik; tashabbuskorlik; noaniqlikka toqat qilish; zakovatli bo'lish.

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish; yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish; hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Xulosa. O'quv jarayonini tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo'rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yorining buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish ortadi. Pedagogik muloqot o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi. Zamonaviy axborot – texnologiyalar muhitida pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog'langan komponentlar yig'indisi deb hisoblandi.

Adabiyotlar:

1. Djurayev R. Ta'limda interfaol texnologiyalar. - T., 2010. - 87 b.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. - T.: Fan, 2004. - 120 b.
3. Begimkulov U.Sh., Djurayev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboyev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2011. - 177 b.
4. Temirov A.A., Habibulloyev D.S., G'ulomov J.G'. Masofaviy ta'limning boshqaruv tizimlari va xizmatlarining umumiy tuzilishi // Academic research in educational sciences, 2021. - Vol. 2(1). - P. 203-212.
5. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - T.: Fan, 2006.

**AKADEMIK LITSEYLARDA «QATTIQ JISMLAR FIZIKASI»GA OID
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

Xushvaqtoov O'ral Norqobilovich, TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qattiq jismlar fizikasini akademik litseylarda o'rganilish holati tahlil etilgan va tavsiyalar keltirilgan hamda qattiq jismlar fizikasi bo'yicha o'quv qo'llanma yaratish zaruriyati bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: litsey, akademik litsey, qattiq jismlar, o'quv qo'llanma, kristallar, amorf jismlar, molekularlar, solishtirma qarshiliklar.

**ФОРМИРОВАНИЕ ПОНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ ТВЕРДОГО ТЕЛА
ДЛЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ**

Xushvaktov Ural Norqobilovich, преподаватель ТГПУ

Аннотация. В данной статье изложена необходимость создания учебно- методического пособия по твердым телам в системе непрерывного образования. Проанализировано состояние обучения физике твердого тела в академическом лицее.

Ключевые слова: лицей, академический лицей, школы, твердого тела, учебники, кристаллы, аморфные тела, молекулы, удельное сопротивление.

**FORMATION OF AN NOTIONS ON SOLID STATE PHYSICS
FOR ACADEMIC LYCEUMS**

Khushvaktov Ural Norkobilovich, teacher of TSPU

Abstract. In the present article we analyze the status of learning of the solid state physics in preschool and secondary education which are the part of the continuous education system. We provide recommendations and talk about the need to write textbooks on the physics of solid states.

Key words: secondary education, schools, solid state physics, textbooks, crystals, amorphous solids, molecules, resistivity.

Kirish. Bugungi kunda fan-texnikaning jadal suratda rivojlanishida jo'shqin, zamonaviy fikrlaydigan, zehni, fikrlash moslashuvchanligi va yuqori darajadagi umumlashtiruvchi, odatdagiga qaraganda g'ayrioddiy narsalarni ko'ra olishi va uni tahlil qilib, tahlil asosida yuksak natijaga erisha oladigan yoshlarni tarbiyalash, bu o'quvchini intellektual ijodning yangi bosqichiga olib chiqadi. O'zbekiston Respublikasida mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lida ulkan ishlar olib borilib, inson mohiyatining yangidan ochishga, uni o'zini anglashga, imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga va ma'naviy intellektual, aqliy-amaliy rivojlanishga ega shart-sharoitlar yaratib berildi. O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasi, birinchi navbatda, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurishning yo'nalishlari bilan belgilanadi. Ana shunday qayta qurish sharoitida uzluksiz ta'limni amalga oshirish masalasini muvaffaqiyatli xal etish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda ko'plab tegishli meyoriy xujjatlar qabul qilindi [1].

Yuqorida aytilgan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yetuk mutaxassislar tayyorlashda boshqa fanlar singari fizika ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, iqtisodiy, ma'naviy, texnikaviy masalalarni hal etishda ham fizikaning roli beqiyosdir. Fizika ta'limi yoshlarga fundamental ta'lim asoslarini, uning amaliy

yo'nalishlarini o'rgatish, fizik qonun va tushunchalarni ishlab chiqarishga bog'lab o'qitish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini ta'minlashda fanning ma'lum bo'limlari yoki muhim ahamiyatda ega bo'lgan mavzular yo'nalishida o'quv qo'llanmalar yaratish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunday o'quv qo'llanmalar akademik litseylarda tarqoq holda aks etgan bo'limlar yoki mavzular yaxlit, to'laqonlik aks etadi, shu bilan birga, ularni mustaqil o'zlashtirish sinov savollari, testlar, turli pedagogik va axborot kompyuter texnologiyalari orqali ta'minlangan bo'ladi. Fizika fanidan o'rganilishi zarur bo'lgan shunday bo'limlar sirasiga "Qattiq jismlar fizikasi" ham kiradi. Qattiq jismlar fizikasi, qattiq jismlar turlari, qattiq jismlarning yonishi, erishi va qotishi, qattiq jismlarning elektr o'tkazuvchanligi va elektr qarshiligi, yarim o'tkazgichlar, ularning texnikadagi o'rni va hokazolarni yagona va yaxlit o'qitishda hamda asosiy tushunchalarni shakllantirishda ham o'quv qo'llanma katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ikkinchi tomondan, hozirgi davr talabi bo'lgan masofadan o'qitishni tashkil qilish hamda mustaqil ta'limga bo'lgan talab ham shunday qo'llanma yaratilishini taqozo qilmoqda. Shu maqsadda, akademik litseylarda qattiq jismlar fizikasining, hozirgi kundagi o'qitish holatini tahlil qilib ko'raylik [2-4].

Asosiy qism. Akademik litseyda "Qattiq jism" fizikasini chuqurroq o'rganib boshlaydi. Bu yoshda o'quvchilar qattiq jismlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Ular umumiy o'rta ta'lim maktab yoshida qattiq jismlarning turlarini bilishadi. Qattiq jismlarning deformatsiyasi, karroziya (zanglashi)ga uchrashi va boshqa shunga o'xshash ma'lumotlarga ega bo'lgan. Masalan, temir, alyuminiy, mis, muz, rezina va boshqa qattiq jismlarning tuzilishini, qattiq jismlarda diffuziya hodisasi nimaga va qanday qo'llanilish haqidagi fikrlar shakllana boshlaydi. Akademik litsey, kollej va litseylarda, umumiy o'rta ta'lim maktabida o'rganilgan bo'limlarni chuqurlashtirib o'rgatiladi. Hozirgi kunda akademik litseylarda fizika fanining "Qattiq jismlar" fizikasi bo'limini o'qitishga jami 12 soat ajratilgan bo'lib, unda qattiq jismlar haqida umumiy ma'lumot, qattiq jismlarning mexanik, termodinamik va elektr xossalari o'quvchilarga o'rgatiladi. Bu ajratilgan 12 soatning 10 soati nazariy mavzu, 2 soati amaliy (masalalar yechish) darsi ajratilgan. Bu ajratilgan mavzularni o'qitish jarayonida qattiq jismlar fizikasiga oid tushunchalarni shakllashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qattiq jismlar fizikasi mazmunini o'qitishdagi uzviylikni ta'minlash shu fanga oid o'quv materiallarini monand ravishda tanlash, ularni maqsadli ketma-ketligi, bo'limlararo uzviylik asosida joylashtirishda ularni qisqa vaqt ichida o'quvchilar ongiga yetkazib berish jarayonida uzviylik tamoyilining asosiy o'rin tutishi hozirgi kunning asosiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi [5]. Qattiq jismlar fizikasini o'rganishda akademik litseylarda "Elektrdinamika" bo'limiga yarim o'tkazgichlar va ularda elektr toki haqidagi boshlang'ich tushunchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki hozirgi fan va texnikaning jadal rivojlanishida yarim o'tkazgichlarning o'rni beqiyos ekanligi hech kimga sir emas. Jumladan, zamonaviy texnologiyalar, masalan, uyali telefonlar, kompyuterlar, televizorlar, elektr qurilmalari va mayishiy texnikalarning ishlash prinsiplarida yarim o'tkazgichlardan tayyorlangan materiallar bu qurilmalarning asosiy elementlarini tashkil etadi. Qattiq jismlar fizikasini o'qitishda ham yangi pedagogik texnologiyaning o'rni katta hisoblanadi. Qattiq jismlar fizikasini o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish o'rta umumta'lim maktablari o'quvchilari, akademik litsey va oliy ta'lim talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan birga animatsion va demonstratsion tajribalar imkoniyatlarini kengaytiradi [6]. Qattiq jismlar fizikasini o'rganish akademik litseyda kengroq va chuqur o'rganiladi. Dastlab "Termodinamika elementlari" bobida Issiqlik sig'imi va qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig'imi va uni

aniqlash (laboratoriya ishi) mavzulari keltirilgan. Bu mavzular masalalar yechish orqali mustahkamlanadi. Keyinchalik, qattiq jismlar haqida ma'lumotlar "Qattiq jismlarning xossalari" va "Modda agregat holatining o'zgarishi" mavzularida bayon qilinadi, ularning ketma-ketligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Bob va mavzular		
№	Qattiq jismlarning xossalari	Soat
1	Kristall va amorf jismlar	2
2	Masalalar yechish	2
3	Qattiq jismlarning mexanik xossalari	2
4	Kristall va amorf jismlarning erishi va qotishi	2
5	Bug'lanish va kondensatsiya	2
6	Atmosferadagi hodisalar	2
JAMI		12

Bu bo'limda qattiq jismlarning turlarini o'quvchilarga tushuntirganimizda kristall va amorf jismlar bilan birgalikda keramik qattiq jismlar to'g'risida ham qisqacha ma'lumotlar berish kerak. Qattiq jismlarning mexanik xossalari o'qitish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktabida olgan bilimlariga qo'shimcha yangi ma'lumotlar berish kerak. Ya'ni, deformatsiya va uning turlari va mustahkamlikka qo'shimcha ravishda elastiklik chegarasi, plastikli, murtiligi, issiqlikdan kengayishi, chiziqli kengayish va hajmiy kengayishini ham o'rgatilsa o'quvchilar qattiq jismlarning meaning xossalari haqida kenroq o'rganadi va amaliyotda qo'llanishini ham o'rganadi. Bug'lanish mavzusi yoritilganda, faqat suyuqliklarning bug'ga aylanishi bilan cheklanib qolmasdan, qattiq jismlarda ham bug'lanish yuz berishini, ularga hayotiy misollar keltirilsa, masalan: muzning bug'lanishi, qattiq jismlardan hid taralishi va uning fizikasi haqida ma'lumotlar berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu bosqichda qattiq jismlar fizikasi haqida ma'lumotlar kam uchrasada, ularning tuzilishi va fizik xossalari to'g'risida tasavvurlar shakllangan bo'ladi. Masalan, elektromagnit to'lqinlarni qattiq jismlar nimaga ko'proq yutishini o'quvchilar qisman bo'lsada tasavvur eta olishadi va bu hodisa qattiq jismlarning molekulyar tuzilishiga bog'liqligi o'qituvchi tomonidan yana bir bor takrorlanadi. Fotoeffekt mavzusini o'rganishda qattiq jismlar fizikasi haqida kengroq tushunchalar berish talab etiladi. Misol uchun nimaga fotoeffekt hodisasi faqat metallar va yarim o'tkazgichlarda yuz berishini, dielektrlarda, keramik qattiq jismlarda bu hodisa kuzatilmasligining fizik xossalarini o'quvchilarga qisman bo'lsada tushuntirib o'tish katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan xulosa qilar ekanmiz, akademik litseylarda qattiq jismlarning molekulyar tuzilishi, qattiq jismlarning turlari, qattiq jismlarning erishi va qotishi, qattiq jismlarda elektr o'tkazuvchanlik va solishtirma qarshiliklar, qattiq jismlarda mexanik to'lqinlarning tarqalishi, yarim o'tkazgichlar fizikasi, yarim o'tkazgichli qurilmalar kabi yana ko'proq turlariga bo'lib o'rganilishiga guvoh bo'lamiz. Fizika fanini akademik litseylarda "Qattiq jismlar fizikasi"ga oid tushunchalarini shakllantirish muammolari ochib berish ko'pchilik o'qituvchilarning ham taklifidir. Haqiqatdan ham, fizika fanini yosh avlodga o'rgatish, o'qitish va qiziqitirish ayrim muammolarga uchraymiz. Qattiq jismlar fizikasini o'qitishni umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinfidan boshlab o'rgatish kerak. O'rgatish jarayonida qattiq jismlar haqida gapirib tushunchalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman olganda, qattiq jismlar fizikasiga oid tushunchalarni shakllantirishni boshg'ich sinfda atrofimizdagi qattiq jismlar haqida, keyinchalik 6-11 sinflarda qattiq

jismlarga oid tushunchalar haqida kengroq ma'lumot berish kerak. Ya'ni qattiq jismlar haqida ma'lumot, qattiq jismlarning turmushda va texnikada qo'llanishidan tashqari amaliyotda qo'llanishi haqida ham o'rgatilsa umumiy o'rta ta'lim maktabida qiziqishi ortadi va akademik litseyda qattiq jismlarning amaliyotda qo'llanishini bemaolol o'rganadi hamda qattiq jismlarga oid tushunchalarni shakllanishiga samarali hissa qo'shgan bo'ladi. Shunday ekan "fizika" fanini o'qitishning muammolarini barchamiz birgalikda hal qilishimiz mumkin. Umuman olganda yangi qurilgan akademik litseylarda "fizika fanini o'quvchilarga mukammal o'rgatishda, barcha shart-sharoitlar yetarlidir. Davlat ta'lim standartida belgilab qo'yilgandek, o'quv reja bo'yicha ham o'quv soatlari va tajriba soatlari yetarli darajada ajratilgan. O'quv xonalari ham, tajriba o'tkazish xonalari ham zamonaviy jihozlari va o'quv adabiyotlari bilan taminlangan. Barcha zarur bo'lgan o'quv anjomlar yetarli darajada bo'lsa, qanday o'qitishning samarasini oshirmasligimiz mumkin [7].

Xulosa. Bundan ko'rinib turibdiki, fizikada "Qattiq jismlar fizikasi"ni o'qitishda oddiylikdan murakkablikka qarab, uzluksizlik qoidalariga amal qilish zarur. Shunday ekan, bu hodisalar haqida yanada chuqurroq va mukammal o'qitishda, uzviylikka asoslangan "Qattiq jismlar"ga doir ko'plab zamonaviy plakatlar, animatsion materiallar, slaydlar, didaktik materiallar, mavzuga doir qisqa videolar, testlar, sinov savollari, virtual laboratoriyalar, mavzuga doir har xil tildagi video darslar, taqdimotlar, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar joylashgan ssilkasini o'quvchilarga berish, uslubiy va o'quv qo'llanmalari, shu bilan birga majmua tayyorlanishi zarur bo'ladi. Bunday majmuaning yaratilishi, davr talabi bo'lgan masofadan o'qitishni tashkil qilishga hamda mustaqil ta'limga bo'lgan talabning bajarilishiga, o'quvchilarning fizik tushunchalarni yaxshi tushunishi va uzoq muddat eslab qolishiga, fizika faniga bo'lgan qiziqishining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: Шарқ, 1998. - 88 б.
2. G'aniev A.G., Avliyaqulov N.H., Almardonov G.A. Fizika. 1-qism. - T.: O'qituvchi, 2013. - 400 b.
3. Турдиев Н.Ш. Физика - 6. - Т., 2009.
4. Хабибуллаев П., Бойдадаев А., Бахромов А., Йўлдошева М. Физика: Умумий ўрта таълим мактабларининг 9-синфлари учун дарслик. - Т., 2010.
5. Қаландаров Э.Қ., Хушвақтов Ў.Н. Қаттиқ жисмлар физикасини янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш // Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендири. - Нукус, 2018. - 3-сон. - Б. 123-128.
6. Khushvaktov U.N. Use of the membership principle in studying solid physics at secondary school // *Academia: an International multidisciplinary research journal*. Vol. 11, Issue 6, June 2021. - P. 523-528.
7. Jorayev M.D. Fizika o'qitish metodikasi. - T., 2015.

O'QUVCHILARNI ILMIY TADQIQOT FAOLIYATGA YO'LLASHDA O'ZBEK BIOLOG OLIMLARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH

*Erdanayeva Shaxnoza Po'latovna, TDPU magistranti,
Raxmatov Uchkun Ergashevich, TDPU dotsenti v/b, PhD*

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarni ilmiy tadqiqot faoliyatga yo'llashda o'zbek biolog olimlarining ilmiy tadqiqot ishlaridan dars jarayonida foydalanish metodikasi yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim samaradorligi, ilmiy tadqiqot, botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, sitologiya va genetika asoslari, seleksiya, biotexnologiya, gen injenerligi, bioinformatika, genomika.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДОСТИЖЕНИЙ УЗБЕКСКИХ БИОЛОГОВ ДЛЯ НАПРАВЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ К ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Эрданаева Шахноза Пулатовна, магистрант ТГПУ,
Рохматов Учкун Эргашевич, и.о.доцент ТГПУ, PhD*

Аннотация. В данной статье освещена методика использования на уроках научно-исследовательских работ узбекских ученых-биологов для направления учащихся общеобразовательных школ к научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: система образования, эффективность образования, научные исследования, ботаника, зоология, человек и его здоровье, цитологии и основы генетики, селекция, биотехнология, генная инженерия, биоинформатика, геномика.

USING THE ACHIEVEMENTS OF UZBEK BIOLOGISTS IN DIRECTING STUDENTS TO RESEARCH ACTIVITIES

*Erdanaeva Shakhnoza Pulatovna, is a master's student of TSPU,
Rakhmatov Uchkun Ergashevich, acting associate docent of TSPU, PhD*

Abstract. This article highlights the methodology of using the scientific research works of Uzbek biologists in the classroom to direct pupils of secondary schools to research activities.

Key words: education system, educational efficiency, scientific research, botany, zoology, man and his health, cytology and fundamentals of genetics, breeding, biotechnology, genetic engineering, bioinformatics, genomics.

Kirish. Inson hayoti davomida har qanday faoliyat ko'rsatishidan qati'y nazar, birinchi navbatda, atrof-muhitdan sezgi a'zolari orqali ko'zlangan maqsadga mos holda zarur bo'lgan axborotni qabul qiladi. Ushbu axborot uning tafakkurida obraz va tasavvur shakliga o'tadi, fikrlash jarayonida esa, hukmlar tuziladi, mulohaza yuritiladi. Shu yo'l bilan hosil bo'lgan bilim insonning turli harakati yoki faoliyatini intellektual zaminini tashkil qiladi. Hosil bo'lgan bilim voqelikni inson ongida u yoki bu aniqlik darajada in'ikos etadi. Bu vaziyatdagi "voqelik" tushunchasi keng ma'noda olingan bo'lib, moddiy, madaniy va ma'naviy olamlardagi holatlar, jarayonlarni ifodalaydi. Bilish inson faoliyatini tarkibiy qismi bo'lib, tushunchalar, g'oyalar va nazariyalar ishlab chiqish orqali voqelikni ongda in'ikos etish jarayonini bildiradi. Inson bilish orqali atrof-dagi voqiy va hodisalarga munosabat bildiradi. Bilish jarayoni bosqichma-bosqich takomillashib boradi va ilmiy bilishni hosil etadi uning natijada esa, ixtisoslashgan ilmiy bilish yuzaga keladi [2].

Ixtisoslashgan ilmiy bilish – bu o'rganilayotgan obyektning xossalari, tuzilishi, harakati va o'zgarishi qonuniyatlarini ilmiylik mezonlariga asoslangan holda tushuntirib beradigan g'oyalar,

tasavvurlar va nazariyalarni ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyati sanaladi. Ilmiy bilishni muntazam asosda tashkil qilish tadqiqot faoliyatini namoyon etadi. Demak, ilmiy bilish olib borilayotgan ilmiy tadqiqotning mazmuni va mohiyatini anglatadi. Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi. Unga obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog'langan ikki jarayon tajriba va nazariyadan iborat bo'ladi. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish kabilarni kiradi. Yoshlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'llash o'quvchilik vaqtlaridan boshlash muhim amaliy ahamiyatga ega sanaladi. Chunki, hech bir tadqiqotchi bakalavr yoki magistratura bosqichini tugatib ilmiy tadqiqotchi bo'lib qolmaydi, bu jarayon uzoq va mashaqqatli mehnat samarasi hisoblanadi. Shu bois ilmiy tadqiqotga yo'llash borasidagi ishlarni umumta'lim maktablaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni fan asoslarini o'zlashtirish jarayonida ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda turli sohalarida ilmiy tadqiqot qilishga yo'llash joizdir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda, "Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq". Shu sababdan ham mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasida oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilarni mavqei yuksaltirish bo'yicha ko'plab amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bois, mamlakatimiz hayotida yangi davr boshlanmoqda. O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan [1].

Asosiy qism. Umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarni har bir o'quv fanini o'qitish davomida o'qitish metodikasini takomillashtirgan holda o'quvchilarni maktab davridan boshlab ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'llash lozim. Bu murakkab va ma'suliyatli vazifalarni amaliyotga joriy etishda har bir o'quv fanlari bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya fani o'qituvchilarining zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Chunki, o'quvchilarni maktab davridanoq biologiya (botanika) o'quv fanini ko'plab tarmoqlari: o'simliklar morfologiyasi, anatomiyasi, embriologiyasi, sistematikasi, geobotanika, farmokologiya, paleontologiya, sitoembriologiya kabi sohalarini faoliyat yuritayotgan o'zbek olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan dars jarayonida samarali foydalanish orqali ularni tadqiqot olib borishlari uchun zamin yaratadi. Shuningdek, biologiya (zoologiya) o'quv fanini o'qitish davomida o'quvchilarni bevosita parazitologiya, araxnologiya, akrologiya, entomologiya, ixtiologiya, gerpitolgiya, omitologiya, mamalogiya kabi tarmoqlar bilan bir qatorda hayvonlar fiziologiyasi, anatomiyasi, morfologiyasi, zoogeografiyasi, zoonjeneriya kabi sohalarida ilmiy tadqiqot olib borayotgan mamlakatimiz olimlarning qo'lga kiritgan yutuqlaridan foydalanish asosida bevosita o'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish orqali ilmiy tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan biologiya (Odam va uning salomatligi) o'quv fanini o'qitish jarayonida biologiya o'qituvchisi o'quvchilarga – odam anatomiyasi, fiziologiya va gigiyenasi, ichki kasalliklar, formatsevtika, klinik tibbiyot, osteologiya, miologiya, immunologiya, endokrinologiya, gistologiya, onkologiya, toksikologiya, gerontologiya, organlar transformatsiyasi, ixtisoslashgan jarrohlik, nevrologiya va boshqa ko'plab rivojlanayotgan sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan olimlarimizning ilmiy tadqiqotlaridan dars jarayonida tizimli ravishda mavzular mazmunini yoritishda foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya darsligi umumta'lim maktablarida 9-10-11- sinflarda ham o'qitiladi. Bu vaqtda tahsil olayotgan o'quvchilar 16-18 yoshda ekanligini hisobga olsak, dars jarayonida ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'llash ishlarini takomillashgan darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir, chunki o'quvchilar bu vaqtda mustaqil hayotga qadam tashlaydigan davr sanaladi. Bu davrda, ayniqsa, har bir mavzu mazmuniga Vatanimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlari asosida erishgan yutuqlaridan keng ko'lamda foydalanish orqali o'quvchilarga oliy ta'lim muassasalarini to'g'ri tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur holatda molekulyar biologiya, hujayra biologiyasi, biotexnologiya, biofizika, biokimyoy, biotsenologiya, mikrobiologiya, bioinformatika, genomika, genetika va

seleksiya, biometriya, bionika, aerobiologiya, virusologiya, taksonomiya, ekologiya kabi rivojlanayotgan sohalaridagi tadqiqotlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika institutida olimlarining fidokorona mehnati natijasida mamlakatimiz, qolaversa, xorijiy davlatlarning ham o'simliklar dunyosining o'ziga xos jihatlari ustida juda keng qamrovdagi ishlarni amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur institutda qator yirik olimlardan Q.Zokirov, J.Saidov, P.Baranov, A.Muzaffarov, O'.Pratov, O'.Hasanov, O'.Allanazarova kabi mashhur ustozlar faoliyatlarini diqqatga sazovor sanaladi. Bugungi kunda qator olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Xususan, akademik K.Tojiboyev, professorlar H.Shomurodov, T.Raximova, F.Xasanov, D.Xamrayeva va boshqa olimlarni keltirish mumkin [4]. Mamlakatimiz o'simlik olamini tadqiq qilishda o'zining ulkan hissasini qo'shayotgan, ko'plab botaniklarning ustoziga aylangan O'zbekiston fanlar akademiyasi "Botanika instituti" direktori, biologiya fanlari doktori, akademik K.Tojiboyevning ilmiy tadqiqotlari muhim amaliy ahamiyatga ega sanaladi. Akademik K.Tojiboyev o'zining ilmiy tadqiqotlarini flora, o'simliklar sistematiikasi va geografiyasi yo'nalishlarida olib bormoqda. Olimning ishlari juda keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. K.Tojiboyevning tashabbusi bilan 2017 yilda "O'zbekiston florasini"ning dastlabki ikki jildi chop etildi. Botanika darsligidan o'rin olgan barcha mavzularini o'qitish jarayonida K.Tojiboyevning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. K.Tojiboyev ta'biricha "Bizda qo'llaniladigan darsliklar, avvalo, mahalliy floraning vakillarni ham hisobga olishi zarur" deb yozadi. Ko'pchilik oilalarni o'qitishda, masalan, yovvoyi tarzda o'suvchi lola (*Tulipa L.*), piyoz (*Allium L.*), gulsafsar (*Juno Tratt.*), moychechak (*Gagea Salisb.*) turkumlarining birlamchi kelib chiqish markazi O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi hisoblanishi, O'zbekistonda lolalarning 34 turi o'sishi va bu ko'rsatkich bo'yicha biz maydoni jihatdan bir necha babobar katta bo'lgan Qozig'istondan (36 tur) keyin ikkinchi o'rinda turishimiz haqidagi qimmatli ma'lumotlar faqat olimning ilmiy ishlarida qayd etilgan [4]. Biologiya (botanika) o'quv fanidan o'rin olgan Ziradoshlar oilasini o'qitish jarayonida biologiya fanlari doktori, professor D.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Ziradoshlar oilasi vakillarining yer usti va yer osti organlarining morfologik va anatomik tuzilishini chuqur va kompleks tahlilga asoslangan, vegetativ va generativ organlarning taksonomik molik belgilarini ajratilgan, o'simliklarda ma'lum o'sish sharoitiga xos biologik va adaptiv xususiyatlarni yoritib berilgan, Kamelinia turkumining Apiaceae oilasi tizimidagi mustaqil o'rnatilgan, Kamelinia tianshanica turining ontogenezini mexanizmi, senopulyatsiyalarining strukturasi va tipini aniqlanganligi kabi ilmiy ma'lumotlarni dars jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarni botanik tadqiqotlarga yo'naltirish mumkin. Biologiya (zoologiya)ning boshqa sohalaridagi qo'lga kiritilgan yutuqlar T.Zohidov, D.Kashkarov, A.Muhammadiyev, S.Alimuhamedov, V.Yaxontov, R.Olimjonov, A.To'laganov, M.Sultonov, ayniqsa, akademik O'zRAning muxbir a'zosi J.Azimov, S.Dadayev, O.Mavlonov, K.Saparov, E.Shakarboyev, Sh.X.Xurramov va boshqa o'zbek olimlarining hissalarini katta sanaladi [3]. O'zRAning muxbir a'zosi, akademik J.A.Azimov dunyo olimlari tomonidan tan olingan yetakchi zoolog, gelmentolog olim sanaladi. Olim inson va hayvonlar organizmida yashovchi parazit organizmlarning morfologiyasi, biologiyasi va ekologiyasini tadqiq etish asosida, organizmlarning evolyutsiyasi, filogenezi va sistematiikasi nafaqat mamlakatimiz bo'yicha balki dunyo ilm-fanida katta qiziqishga sabab bo'lgan o'ziga xos nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqib, o'zining maktabini yaratgan o'zbek olimi sanaladi. Ustozning yaratgan asarlaridan umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun mo'ljallangan biologiya (zoologiya) darslarining barcha mavzularini o'qitishda foydalanib kelinmoqda. Bu boradagi tadqiqot natijalaridan foydalanib, o'quvchilarni parazitologiya, araxnologiya, akrologiya, entomologiya, ixtiologiya, ornitologiya, mamalogiya kabi sohalarda ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'llash maqsadga muvofiq sanaladi [3]. Mamlakatimizda zamonaviy gen va hujayra muhandisligi, molekular markerlarga asoslangan genom va virtual seleksiya dasturlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanib atrof-muhit va odamlar uchun xavfsiz, kasalliklar va zararkunandalarga chidamli, turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan zararkunandalarga chidamli, turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan yangi o'simlik navlari va hayvon zotlarini

yaratish, birlamchi urug'chilik ishlarini tashkil qilish, shuningdek, turli sharoitlarda sinash va ilmiy ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi xodimlari o'zining ilmiy tadqiqotlari bilan o'ziga xos alohida o'ringa ega sanaladi [5]. Mazkur markazning jonkuyar tadqiqotchilari akademik, biologiya fanlari doktori, I.Abduraxmonov, biologiya fanlari doktori, professor Z.Buriev va biologiya fanlari nomzodlari M.Ayubov, T.Avazmatov, Sh.Shermatovlar rahbarligida dunyoda ilk bor paxta genomiga oid tadqiqotlarda keng foydalanilgan 310 mikrosatellit paxta markerlari yaratildi. Shuningdek, "Ravnaq-1", "Ravnaq-2", "Baraka", "Saxovat" va "Tafakkur" kabi ko'plab paxta navlarini davlat nav sinovlariga taqdim etilgan. Mazkur markaz genomika va bioinformatika, proteomika va metabolomika, gen muhandisligi, o'simliklarning markerlarga asoslangan seleksiyasi sohalariga oid ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yagona markaz hisoblanadi. Bu markaz haqida ma'lumot berish va markazda faoliyat olib borayotga o'zbek biolog olimlarning tadqiqotlari haqidagi ma'lumotlardan biologiya 9-10-sinf o'quvchilarini genetika va seleksiya bo'limlari va gen injenerligi va biotexnologiya boblaridan o'rin olgan mavzularni o'qitishda samarali foydalanishi natijasida bevosita genomika va bioinformatika, proteomika va metabolomika, gen muhandisligi, o'simliklarning markerlarga asoslangan seleksiyasi sohalarida ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'llash jarayonida muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday amaliy ahamiyatga ega dolzarb vazifalarni ruyobga chiqarishida umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratiga bevosita bog'liq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti"da biologiya fanlari doktorlari S.M.Rizayeva, M.F.Abzalov, Sh.Yunusxanov, R.M.Usmanov, S.K.Baboyev, I.D.Kurbanbayev, X.X.Matniyazovalar faoliyat olib bormoqdalar [6]. O'zbek olimlari biologiya fanlari doktori X.Matniyazovning ilmiy tadqiqotlari, ayniqsa, diqqatga sazovor sanaladi. Olimaning ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini biologiya (sitologiya va genetika asoslar) darsligining genetika asoslari mavzularining o'qitishda o'quvchilarni bevosita genetika sohalarida tadqiqot olib boyitishga yo'llaydi. Olima ilk bor o'rta tolali g'o'za navlarining ba'zi to'g'ri va teskari F1 duragaylarida fiziologik-biokimyoviy va morfoxo'jalik belgilari bo'yicha retsiprok farqlanishlarning yuzaga chiqishi yoki mavjud bo'lmasligi suv bilan ta'minlanganlik sharoitlariga bog'liqligi aniqlangan [6].

Bizningcha, o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol topishi, ta'lim jarayonida umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarning kasbiy kompetensiyasining qay darajada takomillashganligiga bog'liq.

Xulosa. Dars jarayonida o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqot ishlaridan samarali foydalanish orqali: o'quvchilarning biologiya fanining mazmunini o'zlashtirish jarayonida bilish faoliyati faollashadi; o'quvchilar biologiya (botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi) fan asoslarini puxta egallashlariga zamin yaratiladi; mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini mazmunan anglab yetadi va milliy g'urur shakllanadi; o'quvchilar yangidan-yangi sohalar haqida ma'lumotga ega bo'lib, o'zining kelajaginga mustahkam poydevor yartatadi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28-январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони.

2. Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014. - 464 b.

3. Dadayev S., Saparov K., Eshova X. O'zbekistonning parazitolog olimlari. - T: Tamaddun, 2011. - 121 b.

4. <https://www.academy.uz/page/ozbekiston-respublikasi-fanlar-akademiyasi-botanika-instituti>.

5. <https://uz.genomics.uz/markaz-tarixi>.

6. <http://www.genetika.uz/page/view/9>

SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA
DUTOR SINFI DARS JARAYONLARI**

Norboyev Behzodbek Dilshodbek o'g'li, *TDPU Musiqa madaniyati fakulteti*
Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada an'anaviy dutor ijorchiligi yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarning dars mashg'ulotlari, imtihon va ko'rik tanlovlarda yuzaga kelayotgan kamchilik va muammolari, yutuqlari, musiqa tinglash va ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati, ularni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish yo'llari o'z aksini topgan.

Tayanch so'zlar: *ijrochi, imtihon, konkurs, maqom, minor, major, melodik, garmonik.*

**ПРОЦЕСС ЗАНЯТИЙ В КЛАССАХ ДУТОРА
В ДЕТСКИХ ШКОЛАХ МУЗЫКИ И ИСКУССТВА**

Норбоев Бехзодбек Дилшодбек угли, *заместитель декана*
по работе с молодежью факультета музыкальной культуры ТГПУ

Резюме. В данной статье рассматриваются недостатки и проблемы, достижения учащихся, обучающихся по направлению музицирования на традиционном дутаре, которые возникают на занятиях, экзаменах и конкурсах, показана роль формирования навыков слушания музыки и исполнения, пути их духовно-нравственного развития.

Ключевые слова: *исполнитель, экзамен, конкурс, маком, минор, мажор, мелодия, гармония.*

**THE PROCESS OF CLASSES IN THE TUTOR'S CLASSES
IN CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS**

Norboyev Behzodbek Dilshodbek o'g'li, *deputy dean for youth affairs*
of the faculty of Musical culture TSPU

Abstract. This article discusses the shortcomings and problems, the achievements of students studying in the direction of playing music on the traditional dutar, which arise in classes, exams and competitions, the role of the formation of skills in listening to music and performance, their ways of spiritual and moral development.

Key words: *performer, exam, competition, maqom, minor, major, melody, harmonica.*

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yuqori malakali, zamonaviy tafakkurga ega bo'lgan, bilimli mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida juda katta yutuqlarga erishildi. "Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, – deb ta'kidlaydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - qanday muammolarni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'nimimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq.

Asosiy qism. Haqiqatan ham jamiyatni harakatga keltiruvchi, sifat o'zgarishlarni amalga oshiruvchi – har tomonlama yetuk kadrlardir. Ularning iqtidori, mahorati, ijodiy

salohiyati, o'z ishiga bo'lgan munosabati, mas'uliyat hissini qabul qilish darajasi, pirovard natijada, mamlakat va millat kelajagi demakdir. Bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularni joy-joyiga qo'yish borasidagi ishlar ham sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Endi kadrlarga nisbatan qo'yiladigan talablar silsilasida asosiy e'tibor, uning milliy manfaatlarini qay darajada tushunishi va uni o'ziga dasturlamal qilgani, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini his etishi, mutaxassislik malakasini qanday o'zlashtirganligi kabi jihatlariga qaratilmoqda.

Nazarimizda, hozirgi zamonaviy kadr o'zi tanlagan mutaxassisligini bilishi barobarida, albatta, milliy madaniy merosni, ming yillar davomida yaratilgan mumtoz adabiyot va san'at durdonalarini yaxshi bilishi, pedagogik faoliyatida o'ta sabrli hamda yoshlarga nisbatan mehribon bo'lishi, milliy qadriyatlar mohiyatini teran tushunishi, undan faxrlanish hissiga ega bo'lishi lozim. Agar inson o'z milliy zamini hamda ildizlarini chuqur bilmas ekan va undan g'ururlana olmas ekan, undan tom ma'nodagi vatanparvar chiqishi amri mahol. Musiqa san'at sifatida ijtimoiy ong formasidir. Musiqaning tarbiyaviy jarayonining asosiy omillari quyidagilar hisoblanadi: musiqani eshitib zavqlanish, qo'shiq ijro etish, musiqa savodiga doir xususiyatlarini anglab olish, raqsga tushish va musiqa ostida turli harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblari ijrosi maqsadini idrok etib borishdan iborat. Musiqiy tarbiya vazifalarini bajarish uni amalga oshirish uchun sozanda, xonandalarni tinglashga o'rgatish kerak. Ko'pgina odamlar jiddiy musiqani tinglashmaydi, chunki uni tushunishmaydi. Tushunish uchun esa, tayyorgarlik talab etiladi. Agar tayyorgarlik ko'rilmasa bilim ham bo'lmaydi. Tinglashga o'rgatish qo'shiq ijro etishdan murakkabdir (masalan, o'zbek lirik kuy-qo'shiqlar, maqom asarlari va boshqalar) [1].

Barcha ta'lim jabhalarida o'ziga yarasha kamchiliklar bo'lgani kabi, bolalar musiqa va san'at maktablari va ixtisoslashtirilgan musiqa internatlarida ham bir qancha ijrochilik hamda pedagogik kamchiliklar uchrashi sir emas, albatta. Toshkent shahar, Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi bir nechta bolalar musiqa va san'at maktablaridagi an'anaviy dutor ijrochilik sinflarining dars jarayonlari bilan tanishib, dutor o'qituvchilarini qiynab kelayotgan muammolar bilan yaqindan tanishdik. Dastavval, ta'lim jarayonidagi kamchiliklar bilan o'rtoqlashsak, ta'lim jarayonida eng katta muammo bu kadrlar yetishmasligidir. Chunki, san'at kolleji va oliygohlarni tamomlagan bitiruvchi dutorchilarning ba'zilar ansambllarga ishg'a kirishmoqda, aksariyati esa, mustaqil ijod bilan mashg'ul (ya'ni dutorchilikdan emas, shou-biznesda ijod qilib sozandalikdan yiroqlashmoqda), yana ba'zilar esa, qizlar turmush qurganlaridan keyin ish faoliyatini davom ettirishmayotganligidan musiqa va san'at maktablarida kadrlar tanqisligi yuzaga kelmoqda. Bolalar musiqa va san'at maktablarida faoliyat olib borayotgan dutorchilarning aksariyati maqom ijrochiligini emas, aksincha, xalq cholg'u ijrochiligini tamomlagan mutaxassislar ekanligi ko'pchilikka ma'lum. Odatda an'anaviy ijrochilik yo'nalishiga qiziqish har bir viloyatning chekka tumanlaridagi musiqa maktablariga to'g'ri keladi. Lekin, an'anaviy ijrochilik o'qituvchilari kamligi tufayli, maktabga tashrif buyurgan o'quvchi-yoshlar xalq cholg'ulari bo'limiga yoki xalq cholg'ularini tamomlagan o'qituvchilarga birlashtirib beriladi. Albatta, dutor o'rganishni boshlagan o'quvchining texnik mahoratini o'ziga xos metodlar bilan rivojlantirishini tan olishimiz kerak. Dars jarayonida, asosan, rus va chet el kompozitorlarining etyud va kuylaridan foydalaniladi. Bunda, yosh sozanda o'zbekona ohanglardan ancha yiroqlashib ketishi mumkin. Kadrlar yetishmasligini inobatga olib, ushbu holatni yaxshilash uchun mahoratli an'anaviy dutor ijrochilari bilan mahorat darslari tashkil etib, nafaqat maqom ijrochilarini, balki, xalq cholg'ularidan dars beradigan

o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonidagi yana bir asosiy kamchiliklardan biri bu darslik va adabiyotlar yetishmasligidir. O'rganishlarimiz natijasida shular ma'lum bo'ldiki, bolalar musiqa va san'at maktablarida an'anaviy dutor ijrochiligiga oid o'quv darsliklari va o'quv qo'llanmalar mavjud emas. An'anaviy dutor ijrochiligida o'qituvchilar, asosan, xalq cholg'u ijrochiligiga oid darslik, o'quv qo'llanma va notalardan foydalanishlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu adabiyotlar bilan tanishib chiqqanimizda, ko'pchiligida aytarliq yangiliklar uchratmadik. Dutor ijrochiligidagi asosiy va eng ishonchli darslik M.A.Asilov va F.N.Vasilevlarning "Dutor darsligi" hisoblanadi. Mazkur darslik, asosan, boshlang'ich dutor ijrochiligi uchun yozilgan bo'lib hozirgacha ham akademik dutor ijrochiligida, ham an'anaviy dutor ijrochiligida foydalanib kelinmoqda.

Yuqoridagi muammoni bartaraf etish maqsadida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasini mudiri va katta o'qituvchisi Ilyos Arabov hamda kafedra o'qituvchisi Farangiz Mahmudovalar boshlang'ich hamda katta sinflar uchun o'quv qo'llanma yozishga kirishganlar. Ushbu qo'llanmalarda boshlang'ich an'anaviy dutor ijrochilari uchun texnik mashqlar, ikki xil sozlanishdagi gammalar (minor, major, melodik va garmonik) va o'nlab kichik xalq va bastakorlik kuylarining notalarini kiritish ko'zda tutilgan. Yuqoridagi kamchiliklardan yana birlari dars jarayonlarida o'quvchilarning dutor ushlash va o'tirish qoidalariga amal qilmasligi yoki o'qituvchilarning o'zi befarqligi sababli imtihon va ko'rik tanlovlarda ma'lum darajada baholarini pastlashishiga olib keladi. Dutor ijro etishda dutor dastasi (dutor qulog'i, ya'ni dastaning boshi) ijrochining elkasi barobarida bo'lishi kerak (elkasidan pastga tushib ham ketmasligi kerak). Ijro vaqtida o'rindiqning (stulning) uchiga o'tirish zarur, bu holatda ijrochi o'rindiqdan yiqilib tushmasligi uchun xushyor tortib, fikrini bir joyga jamlab ijro qiladi. Yana ko'p o'quvchilar ijro vaqtida boshini egib olib ijro qiladi. Bunday holat hayajonlanganidan yoki doimiy odatga aylanib qolganidan bo'ladi. Albatta, bu holat ham tomoshabinlarga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi.

Musiqani sevish – bu musiqani doim tinglash demakdir. Musiqani tushunish – bu his etish, tahlil etish, bilish demakdir. Musiqa tinglashga o'rgatishda rahbar oldiga qo'yiladigan vazifalar: musiqa san'atiga havas uyg'otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish bolalarda musiqiy ehtiyojini kuchaytirish, ijrochilarda badiiy taassurotlarni to'plab borish (savol javob, suhbatlar orqali).

Buning uchun:

1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish.
2. Tinglashda oddiy musiqa terminlarini va atamalarini qo'llab borish.
3. Kuyning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalarini, ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish va kuylashga o'rgatish.

4. Musiqa ijodkorlari, ijrochilar turlari cholg'u asboblari bilan tanishtirish.

Shuningdek:

1. Musiqiy janrlarni bilish (raqs, balet, opera va boshqalar).
2. Asarning tuzilishini bilish (bandli, 2 qismli yoki 3 qismli).
3. Kompozitorlarning hayoti va ijodini bilish.
4. Musiqiy nutq elementlarini bilish (xarakteri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari va boshqalar).

5. Musiqiy estetik ma'lumotlarini bilish (tinglash madaniyati).

O'quvchilar 1-sinf danoq musiqada mazmun borligini va u kishilarning hayotini aks

ettirishini bilishlari lozim. Shuningek, musiqa shakl borligini bilishlari kerak (mazmun – bu ifoda etish yoki tasvirlash, shakl – bu kompozitorni asar mazmunini ifoda etishiga bog'liq). Sozandalarda musiqa didini tarbiyalashda rahbarning mahorati muhim rol o'ynaydi.

Musiqa tinglash 4 ta bosqichda olib boriladi:

1. Asami tushunish uchun bolalar diqqatini jamlash va asar haqida rahbarning kirish so'zi.
2. Badiiy rahbar ijrosida yoki audio yozuvida musiqiy asarni tinglash.
3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy-badiiy jihatdan tahlil etish va chorak mavzusini yoritish.

4. Asarni to'liq qayta tinglash, so'ng asar haqida bolalarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Xulosa. Ijrochi hamda tinglovchilarni musiqa yuksak badiiylilik bilan tanishtirish lozim. Bunday asarlar sozanda va xonandalar dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didini tarbiyalaydi. Shu sababli, savodxon tinglovchilarni tarbiyalash uchun musiqa shaydolarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni sevishga o'rgatish lozim. Avvalambor, tinglovchilarni tinch va boshidan oxirigacha asarni tinglashga o'rgatishimiz kerak. Badiiy rahbar sozanda, xonandalarga asarni tinglash jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini aytib o'tish kerak. Badiiy rahbar tinglash davomida rahbarlik qilishi lozimdir. Eng muhimi tinglanayotgan asar ijrochilar yoshiga mos va esda qoladigan bo'lishi lozimdir [2, 4-b.]. Badiiy rahbar tinglanayotgan asar mazmuni orqali ahloqiy estetik tarbiya berishi lozim.

Adabiyotlar:

1. <http://www.classicmusic.uz/>
2. Зияева М. Дутор / Ф.Содиқов ижро услуби. - Тулдирилган II нашр. - Т., 2011.
3. Абдулаев Р.С. Ўзбек мумтоз муסיқаси: Ўқув қўлланма. - Т.: Янги нашр, 2008. - 110 б.
4. Қосимов Р. Анъанавий ижрочилик: Ўқув қўлланма. - Т.: Фан, 2007. - 123 б.
5. Фитрат А. Ўзбек классик муסיқаси ва унинг тарихи. - Т., 1993.
6. Расултоев Ж. Ўзбек дутор ижрочилиги. - Т., 1997.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING MUSIQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARNING O'RNI

Beknazarov Xurshid Qaxramonovich, O'zDSMI katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda mutaxassislik fanlarining o'rni va musiqiy kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyati xususida fikr va mulohazalar berilgan.

Tayanch so'zlar: musiqa, san'at, qobiliyat, mutaxassis, cholg'u, ansambl, bilim, malaka.

РОЛЬ ПРЕДМЕТОВ В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Бекназаров Хуршид Кахрамонович, старший преподаватель УзГГИК

Аннотация. В статье даны размышления и рассуждения о роли специальных дисциплин в подготовке будущих учителей музыки и их значении для развития музыкальной компетентности.

Ключевые слова: музыка, искусство, способности, специалист, инструмент, ансамбль, знания, квалификация.

THE ROLE OF SUBJECTS IN THE DEVELOPMENT OF MUSICAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS

Beknazarov Khurshid Kakhramonovich, senior lecturer of SIACUz

Abstract. The article gives views and comments on the role of specialty disciplines in the preparation of future music teachers and their importance in the development of musical competence.

Key words: music, art, ability, specialist, instrumental, ensemble, knowledge, qualification.

Kirish. Inson yaralibdiki, musiqa u bilan birga hamnafas. San'at kishilik jamiyati rivojida, uning olam va odamga bo'lgan qarashlarini o'zgartirishda, ilm va fan rivojida o'ziga xos hissa qo'shib kelmoqda. Shu bois, bugungi kunga qadar hayotning barcha jabhalarida o'zini namoyon etib kelmoqda. Azaldan san'atga alohida e'tibor berilib, bilim sifatida o'rganilganligi, buyuk allomalar tomonidan tadqiq etilib, tasniflab risolalar yaratilganligi shundan. Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san'at rivoji bo'yicha chiqarilayotgan qator qaror va farmoyishlar, soha rivoji uchun olib borilayotgan ishlar nafaqat soha vakillarini, musiqa va san'atga befarq bo'lmagan barchani quvontiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2015 yil 20 noyabrdagi PQ-2435-sonli «Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi, 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-sonli «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 2 fevraldagi «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-112-sonli Qarorlari madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish davlat miqyosida e'tibor qaritilayotganligidan dalolat. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ilgari surgan 5 ta muhim tashabbus bo'yicha olib boriladigan ishlar ko'lami qancha keng ekanligini ko'rsatib turibdi.

Asosiy qism. Milliy cholg'ularimizning ijro uslublari, ko'pgina kuy va qo'shiqlarning bugungi kunga qadar yetib kelishida «ustoz-shogird» an'anasi muxim o'rin egallaydi. Bugungi kunga kelib musiqa sirlari musiqa atab yozilgan darslik, o'quv qo'llanma, nota matnlari asosida bolalar musiqa va san'at maktablari, o'rta va oliy ta'lim muassasalarida o'rgatilib kelinmoqda. Shu bilan birga, umumiy ta'lim muassasalarida ham musiqa madaniyati fan sifatida o'tilib o'quvchi yoshlarga musiqa xususida bilim birib kelinmoqda. Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniyning «Tarbiya qiluvchilar tabib kabi dirlar, tabib xastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, o'qituvchi ham bolani musiqa orqali aqliy rivojiga, diqqat markaziga ta'sir etib, poklik, sadoqat, mehr, kattalarga xurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi» degan fikrlari nechog'lik to'g'ri ekanligi bugungi kunda ham ko'rishimiz mumkin. Shunday mas'uliyatli kasbni egallab o'qituvchi bo'lish niyatida o'qib o'rganayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarimizni bugungi kun talablariga javob bera oladigan kuchli mutaxassis sifatida tayyorlashimiz kerakki ular bitirib, maktablarga borib o'z ish faoliyatlarini boshlaganda oliy ta'lim muassasasida olgan bilimlari ularga as qotsin. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida salohiyatli yetuk professor-o'qituvchilar hamda bilim olish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv rejada kiritilgan fanlar talabalarni bilimini, mahoratini oshirishi, pedagogik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv rejada kiritilgan «Musiqa nazariyasi» fani poydevor vazifasini o'taydigan fanlardan biri hisoblanib, fanni o'zlashtirmay turib musiqadan dars berish mantiqsizlik. Talaba «Musiqaning elementar nazariyasi»da musiqa elementlarini o'rgansa, «Solfedjio»da notalarni to'g'ri kuylashni, «Garmoniya2da ko'p ovozlilik, ohangdoshlikni, «Musiqa asarlari tahlili»da esa, asarlarni tuzilishi va mohiyatini anglab yetadi. «Musiqa tarixi»da musiqa tarixiga oid bilimlarini bilan tanishsa, «O'zbek xalq musiqa ijodi» fanida milliy merosimiz xususida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishadi. «Dirijyorlik asoslari», «Xor va xorshunoslik», «Vokal va zamonaviy musiqa», «An'anaviy xonandalik», «Maqom san'ati», «Fortepiano va qo'shimcha cholg'u», «Cholg'u ansambli», «Maktab repertuari», «Ritmika va xoreografiya asoslari», «Maktabgacha musiqiy-estetik ta'lim nazariyasi va metodikasi», «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi», «Musiqiy-pedagogik mahorat va loyihalash» kabi fanlar borki, bular mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim fanlardan biri sifatida o'z o'miga egadir. Talabalar tanlov fanlari asosida ham o'zlari tanlagan fanlar bo'yicha o'z bilimlarini yanada boyitishi mumkin. Pedagogika universitetlarimizda tahsil olayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarimizning ma'lum qismida musiqa bilimi yuqori darajada emas. Ular oliy ta'lim muassasasiga kirishdan oldin Bolalar musiqa va san'at maktablarida yoki ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida tahsil olmaganligi bois oliy ta'lim muassasalarida o'tiladigan ixtisoslik fanlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shularni inobatiga olib, o'quv rejaning majburiy va tanlov fanlar blokida ixtisoslikka doir bilimlarini oshirishga qaratilgan fanlar ko'lami bilan birga ta'lim sifatiga ham alohida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Yakka dars soatlarini o'z holiga

qaytarib, ansambl tarzida emas yakka tarzda o'tish maqsadga muvofiq. Qo'lida diplomi bo'la turib, eshitib va yoki nota matni asosida cholg'uda kuy, qo'shiq ijro etolmagan mutaxassis bo'lish bu rostmana fojia. Eng yomoni o'sha «mutaxassisga» ta'lim bergan ustozlari hamda ta'lim muassasa xususidagi salbiy fikrlarning uyg'onishi achinarli, albatta. Aslida har bir insonda musiqiy qobiliyat mavjud, faqat uni vaqtida ilg'ay olish, shakllantirish muhim jarayondir.

Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi. Bilimning asosi mutolaadir. Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon bo'ladi [1, 14-b.]. Qobiliyat ta'lim-tarbiya, o'z ustida ishlashi oqibatida o'sib kamol topadi. Musiqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun ham mashg'ulotlardan tashqari mustaqil ravishda shug'ullanib o'z ustida mehnat qilinsa, yuqori natijalarga erishish mumkin.

Xulosa. musiqa davlatni dunyoga tanitishda, yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, dunyoqarashni va ularda estetik didni shakllantirishda muhim vosita sifatida rol o'ynaydi. Shu sabab, musiqa bo'lgan e'tibor u bilan bog'liq fanlarni o'qitish bugungi kunda yangi bosqichga ko'tarilmoqda va bu kelajakda o'z samarasini beradi, albatta.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. - Т., 2000.
2. Шарипова Г., Ходжаева З. Муסיқа ўқитиш методикаси: Дарслик. - Т.: "НИФ МШ" 2020. - 136 б.
3. Асқарова Ф. Муסיқа ва инсон маънавияти. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2000. - 96 б.
4. lex.uz

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

Abdullaeva B.S.
Motivatsiya va o'quv-ilmiy faoliyat motivining psixologik nazariyalari.....3

Ibraymov X.I.
Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimi islohotlari: mavjud muammolar va ularning yechimi.....10

Savarova R.G.
Mutafakkir ajdodlarimiz merosi ta'lim oluvchilarni intellektual ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlantirish manbai.....13

Bulatov S.S.
Yangi O'zbekiston poydevoridagi innovatsiyalar.....19

Tulenova K.J.
Kelajakni ilmiy bilishda ijodning imkoniyatlari.....24

Qobilov Sh.R.
Korrupsiya qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari yaratilishining evolyutsiyasi.....27

Медетова Р.М.
Актуальные задачи по совершенствованию патриотического воспитания студентов.....34

Лагай Е.А.
Обучение лексическим нормам в процессе преподавания студентам-филологам курса «Стилистика русского языка и культура речи».....38

Ibraymov X.Ye.
Masofaviy va aralash malaka oshirish tizimini samarali diversifikatsiyalashda tyutorlik faoliyati muhim omil sifatida.....42

Mamarajabov M.E.
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyrgarligini rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.....45

Voxidova N.X.
Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatiga tayyorgarligini takomillashtirishning innovatsion texnologiyalari.....50

Abduvaliyeva D.M.
Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....54

Murtozayeva M.M.
Ta'limda ekopedagogikani va bo'lajak pedagog kadrlarning ekologik kompetentligini rivojlantirish.....59

Baykunosova G.Y.
Shaxsda havas va eksperimental tadqiq etish usullari.....63

Uzokov A.A.
Теоретическо-практические основы развития социальной активности у студентов допризывной подготовки.....67

Saipova M.L.
Migratsiya qaxl qilgan oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarning hayotiyo maqsadlaridagi ustuvorliklar.....72

Мадьярова С.А.
Студенческое самоуправление как фактор профессионального становления педагога.....76

Землина Б.В.
Интегративные вопросы как учебно-методическое средство развития креативных компетенций учащихся.....80

Umarova N.Sh.
Bolalarni iqtisodiy ijtimoiylashtirishda pedagogik ta'lim klasterlarining roli («Alva» va «Zummer» avlodlar misolida).....85

Masharipova N.R.
Ajdodlarimiz merosi vositasida o'quvchi-yoshlarda ma'naviy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....91

Musaxanova G.M.
Ta'lim jarayonini tashkil qilish va unda mustaqil ta'limning o'rni.....95

Davronova Sh.F.
Ta'lim sifatining tarkibiy qismlari, mezon va ko'rsatkichlari.....98

Клычева З.П.
Общение как необходимое условие формирования и развития личности.....102

Албарова С.С.
Forsayt texnologiyasini ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari.....106

Kayumova M.Sh.
Iqtisodiy ta'limda korporativ madaniyatining asosiy funksiyalarini shakllantirish.....111

Seyfullayev A.S.
O'quvchilarni tarix darslarida imitatsion vaziyatlarda ishlariga o'rgatish imkoniyatlari.....117

Suprayeva A.N.
O'quv mashg'ulotlarida xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS tadqiqotlarini qo'llashning ahamiyati.....121

Jumaniyazova N.X.
Biologiya darslarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv materiallari va texnologiyalaridan o'rinni foydalanish.....126

Qayumova Sh.T.
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishda metodik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....130

Русак И.А.
Информационно-образовательная среда школы как средство формирования гражданской ответственности у учащихся.....134

Qandaharov Q.H.
Talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish: mazmuni, shakllari, metodlari.....139

Samandarov L.Q.
Talabalarning eksperimental kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati.....144

Maxmudova F.H.
Oliy iqtisodiy ta'limda integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy ko'nikmasini tashkil etish zaruriyati.....149

Abdurahmonov Z.B.
Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini raqamlashtirish va uning ahamiyati.....154

Tashmetova Sh.X.
Umumta'lim fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish.....165

Xaydarova M.
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirishning pedagogik asoslari.....168

Quziyev R.B.
Axborot xavfsizligini ta'merlahning ayrim masalalari.....172

Qo'chqorova O.O.
Sharq allomalarining ma'naviy-axloqiy qarashlarida o'smir-qizlar tarbiyasining o'rni.....184

Nizamova M.N.
Mobillikning turlari va talablarda kasbiy mobillikni rivojlantirish.....189

Ibroximov M.A.
Professional ta'lim yo'nalishi talabalarida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning xususiyatlari.....194

Nishonbekova J.O.
To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning musiqiy-estetik kompetentligini shakllantirish.....199

GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR TA'LIMI

Radjapov Sh.Z.
Eshitishda nuqsonli bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashda xarakatli o'yinlarining ijobiy samarasi.....204

Malikova X.I.
Sur'dopedagogik fanlari o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajribalar.....208

Xaydarova O.F.
Kredit-modul ta'lim tizimida mustaqil ishlarining tashkil etishining zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlari.....213

Bakirova X.B.
Bo'lajak muhandislarida leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqar tizimi.....217

Kochkarova D.A.
Структура организаторской культуры в технических вузах как компонент целостной образовательной системы.....221

Bayxanov Sh.B.
Arakining amaliy ingliz tili kersi darslarida ishlatilgan maqol va maqol mashqlarining miqdori va sifat tahlili.....224

Pulatova Z.A.
Ingliz tilini o'qitish jarayonida bo'lajak iqtisodchi talabalarining ijtimoiy faolligini shakllantirishning nazariy masalalari.....228

Ibragimova S.B.
Kredit-modulli tizim asosida talabalarga xorijiy tilni o'qitish.....232

Raxmonqulova D.M.
Oliy harbiy bilim yurti talabalarining xorijiy til darslarida sohaga oid atamalarini o'rganishdagi tajribalar.....237

TABIYI FANLAR TA'LIMI

Иногамова Д.Р.
Использование генетических задач при развитии познавательного интереса учащихся медицинских колледжей к предмету «Медицинская генетика».....241

Aminov I.B., Oqnarzov T.J.
Malaka oshirish tizimida o'qituvchilarni integrativ dasturlardan foydalanib matematik masalalarni yechish axborot kompetentligini shakllantirish.....245

Qurbonazarov I.T.
Bo'lajak fizika o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodologik va pedagogik asoslari.....249

G'ulimov J.
Pedagog kadrlarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish.....253

Xushvaqotov O'F.N.
Академик litseylarda «Qattiq jismlar fizikasi»ga oid tushunchalarini shakllantirish.....258

Erdanayeva Sh.P., Raxmatov U.E.
O'quvchilarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'llashda o'zbek biolog olimlari yutuqlaridan foydalanish.....262

SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI

Norboyev B.D.
Bolalar musiqa va san'at maktablarida dutor sinfi dars jarayonlari.....266

Beknazarov X.Q.
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy kompetentligini rivojlantirishda fanlarning o'rni.....270

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY
NAMED AFTER NIZAMI

PEDAGOGICA

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 5

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ
ПЕДАГОГИКА

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 5

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Mas’ul kotib – R.M.Medetova

Muharrir – D.A.Madjidova, X.M.Tojibayeva

Sahifalovchi – S.Pirmatov

Nashr ko’rsatkichlari:

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2022-yil 10-iyun bosishga ruxsat etildi. 09-buyurtma.

Adadi – 85 nusxa. 9,5 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100¹/₁₆ “Roboto” garniturasida.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.